

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING**  
**KATTAQO'RG'ON FILIALI**

---

**MADATOV ILHOM YUSUP O'G'LI**

## **INKLYUZIV TA'LIM**

### **DARSLIK**

Maktabgacha ta'lismi yo'nalishi hamda  
barcha pedagogik ta'lismi yo'nalishi talabalari uchun

**Taqrizchilar:**

Pedagogika fanlari doktori, dotsent – **Sh.N.Mustafoyev**;  
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent – **M.A.Fayziyev**;  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – **Sh.R.Urakov**.

**M-12**

**Inklyuziv ta'lim.** Darslik / Madatov I.Y.; O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, 2024. – 240 b.

Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjalarda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda maqsadida turli ixtisoslik va yo'naliшlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliy ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'naliшlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar va Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda.

**Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etildi.**

ISBN: 978-9910-928X-X-X

© Madatov I.Y., 2024  
© "BEST-PUBLISH", 2024

**MUNDARIJA**

SO'Z BOSHI .....	6
------------------	---

<b>I BO'LIM.</b>	
<b>INKLYUZIV TA'LIMNING PAYDO BO'LISHI, MAZMUN VA MAHIYATI</b>	
<b>I BOB. INKLYUZIV TA'LIM MAQSADI, VAZIFALARI, MAZMUN VA MOHIYATI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari .....	9
1.2. Inklyuziv ta'lim davr talabi sifatida.....	13
<b>II BOB. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA TARBIYASI, MUAMMOLARI HAQIDAGI QARASHLARI.....</b>	<b>20</b>
2.1. Sharq mutafakkirlari qarashlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni .....	20
2.2. Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichidagi allomalar .....	28
<b>III BOB. TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOM VA MAXSUS TARBIYAGA MUHTOJ YOSHLAR O'ZARO MULOQOTINING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>34</b>
3.1. Ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik tahlili ...	34
3.2. Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan o'quv muassasalarda sog'лом va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar muloqotining perseptiv tomoni .....	39
<b>IV BOB. INKLYUZIV TA'LIMNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	<b>44</b>
4.1. Inson va uning qadri borasidagi xalqaro doirada dastlabki hujjatlarning ishlab chiqilishi .....	44
4.2. Dunyo hamjamiyatida inklyuziv ta'lim .....	46
<b>V BOB. INKLYUZIV TA'LIMGA KIRITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI</b>	<b>55</b>
5.1. Inklyuziv ta'lim tizimi asosiy tamoyillari haqida .....	55
5.2. Inklyuziv ta'limni o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar .....	59
<b>VI BOB. MAXSUS TA'LIMGA MUHTOJ BOLALARGA INTEGRASIYALASHGAN TA'LIM SHAROITLARIDA YORDAM KO'RSATISHNING G'ARBIY YEVROPA TAJRIBASI .....</b>	<b>61</b>
6.1. Inklyuziv ta'lim borasidagi xalqaro hamjamiyatda dastlabki ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi .....	61
6.2. Sharqiy Yevropa mamalakatlarida inklyuziv ta'lim .....	65
6.3. Markaziy Yevropa mamalakatlarida inklyuziv ta'lim .....	70

<b>VII BOB. MARKAZIY OSIYO MINTAKALARI, SHARQIY, JANUBIY VA MDX DAVLATLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY ETILISHI .....</b>	<b>85</b>
7.1. Sharqiylarida inklyuziv ta'limgan joriy etilishi .....	85
7.2. MDH davlatlarida inklyuziv ta'limgan mukofotlari .....	87
<b>VIII BOB. O'ZBEKİSTAN RESPUBLİKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY VA ME'YORIY, HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	<b>94</b>
8.1. Mamlakatimizda inklyuziv ijtimoiy munosabatlarni shakillanishi .....	94
<b>II BO'LIM.</b>	
<b>TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH</b>	
<b>I BOB. INKLYUZIV TA'LIM MAQSAD VA VAZIFALARINI OSHIRISHDA RESURS O'QITUVCHINING O'RNI VA ROLI .....</b>	<b>110</b>
1.1. Resurs o'qituvchining vazifalari .....	110
1.2. Umumta'limgan maktablarida inklyuziv ta'limgan mukofotlari .....	113
<b>II BOB. OILADA INKLYUZIV TA'LIM-TARBİYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>117</b>
2.1. Oila – sharqona ta'limgan tarbiya o'chog'i .....	117
2.2. Oilada ruhiy holat va tarbiya .....	121
<b>III BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMMING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>129</b>
3.1. Maktabgacha ta'limgan tashkilotlarda inklyuziv ta'limgan mukofotlari .....	129
3.2. Inklyuziv ta'limgan psixologik qo'llab-quvvatlash .....	132
<b>IV BOB. INKLYUZIV TA'LIMDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANТИRISH OMILLARI .....</b>	<b>140</b>
4.1. Maktabgacha yoshdagilari bolalar rivojlanishining asosiy omillari .....	140
4.2. Bolalarda ijodkorlikni rivojlanтиrish orqali maktabga tayyorlash .....	143
<b>V BOB. PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI VA OLIV O'QUV YURTЛАRIDA INKLYUZIV TA'LIM .....</b>	<b>148</b>
5.1. Inklyuziv ta'limgan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasi .....	148
5.2. Oliy ta'limgan muassasalarida inklyuziv ta'limgan rivojlanтиrish: muammo va yechimlar .....	152
<b>VI BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKИOTLARIDA INNOVATSION INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH .....</b>	<b>162</b>
6.1. Innovatsion inklyuziv ta'limgan mohiyati .....	162

6.2. Maktabgacha ta'limgan mukofotlari .....	167
<b>VII BOB. INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY QILISH BO'YICHA DASTLABKI TAJRIBA VA SINOV ISHLARI .....</b>	<b>171</b>
7.1. Dastlabki tajriba inklyuziv maktablarini tashkil etilishi .....	171
7.2. Inklyuziv maktablarda olib boriluvchi mashg'ulotlar .....	175
7.3. Jamiatga bolani integratsiya qilishning bosqichlari .....	182
<b>VIII BOB. INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH UCHUN ZARUR BO'LGAN TASHKILIY VA USLUBIY ISHLAR .....</b>	<b>186</b>
8.1. Inklyuziv ta'limgan amaliyotga joriy qilish .....	186
8.2. Inklyuziv ta'limgan tashkil etish shakllari va ta'limgan uchun zaruriy shart-sharoitlar .....	188
8.3. Jamiatni inklyuziv ta'limgan tayyorlash va ijtimoiy munosabatni uygotish va amalga oshirish .....	194
<b>IX BOB. INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI .....</b>	<b>197</b>
9.1. Inklyuziv maktablarda inklyuziv o'qituvchilar muammosi .....	197
9.2. Ijtimoiy pedagog — ijtimoiy xodim vazifalari .....	201
<b>X BOB. MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR UMUMTA'LIM SHAROITIDA O'QITISHDA O'QUV TARBIYA JARAYONINI MOSLASHTIRISH METODLARI .....</b>	<b>204</b>
10.1. Umumta'limgan sharoitida o'qitishda o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish .....	204
<b>XI BOB. INKLYUZIV TA'LIM OLDIDA TURGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI .....</b>	<b>211</b>
11.1. Inklyuziv ijtimoiy siyosat sohasidagi ayrim muammolar .....	211
11.2. Inklyuziv ta'limgan muammolar .....	214
<b>XII BOB. INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI .....</b>	<b>219</b>
12.1. Ta'limgan tizimida inklyuziv ta'limgan samaradorligini oshirishning O'zbekiston va xorijiy ta'limgan tajribasi .....	219
<b>XULOSA .....</b>	<b>228</b>
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>232</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>236</b>

## SO'Z BOSHI

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida inson manfaatlari ustu vorlik berilgan bo'lib, yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoxda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, professional va oliv ta'lim sohasidagi islohotlarni alohida e'tirof etish lozim.

Yosh avlodga sifatli ta'lim berish masalasi hozirgi kunda mamlakatimizning «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilga asoslangan strategiyasida ham muhim siyosiy komponentlar qatoriga kiritilgan. Prezident Sh.Mirziyoyev inson qadri tushunchasini izohlar ekan, «Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz»<sup>1</sup> deb ta'kidlaydi.

Prezidentimiz tomonidan 2023 yilni “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deb e'lon qilinishini alohida e'tirof etish lozim. Chunki ta'limning sifati va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan zanjirli bog'lanishga ega, ya'ni sifatli ta'lim olish yo'lga qo'yilsa, bilimli, raqobatbardosh, zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlar yetishib chiqadi, bunday kadrlar esa kasbiy va boshqaruv faoliyatida oqilona qarorlar qabul qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Bugungi ta'lim tizimi yoshlarni, kelajagimizning munosib vorislari sifatida tayyorlashni bosh maqsad qilib olgan. Bunda sog'lom yoshlar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xilda ta'lim berishga qaratilgan inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2020-yil 23-sentyabr

kuni O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” Qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta'lim ta'lim olish shakli sifatida belgilandi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir.

Respublikamizda inklyuziv ta'limni takomillashtirish masalasi hukumatimizning ko'plab hujjalarda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida, ma'ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o'zining munosib aksini topgan. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish hamda maqsadida turli ixtisoslik va yo'naliishlardagi bosma va audiokitoblarga bo'lgan ehtiyoj har olti oyda o'rganilib, shu asosda adabiyotlar ro'yxati shakllantirib borish, oliv ta'lim muassasalarining tegishli ixtisoslik va yo'naliishlari bo'yicha fanlardan audiomateriallar va Brayl alifbosi asosidagi adabiyotlarni chop etish tizimi yo'lga qo'yish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilmoqda.

Lekin bu borada yetarlicha kamchiliklar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida bu boradagi asosiy muammolar qayd etilgan:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // «Xalq so'zi» gazetasи, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018)

farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalg qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

pedagogika yo'nalishidagi OTMlar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalg qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyor-garlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarning yechimi bevosita oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuzim ta'limning pedagogik psixologik qonuniyatları, inklyuziv ta'limning mazmuni va tamoyillariga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish zaruriyatiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini hamda bo'lajak o'qituvchilar uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantrishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini joriy qilish hamda ularning didaktik va metodik ta'minotini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan qaralgan mazkur darslik bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashda muhim didaktik vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

## **I BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNING PAYDO BO'LISHI, MAZMUN VA MAHIYATI**

---

### **I BOB. INKLYUZIV TA'LIM MAQSADI, VAZIFALARI, MAZMUN VA MOHIYATI**

#### **1.1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari**

Inklyuziv ta'lim faoliyati dasturi maxsus ehtiyojlar ta'limi butunjahon konferensiyasida qabul qilindi. Konferensiya UNESCO hamkorligida Ispaniyada 1994 yil 7-10 iyunda o'tkazildi. Uning maqsadi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, milliy yordam uyushmalari, nodavlat tashkilotlar va boshqa bo'limlarni maxsus ehtiyojlar ta'limi amaliyoti, islohoti va tamoyillari bo'yicha Salamanka bayonotini hayotga tatbiq etishning islohotlari va faoliyatları bilan tanishtirishdir. Dastur konferensiya qatnashayotgan davlatlar tajribalari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa davlat tashkilotlari chop etgan qo'lyozmalar, maslahatlar hamda turli masalalar yechimlari, ayniqsa, maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar imkoniyatlarini barqarorlashtirish bo'yicha standart qoidalar asosida ishlab chiqilgan. Har bir bolaning ta'lim olish huquqi butunjahon «Inson huquqlari» deklarasiyasida qabul qilingan va butunjahon «Ta'lim barcha uchun» deklarasiyasida qayta qat'iy qayd etilgan. Agar talab etilsa, har bir maxsus tarbiyaga muhtoj shaxs o'z xohishini o'zlashtirgan ta'limiga asosan bildirish huquqiga ega.

Ota-onalar bolalarining xohishi, holati, ehtiyojlariga mos keluvchi ta'lim shaklini tanlash bo'yicha maslahatlar olish huquqiga

egadirlar. Inklyuziv ta’lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashgan va sharoitga qarab o‘zgaruvchan, g‘amxo‘rlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me’yorda rivojlangan bolalar o‘quv muassasalarida amalgalashish, nuqsonidan kelib chiqqan holda ma’lum, u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo‘lsa, dastur va rejani qisman o‘zgartirish lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola uyiga yaqin, o‘ziga qulay ommaviy bog‘cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalgalashish, Har bir maktabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bo‘lib, u guruh tarbiyachisiga maslahatlar beradi va ko‘maklashadi: maxsus o‘qitish uskunalarini, jihozlari bilan ta’minkaydi; ota-onalar, o‘qituvchilar bilan tushuntirish ishlari o‘tkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bo‘lsa, o‘zgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o‘qituvchilarning malakasini oshiradi, bilim mahoratini boyitadi; sog‘liqni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muhitni yaratadi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani oddiy bog‘cha yoki maktabga joylashtirish integrasiya yo‘lidagi birinchi qadamdir. Ta’lim integrasiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integrasiyada maxsus tarbiyaga muhtoj va sog‘lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirishlozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bo‘lim tashkil etilishi mumkin. Funksional integrasiyada maxsus tarbiyaga muhtoj va sog‘lom bola orasidagi funksional tafovut imkon qadar bartaraf etilishi kerak. Buning uchun alohida yordamga muhtoj bolalarni musiqa, san’at, dramatik to‘garak va sportga jalb etish foydalidir. Ijtimoiy integrasiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, maxsus tarbiyaga muhtoj va me’yorda rivojlangan bolalarni o‘zaro do’stlashishga, bir-biriga hurmat bilan qarashga undaydi. Me’yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bo‘lishga o‘rgatadi. Jamiyat maxsus tarbiyaga muhtoj kishilarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kerak. Konstitusiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham taalluqli. Har qanday ta’lim integrasiyasi inklyuziv ta’lim sifatini oshiradi.

Inklyuziv ta’lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi. Alohida yordmga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta’lim tizimida, birinchi navbatda, bolaning talablari o‘rganiladi. Ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari kuzatiladi. Ushbu ta’lim tizimida ma’lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikasiya, kompensasiya, adaptasiya, reabilitasiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan; yura olmasa – maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasi bilan ta’minkaydi, qo‘lida oddiy qoshiqni ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta’minkaydi zarur. Maktabda ta’lim olish jarayonining ma’lum bir paytida ko‘pgina bolalarda o‘rganishda qiyinchiliklar bo‘ladi va shu davrda ular maxsus ta’limga muhtoj bo‘lishadi. Maktablar barcha bolalarga samarali ta’lim berish yo‘llarini izlab topishi kerak. Shu jumladan, imkoniyatlari cheklangan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga hozirda paydo bo‘layotgan kelishuvlarga asosan maxsus ta’limni umumiyl tartibda rejaga kiritish kerak. Bu inklyuziv ta’lim konsepsiyasining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Inklyuziv ta’limda eng katta muammo barcha bolalarni samarali o‘qitishga qodir, bolalarga asoslangan, shu bilan birga, jiddiy afzalliklardan mahrum bolalar pedagogikasining «o‘qitish uslubiyotini» shakllantirishdan iboratdir.

Integrasiyalashgan – mujassam, ajratib bo‘lmaydigan qism degan ma’noni bildiradi. Har bir bola ta’limga jalb etilishi lozim. Integrasiyalashgan jamiyatda barcha teng huquqga ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta’lim tufayli jamiyat integrasiyalashgan jamiyatga aylanadi. Maxsus ehtiyojlar ta’limi barcha bolalar uchun foydali bo‘lgan samarali pedagogika tamoyillarini targ‘ib etadi. Insonlarning turli xilda bo‘lishi normal holat deb qabul qilingan va o‘rganish jarayonining tabiatini va bosqichlaridan kelib chiqib, bola mazkur jarayon talablariga emas, balki ushbu jarayon bola talablariga moslashtirilishi kerak. Bolaga asoslangan pedagogika barcha o‘quvchilar uchun foydali, shu jumladan, jamiyatga ham foydalidir. Orttirilgan malakalar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta darajada yuqori muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini ta’minkaydi orqali ta’lim tizimida maktabni tashlab ketish va qayta topshirishlarni

kamaytirish mumkin. Bolaga asoslangan pedagogikaresurslarini (manbalarini) isrof qilmaslik, sifatsiz ta’lim va «barcha uchun bir xil o‘lcham» mentaliteti natijasi bo‘lishi umidsizlikka uchrashning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, imkoniyati cheklangan bolalarga asoslangan ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim uni tashkil qilish mumkin bo‘lgan tamoyillar asosida olib boriladi.

Inklyuziv ta’lim texnologiyasining faoliyat dasturi bir qancha faktorlarga bog‘liq bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim olish maxsus ehtiyojli bolalar va kuzatuvchilar o‘rtasida barqarorlikka erishishning eng samarali omilidir. Bolalarni maxsus mакtablarga yoki mavjud maktab bazasidagi maxsus sinflarga yoki bo‘limlarga biriktirish bundan mustasno. Oddiy sinfda ta’lim olish bolaning ta’lim yoki ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olmasa, uning o‘ziga yo boshqa bolalarning manfaatini ko‘zlagan holatlarda inklyuziv ta’limni amalga oshirish mumkin. Inklyuziv maktabni tashkil qilishning asosiy maqsadi bo‘lgan ta’lim islohotining negizi bu tamoyillar hisoblanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta’lim muassasalarida qondirib bo‘lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta’lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta’lim maktablarining katta bo‘lmagan qismi sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta’lim tizimda o‘qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga **moslashib ketishlarini** qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o‘z **oиласидан узоқда** bo‘lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar **boqimandalikka** o‘rganib qoladilar, o‘z-o‘ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar **ta’limdan chetda**

**qolib** ketmokdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumta’lim tizimida ta’lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta’lim siyosati amalga oshirilmokda.

## 1.2. Inklyuziv ta’lim davr talabi sifatida

Biroq inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. **«Inklyuziv» va «integrasiyalashgan»** atamalari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlataladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Maxsus tarbiyaga muhtoj bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir. Integrasiyalashgan ta’lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integrasiyalashgan ta’limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta’lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integrasiya. Integrasiyaning bu shakli maxsus tarbiyaga muhtoj va maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funksional integrasiya. Bu shakl maxsus tarbiyaga muhtoj va maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integrasiya. Integrasiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u maxsus tarbiyaga muhtoj hamda maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani qo‘llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integrasiya qilish kabilar. Integrasilashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: Umumta’lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo‘lmaydi. Umumta’lim maktab pedagogi maxsus mayetodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan

bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi. Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi. Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun mutaxassislar bo'limganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi.

Inklyuziv ta'lim tizimi integrasilashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Inklyuziv ta'lim bu -davlat siyosati bo'lib, maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiyl baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'lining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham mumiy ta'lim jarayoniga kushish mumkin. Inklyuziv ta'limda, ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar xar xil sharoitda o'qiydi , rivojlanadi, ma'lumotni xar xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular xar bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muxitini yaratib berishga qaratilgan.

Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlash. «Moslashtirish» deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemalol borib kelishi, balki shu

qatnashdan kandaydir foyda olishi va optimal o'quv rejasining mavjudligidir. Maktab muxiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida xar bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

«Inklyuziv ta'lim» o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- inklyuziv va integrasiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;

- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni xal etish yo'llarini izlab topish;

- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish;

- inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini taxlil qilish; ish tajribalarini taxlil qilish kabilardan iborat. Shu maqsadni amalgaloshirish uchun biz tadqiqotimizning maqsadini va ustivor vazifalarini belgilab oldik.

- jamiyatda maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimini yo'nga qo'yish va ularga yordam berishdan iborat.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'l mish farzandlarni mas'ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullabyashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga "O'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'li bilan tobora ko'proq tanilayotgan O'zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro

tashkiloti Konvensiya tizimiga o‘zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g‘oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog‘lommi yoki maxsus tarbiyaga muhtojmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilinga ehtiyoj bor.

***Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qibiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta’limtizimi inklyuziv ta’lim deyiladi.***

Inklyuziv ta’lim maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta’lim mакtablarini maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

### *1.3. Bola huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiya*

Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o‘quv rejaliyi tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog‘liq tomonlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu jumladan, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni ham o‘zlarini xohlagan maktabda o‘qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo‘l qo‘yilgan xatolar sababchi bo‘lgan. Demak, uning o‘qishi uchun ham shu jamiyatning o‘zi jon kuydirishi shart. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- **mos keluvchi;**
- **rivojlantiruvchi;**
- **inklyuziv;**

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli.

Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada ko‘rsatilgan: “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o‘stirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak”. 2-va 28-moddalar inklyuziv ta’limga tegishli bo‘lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta’lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo‘yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o‘qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta’limda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bunday ta’lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish malakalarini yaratadilar;
  - ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o‘quv materiallarini o‘zlashtiradilar;
  - tengqurlari bilan turli o‘yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
  - jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o‘yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtini kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo‘lishlari mumkin;
  - do‘stona muhitda do‘st orttiradilar;
  - turli ko‘ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.
- Boshqa bolalar esa;
  - do‘stona muhitni yaratadilar;
  - maxsus ehtiyojli bolalarga g‘amho‘rlik qiladilar, ularni turli o‘yinlarga jalb qiladilar;
    - sind tadbirlarida ishtirok etadilar;
    - tozalik va ozodalikni ta’minlaydilar;
    - jamoa oldida ma’suliyat hissini rivojlantiradilar;
    - didaktik va o‘yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
    - o‘qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o‘rgatadilar;
    - har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
    - har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
    - ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
    - ota-onalarga amaliy yordam ko‘rsatadilar;

- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; *inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi.* Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, mакtab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omillardandir.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rinn tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'litiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiyonalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham , eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariiga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. "Bolalarni qutqaring" (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta'limdagи asosiy to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va mакtablarga

qо'yadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qо'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallalarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag' masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag'allik (5), sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (6), kamsitish (7), qaramlilik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday taqsimlash mumkin (sxemaga qarang).

Bir qancha davlatlar tajribasi, jumladan, Norin (Qирғизистон) va Qо'qon shaxarlaridagi inklyuziv ta'lim loyihasining tajribasi maxsus ehtiyojli bolalarni sog'lom tengqurlari bilan birgalikda o'quv-tarbiya ishlarida har tomonlama faol ishtirok etishlari mumkinligini tasdiqladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari nimalardan iboratligini aytib bering
2. Integratsiya shakillari haqida gapirib bering
3. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya haqida nimalarni bilib oldingiz
4. «Inklyuziv» va «integrasiyalashgan» atamalarning mohiyati haqida so'zlab bering

## **II BOB. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA TARBIYASI, MUAMMOLARI HAQIDAGI QARASHLARI**

### **2.1. Sharq mutafakkirlari qarashlarining bola ta'lim-tarbiyasidagi o'rni**

Darhaqiqat, farzandlarimizni tabiatdan, borliqdan baha oladigan, jamiyatga foyda keltiradigan, xalqiga xizmat qiladigan diyonatli inson etib tarbiyalashimiz kelajakda uning komil inson bo'lib ulg'ayishiga zamin bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg'ayib, komil inson bo'lishlari uchun davlatimizda barcha zarur moddiy va ma'naviy sharoitlar muhayyo qilinyapti, o'quv ta'lim maskanlari, barpo etilgan sport inshootlari, dam olish va istirohat bog'ları yoshlar ixtiyorida. Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berilgan. Sharq allomalari, olimu mutafakkirlar qadimdan adab ilmini chuqur o'rganib, rivojlantirib kelganlar. Ayniqsa, har taraflama go'zal odobli, yaxshi xulqli va hayoli bo'lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada ulkan o'zgarishlar sababchisidir. Hadis- larda, ulug'larning o'gitlarida inson ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o'z ifodasini topgan. Farzand – hayotimizning bezagi, oilamiz- ning quvonchu shodligidir. Farzand tabiatning ulug' ne'mati- dir. Har ne'matning shukri – uning go'zal tarbiyasida. Hadisi sharifda aytishicha: Har bir tug'ilgan chaqaloq to tili dildagini gapira olguncha, dunyo borlig'i bilan tug'ilgan bo'ladi. Har qaysi inson o'z farzandining yaxshi, barkamol nasl bo'lib yetishishini orzu qiladi. Katta bo'lgach, jamiyatdan o'ziga munosib o'rin egallab, Vataniga sodiq, elu xalqining xizma- tiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo'lishini niyat qiladi. Har bir insonning o'zигагина xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida buyuk sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib ham o'z

zamona- larida fikrlarini alohida qayd etib o'tganlar. Masalan: Yusuf Xos Hojibning «O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa buyuklik bo'lar», Mirzo Ulug'bekning «Ishga yarab qolsa ilming bir muddat, yana oshirmoqqa aylagil shiddat», A.Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» degan dono o'gitlarini misol keltirish mumkin. Bola shaxsini tarbiya- lash uchun, dastavval, uning «betakror olamiga» kira olish va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzish va qo'llamoq lozim. Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobjiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm- fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi. Uningcha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislat- lari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi. Inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Dunyo yaralgandan buyon va inson unda paydo bo'lgandan boshlab, tabiatga moslashishi, ta'lim-tarbiyasi to'g'risida turlicha qarashlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, bu borada Sharq allomalarining qarashlari va xulosalari alohida o'rin turadi. Ularni shartli ravishda davrlarga ajratish mumkin. Zardushtiylikning muqaddas kitobi – «Avesto»da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotin- ning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir», – deb yozilgan. Bu kitobda ko'rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo'lgani ma'qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo'lgan. Eng ahamiyatli jihat shundaki, unda er-xotinning o'zaro sodiq, g'amxo'r, mehribon

bo‘lishlari lozimligi va ayolning haq-huquqini himoya qilish o‘sha davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilganligi ma’lumdir. Umuman olganda, Zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeini mustahkamlash uchun azal davrlardanoq zamin yaratilganligini kuzatamiz.

**Imom Buxoriy** (810–870) «Hadis ilmida amir al- mo‘miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan buyuk allo- madir. Uning rivoyatlari oilada farzand ta’lim-tarbiyasi, oila hayoti va jamiyat manfaati uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiya farzand dunyoga kelgan kundan boshlanadi. Kichik yoshdagi har bir bola o‘z hayotida uchraydigan voqeа va hodisa- larni sinchkovlik bilan kuzatib boradi. U kattalarga taqlid qilib, har qanday xatti-harakatni o‘zi ham bir sinab ko‘rishga intiladi. Ana shuning uchun ham har bir ota-onadan namunali hayot kechirib, farzandlariga har taraflama o‘rnak va ibrat bo‘lishlari talab etiladi.

**Abu Iso Muhammad at-Termizi**y (824–892). O‘z davrining yetuk muhaddis (hadis ilmi) olimi sifatida tanilgan Abu Iso Muhammad at-Termizi (824–892) qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Olimning «Al-jomi» («Ja’mlovchi») asari asarlarining ichida eng mashhuri bo‘lib, hadislar to‘plamidan biridir. At-Termizi: «Bir kishining o‘z farzandiga tarbiya berishi har kuni sadaqa berishidan ko‘ra xayrliroqdir», – deydi va bu o‘giti bilan oilada bola tarbiyasi eng savobli ish ekanligini ta’kidlaydi. Alloma «Al-jomi» asarida Payg‘ambarimiz bola-chaqasiga qarovchisi bo‘lmanan inson jangga bormoqchi bo‘lganida: «Farzandlaring oldiga qayt, zero, ularning tarbiyasi bundan- da savobliroqdir» degan hadislari o‘rin olgan. Yana bir hadislarida: «Bir ota o‘z farzandlariga go‘zal odobdan a’loraq narsa in’om eta olmaydi»1, – deb ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, ota-onal nafaqat so‘zi, balki xatti-harakati bilan ham farzandlariga o‘rnak bo‘ladi, unga ustozlik qiladi. Bola vaqtini kim bilan ko‘proq birga o‘tkazsa, o‘sha odamdan ko‘proq ta’sirlanadi va ibrat oladi. O‘sha odamning axloqini o‘zlashtiradi, undagi ong va tushunchani o‘zi uchun hayot shioriga aylantiradi. Farzand tarbiyasi ota va onaning eng asosiy vazifasidir. Ularning har bir xatti-harakati,

aytgan so‘zi bolaning tarbiyasiga ta’sir etadi. Chunki bola oilasida ko‘rgan va eshitgan har bir voqeа va hodisani o‘z ongiga muhrlab oladi. Jumladan, bir ota va uning farzandi orasida hayoti davomida qurilgan munosabat haqida misol keltirib, uni tahlil etsak. Oilada farzand dunyoga keladi, lekin farzand dunyoga kelgach, ota qatnashishi shart bo‘lgan majlislar va amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar bilan band bo‘ladi, ishlaridan bo‘shay olmaydi. Kunlar o‘tib, birinchi qadam bosganda, ish safari bilan boshqa davlatda, tili chiqqanida malaka oshirish uchun o‘qishda bo‘ladi. Yillar o‘tib biroz ulg‘aygach, bola dadasiga: «Dadajon, men sizga o‘xshagim keladi», – deydi. Ba’zan bola otasining ishxonasiga qo‘ng‘iroq qilib: «Dada, uyga qachon qaytasiz?» – deb so‘rardi. «Qachon qaytishimni bilmayman, o‘g‘lim. Lekin borganimda, albatta, vaqtimizni birga o‘tkazamiz, menga ishon» deb, otasi bolani ishontirar edi. Yillar shu zayl o‘taverdi. O‘g‘il 10 yoshga to‘ldi. Dadasi unga ajoyib koptok sovg‘a qildi. «Koptok uchun rahmat, dadajon! Keling, birga o‘ynaymiz», – dedi o‘g‘il. Dadasi esa unga javoban: «Shu hafta ichida bitirishim kerak bo‘lgan ishlarim bor, o‘g‘lim. Bugun ilojim yo‘q, lekin boshqa kuni albatta o‘ynaymiz, xo‘p- mi?» – dedi. Oradan yana yillar o‘tdi. O‘g‘il avval boshlang‘ich maktabni, so‘ng liseyni, undan keyin esa universitetni bitirdi. Boshqa otalar kabi otaning o‘z o‘g‘liga aytadigan bir necha gaplari bor edi: «Sen bilan faxrlanaman, o‘g‘lim! Kel buyoqqa, senga aytadigan bir-ikki og‘iz gapim bor», – dedi. O‘g‘il esa boshini qimirlatib: «Do‘sstarimga so‘z bergenman, ketishim kerak, dada. Mashinangizning kalitini menga berib turing, iltimos. Keyin gaplashamiz, xo‘pmi?» – dedi. Hayot shu zaylda davom etaverardi. Ota nafaqaga chiqdi, endi bo‘sh vaqt ko‘p edi. O‘g‘li esa boshqa shahardan yaxshi ish topgan, o‘sha yerda yashar edi. Bir kuni otasi unga qo‘ng‘iroq qildi: «O‘g‘lim, agar vaqting bo‘lsa dam olish kunlari kel, bir gaplashib olar edik», – dedi. «Yaxshi bo‘lardi, dada. Ko‘ramiz, bo‘sh vaqt topolsam, boraman. Lekin oxirgi paytlar ishlarim juda ko‘p. Siz bilan ko‘rishishni men ham juda istardim», – dedi o‘g‘il. «Yaxshi, unda qachon kelasan, o‘g‘lim?» O‘g‘il: «Qachon borishimni bilmayman, dada. Lekin hozir muhim uchrashuvim bor. Sizga keyin qo‘ng‘iroq qilaman. Ammo boshqa

kun, albatta, vaqtimizni birga o‘tkazamiz, menga ishoning», – dedi. Ota parishonxotir go‘sakni qo‘ydi. Ota-o‘g‘il orasidagi bunday munosabatdan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘g‘il ibrat olgan otasiga o‘xshagan, uning ulg‘ayib otasi kabi bo‘lish orzusi ro‘yobga chiqqan edi.

**Abu Nasr Forobiy** (873–950) jahon madaniyatiga katta hissa qo‘sigan olim. Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib «Al-Muallim as-soniy» – «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastus» deb yuritilgan. Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilim-larining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun asarlarini 2 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) Yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlagan asarlari; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlari. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she’riyat kabi ilmlar fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan.<sup>1</sup> Siyosat, axloq, odob, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o‘rgatadi. Abu Nasr Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql masalasini chuqur talqin qilgan. U aql bir tomonidan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomonidan, tashqi ta’sir – ta’lim-tarbiyaning nati-jasi ekanligini uqtiradi.

**Abu Rayhon Beruniy** (973–1048). O‘rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniyning ta’lim-tarbiya maqsadi, vazifalari va mavqeい, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonpar-varlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi. Beruniy ta’lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o‘qitish tabiatga uyg‘unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo‘lgan. Uning

ko‘pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o‘z ifodasini topgan. Mutafakkir o‘zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O‘tgan avlodlar obidalari» nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go‘zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta’rif bergen. U bunday yozadi: «Inson jamiyatda o‘z qarindosh-urug‘lari bilan birlashib olishga majburdir. Bundan maqsad bir-birini qo‘llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o‘zini, ham boshqalarni ta’minalash uchun ishlarini bajarishidir».<sup>1</sup> Bolaning ijtimoiylashuvi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, zakovatining shakllanishi, jamiyatda boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lar ekan u qo‘llaydigan til, madaniyati, oilada ota-onaning farzandlari bilan bo‘lgan muomalasi, qarindoshlari bilan bo‘lgan munosabati, asosida yuz beradi.

**Abu Ali ibn Sino** (980–1037). O‘rta asrda yashab ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sinoning inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. U yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang‘ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olgandan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san’atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga tavsiya qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ham ahamiyatga ega».<sup>1</sup> Shuningdek, quyidagi fikrlari ham e’tiborga loyiqidir: «Yosh bola ta’lim-tarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turish-turmushi namunali bolalar bo‘lishi lozim. Zero, yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o‘rganadi va ular bilan do‘st bo‘ladi» Darhaqiqat, tarbiya farzand dunyoga kelgan kundan boshlanadi. Bola maktabga borgunicha unga podshohona munosabatda bo‘ladilar, ya’ni risoladagi barcha iltimoslari so‘zsiz bajariladi, sho‘xlik va erkaliklaridan qaytarilmaydi. Shundan so‘ng asta-sekin unga tushuntirish, kattalarning o‘zi ibrat bo‘lishi orqali tarbiya

beriladi. Bu tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Aqliy tarbiyasini o'nglash uchun unga turli kitoblar o'qib beriladi, rivoyat va ibratlari hikoyatlar so'zlanadi yoki aql-zakovatini o'stiradigan o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilinadi va hayotga bo'lgan qiziqishini rivojlantirib borish lozim bo'ladi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirishlar olib borish lozim. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror-bir foydali mehnatga jalb qilish, an'anaviy sport o'yinlari bilan shug'ullanish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg'ulotlarni o'rgatish mumkin. O'smirlilik davrigacha qattiq intizom bilan berilgan topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish, xulosa chiqarish, bajarilmagan vazifalari va noqobil amallari uchun zarurat bo'lganda chora-tadbir belgilash zarur bo'ladi. O'spirinlik davrida esa bolasini ota-onsa o'z do'sti kabi tutib, har bir qilinishi lozim bo'lgan amal uchun maslahatlashib, berilgan topshiriqning oqibatini nazorat qilib borishi tarbiyada yaxshi yutuqlarga olib keladi. Farzandning otasi haqidagi fikrlari turli yoshda har xil bo'larkan: besh yoshda: «Otam hamma narsani biladilar». O'n yoshda: «Otam ko'p narsani biladilar». O'n besh yoshda: «Men ham otamchalik bilaman». Yigirma yoshda: «To'g'risini aytsam, otam hech narsani bilmaydilar». O'ttiz yoshda : «Har holda otam anchamuncha narsani biladilar». Oltmis yoshda: «Qaniydi, otam tirik bo'lganlarida, ular bilan maslahatlashgan bo'lar edim». Bolalar bilan murosa va munosabatlarda ularning bu kayfiyatini ham inobatga olish kerak bo'ladi.1 Farzand- larimizning ilmiy saviyalari, kasb-hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham ko'payib borishi zarur. Yosh avlodning ta'lim va tarbiysi to'g'risida g'amxo'rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchi hisoblanadi. Lekin hamma ota-onaning ham o'z farzandlariga mehr-oqibati va tarbiyaviy munosabati bir xil bo'lavermas ekan. Ayrimlar bola tarbiysi xususida juda beparvolik qilishadi. Ular uchun bu dunyoda faqat o'z shaxsiy yumushlari, moddiy mablag' toplash yo'lidagi tashvishlari birinchi o'rindagi vazifa, oila a'zolarining axloqiy tarbiysi bilan shug'ullanish esa ikkinchi darajali ish ko'rindi.

Keyingi vaqtda, afsuski, bolalarda hasad, ko'rolmaslik va birovga nisbatan dushmanlik hissini tuyish kabi yomon tuyg'ular shakllanayapti. Bunda esa katta aybdor ota-onalar hisoblanadi. Ota-onalar farzand- lari bilan muomala qilishda adolatli bo'lmasliklari, birini boshqasidan, o'g'illarni qizlardan yoki aksinchasi, ajratmasliklari kerak. Sovg'a berishda, mehribonchilik ko'rsatishda, erkalash va iltimoslarini bajarishda barcha farzandlarni teng ko'rish lozim. Chunki ular orasida sovg'a-salomda tenglik yo'qolsa yoki birini koyib, ikkinchisini maqtab erkalatsa, aka-uka yoki opasingillar orasida bir-biriga hasad qilish va ko'rolmaslik kelib chiqadi. Tarbiya berishda shoshqaloqlik yaramaydi. Masalan, yosh niholni parvarishlab, hosilga kiri- tish uchun bir necha yil kutish kerak bo'lganiday, bitta bolani komil inson sifatida tarbiyalash uchun ko'p yillar kerak bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ota-onadan va murabbiy ustozlardan uzoq vaqt chidam, bardosh, sabr va fidoiylik bilan ish olib borishni talab etadi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beradi. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola tengqurlari qatori o'qishga, ta'lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda kasb-hunar o'rganishga, ilm olishga qiziqish boshqalarga nisbatan kuchlilagini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikrlari hozirgi maxsus ta'lim amaliyoti va nazariyasiga har tomonlama mos keladi. Oilada biror nuqsoni bor farzand dunyoga kelsa, butun oilaning hayoti, psixik holati, tashqi muhit bilan aloqasi o'zgaradi. Ota-onsa bola hayotidagi ilk tarbiyachilardir. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, bolaning ijtimoiy, emosional, xulqiy va boshqa sifatlarining shakllanishiga birinchi poydevordir. Shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida oilaning rolini hech bir ijtimoiy faoliyat bilan taqqoslab bo'lmaydi. Demak, ota-onalar har tomonlama ma'naviy yetuk inson bo'lishi lozim. Oiladagi bir kishida yuz bergen jismoniy yoki ruhiy o'zgarish boshqalarga ham ta'sir o'tkazadi. Shuni ta'kidlash lozimki, psixologik jihatdan xotirjam oilada tarbiyalanayotgan alohida yordamga muhtoj bolaning jamoaga moslashib ketishi oson bo'ladi.

## 2.2. Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichidagi allomalar

**Yusuf Xos Hojib.** XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» – «Saodatga eltuvchi bilim» asarida o‘zining etika va hayotga oid qarashlarini bayon etgan. Shoirning fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir. Ularsiz hayotning ma’nosи yo‘q. Lekin bu narsa ota- onaga juda katta mas’uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham oilaviy ta’lim-tarbiyani Yusuf Xos Hojib bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: «Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb otasida». Yana uningcha: «Yaxshi axloqiy fazilatlarga ega kishi – har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir».1 Adib eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg‘u bilig» asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, choratadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir qimmatli ma’naviy manbadir.

**Imom G‘azzoliy** (1058–1111). Ta’lim-tarbiya borasida Imom G‘azzoliy, asosan, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi haqida to‘xtalar ekan: «Yoshlar tilla taqinchoq va turli zebu ziynat taqmasliklari lozim. Ular o‘tirish, turish, salom berish odoblariga rioya etishlari, o‘zlaridan kattalar huzurida oyoqlarini chalishtirib o‘tirmasliklari, sergap va so‘kuvchi bo‘imasliklari, behayo so‘zlarni aytmasliklari, xususan, yomon xulqli tengdoshlariga aralashishdan ehtiyyot bo‘lishlari kerak», – deydi.1 Uning yana «Ihyou ulumud-din» kitobida bunday deyiladi: «Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, uning ustida o‘saveradi, dunyo va oxiratda saodatl bo‘ladi, ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya bergenlar barchasi savobiga sherik bo‘lishadi. Agar yomonlikka undalsa va

hayvon kabi bo‘sh qo‘yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo‘ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi».2 Bola, eng avvalo, ota- onasining birgalikda tinch-totuv yashashlarini, bir-biriga baqirib janjal qilmasdan, farzandlarini sevib ardoqlashishlarini xohlaydi. Janjallashayotgan ota-onasini ko‘rgan bola bir burchakka borib yig‘laydi, ruhan eziladi. Bunday holat borib-borib bolada aybdorlik hissini hosil qilib, ruhiy holatning buzilishiga sabab bo‘ladi. Ota-onasidan kaltak yegan, xo‘rlik ko‘rgan yoki oilasida shafqatsizlik muhiti hukm surgan bolalarning maktab yoki ijtimoiy hayotlariga nazar tashlaganimizda, muammolarni janjal yo‘li bilan hal qilishga harakat qilayotganlariga va har qanday sharoitda arzimas hodisani ham janjalga aylantirganliklariga guvoh bo‘ldik. Ya’ni janjalkash bolalarning oilaviy hayotlariga nazar tashlansa, oilalarda notinchlik hukm surayotganligi ma’lum bo‘ladi. Ish faoliyatimda bir o‘quvchi haddan ziyod janjalkash bo‘lganligi, darslarda tinch o‘tira olmasligi, tanaffus bo‘ldi deguncha, biror-bir sinfdoshini urib yig‘latardi. Bola bilan suhbatlashganimda, agar u bolalarni urmasa, uni urishlari mumkinligini aytib qoldi. Ota-onasi bilan munosabati haqida gapirganda esa, otasining o‘z bolalarini tez-tez kaltaklab turishi, arzimas sho‘xliklari uchun dakki yeishini aytdi. Muammosi bo‘lgan bolalarning oilalaridagi shart-sharoitlar o‘rganilganida, ko‘pchilik oilalarda ota-onalar orasidagi munosabatlarda muammolar borligi aniqlandi. Fiziologik kamchilik hisoblanmagan, lekin psixologik muammo sifatida baholanishi kerak bo‘lgan holatlar oilasida muammo bo‘lgan bolalar yoki o‘smirlarda ko‘proq kuzatiladi. Yolg‘on gapirishdan o‘g‘rilikkacha, nutqiy nuqsonlardan tagini ho‘l qilishgacha, maktabdagi muvaffaqiyat- sizlikdan uydan qochishgacha bo‘lgan noxush holatlarni kelti- rib chiqargan bolalarga e’tibor qaratganimizda, ularning oilalarida muammo yoki oila a’zolari bilan munosabatlarida buzilishlar mavjudligi ko‘rindi. Oilada janjal-to‘polonli vaziyat yuzaga kelganda, bolalar buning guvohi bo‘ladilar, bun- day ruhiy jarohat tufayli kattalarga nisbatan ko‘proq qayg‘u- radilar. Janjallarning oqibatlarini uzoq vaqt xayollaridan chiqara olmaydilar, hatto butun umr buning ta’sirini sezib turadilar.

**Bahovuddin Naqshband** (1318–1389). Tabarruk yurtdoshimiz Hazrati Bahovuddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya ta’limoti Markaziy Osiyo, O’rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy hayotida juda katta o‘rin egalladi. Uning «Dil ba yoru dast ba kor», ya’ni «Doimo ko‘ngling yaratganda bo‘lsin, qo‘ling esa ishda» aqidasi poklik, to‘g‘rilik, mehr-shavqat, adlu insof, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg‘or umumbashariy fikrlar qatori davrimizga hamohang bo‘lib, kelajak uchun xizmat qilib kelmoqda.

**Abdurahmon Jomiy** (1414–1492). Abdurahmon Jomiy-ning «Bahoriston», «Xirandhomai Iskandar», «Tuhfatul afkor» va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlar ifodalangan. Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda hadislarda: «Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga kasb-hunarni o‘rgatinglar»,<sup>1</sup> – deyilgan.

**Alisher Navoiy** (1441–1501). Hazrati Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniyy», «Mahbub ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma’naviyati, o‘zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida yosh avlodning barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffat-liligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikrmulohazalar alohida o‘rin egallaydi. Alisher Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat’iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg‘ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Alisher Navoiy bu dunyoda ilm-hunarsiz, odob va tarbiya olmasdan o‘tishni quyidagi misralar vositasida ta’riflaydi:

*Kamol et kasbkim, olam uyidin,  
Senga farz o ‘lmaq ‘ay g ‘amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o ‘tmak biaynih  
Erur hammomdin nopol chiqmoq.*

Ota-onalar o‘z farzandlarini tarbiyalayotganlarida e’tibor berishlari kerak bo‘lgan yana bir muhim masala ota-onaning birdamligidir. Ta’lim va tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ana shu xususiyatlarga e’tibor berilishi natijasida amalga oshadi. Ota-ona birdamligidan tashqari, farzandlarni o‘z hayot tajribalariga tayangan holda tushunishlari va shunga ko‘ra munosabatda o‘rnak bo‘lishlari muhim.

**Ahmad Donish** (1827–1897). XIX asrning o‘rtalarida yashab ijod etgan, dono fikrlari bilan nom qozongan mutafakkir, ma’rifatparvar shoir Ahmad Donish falsafa, tarix, falakiyat, riyoziyot, adabiyot, xattotlik masalalariga bag‘ishlangan asarlar yozgan. Olim «Navodir ul-vaqoye» kitobida o‘zining turli masalalarga munosabatini ifodalagan. Ahmad Donish o‘z asarida bunday deb yozgan: «Biz bu dunyoni gullab-yashnatishimiz, dengizlarni o‘rganish, yer osti boyliklarini topish, uning hamma qit’alari, hayvonot dunyosi va davlatlar aholisini bilish uchun tug‘ilganmiz». Xuddi shu asarda quyidagi fikrlar yoritilgan: «Agar kishi tavakkalchi bo‘lmasa, mehnat qilmasa va qiyinchilikda, kambag‘allik bilan hayot kechirish yoki mo‘l-ko‘llikda yashash qismatda bor ekan, deb tan olmasa, u xato qiladi. Demak, u aqli emas», – deydi.

**Abdulla Avloniyning** (1878–1934) ham oila pedagogikasi va psixologik fikrlari diqqatga sazovordir. Abdulla Avloniy: «Tarbiya—«Pedagogiya», ya’ni bola tarbiyasining fani», – deb ta’kidlaydi. Shoир bolani tarbiya qiluvchilar tabib kabitdir, tabib kasalning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudiga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik degan davoni ustidan berib, katta qilmoq lozim deydi. Bolaning mukammal tarbiyasi nafaqat oilaga, balki maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog‘liqligini e’tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ta’sir kuchiga ega. Bolaning shaxs sifatlariga to‘xtalib, unda oilaning rolini ko‘rsatar ekan: «Qush uyasida ko‘rganini qiladur», – deydi. Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal

xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul baxtiyor bir inson bo‘lub chiqar...» Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo‘yadi: «... tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda qilinur? degan savol tug‘iladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – bu ona vazifasidir. Ikkinchisi maktab va madrasa tarbiyasi bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir»,<sup>3</sup> – deyilgan.

**Avaz O‘tar** (1884–1919) mumtoz adabiyotimizda g‘azal, muxamma, mustazod, musamman, murabba’, mulamma’, tarje’band, soqiyonna, ruboii, qit’a, fard kabi janrlarda ijod etgan shoirdir. U o‘zining qisqa umri davomida she’rlarini bir joyga to‘plab devon tartib qildi va ularni «Saodat ul-iqbol» (Baxtli iqbol) deb nomladi. Uning mакtab va til o‘rganish haqidagi she’rlari juda mashhurdir. Ilmsiz insonni mevasiz daraxtga o‘xshatish mumkin. Chun- ki ilmsiz kishilarning ota-onasiga, qarindoshlariga, do’stligiga, jamiyatga, yurtiga nafi tegmaydi. Ta’lim-tarbiya ko‘rib, ilm olgan olim, komil insonlar har yerda aziz va hurmatli- dirlar hamda jamiyatning madaniyatiga, ma’rifat dunyosiga, ma’naviyatning yuksalishiga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

**Allomalarining ta’lim-tarbiya haqida yaratgan ilmiy asarlari** Azal-azaldan Sharq (O‘rta Osiyo, Turkiston) madaniyati qator iqtidorli olimlarni tarbiyalab yetishtirdi. Ular esa jahon xalqlarining umumiy madaniy rivojlanishiga juda katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatdilar. Sharqda yashab o‘tgan olim, mutafakkir, allomalar tomonidan yaratilgan va meros qilib qoldirilgan noyob asarlar hamda o‘gtillardan foydalanib, ta’lim-tarbiyaning yangi bosqich va davrlarda rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish mumkin (3.1-jadval). Ularning yillar va davrlar kesimidagi bog‘liqligi (3.3-rasm) diagrammasini ko‘rsatish mumkin. Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilani, oilaviy tarbiyani yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida tarbiyaning o‘rniga, ota-ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berishgan. Ular 100 faqat oilaviy tarbiyadagina rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar: halollik, poklik, mardlik, so‘zamollik, mehribon- lik, haqgo‘ylik kabi qator

fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo‘yishlari bilan birga, kishidagi insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etishi kabi qimmatli fikrlarini, bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarini o‘z falsafiy – etik, sosiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

### Nazorat uchun savollar

1. Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasiga qo‘sghan hissalari haqida mulohaza yuriting.
2. “Naqshbandiya” ta’limotining tarbiyaga yo‘nalganligi to‘g‘risida gapiring.
3. Komil inson qiyofasini A. Navoiy qanday tasvirlagan.
4. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”- “ Saodatga eltuvchi bilim” asarining mohiyati haqida so‘zlab bering.

### **III BOB. TA'LIM MUASSASALARIDA SOG'LOM VA MAXSUS TARBIYAGA MUHTOJ YOSHLAR O'ZARO MULOQOTINING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Ta'lismuassasalarida inklyuziv ta'larning pedagogik-psixologik tahlili**

Butun jahondagi ehtiyoj va ta'minot o'rtaqidagi bog'liq-sizlik maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga ta'limga berish strategiyasini qo'llab-quvvatlash g'oyasining ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, pullik maxsus maktablar va markazlar hamma holatda ham ularni ajratishni tezlashtiradi, lekin maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning trening va ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Oddiy maktablar ko'proq ahamiyat kasb etishi kerak. Ular maqsadli o'qitish dasturlarini qaytdan tuzishlari lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni o'z ichiga oluvchi va turli xildagi o'quvchilarning talabini qondiruvchi inklyuziv yondashuvni qabul qilishlari zarur. Inklyuziv ta'limga yondashuvni qabul qilishlari zarur. Inklyuziv ta'limga yondashuvni qabul qilishlari zarur. Inklyuziv ta'limga yondashuvni qabul qilishlari zarur. Inklyuziv ta'limga yondashuvni qabul qilishlari zarur.

Rivojlanib borayotgan tizim uchun inklyuziv maktablar qo'shimcha tanlanishi kerak bo'lgan imkoniyat emas, balki majburiydir. Buning natijasida oddiy sinf xonasi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ta'limi uchun birinchi imkoniyatga aylanadi. Og'ir va murakkab qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga ba'zi hollarda boshqa turdag'i markazlar yoki oddiy maktab ichida maxsus bo'lim kabi dasturlar qo'llanishi mumkin. Sinf xonasi ehtiyojni qondira olmagunga qadar, bu qo'shimcha imkoniyatdan foydalanish tavsiya etilmaydi. Yuqorida tilga olingan strategiyaning sog'liqni saqlash xizmati bilan o'xshashlik tomonlari bor. Kasallarning ko'pchiligiga ularning uyalarida yoki yaqin oradagi klinikalarda xizmat ko'rsatiladi. Ba'zilariga shifoxonadan joy beriladi. Ularning juda oz

qismi maxsus tibbiy yordam bo'limida davolanadi. Odatda, biz burnimiz oqsa, shifokorga murojaat qilmaymiz. Shunga o'xshash, ko'pgina maxsus ta'limga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini oddiy maktabning o'zida ham qondirsa bo'ladi.

#### **Inklyuziv ta'limga tizimi**

**3.1-jadval**

An'anaviy yondashuv	Inklyuziv yondashuv
• Ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi.	• Ta'limga barcha uchun
• O'zgarmas	• Moslashuvchan
• Jamoaviy o'qitish	• Individual o'qitish
• Ajratilgan muhitda	• Integrasiya muhitida

Ularning juda oz qismiga maxsus maktablarda mutaxassis-sislar tomonidan zarur yordamlar ko'rsatiladi. Berilayotgan ta'limga, albatta, bolaning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Shu yo'llor qimmatbaho va eshitmaydigan mutaxassis xizmatlari zarur holatlar uchun saqlab qo'yiladi. Ushbu yangi yo'nalishlarga bog'liq holda, maxsus maktablar keng sur'atda resurs markazlariga aylana boshladи. Ular o'zlarining yuksak tajriba va bilimlarini qo'llay oladigan keng ko'lamdag'i dasturlarda qatnasha boshlashdi va faoliyatlarini oddiy maktablar, oilalar hamda jamiyat bilan bog'lagan holda olib borishadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarning yo'naltirilgan ta'limga va umumiy ta'limga ikkita turli xildagi masala deb qaramaslik kerak. Oldingi ta'limga umumiy ta'limga rejasining qismi va qolipi vazifasini o'tashi kerak. Hozirda biz ta'limga ta'minotini maxsus ta'limga muhtoj bolalarga yetkazib berilyapti va bu bilan ta'limga barchaga inklyuziv ta'limga tamoyilini qonun yoki islohot deb qabul qilib, maqsadimizga erisha olamiz. Inklyuziv ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga muassasasiga jalb qilinishi muhim hisoblanadi.

Respublikamizda ayni vaqtida aralash inklyuziv ta'limga ixtisoslashgan guruh va sinflarda imkoniyati cheklangan 3000 ga yaqin bolalar tahsil olmoqda. Loyiha ilk yo'lda qo'yilgan 2007-yilda ularning soni 47 nafar edi. Bu imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari ushbu maktablarga qatnayotgan o'quvchilarning

erishayotgan yutuqlarini ko'rib, o'z farzandlarini ham shunday məktəb va bolalar bog'chalariga olib kelishni afzal ko'rishayotganidan dalolat beradi. Inklyuziv ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarını tashkillashtirish va ularga fundamental, haqiqiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Maxsus ta'lim ehtiyojlarining kiritilishini shunday o'zgarish desa bo'ladi. Bolaning maxsus ta'limga ehtiyoji bor deyish, ta'lim sohasidagi maqsadlariga yetishishi uchun aniq, qisqa va uzoq muddatli pedagogik-psixologik yordam va xizmatlarga muhtoj demakdir. Ta'lim muassasalari turli toifadagi o'quvchilarga xizmat qilishi kerak. Bunga ko'ra, maxsus ta'lim sinf xonalari va o'qituvchi haqiqiy ta'lim ba'zasiga, məktəb rahbari ehtiyojlarni qondiruvchi shaxsga aylanishi kerak. Javobgarlik sinf o'qituvchisidan olib, boshqa mutaxassislarga berib qo'yilmas- ligi kerak. Buning o'rniga, ular ikkalasi uyushgan holda o'zaro ish olib borishlari lozim. Bu kabi rivojlanishga butun ta'lim muassasalari islohotlaridagi izlanishlar sifatida qaralishi kerak.

Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi paytda oddiy məktəb tizimiga qabul qilinmayapti. Bu holat maxsus ta'limga muhtoj bolalarning talablariga javob berolmaydi. Shu bois ham, bu sohaga o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Shu sababli integrasiyaga məktəb islohoti sifatida qaralishi zarur. Uning maqsadi mavjud aniq dasturlar doirasida barchaga ta'lim beruvchi məktəb tizimini yaratishdan iborat bo'lmos'h'i lozim. Hozirgi vaqtida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish darajasi yildan-yilga oshib borilayotganligi keljakda aniq dastur asosida məktəb tizimini yaratishga zamin bo'ladi. Ta'lim xizmatlarini rejalashtirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tarbiyaga muhtoj odamlar borasida ish yurituvchi jahon dasturi qo'llanmasi doirasida faoliyat yuritish tavsiya etiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti taklifi bilan maxsus tarbiyaga muhtoj odamlarga teng imkoniyatlar belgilovchi standart qoidalarga to'ldirish kiritilgan (Qoida N.6, II ilova).<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar imkoniyatlarini barqarorlashtirish to'g'risidagi standart qoidalari buni shunday izohlaydi: «Hukumatning məktəb va jamiyat miqqosida tushunarli va qabul qilingan aniq islohoti

bo'lishi kerak...» (N6.6-Qoida). BMTga a'zo 120 ta mamlakat maxsus tarbiyaga muhtoj odamlarga boshqalar bilan teng ta'lim olish imkoniyatlarini beruvchi huquqlarni tan oluvchi siyosiy qonunlar yuritishi kerak. Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxsning ta'limi iloji boricha umumiyl məktəb tizimida olib borilishi kerak. Ta'limtarbiya organlari va majburiy ta'lim to'g'risi- dagi qonunlar javobgarlikni o'z bo'yinlariga olgan holda, turli darajadagi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning holatlarini inobatga olib, majburiy ta'limga kiritishi shart.

Barcha bolalarning boshlang'ich ta'limdagı ehtiyojlarini qondirish zaruriyati ta'lim barchaga inklyuziv məktəbi doirasida maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun oddiy məktəb tizimida ta'lim olishning yangi imkoniyatlarini ochadi. Ta'limni rejalashtiruvchilar umumiyl qabul qilingan 10% ko'rsatkichni turli zarur muammolarni hal qilish va maxsus diqqat-e'tiborga muhtoj bolalarga yordam berish uchun asos qilib olishlari mumkin. Maxsus diqqat-e'tibor deganda, maxsus tarbiyaga muhtojligi og'ir bolalarga xizmatlar ko'rsatish, uni oldindan aniqlash, yordamni to'g'ri tashkil qilish, o'rta va yengil qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga kerakli yordamlar berish zarur bo'ladi. Maxsus tarbiyaga muhtojlik darajasi o'ta og'ir bolalarning soni kam va maxsus tarbiyaga muhtojlikning og'irlik darajasi proporsional ravishda kamayib boradi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarning 80% ga oddiy məktəbda kerakli o'zgartirishlar kiritish orqali va maxsus ehtiyojlar ta'limining boshlang'ich treninglaridan o'tgan oddiy məktəb o'qituvchilari yordamida ko'mak berish mumkin. O'rtacha darajadagi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga oddiy sinf xonalari yoki maxsus guruhi yoki bo'limlarda chuqurlashtirilgan yordamlar ko'rsatish orqali ko'mak berish mumkin. Ular ko'proq malakali o'qituvchilarga muhtojdirlar. Ular 5% dan kamroqni tashkil qiluvchi og'ir maxsus tarbiyaga muhtoj o'quvchilardir. Masalan, umuman ko'zi ko'rmaydigan va eshitmaydigan, maxsus muloqot qilish malakalari va alohida tayyorlov dasturlari texnikalarini o'zlashtirgan o'qituvchilarga muhtojdirlar. Inklyuziv ta'limga urg'u berish maxsus məktəblar va markazlarni chetga surish degani emas. Ulardan maxsus ko'makka muhtoj bolalarga yordam ko'rsatishdagi

maxsuslashtirilgan va chuqurlashtirilgan xizmatlarning asosiy qismi sifatida mavjud bo‘lib qolish talab etiladi. Talab qilinayotgan xizmatni belgilashda asosiy nuqtai nazar ayni bir bolaga qanday ko‘mak eng to‘g‘ri yordam bo‘lishiga qaratilishi lozim. Ko‘pgina mamlakatlarda maxsus maktablar hali ham an‘anaviy ta’lim berish o‘chog‘i bo‘lib kelmoqda. Maxsus maktablar va markazlarning tajribalari har tomonlama yuqoridir. O‘zimizning bilim va tajribalarimizni ular orqali shakllantiramiz. Ular hukumat, jamiyat va ota-onalarga, maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslarga qanchalik ko‘p yordam berilsa, ular shunchalik imkoniyat va bilimlarga ega bo‘lishlarini ko‘rsatib kelishgan. Hozir ham bunday majmualar ko‘plab dasturlar uchun resurs markazlari, ichki trening bo‘lib, oilalarga va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga yordam berish, oddiy maktablarda maxsus ta’limga muhtoj bolalarga ta’lim berish kabi xizmatlarni ko‘rsatishda katta o‘rinni egallab kelmoqda. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim muassasalariga kelishi va unda ta’lim olishi, kasb-hunar egallahsga yo‘naltirilishi yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Ma’lumotlarga e’tibor beriladigan bo‘lsa, shaharlar kesimida bu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish mumkin.

Mavjud maxsus maktablarga ajratilayotgan investisiyalar ularning yangi maqsadlari, oddiy maktablarda maxsus ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishiga qaratilgan vazifalarga sarflanishi kerak. Maxsus maktablari kam yoki umuman yo‘q mamlakatlar inklyuziv maktablar ochish va maxsus xizmatlarni ko‘rsatish borasidagi harakatlariga kerakli maslahatlarni olishlari mumkin, ayniqsa, maxsus ehtiyojlar ta’limida o‘qituvchilar tayyorlashni amalga oshirish va kerakli jamoani tuzish, ularga ko‘plab bolalar va yoshlarga xizmat ko‘rsatishida kerak bo‘ladigan jihozlangan resurs maktablarini tashkil etish lozim. Inklyuziv ta’limda yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar, yoshlar uchun istiqbolli dasturlarda aniq aks etishi lozim. Maxsus ta’limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlar qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiylar maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi darkor hamda ularning bilim

olishlarini ta’minlashi kerak. Maxsus ehtiyojlar ta’limi umumiy ta’lim tizimining bir qismidir. U jamiyat va mutaxassislar salohiyati, ularning munosabatlari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va o‘qitish, o‘qituvchilar va maktab faoliyati borasidagi savollar bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Ta’limni rivojlantirish uchun umumiy ta’lim tizimiga tarkibiy o‘zgartirishlar kiritish muhimdir. An‘anaviy ta’lim va maxsus ta’lim o‘rtasidagi to‘siglar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta’lim oddiy ta’limning bir qismi bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining o‘quvchilari, o‘qituvchilari, boshqaruva jamoasi va ta’minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta’lim tizimi amalda qo‘llanib kelinmoqda. Barcha o‘quvchilarning talablariga javob beruvchi inklyuziv maktabda bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta’lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ular pedagogik amaliyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqara olmaydi. Shu sababdan ta’lim samarali bo‘lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi hamda ta’lim tizimi boshqaruvchilari va uni amalda qo‘llovchilar tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Hukumat miyyosida qabul qilingan islohotlarning muhimligi ularning ta’lim masalalarini yetarli darajada hal qilishida emas. Masalan, qaytarzda o‘qitish, balki ular sababli yuzaga kelayotgan munozaralarning tabiatini va ta’lim tizimining boshqa bo‘limlarida yuritilayotgan siyosatning muhimligidadir.

### **3.2. Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan o‘quv muassasalarda sog‘lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar muloqotining perseptiv tomoni**

Muloqot jarayonida bolalarning o‘rtasida bir-birini tushunish, bir-biriga yordam berish, hurmat qilish kabi xislatlari ochib beriladi. Masalan, bolalar o‘zaro bir-birini turlicha talqin qilishi mumkin: o‘zaro ta’sirga kirishuvchi sherigining maqsadi, orzulari va holatini tushunishi yoki nafaqat tushunishi, balki qabul qilishi ham ehtimoldan holi emas. Biroq ikkala holda ham kishining kishi tomonidan idrok etilish jarayoni muloqotning majburiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Idrok etish.** Muloqotga xos ushbu tomonning mazmunini o‘chib berishdan avval, qo‘llanilayotgan atamalarni aniqlab olish lozim. Ko‘pincha kishining kishi tomonidan idrok etilishi “ijtimoiy persepsiya” sifatida qaraladi. “Ijtimoiy persepsiya” atamasi birinchi marta 1947-yilda **Dj.Bruner** tomonidan idrokka yangicha nigoh (New Loor) sifatida qo‘llanilgan.

**Ijtimoiy persepsiya** deganda, ijtimoiy obyektlar – boshqa odamlar, ijtimoiy guruuhlar katta ijtimoiy birlashmalarining idrok qilish jarayoni tushunila boshlandi. Ijtimoiy psixologik adabiyotlarda ushbu atama aynan mana shu mazmunda qo‘llaniladi. Shu tufayli insonning inson tomonidan idrok etilishi ijtimoiy persepsiya sohasiga tegishli bo‘lgani bilan uni to‘la qamrab olmaydi. Ijtimoiy persepsiya jarayonlarini to‘la hajmda tasavvur qiladigan bo‘lsak, murakkab va ko‘p tarmoqli sxema yuzaga keladi. U nafaqat obyekt, balki idrok subyektining ham turli variantlarini o‘z ichiga oladi. Idrok subyekti sifatida individ tushuniladigan bo‘lsa, unda u o‘z guruhiga taalluqli bo‘lgan boshqa individni, “begona” guruhni idrok etishi mumkin. **G.M.Andreyeva** fikricha, umuman ijtimoiy persepsiya haqida emas, balki shaxslararo persepsiya yoki shaxslararo idrok haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Rus psixolog **A.A.Bodalyov**, o‘z tadqiqotlarida “boshqa kishini idrok etish” sinonimi sifatida “boshqa kishini anglash” ifodasini qo‘llaydi. Atamani bunday keng ma’noda tushunish boshqa odamni idrok qilishning o‘ziga xos tomonlari bilan bog‘liq. Chunki boshqa kishini idrok etish bolaning jismoniy holatlarini emas, xulq-atvorini o‘rganib uni tavsiflashni bildiradi. Muloqot jarayonida inson shaxs sifatida namoyon bo‘lganligi sababli boshqa inson, muloqotdagi sherigi tomonidan ham shaxs sifatida idrok etiladi. **S.L.Rubinshteynning** ta’kidlashicha, xulq-atvorning tashqi ko‘rinishi asosida biz go‘yoki boshqa kishini “o‘qiyimiz”, uning xulq-atvori mazmunini tushunamiz. Bunda yuzaga keladigan taassurotlar muloqot jarayonida boshqaruvchilik jarayonini bajaradi.

**Birinchidan**, boshqa kishini bilishga harakat qilish jarayonida shu individning o‘zi shakllanadi.

**Ikkinchidan**, u bilan birgalikda qilinadigan harakatlarni tashkil etish muvaffaqiyati boshqa kishini “o‘qish”ning aniqligiga bog‘liq bo‘ladi. Inson haqidagi tasavvurlarning hosil bo‘lishi o‘z-

o‘zini anglash darajasi bilan uzviy bog‘langan. Bunda ikki yoqlama aloqani ko‘rish mumkin: *bir tomon dan*, o‘zi haqidagi tasavvurlarning boyligi boshqa kishi haqidagi tasavvurlarning boyligini belgilasa, *ikkinchi tomon dan*, boshqa kishi o‘zini qanchalik namoyon qilsa, insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari ham shunchalik to‘liq bo‘ladi. **A.V.Petrovskiy** fikriga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari o‘z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga, his-tuyg‘ularini, xulq-atvorining sabablarini, ahamiyatga molik obyektlarga nisbatan munosabatlarini fahmlab yetishga harakat qiladilar. Boshqa kishining ichki dunyosini qayta tiklash juda murakkab jarayon bo‘lib, subyektga boshqa odamlarining faqat tashqi qiyofasi, ularning fe’l-atvori va xatti-harakatlari ular qo‘llaydigan kommunikativ vositalargina bevosita namoyon etiladi va u ana shu ma’lumotlarga tayangan holda subyekt o‘zi bilan muloqotga kirishgan odamlarning kimligini tushunib yetish, ularning qobiliyatlari, o‘y-fikrlari, niyatlari va shu kabilar haqida xulosa qila olish uchun muayyan ishni bajarishga to‘g‘ri keladi.

**S.A.Rubinshteyn** shunday deb yozgan edi: “Kundalik hayotda, odamlar bilan munosabatga kirishar ekanniz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo‘ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma’lumotlari mohiyatini go‘yo “uqib”, ya’ni “mag‘zini chaqib” olamiz va shu yo‘sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihatni mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz”. Bunday “o‘qish” naridan beri, tez yuz beradi. Chunki, tevarak-atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe’l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma’no hosil bo‘ladi. Muloqot jarayonida kam deganda ikki kishi jalb etilgan bo‘ladi va ularning har biri faol subyekt hisoblanadi. Shunday ekan, o‘zini boshqa kishi bilan taqqoslash ikki tomonдан amalga oshiriladi: sheriklardan biri o‘zini ikkinchisiga aynanlashtiradi, o‘zini unga o‘xshatadi. Demak, o‘zaro ta’sir strategiyasini qurishda muloqot ishtirokchilarining har biri nafaqat sheriklarning ehtiyojlarini hisobga olishlari, balki ularni qanday tushunishlarini bilishlari ham muhimdir. Bularning barchasi shunday xulosaga olib keladiki, o‘zini anglash boshqa kishi orqali tahlil qilish identifikasiya va refleksiyani o‘z ichiga oladi.

**“Identifikasiya”** atamasi o‘zini boshqa kishiga o‘xshatish ma’nosini anglatadi. Identifikasiya – bu kishining o‘zini kishiga, guruhga, namunaga o‘xshatishdir. Identifikasiya boshqa kishilarning his-tuyg‘ularini, kechinmalarini tushunishga yordam beradi. Inson o‘zaro birgalikda harakat vaziyatlarida boshqa kishini o‘zining o‘rniga qo‘yib ko‘rishga uringan holda, uning ichki holati, niyatlar, o‘y-fikrlari, mayllari va his-tuyg‘ulari haqida taxmin qiladi. Bu o‘zaro bir-birini tushunishga erishishning yagona usuli bo‘lmasa-da, real vaziyatlarda o‘zaro ta’sir jarayonida kishilar bu usuldan foydalanadilar. Bunda identifikasiya boshqa kishini anglash va tushunishning mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Identifikasiya jarayoni va uning muloqotdagi rolini aniqlashga bag‘ishlangan eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar natijasida indentifikasiya bilan uning mazmuniga yaqin bo‘lgan empatiya o‘rtasida uzviy aloqa mayjudligi aniqlangan.

**Empatiya** ham boshqa kishini tushunish usullaridan biri sifatida qaraladi. Faqat bu yerda boshqa kishiga tegishli bo‘lgan muammolarni ratsional tarzda fikrlash emas, ko‘proq uning muammolariga emotsiyal hamardlik bildirish ko‘zda tutiladi. Demak, empatiya boshqa kishini chuqur idrok etishdir. Ammo subyektga munosabat boshqa kishini faqat undan o‘zini chetlashtirgan holda, tashqaridan turib tushunish emas, balki o‘zi bilan muloqotga kirishgan individning uni qanday qabul qilishi, uning o‘zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir. Subyektning u bilan munosabatga kirishgan shergi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishi, degan ma’noni bildiradi. Shunday qilib, kishining kishi tomonidan idrok etilishini ko‘zgudagi qo‘shaloq aksga o‘xshatish mumkin. Kishi boshqa birovni o‘ziga idrok etar ekan, o‘sha kishi qiyofasida o‘zini ham aks ettiradi.

**Refleksiya** identifikasiyaga o‘xshab, boshqa kishining ichki holatiga kira olish, uning niyatlar, motiv, fikr, hissiyotlarini bila olishga imkon beruvchi mexanizm hisoblanadi. Kundalik hayotimizda identifikasiya va refleksiya ongsizlik darajasida amalga oshiriladi. Inson boshqa kishiga o‘zining motiv va xulq-atvorini ko‘chirish mumkin. Bu holda xatoga yo‘l qo‘yish, ya’ni boshqa kishini ortiqcha

baholash yoki yetarlicha baho bermaslik ham mumkin. Agar har bir kishi o‘zi munosabatga erishgan odamlar to‘g‘risida doim to‘liq, ilmiy asoslangan axborotga ega bo‘lganida ular bilan bo‘ladigan o‘zaro harakat taktikasini bexato va uni aniq axborotga ega bo‘lavermaydi, bu esa ularning qilgan ishlari va xatti-harakatlarining sabablarini, his-tuyg‘ularini, niyatlarini, o‘y-fikrlarni va xulq-atvor motivlarini boshqa kishiga to‘nkash yo‘li bilan tushuntiradi. Bu ijtimoiy psixologiyada kauzal atrabatsiya deb ataladi.

**Kauzal atrabatsiya** ko‘pincha anglanilmagan holda yo boshqa kishiga o‘xshatish negizida, ya’ni subyektning o‘zi xuddi shunday vaziyatda u payqashi mumkin, deb hisoblaydigan motivlar yoki his-tuyg‘ularining boshqa birovga xosligi ta’kidalangan paytda, muloqotga kirishgan sherikni o‘zlariga nisbatan ba’zi bir qolipdagi tasavvurlar hosil bo‘ladigan shaxslarning muayyan toifasiga kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘zaro bir-birini tushunish mexanizmlaridan yana biri - stereotiplashtirish.

**Steriotiplashtirish** xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularning sabablarini avval ma’lum bo‘lgan, ya’ni ijtimoiy stereotipga javob beruvchi holatlarga kiritish orqali tahlil qilishdir. Bu stereotip - inson tamg‘a (shtamp) sifatida foydalanadigan obraz. Stereotiplashtirish shaxslararo idrok subyektining shaxsiy tajribasini umumlashtirish natijasi sifatida shakllanishi mumkin. Demak, shaxslararo persepsiya jarayoni murakkab tabiatga ega bo‘lib, kishi kishi tomonidan idrok etishning aniqligi muammoсини sinchiklab tadqiq qilishini taqozo eta

### Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan o‘quv muassasalarda sog‘lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar muloqotining perceptiv tomoni haqida gapiring.
2. Ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik tahlili nimalardan iborat.
3. Identifikasiya va refleksiya atamalariga izoh bering.
4. Ijtimoiy persepsiya atamasini izohlang.

## **IV BOB. INKLYUZIV TA'LIMNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI**

### **4.1. Inson va uning qadri borasidagi xalqaro doirada dastlabki hujjatlarning ishlab chiqilishi**

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni me'yorida rivojlangan bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlaydi. BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi»da «Ta'lim olish xar bir insonning asosiya va ajralmas xuquqi» ekanligi alohida e'tirof etilgan. «Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi» barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu deklarasiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi. Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash massadida BMT 1975-yilda «Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar xuquqlari tug'risida»gi Deklarasiyani qabul qildi.

Mazkur deklarasiyada ta'kidlanishicha: «Maxsus tarbiyaga muhtojlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqlari ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Maxsus tarbiyaga muhtojlikning kelib chiqishi, tabiat va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega» («Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Deklarasiya, 3-modda). Xuddi shunday bolalar huquqlarini muhofaza qilish masalasida BMT 1989-yilda «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyani qabul qildi. «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya bolalar huquqlarini hamma joyda himoyalash massadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnomasi hisoblanadi.

U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikasiya qilingan. Konvensiyani ratifikasiya qilgan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmalariga «Bolalar huquqlari to'grisidagi Konvensiya»

qidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar. «Bolalar huquqlari to'grisidagi Konvensiya» kompleks va ko'p qirrali xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta'min etadigan yagona konvensiyadir. Bu Konvensiya qat'iy faoliyat ko'rsatadi.

Barcha xukumatlarni hamma bolalarning huquqlarini ximoya etish uchun sa'y-xarakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek, bu konvensiya yaxlidir, chunki unda ta'kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-birlariga bog'liq va tengdir. «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» barcha bolalarning huquqarini ximoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida «Bolalar, ularning ota-onalari, boqvuchilarining irqlari, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog'ligi, qanday xolatda tug'ilganliklari va boshqa holatlaridan qatiy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasligi kerak», deb qatiy belgilab qo'yilgan.

Demak, bu Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun xam tegishli bo'lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo'lish kafolatlanadi. Shunday ekan, «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqini **xam** kafolatlaydi. Aynan 28- modda «Ta'lim - insonning siyosiy huquqi» deb nomlangan bulib, unda ishtirokchi-davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e'tirof etadilar xamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta-sekin erishish massadida, bepul va majburiy boshlangich ta'limni joriy etadilar, deyilgan. Ushbu modda maxsus ehtiyojli bolalarning xam ta'lim olishlarini, ular uchun xam ta'limning majburiy ekanligini ko'rsatib turibdi. «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, «Barcha huquqlar - barcha bolalarga» tamoyili e'tirof etilishi ma'lum bo'ldi.

«Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta'kidlangan: «Maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning

maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta'lim olishga xar tomonlama yordam berilishi lozim». Bu qoidadan shu narsa ayon bo'ladiki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi, madaniyatga hamoxang bo'lib o'sishi, uning boyliklaridan, go'zalligidan baha olib, jamiyatning rivojiga hissa qo'shishishlarining ahamiyati juda kattadir. Mana shunday imkoniyatlardan foydalanish va joriy etishda maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim tizimi va mazmuni talabga javob bermaydi. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtai nazaridan jahondagi ko'plab mamlakatlar maxsus-integratsion ta'lim tizimini inkor eta boshladi.

#### 4.2. Dunyo hamjamiyatida inklyuziv ta'lim

Birinchi inklyuziv ta'lim muassasalari 1980-1990 davrida Rossiyada paydo bo'ldi. 1991-yilda Moskvada terapevtik pedagogika markazi va ota-onha jamoat tashkiloti tashabbusi bilan "Ark" inklyuziv ta'limining birinchi maktabi ochildi. 1992 yilning kuzida "maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan shaxslarni integratsiyalashtirish" loyihasi yaratildi, buning natijasida mamlakatning o'n bir hududida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan bolalarni integratsiyalashgan holda o'qitish bo'yicha tajriba maydonchalari tashkil etildi.

Ta'lim va fan vazirligi hay'ati 1996 yilda ovoz bilan bolalar bilan ishlash uchun o'qituvchilar tayyorlash uchun pedagogika oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarini "maxsus asoslari (tuzatish) pedagogika" va "sog'liqni saqlash maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar psixologiya xususiyatlari" kurslar joriy qildi. 2001- yil 31-yanvar kuni xalqaro ta'lim ilmiy-amaliy konferensiyasida OO'MTV bilan integratsiyalangan shaxslarni tashkil etish konsepsiysi qabul qilindi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus **segregatsion** ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga

e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. AQSH da 1875 yildan 1914 yilgacha majburiy maktab ta'limi joriy qilingan edi. Shunga muvofiq ravishda aqli zaif hisoblangan va tarbiyasi og'ir , kar, jismoniy maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun maxsus sinflar tashkil qilingan edi. Bu vaqtida Milliy ta'lim assotsatsiyasi maxsus ta'lim departamentini tashkil qildi. Aqliy qobiliyatni tekshirishga mo'ljallangan testlar, psixologik nazariyalar rivojlandi, ishchi kuchi ko'paya boshladi. Bu omillar maktab tizimiga ta'sir qila boshladi, ya'no o'quvchilar orasida individual farqlarni aniqlash va ularni o'lchash tamoyillari tuzildi. 60-70 yillarda maxsus tarbiyaga muhtoj o'quvchilarning omadsizligida maktabni aybdor hisoblab, maktablarga qarshi norozi ovozlar kuchaydi.

JEYN MERSER 1971 yil tadqiqotlarida ta'kidlashicha, har bir ijtimoiy tizim insonga yangi tushunchalarni beradi, shuning uchun maxsus tarbiyaga muhtojlik ijtimoiy kelishuvlarning mahsuli hisoblanadi. 1962 yilda Reynolds va I. Denoning takliflari asosida "servislar kaskadi" degan tushuncha joriy qilindi. Bu shunday modelki bu model asosida kasalxonada yoki uy sharoitida maxsus maktab yoki maxsus sinflarda bilim olayotgan maxsus tarbiyaga muhtoj o'quvchilarning, shuningdek umumta'lim maktablaridagi o'quvcularning xohish-istiklarini inobatga olgan holda turli qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish ko'zda tutiladi.

1977 yildagi "hamma maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun talim tizimi" haqidagi qonunga qo'shimcha hizmatlar turi ko'rsatilgan bo'lib, bu hizmatlar o'quvchilarni mahsus talimni olishlariga yordam beradi. Bunday hizmatlarga quydagilar kiritilgan: transport, logoped, autologiya, psixologiya, fizioterapiya, tibbiy xizmat, maktab shifokori yoki hamshirasi, ijtimoiy xodim, psixoglarni maslahat berishi.

1990-yillarda AQSHda barcha maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun talim haqidagi qonun ishlab chiqildi. Unung tamoillari bilan individuallashtirilgan talim, shu bilan birga maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar talimi haqidagi qonun ham ishlab chiqildi. Shu tariqa inkyuziya – bu talim olishning tashkil qilishning shunday asosiki bunda hamma o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'zlarining yashash joylariga taluqli bo'lgan maktablarda talim

oladilar. Inkyuziya tushunchasi zamonaviy talim siyosatiga Madlen Well honimning talim siyosatidagi ishlari asosida kiritilgan.

Madlenning takidlashicha pedagoklar ko‘pchilik maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun “pull-out” xizmati samarasiz ekanligini takidlamoqda. “pull aut” xizmati shunday xizmatki sinfda dars olib o‘quvchilarni darsdan chiqib ketishlarini talab etadi. Gap shundaki ko‘pchilik mahsus sinflarga turli guruhlardagi bolalar: pedagogic qarovsiz bo‘lgan, maxsus tarbiyaga muhtoj, aqli zaif, hulqida kamchiligi bo‘lgan, diqqati tarqoq, va gipper aktif bolalar yuborilar edi. Bundan tashqari tadqiqotchilar mahsus muassasalarga kelgan bolalar hech qachon ommaviy makktablarga qaytib kelmasligidan tashvishlanar edilar. Avstriyada 1945-yildan boshlab maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni differensial o‘qitish tizimi tashkil etilgan bo‘lib, bu talim tizimida barcha turdagи nuqsonli bolalar o‘qitila boshlandi. Ammo 1980-yilga kelib mahsus ehtiyojli bolalarni ota onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumtalim muassasalarida o‘qitilishini talab qilib chiqdilar. Folker ruttening malumotlariga qaraganda, ayni paytda ixtisoslashtirilgan talim sohasida ishlovchi pedagoklar maxsus ehtiyojli bolalarga segregatsiya yani mahsus talim berishni afzalliklaruuni shubha ostiga qo‘ya boshladilar. 1983-yilda avstriya talim vazirligi inkyuzif talim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu talim modeli 4 ta turga ajratildi:

1. Inkyuzif sinflar - umum talim makkablariiga bittadan to‘rttaganacha mahsus ehtiyojli o‘quvchilar qabul qilinadi. Bitta mahsus ehtiyojli o‘quvchi ikkiita sog‘lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiladi. Sinfda ikkita oqituvchi ishlab ularan biri mahsus tayorgarlikga ega bo‘lib bolalar bilan haftasiga to‘rt soatdan olti soatgacha korreksion mashg‘ulotlar olib boradi. Mahsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o‘qitiladi.

2. Hamkorlik qiluvchi sinflar- ixtisoslashtirilgan va umum talim makkablarning sinf oqituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradilar.

3. Kichik komplektli mahsus sinflar – umumtalim maktablarning sinflarida 6-11 ta mahsus ehtiyojli o‘quvchi jamlanadi hamda mahsus o‘quv reja va dasturlar asosida o‘qitiladi.

4. Yordamchi o‘qituvchilar- oddiy sinfga 4 ta va undan ko‘p mahsus ehtiyojli o‘quvchilar jamlanadi hamda mahsus tashhis qilish va korreksion metodikalarini qo‘llay oladigan o‘qituvchi lavozimi joriy etiladi. 1991-yilda pedagogic tajriba-sinov va maktablarni rivojlantirish markazlari tomonidan inkyuzif sinf modeli eng samarali deb topildi. 1993- yilda esa Avstriya hukumati mahsus ehtiyojli bolalar ota onalarining mahsus yoki umumiy talimni tanlash huquqini tasdiqlovchi qonunni qabul qildi. Bir qator chet mamlakatlarning tajribasini o‘rganish jarayonida bizga shu narsa ma’lum bo‘ladiki taxminan 1970 yillardan boshlab maxsus tarbiyaga muhtojlarning ta’lim imkoniyatlarini o‘rganish jarayonlarini kengaytirish maqsadida normative aktlar paketi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Shunday qonunlarni va shunga o‘xshash hujjatlarni hayotga tadbiq etish, sog‘lom bolalar bilan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni huquq jihatidan barobar ko‘rishning kompleks chora tadbirlarida ifodalanmoqda. Bu imtiyozlar tartibi sog‘lom bolalar bilan maxsus tarbiyaga muhtoj boalarning jamiyatda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Ta’limiy tafovutlarni yoqotishdagi barcha ishlarning kamchilikni tashkil qiladigan maxsus tarbiyaga muhtojlar guruuhlarini imtiyozlarini oshirib, sog‘lom rivojlanishidagi ko‘pchilikni tashkil qilgan guruuhlar imtiyozlarini kamaytirish chora tadbirlari ko‘rilmoxda. Siyosatchilar, sotsiologlar va ijtimoiy tashkilotlar ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj guruhlarga o‘rt ava oly o‘quv yurtlarida sifatli ta’lim olishlariga kemh imkoniyatlar ochib berishga oid masalarni ha etmoqdalar. Ana shunga muvofiq olyi ta’lim ta’labalari tarkibiga siyosiy va iqtisodiy tomonidan ta’sir etish tizimini shakallantirish ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlardan chiqayotgano‘quvchilarni olyi ta’lim maskanlariga kirishlariga tayyorgarlik chora tadbirlarini ko‘rish, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, kam taminlangan va qishloq aholisi vakillari bolalariga ta’lim jarayonida yuqori darajali qulay sharoitlarni yaratish masalalari ko‘rib chiqildi.

Buning natijasida esa 1990-yilda Tailandda o‘ta muhim Umumjahon Konferensiysi bo‘lib o‘tdi. Bu konferensiysiada «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklarasiyasi qabul qilindi. «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155 ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. «Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklarasiyasi har bir bolaning to‘laqonli va mukammal ta’lim olishini kafolatlaydi. Ushbu Deklarasiyada quyidagicha bayonot qabul qilingan: «Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta’limiga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Ular quyidagilardan iborat:

- xar bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta’lim-tarbiya olishni talab etadi;
- o‘qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;
- maktabda to‘laligicha korreksion-pedagogik yordam tashkil etiladi;
- bolalar to‘g‘risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;
- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o‘quv rejaning asosi sifatida qaraladi;
- inklyuziv maktablarning moddiy ta’minoti yaxshilanadi.

«Ta’lim hamma uchun» Umumjahon Deklaratsiyasi maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muxtoj bolalarning to‘laqonli, mukammal ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 1994-yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlati va UNESCO yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiysi bo‘lib o‘tdi. Mazkur Konferensiya «Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta’limining kelgusida ijrosini ta’minlash ramkasi» deb atalib, shu yili «Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasি» nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. Bu xujjatda huquqlar bo‘yicha bayonotlar mazmunlarini yorituvchi fikrlar bayon etilgan.

«Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasি»ning asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, milliy, tili va boshqa

xususiyatlaridan qatiy nazar o‘qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta’kidlanishicha: “Har bir bola ta’lim olish va o‘ziga muvofiq darajada bilimga erishish huquqiga ega:

- Ta’lim tizimi va ta’limiy dayeturlar turli xil xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo‘naltirilsin”;
- Maxsus yordamga muxtoj bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin;
- Maxsus yordamga muxtoj bolalar bilan ishslash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositali bo‘la oladi:
  - Ajratib quyish illatiga qarshi kurashilsin;
  - Do‘stona, insonparvar jamoalarni yaratish, o‘z tarkibiga maxsus ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarni olgan jamiyatni qurish;
  - Barcha bolalarning ta’lim olishiga erishish» (Salamanka bayonoti, 2-band);

«Salamanka Bayonoti va Ish faoliyati Rejasি»da «Ta’lim hamma uchun» shiori ilgari surildi. «Ta’lim hamma uchun» shiori deganda maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo‘ylgan guruhlardan kelib chiqdan bolalarning ham teng huquqlilik asosida ta’lim olishlari tushuniladi. Ushbu xarakat rejasining asoslanadigan muhim tamoyili quyidagilardan iborat: «Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emosional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat’iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, \_\_ boshpurasiz bolalar, ko‘chmanchi xalqlarga tegishli bo‘lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi» (Xarakat Rejasiga kirish. 3-band). «Salamanka Bayonoti va Ish faoliyati Rejasি»da maxsus ehtiyojli bolalarga umumta’lim tizimi sharoitida inklyuziv ta’lim berish lozimligi alohida ta’kidlanib, dar bir bolaning boshqalarnikiga o‘xshamagan o‘z ehtiyojlari mavjudligi, shuningdek, xar bir bola yashash joyiga yaqin bo‘lgan maktabga borish huquqiga egaligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Bunday maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta’lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib, diskriminatsion

o‘zgarishlarga barham berishdir. «Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasi»ning ishlab chiqilishi jahon miqyosida «Ta’lim hamma uchun» mazmunidagi ta’lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitida uqitishning yo‘llari belgilab berildi. Ammo bu ta’lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq yondashuv jihatdan asoslash, qatiy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun ham 2000-yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta’lim to‘grisida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan «Dakar harakat dasturi»ni qabul qilganliklari tahlil etildi.

Ular 10 yil oldin qabul silingan «Ta’lim hamma uchun» Xalqaro Deklaratsiya (Djomtyen- Tailand,1990)ni qayta tasdiqlab, ratifikasiya qildilar. «Dakar harakat dasturi» «2000-yilga qadar jahon miqyosida ta’lim hamma uchun amaliy faoliyatining darajasini baholash» maqsadiga asoslanadi. Bu baholashda har bir davlatga o‘zining ta’limini barcha bolalar uchun ta’minlanganlik darajasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi. Tahlil asosida har bir davlat 6 ta hududiy Konferensiyalarni o‘tkazish davomida 1990-2000 yillarda erishgan yutuqlarini Djomtyenga yetkazib turishi lozim, deb belgilandi.

«Dakar harakat dasturi»ga kirgan barcha davlatlar 2002-yilga qadar «Ta’lim hamma uchun» rejasini mukammal tuzib, 2015-yilga qadar bu ta’lim tizimini amaliyotga to‘lik joriy etishlari lozim, deb topildi. Ushbu harakat rejası tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi «Har bir insonga va har bir jamiyatga» shiori ostida barcha insonlar va bolalar ta’limini to‘laqonli ta’minalash majburiyatini oladilar. Bu harakat dasturida «Ta’lim xavfsiz, sifatlari, bolaning sog‘ligini himoya qilib, mustahkamlaydigan. hamma uchun birdek, inklyuziv tarzda va barcha zaruriy resurslar bilan ta’minalangan bo‘lishi lozim.

O‘qituvchilar saviyasi va usul rejalar «Ta’lim hamma uchun» maqsadlariga javob berishi kerak», deb belgilangan. Uchinchi ming yillik arafasida o‘tkazilgan mazkur Dakar Umumaxon Konferensiyasida xalqaro va milliy me’yoriy hujjatlarda e’tirof etilgan ta’lim olishdagi tenglik amalga tatbiq etilayotganligi alohida ta’kidlandi. Bu Deklarasiyada quyidagicha bayonot qabul qilindi:

«Har bir inson bola, o‘smir va kattalarning har biri ta’lim olishlari shart va bu ta’lim uning asosiy o‘quv imkoniyatlari ega bo‘lishi lozim». Nuqsonli bolalarning o‘quv imkoniyatlari asosiy o‘rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta’limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar, xalqaro Forum, Konferensiylar asosida maxsus ehtiyojli bolalar jamiyatning tulaqonli va teng huquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta’limida alohida yangicha yondashuv maydonga keldi.

Ushbu ta’lim shakllari inklyuziv va integrasiyon ta’lim deb ataldi. «Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar xuquqlari to‘g‘risidagi Deklarasiya»ning mazmunidan shu narsani anglash mumkinki, maxsus tarbiyaga muhtoj fuqarolar uchun jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etish kafolatlanadi.

Ammo mazkur Deklarasiyada maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, ularning ta’lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda R.A.Suleymenova: «Agarda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning o‘z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb qilish rad etilsa, ularning imkoniyatlari keskin kamayadi», - deb ta’kidlaydi. Ta’limning uzuksizligi, yangi global iqidisodiyotning kalitidir. Ta’lim rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun buyuk ahamiyatga ega. Juda ko‘plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to‘laligicha yo‘lga qo‘yish maqsadida umumta’lim maktablarida ta’lim berish davlat siyosati rejasiga kiritilgan. «Ta’lim tizimi, - deb yozadi S. Vigotskiy, - nuqsonli bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integrasiyasini ta’minalashdan iboratdir. Buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o‘qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. S. Vigotskiy umumiyligi va maxsus ta’limni uygunlashtiradigan ta’lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimida o‘qitishni e’tirof etadi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Dunyo hamjamiyatida inklyuziv ta'lim haqida gapiring.
2. «Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili nimalarni o'z ichiga qamrab oladi.
3. Inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy asoslari haqida qanday tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.
4. "Bola huquqlari" to'g'risidagi konvensiyaning mazmun mohiyati nimalardan iborat.

## **V BOB. INKLYUZIV TA'LIMGA KIRITISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

### **5.1. Inklyuziv ta'lim tizimi asosiy tamoyillari haqida**

Ta'lim tizimini joriy etish ma'lum qonun-qoidalarga, tamoyil-larga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi;
3. Bog'lanishning mavjud bo'lishi;
4. Markazlashtirilmagan bo'lishi;
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish;
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik;
7. Malakaviylik;

#### **1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili**

1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida jahon miqyosida ko'plab deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga *satr* ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiylar ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ta'lim masalasi chetda qolmoqda. Inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarishidan iborat emas. Inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtaida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galadagi masaladir.

#### **2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili**

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda

hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki ota-onalar maxsus tarbiyaga muhtoj farzandini shahardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

### **3. Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili**

Bog'lanish so'zining zaminida ommaviy binolarning sifati, ayniqsa maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabi omillar yotadi.

Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmasligi yoki mактаб hojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlanmasligi kerak.

Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi mактаб binosi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda qurilishi kerak. Albatta maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun qulayliklar me'yorida rivojlanishdagi bolalar uchun kech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

### **4. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili**

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A) Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integrasiya kilingan v;ismi bo'lishi kerak.

B) Inklyuziv ta'lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga javobgarlik hamda boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim. Optimal integrasiyaga erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lishi muhimdir. Bu ayniqsa qishloq; sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan mактаблarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish

maxsus tarbiyaga muhtojlikdan ham og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

### **5. Inklyuziv ta'limga kompleks yondashish tamoyili**

Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga maxsus tarbiyaga muhtoj deb faqatgina nuqson jihatidan emas, balki har tomonlama yondashish lozim. Bu maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga oлган holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda maxsus tarbiyaga muhtoj boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim, kunikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi.\_

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi xam amalgalashirishi talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

### **6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili**

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlar har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxsiy ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan, o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

### **7. Malakaviylik tamoyili**

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashkari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan mактаблarda(muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari:

- maxsus ta'lim tamoyillari;

- korreksion yo‘naltirilganligi;
- nuqsonni aniqlash, ta’lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologik-pedagogik) yondashish;
- nuqsonli funksiyani erga aniqlab. tibbiy-psixologik jihatdan korreksiyalash;
- umumiy o‘rta ma’lumot berish, kasbga yo‘naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- differensial-tabaqalashtirish va alohida yondashish;
- ta’limning uzluksizligini ta’minlash;

Inklyuziv ta’lim tayyorgarlikdan yaxshi o‘tgan va malakali o‘qituvchilarni talab qiladi. Mana shu maqsad uchun turli ehtiyojlarga ega bolalarni o‘z ichiga oluvchi tayyorlov dasturlarini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Shunday bo‘lsada, tayyorlov juda maxsuslashtirilgan bo‘lmasligi kerak. Chunki markazlashtirilmagan va integrasiyalashtirilgan tizimda har bir mакtab o‘zining shaxsiy mutaxassislariga ega bo‘lishi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Mavjud xodimlardan yetarli darajada to‘g‘ri foydalanish juda muhimdir. Inklyuziv ta’limda o‘zlashtirishda qiyinchilaklari bo‘lgan bolalar mutaxassislardan ko‘ra umumiy ish ko‘rvuchi xodimlarga muhtojdir.

Ko‘p tomonlama maxsus tarbiyaga muhtojlik bo‘yicha turli muammolari bor bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi resurs o‘qituvchilar tayyorlovchi kategoriyalashtirilmagan tayyorlov dasturlari muhokama qilib ko‘rilishi kerak. Oddiy o‘qituvchilar treningi va maktabning barcha uchun faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash bo‘lgan boshlang‘ich fazani yaxshilash uchun o‘qituvchilarda sinflarda barcha bolalarga javobgarlik hissini uyg‘otishimiz kerak. Bolalarga ma’nili va ularning qiziqishlariga mos, bilim va qobiliyatlari bo‘yicha ta’lim berish sind xonasida olib boriladigan faoliyatdir. Shu sababdan maxsus ta’limga muhtoj bolalar borasidagi masalalar barcha boshlang‘ich o‘qituvchilar treningi hamda turli ichki trening dasturlarining tabiiy qismiga aylanishi kerak. Ushbu o‘quvchilarni o‘qishga da’vat etish uchun o‘qituvchi muhim strategiyani ishlab chiqishi zarur. Bu strategiyani inklyuziv ta’lim tizimi asosida ifodalash mumkin.

## 5.2. Inklyuziv ta’limni o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Inklyuziv ta’lim bu, birinchi navbatda, yaxshi umumiyligi ta’limdir va u quyidagilarni qamrab oladi:

- **O‘zingizda mavjud barcha narsalardan foydalaning.** Bolaning qiziqishini uyg‘otadigan qo‘llanmalardan foydalanishga harakat qiling. Bunda boladan barmoqlari va qo‘llaridan foydalanishini talab qiluvchi ko‘p maqsadli qo‘llanmalarni taklif eting. Bolalar o‘zlarining 5 ta sezgi organlari orqali o‘rganishadi: ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hidlash va ushlab ko‘rish. Shu sababli bola ko‘ra oladigan, eshita oladigan, ta’mni bila oladigan, hidni sezsa oladigan va ushlab ko‘ra oladigan qo‘llanmalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– **Tahlil qilinadigan topshiriqlar.** Topshiriq, odatda, juda ko‘p kichik topshiriqlardan iborat bo‘ladi. Bir bosqichda amalga oshiriladigan topshiriq yo‘q. Bola mashg‘ulotni muvaffaqiyatli bajarishi uchun mashg‘ulotni bir necha kichik bo‘limlarga bo‘lib tashlang.

– **Mashqlar ketma-ketligi.** Dastlab oson mashqlardan boshlanadi. So‘ngra bola oldingi mashqni o‘zlashtirib borgan sari mashqlar qiyinlashtirib boriladi.

– **O‘zgaruvchan bo‘lish.** Jiddiy mashqlar uyushtirilgan erkin o‘yinlar va loyihamalar bilan almashtirib turiladi.

– **Yakkalab qo‘ymang.** Bolani individual ravishda o‘qitish, uni yakkalab qo‘yish degani emas. Bundan farqli o‘laroq, har bir mashq barcha bolalar qatnasha oladigan holda o‘rganish jarayoniga aylantirilishi lozim. Hech qaysi bola hamma narsani a’lo darajada bilmaydi va hamma narsani birdek o‘zlashtira olmaydi, deb aytolmaymiz. Barcha sinfdoshlar bir-biriga yordam berishi uchun imkoniyat yaratish kerak va ularga ko‘mak berish zarur.

– **Soddalashtiring.** O‘rganish topshiriqlarini iloji boricha soddalashtirish lozim. Ko‘rsatmalarining xato emasligiga amin bo‘ling. Bir nechta so‘zdan foydalaning. Sekin va aniq gapiring. Biror-bir narsani bajarishni aytibgina qolmay, uni qanday amalga oshirishni ham ko‘rsatib bering. Topshiriqlardagi har bir vazifa shu darajada sodda bo‘lsinki, bolaning o‘zi mustaqil bajara olsin.

– **Qisqa holatga keltiring.** Bolaning diqqati qocha boshlaganda, uning e’tiborini qayta jalb etish hamda ishonchi va intilishini yangilash uchun biron-bir boshqa narsaga e’tiborini qarating. Bolaga qachon tanaffus berishni ham biling. Esingizda tuting, oldin muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolaning o’ziga ishonchini shakllantirish juda qiyin kechadi.

– **Maqtov.** Muvaffaqiyatga erishish uchun bolaga juda ko‘p imkoniyatlar bering. Haqiqiy harakat va muvaffaqiyatlarni rag‘batlantiring. Hatto kichkina bo‘lsa-da, bola erishgan har bir yutuqni taqdirlang va bolada o’ziga ishonchni vujudga keltiring. Muvaffaqiyatsizliklarga ijobjiy munosabatda bo‘ling. Bunda bolaga qarata «Juda harakat qilding, harakat qilishda davom et va aminmanki, uddasidan chiqasan» kabi iboralarni ishlating. Biror narsani bolaga qayta-qayta tushuntirishga to‘g’ri kelsa, sabrli bo‘ling.

### Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta’lim tizimi asosiy tamoyillari haqida gapiring.
2. Inklyuziv ta’limni o‘qitish ko‘rsatmalari nimalarni qamrab oladi.
3. Inklyuziv ta’lim joriy qilingan maktablarda(muassasalarda) ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari haqida fikr yuriting.
4. Ta’limning shakllanishida maqtovning roli qay darajada deb o‘ylaysiz.

## VI BOB. MAXSUS TA’LIMGA MUHTOJ BOLALARGA INTEGRASIYALASHGAN TA’LIM SHAROITLARIDA YORDAM KO‘RSATISHNING G‘ARBIY YEVROPA TAJRIBASI

### 6.1. Inklyuziv ta’lim borasidagi xalqaro hamjamiyatda dastlabki ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi

Ma’lumki, umumjahon statistika ma’lumotlariga ko‘ra, yer yuzi aholisining 9-11 foizini rivojlanishdan orqada qolgan va ularning ruxiy-jismoniy xolati bilan bog‘lik maxsus ta’limga ehtiyoji bo‘lgan kishilar tashkil etadi. UNICEF Xalqaro bolalar jamg‘armasi O‘zbekistan Respublikasidagi vakolatxonasingning sobiq boshlig‘i Reza Xossayni Innochentining ma’lumotiga ko‘ra, Markaziy-Sharqi Yevropa mamlakatlari, Boltikbo‘yi davlatlari va mintaqanning 27 davlatida maxsus tarbiyaga muhtoj deb tan olingen bolalar soni 1990 yilda 500 mingta bo‘lsa, 2000 yilga kelib ularning soni 1,5 millionga ko‘tarildi, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar soni 3 barobarga o‘sgan. O‘zbekistonda esa 1996 yilda qayd qilingan va nazorat ostidagi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar soni 70 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib 125 mingtaga yetdi. Bu o‘sish, bиринчи navbatda, bolalar maxsus tarbiyaga muhtojligi masalasining dolzarbligi va ko‘mak izlayotgan onalarning soni ortib borayotgani bilan bog‘liq. BMT sobiq bosh kotibi Kofi Annan o‘z ma’ruzasida quyidagi xayotiy misollarni keltirdi. «Maktabda deyarli o‘qimagan, na ishi, na bexatar boshpanasi bo‘lmagan maxsus yordamga muxtoj bolani tasavvur qiling, onalari dori solingen shishaga yopishtirilgan yoriqni o‘qiy olmagani uchun jon taslim qilayotgan bolani yoki yuridik xujjatni o‘qiy olmagani uchun meros qolgan yerdan maxrum bo‘lgan kishini ko‘z oldingizga keltiring.

Ta’lim har doim ham qaramlik, vasvasa va qashshoqlikdan xalos bo‘lish uchun kalit xisoblangan. Ta’lim kambag‘allikka qarshi kurashadigan samarali quroq. U ko‘plab odamlarning hayotini saqlab qoladi va raqobatbardoshligini oshiradi, ijtimoiy va siyosiy

taraqqiyotini rag‘batlantiradi. Ta’limning uzlusizligi esa yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Rivojlanish ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun o‘ tub ahamiyatga ega. Ammo bugungi kunda dunyo bo‘yicha 113 milliondan ortiq bola ta’limdan bebahra qolmoqda. Mana bu bolaning fikriga e’tibor bering: «Mening otim Amerigo. Yoshim 13 da. Ko‘chada yolg‘iz yashayman. Qachonlardir otam tashlab ketgan. Onam men bilan yashashni xohlamaydi. Otam juda uzoqda yashaydi. Men uning yoniga borishim mumkin, lekin u ham men bilan yashashni istamaydi. Xullas, mening uyim – ko‘cha. Ilgarilari eski-tuski narsalarni yig‘ib sotardim. Qandaydir kasallikka chalinganimdan so‘ng ko‘zim xiralashib, qulog‘imning eshitishi ham yomonlashdi. Biroz vaqt muzqaymoqchi bilan ishladim. Men plyajda muzqaymoq sotar edim, Ammo bu juda mashaqqatli ish. Muzqaymoq to‘la og‘ir yashikni ko‘tarib yurishga to‘g‘ri kelardi. Qulog‘imning eshitmasligi esa meni yanada qiyin ahvolga sola boshladim. Hozir poyabzallarni tozalayapman. Biroq hech qachon qorin to‘ymaydi, keyingi kecha qayerda tunashni bilmayman. Men ham o‘z uyimda yashashni, maktabga borishni juda-juda istar edim. Qish kechalari juda sovuq buladi. Sovuqdan kuchada o‘lib qolish ham hech gap emas». Amerigoning ahvoli yagona voqeа emas. Butun dunyo bo‘yicha minglab bolalar kuchada yashaydilar. Xavfli joylarda ishlaydilar. Ularni (ayniqsa nuqsonli bo‘lsa) har doim kamsitadilar, ko‘pincha bu bolalarning oddiygina huquqlari ham yo‘q» («Ming yillik ma’ruzasi», 2000 yil). Chet el va Rossiya Federatsiyasining tajribasini o‘rganish jarayonida Rossiyada ijtimoiy muammolari bo‘lgan bolalar bo‘yicha Quyidagi ko‘rsatkichlar ma’lum bo‘ldi. Birinchi o‘rinda asab tizimi va his qilish organi (21,7 foiz), shularning orasida eng ko‘p uchraydigan syerebral falajlangan (DSP), ikkinchi o‘rinda ruhiy rivojlanishi buzilgan (18,6 foiz) va aqli zaif (71,0 foiz), tug‘ma anomal (18,5 foiz) 3 turdagи kasalliklar tizimi sabablari bolalar maxsus tarbiyaga muhtojligi asosining **qariyb** 70 foizini belgilab beradi. Xalkaro tashkilotlardan biri UNICEF, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tomonidan 2005 yil 2 dekabrda Butunjahon maxsus tarbiyaga muhtojlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirning ham asl maqsadi

maxsus tarbiyaga muhtojlarni har qanday diskriminatsiyadan ozod qilish. Maxsus tarbiyaga muhtojlar barcha qatori o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ko‘rsata bilishi, bilim malakaga ega ekanligi to‘g‘risidagi masalaga fuqarolar e’tiborini qaratishdan iborat edi. Yevropa davlatlarida integratsiyalashgan-inklyuziv ta’lim muammolarini hal qilish, imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish, ko‘maklashish va maxsus ta’limni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa agentligi tomonidan 1999 yilda chop etilgan ma’ruzasi bilan tanishamiz. Ushbu hujjatda 17 ta Yevropa davlatlarida integratsiya ta’limini tashkil qilish holati borasida fikr yuritiladi. Integratsiyalashgan ta’lim sohasida o‘z xohishiga ko‘ra qaror qabul qilish tarafдорлари xorijliklarning ijobiy tajribasiga ishora qiladilar. Ayni paytda ular ko‘pincha o‘zлari tomonдан taklif etilayotgan keskin va jadal choralar (masalalar) g‘arbcha yondashuvlarning o‘xhashi tarzida qarash mumkin emasligiga e’tibor bermaydilar. Integratsiyaning ilg‘or modeli o‘ziga xos o‘quv jarayonining oddiy sinfi doiralaridagi yaratuvchanlik, fan o‘qituvchisiga qo‘sishimcha ravishda ikkinchi pedagogik kiritish infratuzilmaning o‘quvchi imkoniyatlariga moslashish va yana ko‘p narsalar, kichik mifik, ya’ni «maxsus minimaktab» sinfida o‘ziga xos tashkiliy ishlarni ko‘zda tutadi. UNESCO vakili X. Olsenning so‘zlariga ko‘ra, «O‘n yetti Yevropa mamlakatida o‘tkazilgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni o‘qish bilan bog‘liq; muammolarning tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, mabodo moliyalashtirish tegishli hajmda amalga oshirilmasa, integratsiya g‘oyasining amalga tatbiq etilishi qiyin. Ayni paytda Rossiya voseligidagi maxsus ta’limni ta’minlanmagan integratsiya ta’limiga almashtirishga urinish barcha bolalarni teng huquqli bo‘lishiga erishishga emas, aksincha imkoniyati cheklangan bolalarda ularning yo‘qolishiga olib keladi. Maxsus ta’limning davlat tizimi (MTDT) rivojlanishining oldingi bosqichi yakunlanmaganligini nazarda tutgan holda ommaviy va maxsus ta’lim tizimining huquqiy, o‘zaro ta’siri va hamkorligini ta’minlovchi ta’lim integratsiyasi modelining milliy variantini ishlab chiqish zarur. Imkoniyati cheklangan bolalar katta qismining haqiqiy integratsiyasini ta’minlash fuqarolik jamiyatining iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashiga olib keladi. Ammo ayrim

mamlakatlarda ham integratsiyalashgan ta’limning chorak asri mobaynida «maxsus ehtiyojli bolalarga» (Children with Special Needs) pedagogik yondashish va yordamlashishning yagona modeli shakllanmadi.

**Integratsion siyosatning asosiy xususiyatlari** Ma’ruza mualliflari integrasiyalashgan o‘quvchilarga ko‘maklashish qismida ta’lim siyosatining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko‘rsatadilar:

1. Umumta’lim maktablari pedagoglari maxsus ta’limga muxtoj bolalar bilan bir qatorda har bir o‘quvchi uchun mas’uldirlar.

2. Integrasiyalashgan o‘quvchiga umumta’lim maktabi (sinf) yoki undan tashqarida zarur yordam asosan maxsus pedagog tomonidan ko‘rsatilishi lozim.

3. Maxsus pedagog matabning shtatdagi xodimi yoki tashqi tashkilot (tashxislash markazining maxsus maktabi, tibbiy yoki ijtimoiy xizmat va x., k. larning) vakili bo‘lishi mumkin.

4. Yordam integrasiyalashgan o‘quvchilar bilan bir katorda, ular bilan ishlaydigan pedagoglarga ham ko‘rsatilishi darkor.

5. O‘quv yurtidan tashqarida faoliyat ko‘rsatayotgan turli ta’lim xizmatlari o‘quvchi, o‘qituvchi, maktablar hamda ota-onalariga ko‘maklashishning har xil turlarni ta’minlab yordam ko‘rsatishi mumkin.

6. Ko‘maklashishning asosiy shakllari axborot, o‘quv materiallarini tanlash, individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish, maxsus mashg‘ulotlar tashkil qilish va o‘quvchiga bevosita yordam ko‘rsatishga aloqador bo‘lishi mumkin.

7. Yordamlashish turlari har xil va o‘zgaruvchandir. Ularning tanlovi o‘quvchi ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lgan turli omillar, o‘qituvchilar, maktab sharoitlari, o‘quv joyi va umuman matabning texnik jihozlanishining talablariga bog‘liq.

8. Integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishni maktabdan tashqari ta’lim xizmatlari bilan birga boshqa xizmatlar, eng avvalo, ijtimoiy va sog‘liqni saqlash xizmatlari ham ta’minlaydi. Ular ham umumta’lim muassasasiga integrasiyalashgan o‘quvchilarga ko‘maklashish, ularning ota-onalariga maslahat berish jarayoniga jalb qilinadilar. Aytib o‘tilgan xizmatlarning vakillari

maktab uqituvchilari bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari lozim. Milliy ma’ruzalarga binoan ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilar bilan ishlashda maktab o‘qituvchilari asosiy rol o‘ynaydi. Qo‘srimcha ta’lim yordamiga asosan maxsus pedagoglar kumagida ta’minlanadi. Ularning ishini odatda mahalliy ta’lim boshqaruvi organlari tartibga soladi.

## **6.2. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta’lim**

**Daniya va Shvesiyada** maxsus sinf (maktab) o‘quvchilari bilan faqatgina maxsus pedagoglar shug‘ullanadi. Italiyada bunday o‘quvchilar bilan maxsus pedagoglar bilan bir qatorda oddiy pedagoglar ham ishlashi mumkin, ayni paytda ularning bari maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarning o‘sishi uchun mas’ul sanaladilar. Boshqa variantlar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Fransiyada Adliya vazirligi ostidagi xizmat maktab o‘quvchilariga yordam ko‘rsatadi. Integrasiyalashgan o‘quvchilar mavjud Lyuksemburg maktablarida maktab o‘quv dasturlarini bilmasa ham, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya sohalarida bilimga ega bo‘lgan «assistantlar» ishlaydi.

**Irlandiyada** ijtimoiy xizmatlar maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarga xizmat ko‘rsatishda bevosita qatnashadilar. Sog‘liqni saqlash bo‘yicha hududiy kengashlar tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtiradilar. Integrasiyalashgan o‘quvchilarga ko‘maklashishni tashkil etish Internet ma’lumotlari asosida bugungi kunga qadar jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilayotganligi ham aniqlandi.

**Italiya, Norvegiya, Shvesiya** kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga to‘la integrasiyalab, maxsus korreksion maktablarining yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensasiyalashga yo‘naltirilgan qo‘srimcha ta’lim xizmatini ko‘rsatish ma’suliyatidan ozod etilmaydi. AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini

tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan. Maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etishda jahon miqyosidagi bir qancha davlatlar tajribasi o'rganilib, tahlil qilindi. Unda keltirilgan ko'rsatkichlar o'quvchi qayerda (maktabmi yoki undan tashqarida) yordam olayotgani, uni kim (qanday professionallar yoki xizmatlar) bevosita ta'minlayotgani aytib utilgan, yordam kimga qaratilganini tushunish imkonini beradi. Avstriya Avstriyada 1945 yildan boshlab maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni differensial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lim tizimida barcha turdag'i nuqsonli bolalar o'qitala boshlandi. Ammo 1980 yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitilishini talab qilib chiqdilar. Folker Ruttening ma'lumotlariga qaraganda, ayni paytda ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasida ishlovchi pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarga segregasiya, ya'ni maxsus ta'lim berishning afzalliklarini shubxa ostiga qo'ya boshladilar. 1983 yilda Avstriya Ta'lim vazirligi inklyuziv ta'lim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu ta'lim modeli to'rt turga ajratildi:

1. Inklyuziv sinflar umumta'lim mакtablariga bittadan to'rttaganacha maxsus ehtiyojli o'quvchilar qabul qilinadi. Bitta maxsus ehtiyojli o'quvchi ikkita sog'lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfda ikkita o'qituvchi ishlab, ularidan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo'lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg'ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o'qitiladi.

2. Xamkorlik qiluvchi sinflar ixtisoslashtirilgan va umumta'lim mакtablarining sinf o'qituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradilar.

3. Kichik komplektli maxsus sinflar umumta'lim mакtablarining sinflarida 6-11 ta maxsus ehtiyojli o'quvchi jamlanadi hamda maxsus o'quv reja va dasturlar asosida o'qitiladi.

4. Oddiy sinfga 4 ta va undan ko'p maxsus ehtiyojli o'quvchilar jamlanadi hamda maxsus tashxis qilish va korreksion metodikalarni qo'llay oladigan o'qiguvchi lavozimi joriy etiladi.
5. 1991 yilda pedagogik tajriba-sinov va maktablarni rivojlantirish markazlari tomonidan inklyuziv sinf modeli eng samarali deb topildi. 1993 yilda esa Avstriya hukumati maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalarining maxsus yoki umumiy ta'limni tanlash huquqini tasdiqlovchi qonunni qabul qildi. Umumta'lim maktablari pedagoglari shtagiga maxsus pedagog kiritilishi mumkin. Uning vazifasi fan o'qituvchilari hamda integrasiyalashgan o'quvchilarga korreksion ta'lim metodikasidan yordam ko'rsatishdan iborat. O'z navbatida umumta'lim sinfidagi fan o'qituvchisi maxsus o'qituvchidan o'qitishning korreksion metodlari bo'yicha aniq bilim oladi. Aytib o'tilgan zarur miqdordagi professional pedagoglar biror nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning maxsus metodlari bilan tanishtiradi, deb taxmin qilinadi. Asosiy o'qituvchiga zarur bo'lgan yordam turi uning aniq savollari va o'quv muhitining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Maxsus o'qituvchi zaruriyatiga qarab va fan materialiga mos ravishda o'quvchi bilan ishlashi mumkin bulgan assistent (yordamchi) sifatida dam faoliyat yuritadi. Fan o'qituvchisi maxsus o'qituvchidan bilim, malaka va korreksion metodlarni. zaruriyat bo'lganda, mакtab o'qituvchisi boshqa mutaxassislardan ham (masalan, turli xizmat vakillari, shu jumladan tibbiyot xodimlari va d. k. ) yordam olishi mumkin. Maxsus ta'limni ta'minlash va bu jarayonning barcha ishtirokchilarini boshqarish vazifasi maxsus ta'lim markazlari zimmasiga yuklatiladi. Markazlar integrasiyalashgan ta'limning sifati uchun javob beradilar. Ular o'qituvchi, ota-onalar va ma'muriy organlarga maslahat beradilar, umumta'lim mакtab xodimining malaka oshirishini tashkil etadilar. Pedagogik kengashlar o'tkazishda qatnashadilar. Markazlar ota-onalar va umuman jamoatchilikka axborot yetkazishni ta'minlaydilar. Umumta'lim mакtablarida maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarning muammolarini yechish bilan muayyan darajada bog'liq barcha xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtiradilar; mahalliy hukumat organlari, muassasalar, tashkilotlar, maxsus

ta'lim sohasi ekspertlari, tibbiyot markazlari va maktablar bilan hamkorlik qiladilar.

**Belgiya** Flamandiya jamoasida integrasiyalashgan ta'limning muvaffaqiyati uchun mактаб o'qituvchisi asosiy javobgar shaxs hisoblanadi. Maxsus pedagog resurs pedagog xizmatini bajaradi fan o'qituvchilarini kasbga oid axborot bilan ta'minlab, ular o'rtasida bog'lovchi butun hisoblanadi. Shuni tan olish kerakki, fan o'qituvchilari o'zlarining kundalik pedagogik faoliyatida assistent tomonidan tayyorlangan dasturdan doim xam foydalanavermaydilar. Integrasiyalashgan o'quvchining rivojlanish va imkoniyatlari xususiyatlariga mos ravishda assistent tomonidan talqin etilgan va moslab olingan standart o'quv materiali nazarda tutilayapti. Maxsus pedagog mактабning shtatdagi xodimi bo'lishi mumkin, bu vaqtincha qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilarga yordam ko'rsatish uning vazifasiga kiradi. Boshida o'quvchiga individual yordam kursatib, maxsus pedagog biroz vaqtan so'ng bu vazifani asosiy o'qituvchi zimmasiga yuklaydi. Zarur bo'lganda. U bolaga ko'maklashishni davom ettiraveradi, ammo yangi bosqichda bolada uchrayotgan muammoning mohiyatini aniqlash muhimroq sanaladi. Shu asnoda mutaxassis integrasiyalashgan o'quvchi bilan ishlayotgan barcha o'qituvchilarga katta yordam ko'rsatadi. Bunday yordam turida holat o'quvchi bilan bevosita ishslash (sinfda yoki undan tashqarida) yoki bola ehtiyojini ko'proq qondirishga qodir o'quv materialini qidirishga qaratiladi. Yordam turli shaklda bo'lishi mumkin o'qituvchilarga o'quvchilar bilan yoki jamoa bo'lib ishslash, texnik va metodik yordamni ta'minlash (metodik qo'llanmalar yaratishda), maslahatlar berish. Flandriya hukumati so'nggi yillarda asosiy mактаб ish faoliyatiga maxsus ta'lim dasturlarini kiritishga oid tajriba o'tkazyapti. Rahbarlarning fikricha, bu o'quvchilarning muammolarini yechish imkonini beradi. O'quvchilar o'rtasidagi tafovutlar an'anaviy ta'lim usullarini o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish ya'ni, ta'limni individuallashtirishga diqqatni kuchaytirish tajribaning asosiy maqsadi xisoblanadi. Maktablar maqsadli yordam guruhlari uchun loyihibar mavjudligi sharoitidagina qo'shimcha xodimlarga ega buladi. Bu sxema ichida

oddiy va maxsus maktablarning shtatdagi xodimlarining birgalikda ishlashi va ayirboshlashi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Integrasiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashishning eng ko'p tarqalgan turi yaqinida joylashgan maxsus mактабдан maxsus o'qituvchi yoki boshqa zarur professionalni jalb qilishdir. Yordam berishning bu turi «integrasiyalashgan ta'lim» jadvali ichida belgilanishi mumkin. Shunday qilib, maxsus ta'limda jamlangan tajriba va maxsus bilimlar oddiy sinflarga beriladi. Taxmin qilish mumkinki, bunday hamkorlik asosiy ta'limni maxsus texnologiyalar bilan izchil boyitish imkoniyatini yaratadi. Biroq hozircha o'quvchilar umumta'lim mактабining standart talablariga javob berishi uchun hamkorlik ko'pincha ularga qo'shimcha yordam tarzida tushuniladi. Bolada rivojlanishning kichik kamchiliklari mavjud bo'lgan hollarda (bu kamchiliklarni bartaraf etish) «vaktinchalik yordam» nazarda tutiladi. Uning davomiyligi bir mактаб pog'onasida ikki yildan ortiq bo'lmasligi lozim. Ta'limda o'ziga xos qiyinchiliklarga ega no'qsonlari mavjud o'quvchilar maxsus mактабдан umumta'lim mактабiga o'tish paytida yil mobaynida maxsus yordamni olib turadilar. Nuqsonlari jiddiy hisoblanadigan (masalan, ko'rish yoki eshitishida no'qsoni bo'lgan) o'quvchilar maxsus mактабдан haftasiga to'rt soat hajmida doimiy yordam olib turadilar. Flandriya hukumati maxsus ta'limga muxtoj (masalan, Brayl tizimi bo'yicha ta'lim oladigan) -o'quvchilar uchun oddiy maktablarda zarur texnik jihoz va moslashtirilgan materiallarga xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Ta'lim vazirligiga qarashli ko'maklashish xizmati hisoblangan PMS (Psixologiktibbiy-ijgimoiy markazlar) ustida alohida to'xtab o'tish lozim. PMS tarmoqlari maktabgacha muassasalar, boshlang'ich va o'rta mактаб o'quvchilariga psixologik, pedagogik, ijtimoiy va tibbiy ko'maklashishni ta'minlaydi. RM8ning ko'p fanli jamoalari o'quvchilarning umumiyligi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida maktablar bilan hamkorlik qiladilar. Bu faoliyat asosan qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilarga qaratilgan, ammo markazlarning mutaxassislari mактаб o'qituvchilari va ota-onalarga ham yordam ko'rsatadilar. O'qituvchilar bilan bir qatorda umuman o'quv yurti ham PMS obyekti bo'lishi mumkin, biroq maxsus

ta'limga muhtoj o'quvchilarga ko'maklashish ustuvor sanaladi (1999 yilda PMSjiap SVlarga, ya'ni o'quvchilarga rahbarlik markazlariga) aylantirildi. Turli ta'lim tarmoqlari (jamoaviy, xususiy yoki davlat maktablari) o'quv yurti va ularning xodimlariga tashqaridan yo'l- yo'riq ko'rsatadigan o'z xususiy maslahatchilariga ega. Ta'lim tizimi xizmatlari bilan birgalikda ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash idoralariga tobe xizmatlar (reabilitasjion markazlar, yashash joyi bo'yicha shahar xizmatlari, terapevtik xizmatlar) ham integrasiyalashgan o'quvchilarga yordam ko'rsatishi mumkin. Ularning hodimlari maktab sharoitida bevosita o'quvchilarga o'z xizmatlarini ko'rsatishi mumkin. Fransuz jamoasida 1997 yil 28 iyuldaggi Dekretning ijrosini ta'minlash maqsadida maxsus ta'limga muxtoj o'quvchilarga individual yordam ko'rsatishni ta'minlash uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Umumta'lim muassasalarini individuallashtirilgan ta'lim, har xil turdag'i maktab o'qituvchilarining hamkorligi, pedagog va ota-onalarni jalg qiluvchi maktab ta'lim loyihamalarini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Amaldagi o'quv dasturi 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan. U uch bosqichga bo'lingan (ularning har biri besh bosqichdan iborat). Yakuniy baho bola tomonidan 8, 12 va 14 yoshli bolalar uchun meyorlarga mos malaka va ko'nikmalarni egallab olishni hisobga olgan holda qo'yiladi. Ta'lim bolaning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasiga differensiyali yondashish asosida olib boriladi.

### **6.3. Markaziy Yevropa mamalakatlarida inqlyuziv ta'lim**

**Buyuk Britaniya** Buyuk Britaniya maxsus muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan og'ir nuqsonli bolalarni integrasiya dasturi ishlab chiqilgan edi. Qaysi maktabda integrasion ta'lim tizimi joriy etilgan bo'lsa, usha maktabga maxsus muassasalarda o'qitilayotgan bolalarning bir qismi qamrab olinadi. Integrasiya tizimini yanada puxtarloq joriy etish maqsadida jismoniy tarbiya, o'yinlar bir qancha amaliy mashg'ulotlar kiritildi (Evans. L ma'lumotlari, 1996 yil). Angliya va Uelsda barcha o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun sind bilan ishlaydigan o'qituvchi mas'uldir. Ta'lim to'g'risidagi aktga binoan (1996) barcha

umumta'lim maktablarida shtatli xodimlar ichidan maxsus ta'lim masalalari bo'yicha koordinator (SENCO) tayinlanadi. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- maktabda maxsus ta'lim jarayonini kundalik boshqarish;
- fan o'qituvchilar o'rtasidagi aloqalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish;
- o'quvchilar uchun zarur bo'lgan tibbiy-psixologik, ijtimoiy xizmatlarni tashkillashtirishni jamoat uyushmalari va boshqa tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish orqali amalga oshirish;
- maxsus ta'limga muxtoj bola bilan bevosita ishlash;
- o'quvchilar rivojlanishini monitoring qilish;
- ota-onalar bilan aloqalarni qo'llab-quvvatlash;
- o'qituvchilar malakasini oshirish.

- Maktablar uzoq muddatli yordamni maslahatchi o'qituvchilar tomonidan olishlar ham mumkin. Maslahatchi o'qituvchi nafaqat o'qituvchilarga ta'lim strategiyasi va ta'limning qo'shimcha materiallarini tavsiya qilishi, balki o'quvchilar bilan bevosita ishlashi ham mumkin. Butun mamlakat bo'yicha yordamning ko'p turlari «Local Educational Authorities» (LEA) ta'limni boshqarishning mahalliy organlari tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Ularning tarkibida nuqsonlarining turiga ko'ra maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga ko'maklashish xizmatlari mavjud. Odatta, (LEA) orqali maktablar integrasiyalashgan ta'limni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan moddiy yordamini oladi. Mazkur mablag'lardan qanday foydalanish to'g'risidagi qarorni maktabning o'zi mustaqil qabul qiladi. O'ta og'ir nuqsonlari mavjud bolalarga yordam uchun mablag'lar davlat byudjetidan markazlashtirilgan holda ajratiladi (Qirollikning turli hududlarida bu summalar jiddiy farq qilishi mumkin). 1979 yilda Olmoniyada ta'limga bag'ishlangan majlis qatnashchilarini tomonidan maxsus ehtiyojli bolalarni integrasiya ta'lim tizimida o'qitish konsepsiysi ishlab chiqildi. Bu konsepsiyada integrasiyaning xilma-xilligi va uning mazmun-mohiyati yoritib berildi. B. P. Puzanov va Yu. A. Kostenkova (1999) larning yozishlaricha, XX asrning 80 yillariga kelib Olmoniya ta'lim tizimida integrasiyalashning yangicha talqindagi o'quv materialini o'quvchilar imkoniyatlariga

moslashtirish ishlari amalga oshirila boshlandi. Ta’lim qonunchiligi va ta’lim tizimini boshqarish asosan ularning mas’uliyati ostidadir va shu sababli hududlar bo‘yicha muhit o‘zaro farq qilishi mumkin. Oddiy o‘quv yurtlariga integrasiyalashgan maxsus ta’limga muxtoj o‘quvchilarga yordam berishning shakllari ham har xil. Barcha yerlar uchun «Maxsus ta’limni tashkil qilishga oid tavsiyalarni» (1972 yil, mart) asosiy hujjat deb hisoblash mumkin. Keyingi 20 yil mobaynida maxsus tarbiyaga muhtojlarning ijtimoiy va ta’lim integrasiysi an’analari kuchaydi, bu esa umumta’lim mакtablariga integrasiyalashgan maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashni yaxshilashga olib keldi. Xozirgi kunda ta’lim tizimi ichida qo‘llab-quvvatlashning turli shakllari mayjud: o‘qituvchi va ota-onalarga to‘g‘ri maslahat berishni ko‘zda tutuvchi oldini oluvchi choralar: erta aralashish. fanlararo hamkorlik, bиргаликда ta’lim olish. Maxsus pedagog yoki boshqa professional tomonidan yordam sinfda yoki sinfdan tashqarida, to‘liq yoki qisman ish kuni davomida (bolaning individual ehtiyojlari yoki mакtab tashqi muhitiga bog‘lik ravishda) ta’milanadi. «Kooperativ shakllar» - maxsus va oddiy mакtablar o‘rtasida o‘quvchilarga birga faoliyat olib borish imkoniyatini ta’minlovchi yaqin pedagogik hamkorlikdir. «Kooperativ shakllar» integrasiyalashgan ta’limga jalb qilingan o‘quv yurtlarining barcha bolalari va pedagoglarining o‘quv faoliyati, butun mакtab hayotini boyitish imkonini beradi. Uning vazifasi integrasiyalashgan ta’lim muhitida o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan ishni kuchaytirishdan iborat bo‘lib, mакtab fan o‘qituvchilariga yordam berish uchun maxsus pedagoglar jalb qilinadi. Yordam, maxsus birlashmalar - mintaqaviy yoki «mintaqa usti» muassasalari, masalan, maxsus pedagogik markazlar (Forderzentren) singari muassasalar tomonidan ta’milanadi. Bu markazlar ta’limni tashkil etish masalalarini yechishga yordamlashadi, yoshlarning mehnat ta’limi va kasbga tayyorgarligini ta’minlaydi. Bunday yordam mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi va hududiy jihatdan o‘quvchining turar joyiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan. Mustaqil hududlarda Forderzentren ishi muayyan ravishda farq qilishi mumkin, ammo ularning faoliyati hamma joylarda o‘quvchi bilan bevosita

birgalikda ishslashga asoslanadi. Forderzentren **alohida pedagoglar** va umuman **mакtablar** bilan hamkorlik qiladi. Markaz vakillari maxsus va umumta’lim mакtablari o‘qituvchilariga maslahat beradi, individual o‘quv rejalarini tuzish va amalga oshirish, o‘quv qo‘llanmalari, materiallarini yaratish va x.kda yordamlashadi. Bir qator hududlarning ish faoliyatida «Ziyon balansi» deb ataladigan tavsiyalardan foydalanadilar. Bu umumiy dastur bo‘yicha ta’lim oladigan maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarga tegishlidir. Gap dasturni o‘zlashtirishda muammosi bo‘lmagan. Lekin jismoniy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar haqida borayapti. Integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam berishda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘quv hokimiyatlari, resurs markazlari va ijtimoiy xizmatlar ishtirok etishi mumkin. Aniq ravishda bu turli hududlardagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan ta’minotda bog‘liq bo‘ladi. Integrasiya jarayoni kuchayishi munosabati bilan ta’lim shart-sharoitlari jiddiy o‘zgaradi. Maktab va o‘qituvchilar yanada ko‘proq o‘qitish va o‘sishning yanada moslashuvchan shakllari konsepsiyasiga rozilik bildiryaptilar. Mакtablar uchun o‘quv dasturi o‘qituvchilarning formal ta’lim maqsadlariga emas, balki o‘quvchilarning individual rivojlanishi va maxsus ehtiyojlariga diqqatni qaratishni rag‘batlantirish uchun yaqqol ravishda o‘qituvchilarga katta erkinliklar berilayotganligi qayd etilgan.

**Gretsiya** Maxsus pedagog oddiy sinfda yordamchi o‘qituvchi hisoblanadi. Undan mакtab xodimlarini o‘quvchida maxsus ta’limga muhtojlik mavjudligi to‘g‘risida xabardor qilish talab etiladi. Maxsus pedagog ishi o‘quvchiga bevosita yordam berish va sinf o‘qituvchisiga maslahat berishdan iborat. Keyinchalik o‘quv materialini tanlab olish va o‘quv rejasini differensiyalashda yordam ko‘rsatiladi. Undan tashqari, maxsus pedagog integrasiyalashgan o‘quvchining sinfdoshlariga uning muammolari to‘g‘risida axborot beradi, mакtab va maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchining oilasi o‘rtasida hamkorlik qilishni tashkil etishga ko‘maklashadi. Ta’lim yordami o‘quvchiga faqatgina mакtab ichida ko‘rsatiladi. Maxsus pedagog bir vaqtning o‘zida bir necha mакtabni otaliqqa olgan maxsus ta’lim masalalari bo‘yicha mакtab maslahatchisi bilan

to‘gridan-to‘gri hamkorlik qiladi. Zaruriyat tug‘ilganda, maktabga ijtimoiy va psixologik yordam berilishi mumkin. U asosan ijtimoiy ta‘minot vazirligining tibbiyot-pedagogik markazlari orqali beriladi.

**Daniya** Umumta‘lim maktablarida maxsus ta‘limga muxtoj bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mas‘uliyat usituvchiga yuklatilgan. Bu ex,tiyojlarni psixolog-pedagogik xizmat belgilaydi; keyinchalik u o‘quvchining rivojlanishini kuzatdi, uni o‘qitish dasturiga tuzatishlar kiritadi. O‘quvchini maxsus ta‘limga yo‘llash to‘g‘risidagi masala o‘quv ishlari bo‘yicha mudir vakolatiga kiradi. Integrasiya holida bola turli yordam olishga umid qilishi mumkin sinfda maxsus o‘qituvchi bilan maxsus ta‘lim olish sinfdan tashqarida <<guruhda ta‘lim olish>> (agar o‘quvchi bir yoki bir necha fanlar bo‘yicha muntazam yordamga muhtoj bo‘lsa). O‘quvchi sinf o‘qituvchisi bilan kuniga bir necha soat hamkorlik qiladigan maxsus pedagogdan ham yordam olishi mumkin. O‘qituvchida o‘quvchiga tanaffuslar va darsdan tashqari tadbirlar paytida xamrohlik qiladigan assistant bo‘lishi ham mumkin. O‘qituvchi maxsus pedagog va assistant yaqin hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

**Irlandiya** Maxsus ta‘limga muhtoj integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish maxsus pedagog, fan o‘qituvchilari, assistantlar hamda ta‘lim va fan departamentining maktabdan tashqari ta‘lim va psixologik xizmatlari mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari haqida ularda o‘qish va matematikani o‘zlashtirishda muammolar mavjud bo‘lgan hollarda ushbu maqsad uchun ajratilgan maxsus pedagoglar g‘amho‘rlik qiladilar. 2000 yildan boshlab mamlakatning barcha maktablari ularning xizmatlari bilan ta‘minlangan. Ta‘lim olishda jiddiy qiyinchiliklarga uchrayotgan o‘quvchilar uchun umumta‘lim maktablarida alohida sinflar tashkil etiladi va ular bilan maxsus pedagog ishlaydi. Ta‘lim va fan departamentining maktabdan tashqari (keluvchi) ta‘lim xizmati maktabgacha va maktab o‘quvchilari va ularning ota-onalariga yordam ko‘rsatadi. Gap eng avvalo, ko‘rish va eshitish qobiliyati buzilgan bolalar haqida ketayapti, biroq ayrim o‘ituvchilar Daun (sindromi) alomati mavjud bolalarga ham yordam ko‘rsatadi. Mutaxassislar sinf bilan

birgalikda yoki sinfdan tashqarida ham, nafaqat boshlang‘ich maktablarni, balki kattaroq yoshdagagi o‘quvchilariga maslahat beradi. Har bir bolaning ta‘lim olish huquqini ta‘minlash uchun ta‘lim va fan departamenti psixologik xizmati pedagoglari ixtisoslashgan davlat va ko‘ngilli tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Ta‘lim va fan departamentining psixologik xizmati jismoniy rivojlanishida muammolari mavjud bolalar hamda ta‘lim olishda qiynalayotgan o‘quvchilarga katta e’tibor berib, umumta‘lim maktablari uchun tekshiruv (baxo berish) va maslaxat berishni ta‘minlaydi. Avvaliga bu xizmatlar yirik shaharlarda jamlangan edi, ammo 1999 yilda ularning o‘rniga yagona Milliy ta‘lim psixologik xizmati (NEPS) keldi. Bu hol shahar tashqarisida yashaydigan o‘quvchilarga ko‘maklashishni ta‘minlash imkonini berdi. 1998-99 o‘quv yilida barcha maxsus ta‘limga muhtoj integrasiyalashgan o‘quvchilar hamda maxsus maktablarning o‘quvchilari ‘zarur bo‘lgan o‘quv-texnik yordam bilan ta‘minlandilar. Irlandiya o‘z oldiga maxsus ta‘limga muhtoj barcha shaxslarning integrasiyalashgan ta‘lim olishiga zarur bo‘lgan resurlardan foydalanishni ta‘minlashni maqsad qilib qo‘ydi. Yuridik jidatdan ularni ta‘lim olishi, deb konstitusion resursdan foydalanish imkonini beradigan <<Talim to‘g‘risida>>gi Akt (1998) tufayli mumkin bo‘ldi. Aktda etirof etilishicha, Ta‘lim va fan vaziri insonning qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda mamlakatning jismoniy nuqsonlarga ega va maxsus talimga muhtoj har bir fuqarosiga yordam ko‘rsatish va sifatli talim berish mumkinligini taminlash lozim deb bildi.

**Islandiya** <<Majburiy talim tug‘risida>>gi qonunga binoan (1995) maxsus talimga muxtoj maktabgacha yoshdagagi va maktab o‘quvchilari maxsus yordam olish hududiga ega. Maxsus ta‘lim olish maqsadlari, dastur mazmuni va o‘qitishitish uslublarini o‘zichigaoladi.<<Maktablarga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida>>gi nizom (1996) o‘zini-o‘zi boshqarishning mahalliy organlari zimmasiga maxsus pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning xizmatlari bilan birga shadat umumtalim maktablariga zarur

yordam kursatishni ta'minlashni yukladi. Yordam ko'rsatish deganda, maktab o'qituvchilariga uquv dasturlari va asosiy fanlarni o'qitish savollari bo'yicha maslahat berish, o'quvchilarga psixologik-pedagogik maslahat berish nazarda tutiladi. Asosiy etibor o'qituvchi va o'quv bo'limi mudiriga ularning kundalik ishlarida, shu jumladan maxsus talimga muhtoj integratsiyalashgan o'quvchilar bilan ishlashda yordam ko'rsatish hamda maktab hayoti faoliyatini yaxshilash bo'yicha o'quvchilarning integrasiyalashgan talim muammolarini mustaqil yechishni o'rganishi lozim bo'lgan shtatdagi xodimlarining kasbga oid bilimlarini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ota-onalarga maslahat berish - maktabdan tashqaridagi mutaxassislar xizmatlari qatoriga kiradi. Ko'pchilik umumta'lim maktablarida maxsus ta'limni tashkil etish uchun javobgar o'quv bo'limi mudiri mavjud. Integratsiyalashgan O'quvchilarni o'qitish uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni taklif etish uning vakolatiga kiradi. Maktab ma'muriyatining bu vakili maxsus ta'limga muxtoj o'quvchilarga muayyan darajada ko'maklashadigan shaxslarning ishini muvofiqlashtiradi. U maktabda mavjud turli uslublar va resurslardan optimal tarzda foydalanish uchun mas'uldir. Undan tashqari, u maxsus mashg'ulotlar o'tkazishi, fan o'qituvchilari bilan birgalikda ta'limning individual dasturlarini yaratishi va maxsus maktablardan ham yordam olishi mumkin.

**Ispaniya** Alvaro Marchesi Uyastresning tahlili asosida Ispaniyadagi inklyuziv ta'lim xususida quyidagi ma'lumotlar olindi: Ispaniya hukumati tomonidan 1985 yilda rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni ta'lim sohasida integrasiya qilishni nazarda tutadigan loyihani ma'lum qildi. Loyixa sakkiz yillik muddatga mo'ljallanib, unga ikki maqsad qo'yildi: 1. Maxsus muassasalarda ta'lim olayotgan bolalarni umumta'lim maktablariga kabul qilish uchun imkoniyat yaratish; 2. Sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalarni sifatli ta'lim- tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Ispaniya Ta'lim vazirligi loyihani bajarish maqsadida ixtiyoriy integrasiya dasturining joriy etilishi xaqida qaror qabul qildi. Loyihada ishtirok etish istagida maktab va vazirlik o'rtasida o'zar kelishuv shartnomasi tuzildi. Loyixa boshlanishi bilan (1985-86

yillar) Ispaniyaning 300 ga yaqin maktablari xar yili integrasiya dasturida ixtiyoriy ravishda qatnashish istagida talabnomalar berdilar. 1990 yilda Ispaniya parlamenti tomonidan ta'lim tizimi tog'risidagi yangi umumiy qonun qabul kilindi. Bu qonunda umumta'lim tizimida barcha o'quvchilar uchun yuqori sifatlari ta'lim olishlari kafolatlandi. 1994 yilning boshida Ispaniyada boshlang'ich maktablarning 40 foizida inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilindi. 969/1995-sonli dekret maxsus ta'limga muxtoj o'quvchilarga yordam tuzilmasini belgilab berdi. Zaruriyat paydo bo'lganda. maktab ta'limni boshqarishning maxalliy organlaridan yordamga muhtoj bolalar uchun har qanday yordam turini so'rash mumkin. O'qituvchilar sinfdagi ishni tashkil qilish, bilimni baxolash va oila bilan aloqalarni qo'llab-quvvatlash (axborot, hamkorlik, birga ishlash va k.) uchun mas'ul sanaladilar. Fan o'qituvchisi jalb qilinadigan mutaxassislar (logopedlar, maslahatchilar, maxsus pedagoglar, fizioterapevtlar va l.k.) bilan birgalikda ishlaydi. Umumta'lim maktabi taiqi va ichki yordamni talab etishi mumkin. Birinchisini turli o'quv yurtlariga biriktirilgan psixologik-pedagogik yordamning maxalliy xizmatlari berishi mumkin. Xodimlari o'quvchilarning psixologik-pedagogik baholanishi uchun masuldirlar: ular o'qituvchi va maktab o'quvchilari tarkibiga qanday choralar ko'rishni tavsiya etadilar: maxsus ta'limga muxtoj bolalarni o'qitish dinamikasini kuzatib turadilar oilalar bilan ishlaydilar. Ikkinci turdag'i yordam esa maktab ichidagi ko'maklashishdir. Barcha boshlang'ich o'quv muassasalarida o'qishga ko'maklashadigan korreksion pedagog shtati mavjud. Maxsus ta'limga muhtoj o'quvchi boshlang'ich yoki o'rtalik maktabga qachon integrasiyalashgan bo'lishidan qat'iy nazar. mavjud nuqson turiga ko'ra maxsus pedagog tomonidan zarur korreksion pedagogik yordam oladi. Sinf uchun o'quv dasturlarini tabaqlashtirish va qo'llashda o'qituvchilarga yordam ko'rsatilishi mumkin. Buning uchun turli mutaxassislar: psixolog, mutaxassis o'qituvchi logoped jalb qilinishi mumkin. Ularning o'zlarini bolaning maktab sharoitlariga moslashishida yordamlashishi, uning uchun individual ta'lim dasturini ishlab chiqishi mumkin. Yordam ta'limning foydalilaniladigan uslublari va texnikasini tanlash bo'yicha maslaxat berishga qaratilishi xam mumkin.

**Italiya** Tulis ta’lim integratsiyasini kiritib, 04/1992-sonli qonun maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchiga maxsus pedagog tomonidan yordam ko‘rsatilishini nazarda tutgan edi. Bolada bunday ehtiyojlarning mavjudligi rasmiy ravishda aniqlangan bo‘lishi lozim (1994 yil 24-fevraldagi dekret). Maktabgacha ta’lim muassasalari, boshlang‘ich va o‘rta maktablarda assistent o‘qituvchilar mavjud. Ular assosiy pedagoglar bilan bir qatorda o‘quv muassasasidagi barcha tarbiyalanuvchilarning ta’limi sifati uchun javobgar sanaladilar. Assistentlar (o‘qituvchi yordamchilari) uquvchilar bilan sinfda va undan taishqarida. yakka tartibda yoki kichik guruhularda ishlashi mumkin. Asosiy pedagog bilan birga ular xar integratsiyalashgan o‘quvchi uchun individual o‘quv rejasi tuzadilar, uni amalga oshirishda ishtirok etadilar. Mahalliy darajada Viloyat ta’lim departamenti nazorati ostida ishchi guruhlari deb atalgan guruhlар tuziladi. Ularga maktab inspektorlari, turli mutaxassislar, maxsus tarbiyaga muhtojlar uyushmalarining vakillari kiradi. Ishchi guruhlarning vazifasi shundan iboratki, ular integratsiyalashgan ta’limni tashkil qilish bo‘yicha shahar maktablarining ishlarini kuzatib boradilar va baxolab turadilar xamda integrasiyalashgan ta’limni tashkil etadilar, maktab ma’muriyati va pedagoglarga maslahat beradilar. Zaruriyat paydo bulganda, shaxar sog‘liqni saqlash xizmatlarining kuchlari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

**Lyuksemburg** 1994 yildagi qonun maxsus ta’limga muhtoj O‘quvchilari uchun maktab ta’limining turli shakllarini ko‘zda tutadi. Unda yuridik jihatdan o‘quvchilarga ko‘mak berishning tashkiliy shakllari zikr etilgan. Umumta’lim maktablari sharoitlarida shtatlri maxsus pedagog emas, balki «yordamchi personal» deb ataladigan gurux; integrasiyalashgan o‘quvchiga yordam kursatadi. Ular maktab fanlar uqituvchilari sanalmasa xam umumiyligi pedagogik tayyorgarlikka ega maxsus pedagoglar, professional terapevtlar maxsus instrukturlar (shu jumladan LFK metodistlari), psixoterapevtlar, logopedlar tashkil etadi. Yordamchi personalning vakillari talim va korreksiya (reabilitasiya) sox, asidagi mutaxassislar sanaladi. qonun mualliflarining fikriga ko‘ra masuliyatning bunday bo‘lib olinishi amalda yaxshi natijalar beradi. Maktab o‘qituvchisi bevosita sinfdagi umumiyligi ish uchun javobgar va integrasiyalashgan o‘quvchilarning

sinfdagagi ta’lim uslublari uchun masuliyatni bulib olish muammolaridan xavotirlanmasligi darkor. Unga zarur qo‘srimcha axborotni yordamchi personalning a’zolari berishi kerak. Yordam kursatish buyicha mas’ul va bevosita maktab inspektorlari va o‘qituvchilar bilan ish olib boradigan Ambulator reabilitasion departament (SREA) tomonidan ko‘rsatiladi.

**Niderlandiya** Requera B ning yozishicha maxsus ehtiyojli bolalar va o‘smirlarni Niderlandiyada ijtimoiy jamiyatga tayyorlashda ijtimoiy mexnat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar, vazirliliklar va xududlardagi ijtimoiy mexnat reabilitasiysi komitetlari amalga oshirgan (1996 yil). Integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish maxsus maktablardan keladigan korreksion pedagoglar tomonidan ta’milanadi. Ularning o‘zлari umumta’lim o‘quv yurtlari pedagog va ma’muriyatga maslaxat beradi. Oddiy maktablarga chaqiriladigan maxsus maktablarning pedagoglari integratsiyalashgan o‘quvchilar uchun o‘quv rejalarini ishlab chiqishda o‘qituvchilarga yordamlashadilar hamda biror nuqson mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanadilar. Integrasiyalashgan ta’limni tashkil etishda katta tajribaga ega bo‘lgan umumta’lim maktabi shtatidagi o‘qituvchi ham kurator sifatida jalb qilinishi mumkin. Bunday hollarda yordam individual ta’lim ehtiyojlari harakteri tug‘risida o‘qituvchilarga axborot berish va qo‘srimcha o‘quv materiallari berish shaklida amalga oshiriladi. Umumta’lim maktabi byudjetni oshirish va integrasiyalashgan o‘quvchilarga bevosita yordam ko‘rsatish bo‘yicha mas’uliyatli Xisoblanadigan «yordamchi o‘qituvchi» shtatini kiritish buyicha murojaat qilishi mumkin. Yordamchi o‘qituvchi vazifalarining bajarilishi umumta’lim maktabi o‘qituvchilaridan birining zimmasiga xam yuklatilishi mumkin. Integrasiyalashgan talimga talabgorlarni saralab olish ancha jiddiy ish. Uni yaxshi natijalar ko‘rsatishga sodir bolalarni umumiyligi maktabga ko‘chirishni tavsiya qiladigan maxsus maktablar taminlaydi. Integrasiyalashgan talimni tashkil etishni yordam kursatishning vaqt bo‘yicha qonunchilik tomonidan cheklab qo‘yilishi qiyinlashtiradi. Jalb qilinuvchi mutaxassislar xizmatlarini byudjet tomonidan kafolatli moliyalashtirish muayyan muddatga mo‘ljallangan. Masalan, jismoniy nuqsonlari mavjud o‘quvchilarga tashqaridan keluvchi

pedagoglar tomonidan yordam kursatish muddati ikki yilga mo‘ljallangan. Bu vanqt o‘tganidan so‘ng maktab mustaqil ravishda integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam berishni tashkil etish usulini qidirishga majbur. Shunday qilib, hatto integrasiyalashgan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatishga tegishli byudjet buyicha mablag‘ ajratilganiga qaramasdan, muayyan bosqichda umumta’lim o‘quv yurti maxsus ta’limga muxtoj o‘quvchilarga sifatli yordam kursatishning moliyaviy muammolari bilan to‘qnashadilar. Ommaviy maktab o‘qituvchilarining biror nuqsoni mavjud bolalar bilan ishlashning xususiyatlari bilan tanishtiradigan qisqa muddatli kurslarga qatnashishining imkoniyati bo‘lmaganligi muammo bulib qoladi. Umumta’lim muassasalarinin o‘qituvchilari asosan maxsus maktablardan kelib ishlovchi Usituvchilardan zarur axborot olib turadilar. Integrasiyalashgan o‘quvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar malakasini oshirish nuqtai nazaridan mintaqaviy kurslarni eng samarali deb tan olinadi. Evans. B ning ma’lumotlari (1995 yil) asosida Niderlandiyaning 28 ta umumta’lim boshlangich maktablarining tarkibida nuqsonli bolalar ham o‘qitilgan. Ta’lim maslaxat markazlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umuta’lim sharoitida o‘qitish va tarbiyalash yo‘llari, xususiyatlari hamda bu bolalar xaqida bilish va ma’lumotlar berish borasida bo‘lim faoliyat yuritgan. Bu bo‘limlarda o‘quv materiallari va dasturlarini yangilash, integratsion ta’limning yagona g‘oyasini ishlab chiqish. Bu ta’lim tizimidagi muammolarning yechimini izlab topish borasida ish yuritilgan.

**Norvegiya** O‘quvchilarga yordam berish psixologik va ta’limiy yordam ko‘rsatish xizmatining (EPS) o‘quv yurtlari va ota-onalarga maslahat beradigan xodimlar tomonidan ta’minlanadi. Maxsus ta’limning mazmuni. darajasi va tashkiliy shakllari muhokama qilinadi. EPS xizmatchilari o‘qituvchilarga ularning o‘quvchilar bilan kundalik ishlarida maslaxat berish bo‘yicha mas’uldir. EPS xodimlariga maxsus bilimlar yetmaydigan hollarda ular milliy resurs markazlaridan birortasiga yordam so‘rab murojaat qilishlari mumkin. Bu markazlar umumta’lim maktablari pedagoglari malakasini oshirish bo‘yicha qisqa mudatli ixtososlashtirilgan kurslarni xam tashkil qiladilar. Sinfning barcha o‘quvchilari uchun

mas’uliyat integrasiyalashgan bolalar bilan ishslashda ko‘maklashadigan maxsus mutaxassisiga birktilgan o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Maxsus yordamchi mutaxassis qisman yoki to‘liq; ish kuniga jalb qilinishi mumkin. Uning xizmatlari doirasiga darslarda qatnashish va yoki tanaffus paytida o‘quvchilarga jismoniy jihatdan ko‘maklashishi kirishi mumkin.

**Portugaliya** Integrasiyalashgan bolalarga yordamlashish bevosita sinfda maktab o‘qtuvchilari tomonidan ta’minlanadi. Aynan uning o‘zi o‘quv dasturini yakunlash uchun javobgardir. Sinfda turli muammolarni yechish uchun o‘qituvchi tayyor bulmaganligi sababli bolalarning o‘qishida jiddiy qiyinchiliklar, xulq buzilishi va h.k kelib chiqadi. O‘qituvchi, bola qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini bilmasligi. differensiyalangan individual ta’limni tashkilashtirish uchun yetarlicha kasbiy bilimlarga ega bo‘lmasligi mumkin. Umumta’lim maktablari pedagoglari o‘quvchilar uchun individual dasturlar, maxsus ta’limga muhtoj o‘quvchilarni o‘qitishning kundalik amaliyotida yordamchi texnik vositalar va yangi texnologiyalardan foydalanish malakalarini egallahsga muxtojdirlar. 1997 yildagi 105/97-sonli qonunga muvofik; umumta’lim maktablarining integratsiyalashgan o‘quvchilarga ta’lim berishning sifati uchun javob beradilar. Uning qabul qlinishi maktab uchun zarur resurslar tug‘risida tasavvurlarni uzgartirish bilan bog‘lik; edi. Shunisi tan olindiki, tapsharidan mutaxassislarini jalb ^ilish urniga umum- ta’lim maktablari shtatlarini qayta kurib chiqish lozim. Kadrlarga oid siyosatning o‘zgarishi fan o‘qituvchilariga yanada xilma-xil tashkiliy yordam berishni ta’minalashga, maktab ichida fan o‘qituvchilariga ularning ishi buyicha maslax, at berishni ta’minalashga qaratilgan.

- Zaruriyatga ko‘ra, turli maktablarda ishlashi mumkin bo‘lgan maxsus pedagoglarning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:
- o‘quv bo‘limi mudiri va umuman maktab xamda integrasiyalashgan o‘quvchi shug‘ullanadigan sinf o‘qituvchilari bilan hamkorlik qilish;
- mutaxassis o‘quvchiga o‘quv dasturini moslanuvchan ravishda sayta tuzish;
- uni o‘quvchi imkoniyatlariga mos ravishda differensiyalash;
- ta’limning maxsus uslublaridan foydalanishda ko‘maklashish.

**Finlyandiya** Integrasiyalashgan bolalarga yordamlashish maktab tibbiy xizmati xodimlari va maxalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ta’lim xizmati tomonidan ta’minlanadi. Birinchisi, turli mutaxassis va terapevtlar (logopedlar, psixoterapevtlar, terapevtlar va l.k.) tomonidan amalga oshiriladigan yordam dasturi uchun javob beradi. Ikkinchisi, integrasiyalashgan bolalar uchun ta’limning zarur sharoitlarini ta’minlashga mo‘ljallangan. Zaruriyat tug‘ilganda o‘quv dasturi integrasiyalashgan bolaning imkoniyatlariga ko‘ra moslashтирildи. Maxsus ta’limga o‘tkazilgan xar bir bolaga, o‘quv jadvali talabini e’tiborga olgan xolda individual reja tuziladi. O‘quv rejasi bola farovonligi uchun javobgar barcha jamoa tomonidan bиргаликда tuziladi. Jamoaga o‘quvchining o‘zi, uning ota-onasi, u bilan ishlaydigan pedagog, mutaxassis va ekspertlar kiradi. O‘quvchi xamma vaqt yoki faqat ayrim darslarga kelib, asosiy guruxda o‘qishi mumkin. Maktab shtatida maxsus pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va maslaxatchilar mavjud. Ularning bari O‘qituvchiga yordam ko‘rsatadi. Maxsus O‘qituvchi sinf o‘qituvchisi va uning yordamchisiga ko‘maklashish xamda maxsus gurux yoki yakka tartibdagi mashg‘ulotlarga o‘quvchi olish uchun asosiy guruxga kelishi mumkin. Dars o‘tkazish jarayonida zaruriyatga qarab boshqa mutaxassislar (logoped, LFK uslubshunosi va x-k.) xam ishtirok etishlari mumkin, ammo odatda ular davolashni individual asosda o‘tkazadilar.

**Fransiya** Integrasiyalashgan o‘quvchilar bilan ishlayotib, o‘qituvchilar maktab psixologlari va maxsus pedagoglarni o‘z ichiga olgan ixtisoslashtirilgan yordamchi tuzilmalarga yordam so‘rab murojaat xilishlari mumkin. Jalg qilinayotgan xodimlar o‘ziga xos soxada yoki o‘zining butun maktab faoliyatida vaqtincha yoxud doimiy ravishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘quvchilar hamda oddiy sinflarga integrasiyalashgan, rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalarga yordam kursatishlari lozim. Mutaxassislar turli departamentlardan (sog‘lidni saqlash, ijtimoiy masalalar, ta’lim) jalg qilinishi mumkin. Ulardan har biri qisqa yoki uzoq muddatda uchuvchiga yordamlashadi x,amda o‘qituvchi va maktab xodimlariga ko‘maklashadi.

**Shveysariya** Nuqsonli bolalarning ko‘pchiligi umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya olishlari mumkin bulgan. Sinfda 4 ta o‘qituvchi ishlab, 3 tasi umumta’lim dasturida, qolgan bitta o‘qituvchi esa maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi hisoblanadi. Haftada bir marta bu o‘qituvchilar o‘zaro hamkorlikdagi fakultativ mashg‘ulotlar o‘tkazishadi. Shuningdek, maxsus ehtiyojli bola bilan ishlovchi mutaxassis o‘qituvchi daftada bir marta dar bir o‘qituvchi bilan sinfdagi muammolar va masalalar yuzasidan uchrashadi. Bunday o‘qitish yo‘llari integratsion gurudlarda o‘qituvchilarning faoliyat yuritishini yengillashtirib, sinfdagi o‘quv sifatini oshiradi. (Evansp. L., ma’lumotlari. 1995 yil).

**Shvesiya** Ota-onalar va maktab o‘qituvchilariga Okrug kengashi tasarrufida faoliyat yurituvchi Munitsipal (xokimiyat) bolalar reabilitasiya markazining maxsus pedagogi maslahat beradi. Bolaning imkoniyatlaridan kelib chiddan holda ular bирgalikda individual o‘quv rejasini tuzadilar; maktab o‘qituvchisi uning bajarilishi uchun mas’ul hisoblanadi. Zaruriyat tug‘ilganida sinfga yordamchi pedagog taklif etiladi. Shvesiya maxsus ta’lim agentligi (SIH) ham oila va maktablarga masladat berish va yordam ko‘rsatish uchun javobgar. Amalda maslahat berishni aniq bir bola bilan ishlaydigan maslahatchi amalga oshiradi. SIH maslahatchisi, masalan, o‘quv materialiga aloqador tavsiyalar beradi, shahar hokimiyatiga maxsus ta’limga muhtoj bolalarga optimal ta’lim berishni tashkil etishda ko‘maklashadi. Zarur bo‘lganda, maktab negizida fan o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari (sinfga integrasiyalashgan o‘quvchilarning ehtiyojlari va xususiyatlarini nazarda tutgan holda) tashkil qilinishi mumkin. G. Miron esa quyidagi ma’lumotlarni beradi: 1981 yilda UNICEF Shvesiya hukumatidagi tashkilotda 6 yoshgacha bo‘lgan nuqsonli bolalarni noformal o‘qitish dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur asosida nuqsonli bolalarni ommaviy muassasalarda o‘qitish tizimi, bu bolalarni o‘qitishda ota-onalar bilan ishlash metodikasi ishlab chiqilib, Nikaraguada ham qo‘llanila boshlandi (1995 yil).

### Nazorat uchun savollar

1. Integratsion siyosatning asosiy xususiyatlari haqida gapiring.
2. Markaziy Yevropa mamlakatlarida inkylyuziv ta’limni qiyoslang.

3. Inklyuziv ta'lim borasidagi xalqaro hamjamiyatda dastlabki ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi.

4. Rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'limning rivojlanganlik darajasi haqida gapiring.

## **VII BOB. MARKAZIY OSIYO MINTAKALARI, SHARQIY, JANUBIY VA MDX DAVLATLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY ETILISHI**

### **7.1. Sharqiy, janubiy osiyo mintakalarida inklyuziv ta'limning joriy etilishi**

#### **Hindiston**

Hindiston qonunida majburiy boshlangich ta'limga jiddiy va katta vazifa deb qaraladi. Ta'lim tizimini rivojlantirish 1947-yilda mamlakat mustaqillikga erishgandan so'ng Hindiston hukumati tomonidan qonuniy tasdiqlangan. 1986-yilda ishlab chiqilgan va 1992-yilda milliy ta'lim qonuniga ko'pgina mutaxassislar va turli shtatlarning vakillari ishtirokida hamda boshqa tegishli fuqarolarning hamkorlikdagi sa'y-harakati bilan qo'shimchalar kiritilgan. Mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning asosiy bandida rivojlanishida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarni barcha qatori ta'lim olishi va ular o'rta sidagi to'siqlarni bartaraf qilinishi qayd etilgan.

Shuningdek qonunda mamlakatda yashovchi fuqarolarning ko'p tillili, diniy-ijtimoiy, madaniy rivojlanishining xususiyati hamda mamlakatda yashovchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, qiz bolalar har xil hududlarda yashovchi mayda millat bolalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligi aniqlanib, ularga qo'shimcha ravishda e'tibor berilib, ta'lim olish xuquqi ta'kidlangan. Hindistonda bolalarning ko'pchilik qismi maktablarda o'qitilishiga qaramasdan 6-14 yosh bo'lgan 35 000 000 nafar bola hanuz ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bunga sabab maktablarning yetishmasligi, binolarning maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga moslashtirilmaganligi, o'qituvchilar davomatining pastligi va yetishmasligi, moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi, maktablardagi ta'lim jarayonining sustligi va h.k.

Turli xil tabiiy ofatlarga ko‘ra boshpanasiz qolgan, boquvchisini yuqotgan, yetim bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar hanuz ta’limdan chetda qolmoqdalar. Keyingi vaqtida ta’lim olishning bir qator mavhum tizimi rivojiana boshladi. Bunday tizimni shakllantirish yaxlit bitta vazirlik doirasida bo‘lishi kerak. deb ta’kidlaydi Keralin Dayr. Ushbu shakllangan ta’lim tizimining vazifasi “o‘yin orqali” o‘qitishga asoslangan yangi ishlab chiqilgan dastur yordamida, o‘qituvchi o‘quvchiga yondashish yo‘li bilan o‘qitish talab etiladi. Bunday yondashuv doirasida o‘qitish har xil bolani ehtiyojini qondirish uchun individuallashtirilgan bo‘lishi ta’kidlangan.

Inklyuziv ta’limning ijtimoiy masalasi har bir uzoq masofadagi hududlarda yashovchi bolalarni ota-onalarning xohishiga ko‘ra davlat maktablarida o‘qitish davlatning imkoniyati va o‘qituvchilarining xohishi, imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan. Davlat maktablariga qatnovchi guruqlar ko‘philigi an‘anaviy segregatsion guruhlardan qatnaydilar, bu esa ijtimoiy inklyuziyaning muhim, muammosidir. Bu mamlakatning davlat qonuni, formal va noformal ta’lim tizimini joriy qilishda UNICEF va UNESCO tashkilotining hissasi va bevosita xamkorligida tuzilgan “Nuqsonli bolalarning integratsion ta’lim loyihasi” bo‘yicha ish olib borila boshlandi. Bu loyiha Hindiston hukumati siyosati va etnik holatini hisobga olgan holda tuzilgan.

### Nikaragua

1979-yilda Nikaragua ta’lim vazirligi nuqsonli bolalarni o‘qitish dasturini olib boruvchi maxsus bo‘lim tashkil etdi. Bundan tashqari nuqsonli bolalarning o‘quv imkoniyatlarini tashxis qilish markazi va maxsus muassasalar xujjalari axborot bazasi yuzasidan ish yuritish markazlari ham ochildi. Mamlakatda ommaviy maktab tizimida ko‘plab qiyinchiliklar bo‘lib, maktabga qatnamaydigan bolalarning soni juda yuqori edi. Nuqsonli bolalar ta’limi maxsus segregasion va ommaviy maktablarda integrasion sinflar shaklida tashkil etilgan. Maxsus maktablarda faqat ogir nuqsonli bolalar o‘qitiladi.

### Laos

Laosda barcha bolalarning ta’lim olishini ta’minalash va ularning barcha huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining asosiy vazifasi xisoblanadi. 1993-yilda ular va nuqsonli bolalar ta’limini ta’minalash dasturi ish boshladi. Dasturning har bir ishtirokchisi joylarda loyixa mazmunini targ‘ibot qiladi. Inklyuziv ta’lim tizimi borasida treninglar uyushtirib, mutaxassislarini tayyorlaydi deya, UNESCO 1996-yilgi xalqaro hisobotida ma’lumot berilgan.

### Tailand

Tailandda og‘ir va o‘rta darajadagi nuqsonli bolalarni ommaviy maktablarga qabul qilish, o‘qitishga va bunga o‘qituvchi-mutaxassislarini tayyorlashga oid o‘quv loyihasi ishlab chiqildi. Radjabatandagi Suan Disit institutida o‘tkazilgan ikkita konfrensiyadan so‘ng inklyuziv maktablarning uchta yo‘nalishidagi konsepsiysi ishlab chiqildi. Birinchi yo‘nalish qo‘shimcha guruh, bulib, u administratorlar, o‘qituvchilar va ota-onalardan tashkil topgan. Ikkinci yo‘nalish og‘ir va o‘rta darajadagi nuqsonli va sog‘lom bolalarni ommaviy sinflarda o‘qitishni tashkillashtiruvchi o‘qituvchilar va ota-onalar; Uchinchi yo‘nalish sinflar uchun individual rejalarini ishlab chiqishda qo‘llab-quvvatlovchi administratorlar, o‘qituvchi, volontyorlardan iborat (UNESCO xisoboti, 1996-yil).

### Vietnam

Vietnamdagi inklyuziv ta’lim tizimini o‘rganish shuni ma’lum qiladiki, bu yerda ikkita xolat kuzatiladi. Ta’lim vazirligi tomonidan Davlat fan va ta’lim institutida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’limning samarali natijalarini aniqlash uchun ish olib boriladi (UNESCO xisoboti, 1996-yil).

## 7.2. MDH davlatlarida inklyuziv ta’lim

### Litva

Litvada 1992-yil Maorif vazirining tashabbusi bilan maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimiga integrasiyalash modeli ishlab chiqilishiga tayyorgarlik ishlari boshlandi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun xorijiy va litvalik Vilnyus

universitetining maxsus pedagogika laboratoriysi qoshida bu tizim tashabbuskorlaridan xodimlar, bolalar, psixiatrlar, psixologlar, logopedlar va pedagog-defektologlardan iborat mutaxassislar guruhi tuzildi. Bu guruh tomonidan “Maxsus ta’lim tizimining loyihasi” nomi bilan integrasion ta’lim tizimining boshlang‘ich loyixasi ishlab chiqildi. 1993-yilda Litva Madaniyat va maorif vazirligi tomonidan “Maxsus ehtiyojli bolalarga umumta’lim muassasalariga yordam berish (imkoniyatlari) tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni tasdiqlandi.

### **Armaniston**

Barcha MDX mamlakatlaridagidek Armanistonda ham xar bir shaxsni jamiyatda ta’lim olish huquqiga ega ekanligini va uni ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy xolatidan qat’iy nazar ta’lim olish huquqi ta’minlangan. Shu bois oxirgi 10 yil ichida Armanistonda ijtimoiy ximoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, yetim bolalar, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo’llashga, ta’lim olish masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Shuningdek inklyuziv ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlaitirishga oid dastlabki ishlar olib borilmoqda. Qo’shimcha yordam ko’rsatuvchi xodimlar va yordamchi xizmatlarni jalb qilish uchun inklyuziv ta’limni moliyalashtirish masalasi davlat tomonidan ma’qullanib, 2006-yilda inklyuziv maktablarga qo’shimcha mablag‘ ajratildi. Armanistonda 49 ta inklyuziv maktab mavjud bo‘lib. 700 nafar jismoniy, aqliy va ijtimoiy muammosi bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar. Bu maktablar inklyuziv ta’lim jarayonini rivojlantirish va kengaytirish uchun resurs bo‘lib xizmat qiladi. Armanistonda maxsus ehtiyojli bolalar ehtiyojini qondirishning davomiyligini ta’minalash maqsadida maxsus va inklyuziv ta’lim jarayonini nafaqat asoslash, rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishga hukumat parlament tomonidan bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Bunday eskicha yondashish davomiyligi hamma uchun bir xil bo‘lgan yangi inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Jamiyatda noto‘g‘ri stereotipni va psixologik komplekslarni shakllanganligini yo‘q qilish va inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirishning eng ma’qul va to‘g‘ri, sinfda va sinfdan tashqarida bolalar orasida xamkorlik qilishdan iborat. Shu

fanni o‘qitadigan o‘qituvchilarda shu sinfda o‘qiydigan o‘quvchilar, ota-onalari, zaruriyat tug‘ilganda maxsus pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy xodimlarning faoliyatidir. Interfaol usulda o‘zar yordam ko‘rsatishga asoslangan guruhlarda o‘qitish metodi rivojlanishi zarur. Armaniston Respublikasining ma’lumotlariga ko‘ra inklyuziv maktablarni umumta’lim muassasalari deb qarashmaydi. Bu maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom bolalar bilan yonma-yon formal o‘qiyilar. Shuning uchun ham inklyuziv maktabda birgalikda ta’lim olish jarayonida individual mashg‘ulotga jiddiy e’tibor beriladi, aks holda maxsus sharoitdagi ta’limga edtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlashtirishdan orqada qoladi.

### **Ozarbayjon**

Ozarbayjonda 1998-yilda ”Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya ratifikasiya qilindi va 2001-yilda esa ”Maxsus ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2002-yilga kelib inklyuziv ta’lim borasidagi loyihalar faoliyati yuzasidan 10 dan ortiq qonuniy hujjatlar va loyihalar ishlab chiqildi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishining Milliy dastur rejasiga ikki qismidan iborat bo‘lib, 1-qismi inklyuziv ta’lim borasidagi loyihalar faoliyatiga oid bo‘lib, 2-qismini inklyuziv ta’lim moddiy-texnik asosini yaxshilash masalalari tashkil qiladi. U. T. Mikailova (NNT «Ta’limda innovasiyalar markazi» rahbari)ning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Ozarbayjonda bugungi kunga qadar 100 dan ortiq maxsus ehtiyojli bolalar 14 ta maktabgacha ta’lim, 14 ta boshlang‘ich ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim sharoitida uqtilmoqda. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida qushni hamdo‘stlik davlatlarida xam ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilayotganligi tahlil qilindi:

### **Qirg‘iziston**

Qirg‘izistonda inklyuziv ta’limning rivoji davlat qaramog‘idagi maktablar va nodavlat ta’lim muassasalari bazasida bo‘ldi. Mutaxassislar tomonidan umumta’lim muassasalariga ta’lim olishga imkoniyati mavjud bo‘lgan bolalar qabul qilinib o‘qitala boshlandi. Qirgizistonda bu borada o‘qituvchilar, ota-onalar, vazirlik xodimlari va Respublika bo‘yicha tegishli vakillar ishtirokidagi 3 ta yirik seminar, konferensiya o‘tkazildi.

## **Qozog‘iston**

Qozog‘istonda 2003-yilda «Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion-ijtimoiy va tibbiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash haqida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya berish, korreksion pedagogik ish olib borish maqsadida reabilitasjion markazlar, psixologik-pedagogik korreksiya xonalari, maxsus maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari qoshida opiska muddatli (sinflar) guruhlar tashkil etildi. Inklyuziv maktablarga kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta’limda ”Maxsus pedagogika”, ”Maxsus psixologiya” va ”Maxsus metodika” kurslari kiritildi.

Rossiyada Integratsiya jarayonlar boshlandi. Rossiya faqat 90-yillarda... XX asr jahon axborot-ta’lim makoniga kirishi tufayli. Bugungi kunda mamlakatimizda maxsus ta’lim maxsus tarbiyaga muhtojlarni o‘qitish va hayotiy faoliyat sohasida umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga hali javob bermaydi. Mamlakatimiz uchun vazifa integratsiyalashgan ta’lim davlat darajasida qaror qabul qilishni talab qiladi. Amalga oshirish imkoniyati haqida integratsiya jarayonlari e’lon qilindi, lekin ta’lim tizimi na iqtisodiy qo‘llab - quvvatlashga, na kerakli tayyorlikka ega (kadrlar, ma’naviy va axloqiy, mazmunli va tashkiliy) ularni amalga oshirish uchun ommaviy ta’lim. Bundan tashqari, zo‘ravonlik bilan ekish integratsiya maxsus yopilish (tuzatish) ta’lim muassasalari bu jarayonni tezlashtirish va pulni tejash g‘oyani obro‘sizlantiradi integratsiya, jamiyat tomonidan uning axloqiy asoslarini o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Hozirda umumiyligi ta’lim maktablarida Rossiyadan rivojlanish muammolarini bo‘lgan bolalar ko‘p.

Bu majburiy integratsiya(soxta integratsiya)... Uning sabablari bor: maxsus etishmasligi (tuzatish) ta’lim muassasalari; bolaning va uning oilasining yashash joyidan uzoqligi; ota -onalarning xohlamasligi o‘rgatmoq bola maxsus muassasada; bir vaqtning o‘zida ommaviy mакtabda tegishli infratuzilmani yaratmasdan ta’lim organlarining ixtiyoriy qarori. Printsiplar Rossiya integratsiyalashgan ta’lim tushunchasi: Integratsiya erta tuzatish orqali - birinchi va eng muhim tamoyil. Biz erta o‘rnatilgan dasturlar

haqida gapirayapmiz (hayotning birinchi oyalaridan boshlab) buzilgan funktsiyalarni tibbiypsixologik-pedagogik tuzatish, bu muammoli bolani psixofizik rivojlanish darajasiga olib chiqish imkonini beradi, bu unga umumiy ta’lim muhitiga imkon qadar tezroq qo‘shilish imkoniyatini beradi. Umumiy ta’lim bilan parallel ravishda ishlaydigan majburiy tuzatish bo‘limining mavjudligi. Integratsiya Ommaviy ta’lim muassasalarida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maxsus tuzatish yordami va psixologik yordam ko‘rsatadilar, ularning vazifalari bolaning rivojlanishi va uning muvaffaqiyatini nazorat qilishdir. o‘rganish, sog‘lom tengdoshlar muhitiga moslashish muammolarini hal qilishga ko‘maklashish. Aqli zaif bolalarga tabaqlashtirilgan yondashuv zarurati. Ta’kidlash joizki, ba’zi hollarda (masalan, emotsional irodali soha, xulq -atvor, bolaning noqulay ijtimoiy sharoitlari buzilgan taqdirda) afzalroqdir. o‘rganish va bolalarni maxsus tarbiyalash (tuzatish) ta’lim muassasasi.

Modellar integratsiya: birlashtirilgan integratsiya - integratsiya bunda psixofizik va nutqiylar rivojlanish darajasiga ega, yosh normasiga mos keladigan yoki 1-2 yoshli bolalar ommaviy guruhlarda tarbiyalanadilar (sinflar, maxsus guruh o‘qituvchi-defektologidan doimiy tuzatuvchi yordam oladi) (sinf); qisman integratsiya - integratsiya bunda ta’lim standartini hali o‘z tengdoshlari bilan teng darajada o‘zlashtira olmaydigan bolalar, kunning faqat bir qismini to‘kishadi. (masalan, uning ikkinchi yarmiga) ommaviy guruhlarga bo‘linadi (sinflar) 1-2 kishi; vaqtinchalik integratsiya - integratsiya, unda maxsus guruhning barcha o‘quvchilari (sinf) psixofizik va nutqning rivojlanish darajasidan qat’i nazar, ular boshqa bolalar bilan har oyda kamida 2 marotaba birlashib, har xil tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiradilar; to‘liq integratsiya psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi bo‘yicha yosh normasiga mos keladigan va sog‘lom tengdoshlari bilan bирgalikdagи mashg‘ulotlarga psixologik tayyor bolalar uchun samarali bo‘lishi mumkin. o‘rganish... 1-2 kishilik bunday bolalar oddiy bolalar bog‘chalari guruhlariga yoki mакtab sinflariga kiritiladi, shu bilan birga ular tuzatish yordamini mahalliy darajada olishlari shart. o‘rganish(masalan, bolalar bog‘chasining nutq

markazida yoki maxsus bolalar bog‘chasida yoki maktabda yoki turli markazlarda qisqa muddatli qolish guruhida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar.

Bu modellarning barchasini amalga oshirish jarayonga majburiy rahbarlikni nazarda tutadi. integratsiya ta’limni tashkil qilishda ommaviy o‘qituvchilarga yordam beradigan o‘qituvchi-defektolog tomonidan o‘rganish sog‘lom tengdoshlar jamoasida rivojlanishida nuqsoni bor bola Integratsiya Maxsus ta’lim ehtiyojlari va maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslar jamiyatida unga jamiyat hayotining barcha turlari va shakllarida (shu jumladan ta’limda) teng huquqli va jamiyatning boshqa a’zolari bilan ishtirok etish huquqlari va real imkoniyatlarini berish jarayoni va natijasi tushuniladi. rivojlanishdagi burilishlar va imkoniyatlarning cheklanishi uchun unga kompensatsiya beradigan sharoitda (Nazarova N.M., 2000). Integratsiya "normalizatsiya" (Nirje, 1976) kontseptsiyasiga asoslangan bo‘lib, u maxsus tarbiyaga muhtojlarning hayoti va hayoti ular yashayotgan jamiyatning sharoitlari va turmush tarziga iloji boricha yaqin bo‘lishi kerak degan fikrga asoslangan. "Normallashtirish" tamoyillari bir qator xalqaro -huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan: "Bola huquqlari deklaratsiyasi", "aqli zaif" shaxslar huquqlari deklaratsiyasi va "maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlari deklaratsiyasi". Bolalarga kelsak, bu quyidagilarni anglatadi. Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolaning umumiyligi ehtiyojlari ham bor, ularning asosiysi muhabbat va rag‘batlantiruvchi muhitga bo‘lgan ehtiyojdir. Bola iloji boricha odatdagidek hayot kechirishi kerak. Bola uchun eng yaxshi joy - bu uning uyi va alohida ta’limga muhtoj bolalarni o‘z oilasida tarbiyalashga rag‘batlantirish mahalliy hokimiyat zimmasida. Hamma bolalar o‘rganishi mumkin, demak, ularning rivojlanish buzilishlari qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ularga ta’lim olish imkoniyatini berish kerak. Shuni esda tutish kerakki, bunday odamlar uchun ta’lim dasturlari nafaqat g‘amxo‘rlik va davolanishni o‘z ichiga olishi kerak ta’lim va rivojlanish. Ushbu model rivojlanishining buzilishi sabablari va oqibatlarini klinik tadqiqotlar va ayrim kasalliklarning oldini olish va davolashning mumkin bo‘lgan usullari, natijada inson imkoniyatlarining cheklanishi

bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Zamonaviy sharoitda bu model etarli emas, chunki bu alohida ehtiyojli odamning imkoniyatlarini cheklashdir. Odamdan tashqari model(rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan odam o‘z darajasida hayvonga yaqinlashib kelayotgan pastroq jonzot sifatida qaraladi) maxsus tarbiyaga muhtojlarga nisbatan g‘ayriinsoniy muomaladan foydalanish uchun asos bo‘ldi. "Jamiyatga tahdid" modeli (rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ayrim toifalari jamiyat uchun xavf tug‘diradi) bu odamlar "zarar yuborishi", "baxtsizlik keltirishi", moddiy va ma’naviy zarar etkazishi mumkin degan fikrga tayanadilar.

Jamiyat o‘zini bu potentsial "tahdid" dan himoya qilib, ko‘pincha jamiyatdan uzoqda bo‘lgan, ba’zida qattiq qamoqda saqlash rejimiga ega bo‘lgan maktab -internatlar, yopiq parvarish muassasalarini tashkil etdi. Bunday holda, mashg‘ulotlar yo‘q yoki etarli emas edi. Asosiy vazifa mkiyingan "Achinish ob’ekti"(maxsus tarbiyaga muhtoj odamga o‘sib ulg‘aymagan, bolaligida abadiy qoladigan kichkina bola sifatida qaraladi) faqat maxsus tarbiyaga muhtojni jamiyatdan ajratib, qulay yashash muhitini yaratish orqali atrofidagi "yomon" dunyodan himoya qilish, ta’lim va taraqqiyotga yordam bermaslik.

### Nazorat uchun savollar

1. Sharqiy Janubiy Osiyo mintaqalarida inklyuziv ta’limning joriy etilishi
2. MDH mamlakatlarida inklyuziv talimning olib borilishi haqida mulohaza yuriting.
3. Qozog‘istonda 2003-yilda «Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion-ijtimoiy va tibbiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash haqida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida qanday ishlar olib borildi.

## **VIII BOB. O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASIDA INKLUYUZIV TA'LIMNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY VA ME'YORIY, HUQUQIY ASOSLARI**

### **8.1. Mamlakatimizda inklyuziv ijtimoiy munosabatlarni shakillanishi**

Maxsus tarbiyaga muhtojlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996-yilda Uzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Respublika ta'lim markazi va UNESCO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlar, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining raxbarlari va nodavlat tashkilotlarning maxsus tarbiyaga muhtojlar ta'limi ehtiyojini so'ndirishga qaratilgan munosabatlari o'zgara boshladi. Inklyuziv ta'lim resurs markazi imkoniyati cheklangan bolalarni integrasiyalashgan ta'lim jarayonida ta'lim olish strategiyasini keng joriy etish maqsadida UNESCO tashkiloti bilan shu yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekistonda integrasiyalashgan inklyuziv ta'lim tizimini amaliyotga tatbiq qilish maqsadida UNESCO xalqaro tashkiloti loyhasi asosida bir necha bor Respublika miqyosida seminar-treninglar va xalqaro konferensiya, forumlar o'tkazishga muyassar bo'lindi. Konferensiyalarda ko'tarilgan dolzarb muammolar, tavsiyalar va ishtirokchilarning ma'ruzalari quyidagi ilmiy-amaliy to'plamlarda chop etildi: «Alovida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish» (Toshkent «Uzinkomsentr», 2003Y.) «Uzbekistonda himoyaga muhtoj bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatishning samarali shakli va uslubi» (2005 yil respublika bolalar ijtimoiy markazi bo'limi), «Uzbekiston respublikasida bolalarni ijtimoiy ximoyalash tizimini rivojlantirishning istqbollari» (2007 y), «Inklyuziv ta'lim va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvatlashning zamonaviy tendensiyalari» va boshqa bir

qator to'plamlarda chop etildi. Xozirgi kunda Respublikamizda inklyuziv ta'lim konsepsiyasini joriy qilishda ushbu materiallar asosiy dastur amalda bo'lib kelmokda. 1998 yilda UNESCO tashabbusi bilan Buxoro sharfida yirik Konferensiya o'tkazildi. Konferensiyaning maqsadi alohida yordamga muxtoj bolalarni ijtimoiy himoyalash, reabilitatsiya qilish. ta'limga jalb qilish, maxsus va inklyuziv ta'limning moddiy-texnik bazasini tashkil qilish va maxsus ehtiyojli bolalarni to'laqonli ravishda jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda ko'p tarmoqli aloqalar o'rnatishdan iborat edi.

Ushbu Konferensida BMT, UNICEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlarining ekspertlari shuningdek, Rossiya, Kozog'iston. Tojikiston, Qirg'iziston Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasidagi turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar, ma'muriy organlarning mutasaddi xodimlari ishtirok etdilar. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llash va barcha qatori teng xuquqli sharoitda ta'lim olishi va biron bir bola ta'limdan chetda qolmasligi jiddiy muhokama etildi va rezolyutsiyalarga bo'lindi. Ushbu xalqaro konferensiyaada Uzbekiston Respublikasi XTV va uning tasarrufidagi turli ma'muriy tashkilot vakillari xam ishtirok etib, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Respublikada ushbu muammoni hal qilish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bois O'zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'limga jalb qilish va integratsiya usulida ta'lim olish 2001-2002 yillarda birmuncha faollahshdi. Xalq ta'limi vazirligi, RTM tasarrufdagい inklyuzif resurs markazi, UNESCO, UNICEF va «OPERATION MERCY», «MERCY PROJEKT» xayriya tashkilotlari nodavlat xalkqaro tashkilotlar hamda Uzbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi milliy nodavlat jamoa tashkilotlar, jumladan: «UMR», «Ziyo», «Imkon», «Xayot», «Umidvorlik», «Yorug'lik», «Muruvvat», «Mezon», «Mehrigiyo», «SHANS», «Nixol». «Korreksion pedagogik reabilitasiya markazi» kabilar bilan xamkorlikdagi loyixalar bo'yicha dastlabki tajribalar amalga oshirilib kelingan. 2000 yili inklyuziv ta'limning ilk asosi sifatida Respublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi tomonidan

«O‘zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta’lim tizimining rivojlantirish chora-tadbirlar rejası» ishlab chiqildi.

Bu reja dasturda alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslarini yoritib berildi: ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta’limga tayyorlash; respublikadagi alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar orasida axborot banki yaratish; barcha turdagilari nuqsonli bolalarni umumta’lim va yakka tartibda oilalarda o‘qitilishi bo‘yicha turli xil o‘quv-metodik adabiyotlar, didaktik vositalar ishlab chiqish va shu kabi dolzarb masalalar qayd etilgan. Aynqsa, 2001 yil 21-23 noyabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan «Alohibda yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik tarbiyalash» mavzusidagi xalqaro konferensiyada turli xorijiy mamlakatlar, Qozog‘iston, Rossiya, MDX, davlatlarining ekspertlari qatnashib, o‘z fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashdilar. Konferensiyada qatnashgan shahar va viloyat xalq ta’limi boshqarma vakillari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash vazirliklari, mutaxassislar, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari, malaka oshirish institutlari xodimlari, nodavlat jamoat tashkilotlari, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalari bo‘lgan ota-onalar, matbuot va axborot vositalari xodimlari. jurnalistlar qatnashib, hozirgi kunda vujudga kelayotgan muammolar ustida to‘xtalib, bahs-munozara yurtdilar. Bu konferensiyada imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlarini, mehnat natijalari, san’at, sportda erishgan yutuqlari va mahoratlari namoyish etildi. Shuni ko‘rsatdiki alohida yordamga muhtoj bolalarni inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim olishi ularni rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yana bir bor ekspertlar tomonidan qayd etildi. Inklyuziv ta’lim g‘oyasini O‘zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi. XTV Respublika ta’lim markazi UNESCO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-2003 yillarda «Inklyuziv ta’lim» mavzusida seminar o‘tkazib, uning tavsiyalariga asosan «Inklyuziv ta’lim resurs markazi» tashkil etildi. «Inklyuziv ta’lim resurs

markazi»ning nizomi ishlab chiqildi va unda quyidagi vazifalar belgilandi: -rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni ilk yoshdan saralash umumta’limga jalb qilishning mezonlari va talablarini ishlab chiqish va inklyuziv sinf va guruhlarni o‘quv-metodik majmualar bilan ta’minlash; - joylardagi inklyuziv ta’lim resurs markazlarga amaliy- uslubiy yordam ko‘rsatish; - imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzand- larini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslaxatlar berish; -- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga ta’lim berish, kasb-hunarga o‘rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta’lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlardan tashkil etish.

2002 yilda «Ta’lim hamma uchun» Dakar Deklarasiyasininig moxiyatini O‘zbekistonda tatbiq etish yuzasidan Xalq ta’limi vazirligi, UNESCO, UNICEF xalqaro tashkilotlari bilan xamkorlikda xalqaro forum tashkil etildi. Forumda xalqaro UNESCO tashkilotining ekspertlari ishtirot etib forum qatnashchilariga «Ta’lim hamma uchun» Milliy harakat dastur rejasining maqsad, vazifalari va uning xozirgi kunda dolzarbligini tegishli ma’muriy organlar va turli Davlat va nodavlat tashkilotlar muhokamasiga olib chiqildi. Forumda qabul qilingan dolzarb masalalar va rezolyutsiya asosida O‘zbekistonda «Ta’lim hamma uchun» Milliy xarakat rejasini dasturini ishlab chiqish tartibi bo‘yicha o‘quv seminari o‘tkazildi. Seminarda ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan 2003 yil «Ta’lim hamma uchun» Milliy harakat dasturining rejasini ishlab chiqildi. Ushbu dasturining rejasini 2000 yilda Dakartada qabul qilingan umumjahon deklaratsiyasi tavsiyasi asosida ishlab chiqilib, bunda siyosatchilar, vazirlik va idoralar raxbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini rivojlanish muammolari bilan shug‘ullanuvchi va qiziquvchi barcha shaxslar ishtirot etdi. «Ta’lim xamma uchun» Milliy harakat rejasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturda 2001-2015 yillarga muljallangan.

Dasturning VI bandining IX yo‘nalishi maxsus ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishning qonuniy va huquqiy asoslarini ishlab

chiqish; maxsus va inklyuziv ta’lim tizimi hamda mazmunini moddiy texnikaviy bazasini yangilash; uquv-uslubiy ta’minotini takomillashtirish; pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish; inklyuziv ta’limni joriy etishda jamiyatning faol ishtirotkini ta’minlash matbuot va axborot vositalari orkali targ‘ibot-tashviqot ishlarni faol olib borish va boshqa qator masalalar qayd etilgan. Bu ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida 2002 yilda inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘tkazilgan respublika seminarida xorijiy davlatlar ekspertlari, mutaxassislar, olimlar, Xallq ta’limi vazirligi, joylardagi viloyat xalq ta’limi boshqarmalari va bo‘limlarining ta’limga mas’ul vakillari. Tashxis markazi rahbarlari. umumiy va maxsus ta’lim pedagog rahbarlari, jamoat tashkilotlari vakillari va boshqalar ishtirot etdilar.

Ushbu seminar UNESCO eksperti Vakaygo universiteti professori Devid Mitchel (Yangi Zelandiya) ishtirot etib, «Inklyuziv ta’limni tashkil etishning asl moxiyati, umumta’lim tizimida alohida sinflar yoki guruhlar tashkil etish bilan chegaralanib qolmay, balki ularni me’yorida rivojlangan bolalar kabi ta’lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishdir». Shuningdek, inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etishda xalqaro ish tajribalari bilan fikr almashdi. 2005 yilning 19 sentyabr kuni XTVning 234-sonli buyrug‘i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’lim to‘g‘risida nizom»i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta’lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’lim to‘g‘risida nizom» asosida respublikamizda inklyuziv ta’lim tizimining huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi, nizomning 4-bandida inklyuziv ta’lim tizimida o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi masalalari qayd etilgan:

4.1. Inklyuziv ta’limni tashkil etilgan barcha umumta’lim mакtabalarida imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlarga nisbatan do’stona munosabat ruhi shakllanadi. Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim mакtabalarida Davlat ta’lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlar uchun korreksion dasturlar xam inobatga olinadi, maxsus

korreksion ishlarni amalgalashirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim mакtabalarida tayyorlov guruhi va birinchi sinflarda 35 daqiqa va boshqa sinflarda darslar 45 daqiqa olib boriladi.

4.4. Imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlar bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

4.5. Ta’lim jarayonida zamонави umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e’tiborga olinadi.

4.6. Korreksion ta’lim o‘quvchilarning ehtiyojlariga ko‘ra tabaqaqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

4.7. Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim mакtabiga uquvchilar ota-onalarning arizasi hamda «Tibbiy, psixologik-pedagogik komissiya»lari xulosalari asosida qabul qilinadi va ta’lim muassasalari rahbarlari buyrugi bilan tasdiqlanadi.

4.8. Inklyuziv ta’lim amalga oshirilayotgan umumta’lim mакtabidagi sinflarida integratsiya qilingan o‘quvchilar soni 4 nafardan oshirilmaydi hamda o‘quvchilar umumiy soni 25 nafargacha deb belgilanadi. Shuningdek, mazkur Nizomda inklyuziv ta’lim ishtirotchilari, inklyuziv ta’lim mutaxassislarining ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillar bilan hamkorligi, xalqaro hamkorlikda qatnashish xususiyatlari batafsil bayon etilgan. «Imkoniyati cheklangan bolalalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’limi to‘g‘risida nizom» asosida Respublikamizda inklyuziv ta’lim tizimining quyidagi huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi: - bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda yoshi, jinsi, irqi, millatidan qat’iy nazar O‘zbekiston Konstitusiyasiga asosan barcha bolalarni umumta’lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan har bir bola o‘zining qiziqishi, kobiliali va ehtiyojiga ko‘ra mos ravishda bilim olishi xuquqiga ega, ehtiyojlarining turli-tumanligini nazarda tutish; - xar bir bola o‘z tengdoshlari qatori bilim olish huquqiga ega bo‘lishi; - bolani ta’limga emas, balki ta’limni bolaning e^tiyojiga kura tashkil etish; - bolani mux,tojligi va imkoniyatini e’giborga olgan x,olda ta’lim metodologiyasini. O‘quv rejalarini ixcham bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash hamda baholash; - inklyuziv ta’lim muammoni bolada

emas, tizimda ekanligini anglaydi, bolaga qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi; -bolani shaxsiy ehtiyojiga qarab korreksion-pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil qiladi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan inklyuziv ta'limning xuquqiy asoslariga tayangan holda bu ta'lim tizimini yanada takmillashtirish, uni amaliyatga joriy etishni jadallashtirish maqsadida 2005 yilning 14-15 dekabr kunlari Toshkent shahrida «Ta'lim hamma uchun» Milliy xarakat dasturini joriy etish bosqichlari» mavzusida yirik xalkaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu konferensiyada xalqaro tashkilotlarning O'zbekistonidagi vakolatxonalarinnng vakilliri ham o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. UNICEF tashkiloti vakili Reza Xosseyni, UNESCO tashkiloti vakili Bari Layn, «««MERCY PROJEKT»», «Opereyshn Mersi» xalqaro tashkilotlari, Kosta Rika davlati vakillari shular jumlasidan- dir. «Ta'lim hamma uchun» Milliy harakat dasturini joriy etish bosqichlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada quyidagi vazifalar muokama etildi va belgilandi:

- «Ta'lim hamma uchun» Milliy xarakat dasturining moxiyatini targ'ibot qilish;

- Respublikada imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limini tashkil etish buyicha me'yoriy metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

- imkoniyati cheklangan bolalarni erta tashxis qilishning zamonaviy uslublarni yaratish;

- psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya, Tashxis markazlari, psixologik xizmat faoliyati samaradorligini oshirish;

Xisobga olish, davolash, ijtimoiy ximoyalash borasidagi faoliyatini jonlantirish;

- imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy ximoyalash borasidagi davlat va nodavlat tashkilotlarning Xamkorligini kuchaytirish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida uchraydigan to'sqinliklarni bartaraf etish yo'llari bilan tanishtirish.

- Konferensiyada nafakat Respublikamizning shu soha vakillari, balki qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya davlatlar vakillari ham ishtirok etib, o'z davlatlarida amal qilinayotgan inklyuziv

ta'lim tizimi modellari, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan ishtirokchilarini tanishtirishga muvoffaq bo'ldilar. «Ta'lim hamma uchun» Milliy xarakat reja dasturini amalga oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar va muammolar konferensiya kun tartibidagi quyidagi mavzular bo'yicha guruhlarda ishtirokchilar tomonidan muhokama etildi: «Nuqsonlarni ilk tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam ko'rsatish alohida yordamga muhtoj bolalar integrasiyasining muhim omili sifatida». «Uzbekistonda alohida yordamga muxtoj bolalar integrasiyasining milliy modeli». «Imkoniyati cheklangan bolalar oilalarining ijtimoiy reabilitasiyasi». Bugungi kunga kadar Respublikamizda utkazilgan seminar treninglarda 3000 dan ziyod ishtirokchilar inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati, uni joriy qilish bosqichlari xususida mukammal ma'lumotlarga ega buldilar. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar xamkorligida xal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- korreksion ta'lim strukturasini sifat jixatdan yangilash;
- respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini xisobga olgan holda bosqichma-boskich tuliq integratsiyasiga amal qilish;
- davlat normativ xujjalalariga inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qo'shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlashni davlat darajasiga olib chiqish;
- binolarni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish; - umumta'lim tizimida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy-texnik bazani yaratish;
- inklyuziv ta'limni tashabbuskorlik, mexir-muruvvat tarzida tashkil etish;
- maktabiing ish faoliyatiga inklyuziv ta'limni amalga oshirish borasida o'zgarishlar kiritish;
- umumta'lim muassasa pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash;
- barcha pedagogika oliyoxlarida va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritish;

- korreksion davlat ta'lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqan holda moslashtirish, ishlab chiqish;

- umumta'lim, maxsus mablag' pedagoglari, ota-onalar uchun o'quv-metodik va ilmiy-ommabop, ixcham turdag'i o'quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;

- maxsus tarbiyaga muhtoj bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion-pedagogik yordam berish;

- imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimida umumiylar va korreksion ta'lim olishining ilmiy asoslari, standart talablari, o'quv-metodik majmualarni yaratish va ta'minlash;

- kasb-xunarga o'rgatish. reabilitasiya qilish va bu ishda oilaning bevosita ishtirokini ta'minlash kabi bir qator dolzARB masalalarni kelajakda keng qamrovli bajarish uchun davlat tasarrufida muvofiqlashtiruvchi ilmiy-pedagogik resurs markazi, boshqarma, ilmiy laboratoriylar tashkil qilish, ilmiy-uslubiy, amaliy ishlarni bajarish inklyuziv ta'limni joriy qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydi. - Yuqorida keltirilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Shuningdek 2004 yilda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi (RBIMM) tashkil etildi. Ushbu markaz «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, barcha ma'muriy organlar, xalqaro UNICEF, UNESCO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda Xalqaro forumlar o'tkazib kelmoqda. Markazning ish faoliyati va vazifalari imkoniyati cheklangan, mezbonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarni ijtimoiy himoyalash; maxsus tarbiyaga muhtojlikning oldini olish; sog'lomlashtirish; ilk tashxisni yo'lga ko'yish; huquqiy-normativ asoslarni yaratish; ota-onsa qaramogisiz qolgan oilaviy shakllarni rivojlantirish; inklyuziv ta'limni joriy qilish axborot-konsalting xizmatini tashkil etish; ijtimoiy xodimlarni tayyorlash, ilmiytadqiqotlar olib borish; o'quv-uslubiy majmualar yaratish; seminar-treninglar o'tkazish kabi bir qator faoliyat turlari bilan shug'ullanib kelmoqda. Shu yillar mobaynida: 2005 yil - «Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam ko'rsatishning samarali shakl va usullari»

mavzusida Xalkaro forum; 2006 yil - «Bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimidagi islohotlar» mavzusidagi Xalkaro forum; 2007 yil - «Uzbekiston Respublikasida bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirishning istiqbollarri» mavzusidagi Respublika konferensiysi; 2008 yil - «Inklyuziv ta'lim va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shakllarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari» mavzusida Xalsaro forum 2009 yil - «Bolalikdan ulg'ayish sari: ijtimoiy himoya, ijtimoiy ish, ijtimoiy integrasiya» mavzusida Xalqaro forum 2010 yil - «Sog'lom turmush tarzi - barkamol avlod tarbiyasining asosi» mavzusida Xalqaro forum va konfrensiyalar o'tkazildi. Ushbu xalqaro forumlarning faol ishtirokchisi sifatida shuni ta'kidlashimiz joizki, yuqorida aytib o'tilgan masalalar bo'yicha O'zbekistonda davlat miqiyosida olib borilayotgan keng qamrovli ishlar o'z samarasini bermoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ximoyalash, ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishning xususiy bazasi yaratilib, zarur shart-sharoitlar tizimi takomillashtirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (1992 yil; 41-modda); - »O'zbekiston Respublikasida maxsus tarbiyaga muhtojlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun (1991 yil, 19, 27-moddalar); - «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (1997 yil, 22, 23- moddalar); - «Bola xuquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun (2008 yil; Ta'lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlar, 28, 29-moddalar); - Kadrler tayyorlash milliy dasturi (o'quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o'tishga differension yondashuv); - «Yoshlar yili» Davlat dasturi; - «Sog'lom avlod» Davlat dasturi (2000 yil); - «Ijtimoiy himoya yili» Davlat dasturi (2007 yil, 4.2-band), -»Barkamol avlod yili» Davlat dasturi (2010 yil) va boshqalar. Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integrasiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan. O'zbekistonda integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish bo'yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi: -integrasiyalashgan

(inklyuziv) ta'limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, reabilitasiya, jamiyatga moslashuvi va integrasiyalasining muhim omili sifatida tan olinishi; - integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'limni solish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodav- lat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jipslashishi; - integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'limning xamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimini o'quvchilarning rivojlanish saloxiyatlari, o'ziga xos xususiyatlari xamda ta'lim extiyejlarini Xisobga olgan xolda moslashuvi; - imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integra- siyalash maksadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish; -integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun maxsus uquv rejalar, uquv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish; - o'quvchilarda tevarak-atrofdagilar. tengdoshlari bilan o'zaro ijobjiy munosabatlarning o'rnatilishi, atrofdagi kishi- larda bag'rikenglikni rivojlantirish; - imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlarini va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta'lim berishida davlat tomonidan qo'llab-Quvvatlanishi; -O'zbekistonning integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim soxasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maksalalar bajarilishiga yo'naltiriladi: - bolaning O'ziga xos ta'limga extiyejlarini mumkin qadar erta (xayotining dastlabki oylaridan) aniqlash; - o'ziga xos ta'lim ehtiyojlar mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish; - imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish; -imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; - inklyuziv ta'lim muxitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirish; - uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qullab-quvvatlash. - Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqazo etadi: - imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy

jixatdan ishlab chiqish; -maxsus integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiklashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chikish; - maxsus integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'limning xukukiy asoslarini takomillashtirish, uning meyoriy xuquqiy jixatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish; - bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqan xolda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy- boshqaruv mexanizmlarini yaratish; -maxsus integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish; -maxsus integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish; - O'zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish; -mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim xolati va rivojlanish tendensiylarini monitoring qilish tizimini yaratish; - integrasiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasida o'qituvchilar. O'qtuvchilar. ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun uquv-metodik majmualar va ommabop adabiyotlar yaratish; Imkoniyati cheklangan bolalarning, hox u maxsus maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lsin, xox umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruxlar bo'lsin, hox, uyda ta'lim olish bulsin, o'qitishning barcha shakllari. ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jixatdan integratsiya jarayoni xisoblanadi. Chunki o'qish davrida va undan keyin xam bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash xar bir bolaning va ota-onasining huquqi xisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy xolatini o'rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan

bo‘lib, bolani xar tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o‘qitish va ularga mos keladigan ta’lim sharoitini aniglashga doyr tavsiyalar beriladi.\_ Shunday qilib, o‘ziga xos ehtiyojlari bo‘lgan bolaning umumta’lim soxasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur: - bolaning rivojlanishida ijobjiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash; - umumiylar ta’limga jalb qilingan xar bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya’ni mutaxassislarining doimiy yordamini tashkil etish; - ruxiy-jismoniy rivojlanishi va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan xar bir bolaning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minalash; Bolaning ta’lim tizimiga jalb qlinishining biror ko‘rinishi uchun oddiy va foydali bo‘lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta’lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatlari ta’lim olishiga xalaqit bermasligi lozim. Shuningdek, ushbu xujjalalar asosida 2003 yilda Respublikamizda «Ta’lim- xamma uchun» Milliy xarakat dasturi ishlab chiqildi. «Ta’lim xamma uchun» dasturining Milliy rejasi UNESCO xamkorligi va moddiy kumagi bilan 2000-yilgi Dakar shartnomalariga mos bo‘lib, siyosatchilar, ta’lim tizimi, vazirlik va idoralar raxbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan ishlovchi barcha shaxslar uchun mo‘jallangan. Mazkur rejada Uzbekistan Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim xamma uchun» Milliy Rejasining konseptual o‘zagi asosida isloq etish muammolari va istiqbollari taxlil qilingan. UNESCO «Ta’lim xamma uchun» loyixasida bayon etilgan mezonlarga muvofik; ta’lim soxasidagi muammolar rejada alohida quyidagicha yoritilgan

Xar bir gudak, usmir va yoshi katta inson uzining tayancha ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini so‘zsiz tan oladiki, ushbu tushuncha eng yuqori va to‘la ma’noda qoniqish, yangi dunyon bilishga o‘rganish, xarakat qilish boshqalar bilan birgalikda yashash va kun ko‘rish imkonini beruvchi ta’lim olish huquqiga egadir. Shuningdek, DMR- TDUNing massadi xar bir insonning iqtidori va imkoniyatlarini ochish. O‘qiyotgan shaxsini rivojlantirishga

yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlashdir, toki odamlar o‘z xayotlarini yaxshilab, o‘z jamiyatlarini tuza olsinlar. Bundan tashqari ushbu Rejaning III. 9 qismi «Maxsus ehtiyojli bolalarni uqitish», deb nomlangan bo‘lib, unda maxsus ta’lim tizimining bugungi kundagi barcha jabxalarining axvoli yoritib o‘tilgan. Shuningdek, VI band xam maxsus ta’lim xususida bo‘lib, unda Kuyidagicha bayonot qilinadi:

1. Qonunchilik va me’yoriy-xuquqiy bazani takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi: - «Rivojlanishda jismoniy va ruxiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning uzlusiz ta’limi to‘g‘risidagi Nizom»ni tasdiqlash; - «Maxsus ehtiyojlar mayjud bolalarni xonardonlarda uqitish to‘g‘risida Nizom» ishlab chqish; - Maxsus yordamga muxtoj bolalar korreksion ta’limi davlat standartlarini ishlab chqish xamda tasdiqlash va bonqalar.

2. Maxsus ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish bandining bosh masalasi inklyuziv ta’lim tizimidir: -bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarida inklyuziv ta’lim strategiyasini amalga oshirish. Umumta’lim muktab o‘qituvchilari bilan maxsus muktab o‘qituvchilarining Xamkorlikda ishlashiga erishish; Ta’lim tug‘risida»gi qonunda inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalarni xarakatlantiruvchi mexanizmlarini asoslash va qonuniy tasdiqlashni ko‘zda tutish maqsadga muvofiq. - imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagisi bolalarning skrining xolatini aniqlash. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablariga jalb etishi ulardagi nuqsonlarning turi va darajasi, shu xuddiddagi sharoitlardan kelib chiqan xolda bosqichma-bosqich amalga oshirish. -Tashxis markazlari xodimlari ish faoliyatiga maktabgacha ta’lim muassasa va maktablarga inklyuziv ta’lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini kiritish kabilar. IX yo‘nalishning IV bandi inklyuziv ta’lim tizimini o‘quv- uslubiy tomondan takomillashtirish xususida bo‘lib, unda quyidagilar bayon etilganlari, baholash va sinfdan-sinfga o‘tkazish tizimini soddalashtirish; - maktablarning darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish,

darsliklar mazmunini takomillashtirish (2003-2005 yillar); - inklyuziv maktab uqituvchilari va o‘quv rejalarini zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, ta’lim standartiga, shuningdek maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarning oddiy sinflarda bilim olishlarini nazarda tutadigan ixcham va o‘zgaruvchan rejalar tuzish (2005-2010); - inklyuziv maktablar o‘quvchilari va ota-onalar uchun uslubiy qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun o‘quv materiallari tayyorlash va ta’minalash. - Taxlil natijasi shuni kursatdiki, «Ta’lim xamma uchun» Milliy dastur rejasi har tomonlama mukammal tuzilgan. Dastur- ning V bandi «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish» deb nomlanadi. Chunki inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish yuqori malakali kadrlarsiz samarali kechmaydi. Jumladan, dasturda «Umumiy ta’lim muassasalarini pedagoglarini inklyuziv ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlash, barcha gumanitar o‘rtalar maxsus va oliy uquv yurtlarida inklyuziv ta’lim asoslari bo‘yicha kurs kiritish (2003-2005)» kabi masalalar o‘rin olgan. «Ta’lim xamma uchun» Milliy dastur rejasida yuqoridaqilardan tashqari inklyuziv ta’lim tizimini joriy etishningmoddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me’yoriy bazani takomillashtirish, inklyuziv ta’limni joriy etishda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish zaruriyati va boshqa masalalar ,ham qayd etilgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha ular ta’lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatları va xoxishlariga mos bo‘lgan ta’lim olish xuquqiga ega. Psixologik- tibbiy-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bilan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning ota- onalari o‘z istagiga ko‘ra xamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqan holda ta’lim (umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega. Ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalarga o‘rtalar maxsus, kasb-xunar va oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin, deb ko‘rsatilgan. Xulosa qilib aytganda. yuqorida keltirilgan barcha me’yoriy xujjatlar asosida

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni joriy qilishning huquqiy asoslari yaratilgan.

### Nazorat uchun savollar

1. Mamlakatimizda inklyuziv ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi haqida gapiring.
2. “Ta’lim hamma uchun” Milliy harakat dasturining mohiyati nimalardan iborat deb o‘laysiz.
3. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar xamkorligida xal qilish masalalari yuzasida qanday tavsiyalar ishlab chiqildi.

## **II BO'LIMITA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH**

---

### **I BOB. INKLYUZIV TA'LIM MAQSAD VA VAZIFALARINI OSHIRISHDA RESURS O'QITUVCHINING O'RNI VA ROLI.**

#### **1.1. Resurs o'qituvchining vazifalari**

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish mактаблараро qatnab yuruvchi o'qituvchi ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lism amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalgga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lism sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi. Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchining muhim vazifalariga maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtaqidagi mustahkam aloqani o'rnatish, maxsus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar oddiy sinf o'qituvchilarini va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdeq maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lism dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hattoki maxsus tarbiyaga muhtoj bo'limgan

bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazilib turish kiradi. Resurs o'qituvchining asosiy maqsadi: umumta'lim muassasalarida ta'lism olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalgga oshiradi:

- har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish. o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslash, individual rejalaridan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash;

- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish, sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalarini bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish;

- muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash, mактаб jamoasining boshqaruв xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash;

- zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga);

- o'qituvchilar hamda o'kuvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish;

- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

- O'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarini yangilash va baholash;

- mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish).

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini o'z tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning maxsus ta'lism olishga bo'lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;

Sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash; O'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalgga oshirish;

Bolaning o‘qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma’lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;

Yangi kelgan o‘qituvchilarning ehtiyojlarini anglash va qondirish;

Maxsus ta’limga muhtoj bo‘lgan oddiy sinflarga o‘qituvchilarning moslashishiga yordam berish;

Agar kerak bo‘lsa sinfdan tashqarida individual va guruhlarga asoslangan ko‘rsatmalarini berish;

Individual dasturlarni muvaqqiyatli bo‘lishini boshqarish;

Maxsus ta’limga muhtoj bolalarni mактабнинг jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi mактаб boshqaruvi;

Maxsus yordamchi vasitalar va qo‘llanmalarga bo‘lgan talabni o‘рганиш va ulardan foydalanishni boshqarish;

Inklyuziv ta’limni rivojlantirishni qo‘llab – quvvatlashdan iborat.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o‘qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko‘p vaqtini yo‘lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir.

Resurs o‘qituvchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning darslaridagi qiyinchiliklarni va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Vaqt-vaqt bilan u joylarda olib borilayotgan o‘qituvchilar treningida maxsus tarbiyaga muhtojlik muammosi bo‘yicha maslahat va ko‘rsatmalar berib boradi. Masalan, maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o‘рганиш bo‘yicha metodik tavsiyalar berish kabi. Ta’lim olishda kiyinchiligi bo‘lgan bolalarni imkoniyatini ta’lim siyosatida e’tiborga olish juda muhim.

Ta’lim siyosati inklyuziv ta’limni rivojlantirish maqsadida moliyaviy ta’motga e’tibor karatish zarur:

maxsus ta’lim va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi tusiqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari;

statistik ma’lumotlar buyicha maxsus tarbiyaga muhtojlarni inklyuziv maktablarda ta’lim olishni joriy qilish; maxsus infrastrukturalar, masalalar, texnik vasitalardan foydalanishga imkoniyat yaratish ham ta’lim siyosatining ajralmas kismidir.

Inklyuziv ta’lim jamoaviy ish bo‘lib, javobgarlik butun mактаб jamoasi bo‘yniga yuklatiladi. Bunda sinf rahbari yordam ko‘rsatuvchi bo‘lib asosiy rol o‘ynaydi. Ta’lim siyosati uni tartibga soladi. Bu kabi yordamlar turli xil shakllarda bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-sinf o‘qituvchisiga maslahat va yordam berish;

-maxsus o‘qitish qo‘llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta’minlash:

-ota-onalar, ko‘ngillilar yoki katta o‘qituvchilar tomonidan mavjud bo‘lgan yordamlarni ta’minlash;

- o‘quv reja, dars jadvali, baholash mezolariga moslashtirish va o‘zgarishlarga ko‘niktirish masalalarini shakllantirish;

- o‘qituvchilar malakalar va bilimlarini oshirish uchun sharoit yaratish;

- faol qo‘llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o‘z ichiga olgan ijobjiy mактаб muhitini tashkil etish va ta’lim jarayonida do‘stona munosabatni shakllantirish;

- ma’muriyatga bolalarni aniqlash va baholashda yordam kursatish;

- ijtimoiy, psixologik va sog‘liqni saqlash xizmatlarini muvofiq-lashtirish kabi ishlarni amalgalashdan iborat.

## **1.2. Umumta’lim maktablariда inklyuziv ta’lim**

Ushbu ta’lim tizimida bolalarni nuqsonlarini aniqlash ularni muolaja reabilitatsiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalgalashdan iborat. O‘ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablari va maxsus reabilitasiya

Inklyuziv ta’lim maxsus tarbiyaga muhtojlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta’lim olishini ta’minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo‘lmasa) muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi. O‘ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablari va maxsus reabilitasiya

markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta'lim oladilar.

Ushbu maktablarda ta'lim ta'minoti albatta bolaning zaruriyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirish ko'zda tutiladi. Muntazam ta'lim jarayoni imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o'quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalaniib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o'qitishning turli shakllarini tashkil qilish hamda maxsus yordamchi apparatlar, (eshitish apparatlari, linza, lupa, maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachalari) turli xil texnik vasitalar va maxsus ko'rgazmali qurollarni qo'llash asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. O'z navbatida maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari joylarda umumta'lim o'quvchilari, ota-onalar, davlat va nodavlat jamoa tashkilotlari uchun maslahat bo'limlari va resurs markazlar bo'lib faoliyat ko'rsatish kerak.

Alovida yordamga muhtoj bolalarni ayrimlarini umumta'lim muassasalarida o'qitish uchun davlat tomonidan quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim:

- maxsus tarbiyaga muhtojlikni erta tashxis qilish;
- mutaxassislar tayyorlash;

-umumta'lim muassasalari binolarini qurishda maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshoatlar)ni yaratish;

-korreksion yordamni amalga oshirish uchun reabilitatsiya markazi tarmog'ini ko'paytirish;

-ayrim maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkil etish maqsadida umumta'lim pedagoglarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazish va ularni maxsus yordamchi vasitalar, o'quv metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash, shuningdek maktabda turli dasturlar yordamida ta'limni tashkil etish;

-barcha bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish.

Inklyuziv ta'lim asosan umumta'lim maktablarining oddiy sinflarida va o'quvchilar yashash joyiga yaqin bo'lgan umumta'lim

maktablarida olib boriladi, ta'limning rasmiy va norasmiy turlarini tashkil etishning ilg'or ish tajribalarini rivojlantiradi. Inklyuziv ta'limga jalb etish global muammolardan biri xisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy qismi-bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishdir.

Maxsus ehtiyojli bolalarning hayotga ilk yoshdan ya'ni 6 yoshgacha e'tibor berilsa, ancha yuqori samaralarga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga mos bo'lgan siyosatni ishlab chiqish inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asosidir.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- jamiyatda ijobjiy munosabatni ishlab chiqish, jamiyatda insonlar orasida maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar;

- bundan tashqari maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning qobiliyatlar, huquqlari va ehtiyojlarini muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi;

- Inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish.

- Inklyuziv ta'limning asosiy qismi-bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta'lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra, dars jadvalini sharoitni, uslubiyatni va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bunday o'zgartirishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi.

- Ilk yoshdan aralashuv. Qisqa qilib aytganda bolaning hayotiga ertaroq, e'tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta'sir ko'rsatadi. - Ijobiy namuna bo'la oladigan insonlar obrazini yaratish. Bolada o'ziga ishonch va o'zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko'p maxsus ehtiyojli bolalar o'sib, ulhayayotgan bir paytda o'zlariga

o‘xshagan maxsus ehtiyojli katta odamlarning uchratmaydilar va katta bo‘lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli kattalar maxsus ehtiyojli bolalarning ta’limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi maxsus ehtiyojli insonlar ota-onalargan farzandiga ta’lim berish muhimligini tushintirish mumkin. Buning uchun esa maxsus ehtiyojli kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o‘zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta’limni targ‘ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi.

- Mos siyosatni ishlab chiqishga ko‘maklashish.

Inklyuziv ta’lim tizimini qo‘llab –quvvatlashda siyosat asosiy rol o‘ynaydi. Siyosat tomonidan inklyuziv ta’limning qo‘llab quvvatlanishi bu ta’lim tizimining samarasini va rivojini ta’minlaydi.

### Nazorat uchun savollar

1. Resurs o‘qituvchining vazifalarini izohlang.
2. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim mazmun-mohiyatini ochib bering.
3. Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashda qanday masalalarni hal etish lozim.
4. Resurs atamasiga qisqacha ta’rif bering.

## II BOB. OILADA INKLYUZIV TA’LIM-TARBIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. Oila – sharqona ta’lim-tarbiya o‘chog‘i

O‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandlarga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, odob-axloq, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Oilada ota-ona farzand tarbiyasini, avvalo, bolaning shaxsiyatini o‘rganishdan boshlamog‘i kerak. Chunki ta’limtarbiya degani o‘zaro iliq munosabat va bir-biriga ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Buning asosida bolani tushunish, uni tanish, o‘rganish yotadi. Farzandimiz bilan o‘rtamizda yuz beradigan tushunmovchiliklar, asosan, uni anglay olmaganimizdan kelib chiqadi. Muborak hadisda aytildi: «Bolasi bor odam, u bilan bolaga aylansin». Bunda bolaga aylansin deganda, bola singari xatti-harakatda bo‘lish emas, bolaning ruhiy holatini tushunish, uning ehtiyoj va xohishlariga javob beradigan tushunchada bo‘lish ko‘zda tutilgan. Har bir bolaning shaxsiy psixik xususiyatlari, fe’l-atvori, iqtidorini hisobga olib munosabat o‘rnatish kerak. Bu bir kishiga nisbatan bir usulni qo‘llab, bundan ijobiy natija olish, ayni usulni boshqa kishiga nisbatan ham qo‘llagan holda ijobiy natijani qo‘lga kiritish degani emas. Zero, har bir inson o‘ziga xos xususiyatga egadir. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan yildanoq bolalar va o‘smirlarning jismonan sog‘lom va baquvvat, ruhan barkamol inson bo‘lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilishga katta e’tibor berildi.

O‘zbekiston Respublikasida 2005 yil «Onalar va bolalar yili», 2008 yil «Yoshlar yili», 2010 yil esa «Barkamol avlod yili» deb e’lon qilindi va ularga taalluqli ishlab chiqilgan keng hajmdagi Davlat dasturlari doirasida ancha ishlar amalga oshirildi. Hammanimizga yaxshi ma’lumki, mamlakatimizning barcha hududlarida

bolalarning, ayniqsa, o'smirlarning sog'lom o'sib-ulg'ayishi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada jamoat tashkilotlarining ham o'rni kattadir. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Sog'lom avlod uchun», «Bolalar», «Mehr nuri», «Sen yolg'iz emassan», «O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish», «Mehr-shafqat va salomatlik» hamda «Maktab ta'limi» kabi jamg'armalarning sa'yharakatlari alohida tahsinga loyiq. Mamlakatning kelajagi bo'lgan yosh avlod har jihatdan – ham jismoniy, ham axloqiy, ham ma'naviy, ham ruhiy barkamol bo'lishi lozim. Sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Odamning salomatligi haqida, uzoq umr ko'rish to'g'risida g'amxo'rlik qilish bo'lg'usi ona va chaqaloqning salomatligini saqlab borishdan boshlanishi kerak. Ma'lumki, bo'lajak onalar homiladorlik davrining boshidan oxirigacha ayollar konsultasiya nazorati ostida bo'ladi. Oy-kuni to'liq yetmasdan tug'ilgan bolalar oy-kuni yetib tug'ilgan bolalarga qaraganda ko'proq kasal va nobud bo'lishi kuzatilgan. Shuning uchun ayollar konsultasiyalarining asosiy vazifalaridan biri bolaning oy-kuni yetmasdan tug'ilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablarni bartaraf qilishdir.

**Mehr.** Farzand dunyoga kelgan xonadonda bayram boshlanadi. Quvonch va shodliklar, ota-onas baxtiyor, hamma tashvishlarni unutadilar. Albatta, bu shodlik bolaning to'rt muchasi sog' bo'lib tug'ilgandagina yarashadi. Lekin bola kasal yoki nuqsonli bo'lib tug'ilganida-chi? Unga alohida mehrmuruvvat ko'rsatib tarbiyalash lozim bo'ladi. Bolaning ruhan ham jismonan ulg'ayishi uchun eng yaxshi muhit – oila muhiti. Bola o'ziga kerak bo'lgan mehr, shafqat va e'tiborni faqat oilasidangina topishi mumkin. Oilada his-tuyg'ularning teng o'rtoqlanishi bola shaxsiyati va uning aqliy jihatdan rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola bilan birgalikda qilinadigan ishlar, masalan, birgalikda taom yenish, o'yin o'ynash, so'zlashish, televizor tomosha qilish, ertak aytish va shunga o'xshash faoliyatlar bola uchun oilaning qimmatini yanada oshiradi. Bola oiladagi hurmat-izzat, insonga bo'lgan e'tiborga qarab, xulosa chiqarib, tengdosh do'stlari, kattalar, kichiklar va jamiyatga bo'lgan o'z munosabatini shakllantiradi. Bola ota-onas

mehrini his etmasdan yashay olmaydi. Chunki bola ulg'ayadigan yagona muhit, asosiy makon uning oilasidir. Bola ulg'ayib tarbiyalanishida ota-onaning, oiladagi psixologik muhitning o'rni juda ahamiyatlidir. Bola har doim, har qanday sharoitda oila ko'magi va mehriga muhtoj bo'ladi. Bu mehrdan mahrum bo'lmaslik uchun u bor kuchi bilan harakat qiladi, vaqt o'tishi bilan boshqarishni, atrofdagi kishilar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini o'rganadi.

Ota ona tomonidan bolaga beriladigan tarbiya mehr, hayo asosida bolaning dunyoqarashi shakllanadi. X.Jaskuin: «Mehrga bo'lgan ehtiyoj qancha bo'lishidan qat'i nazar, uning miqdori hisobkitob qilinmaydi. Kam miqdorda bo'lsa-da, mehr berilmagan bola o'z qobig'iga berkinib oladi, yo'ldan adashadi va xudbinga aylanib qoladi. Bola toza havoga qanchalik muhtoj bo'lsa, mehrga ham shunchalik muhtojdir», – deydi.<sup>1</sup> Haqiqatan ham, dunyoga kelgan har bir insonda mujassam bo'lgan mehrni kimdir farzandni sevishda yoki unga har xil narsa olib berishda, kimdir uni o'pib-erkalashda, kimdir esa bolani bag'riga bosishda deb biladi. Mehr degani farzandni qanday bo'lsa shunday qabul qilib, u bilan bir tan, bir jon bo'lish, ba'zi yumushlarni u bilan hamkorlikda bajarish va bolani tushunishga harakat qilish, atrofdagi narsalarni uning ko'zi bilan ko'rish demakdir. Mehr insonlar orasidagi umumiyl munosabatlarning asosidir, farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etuvchi tamoyil-qoidadir.

Mehr – bola uchun asosiy ma'naviy ozuqa. U bolaning shaxs sifatida shakllanishidan boshlab, jamiyatga qo'shilishigacha bo'lgan hayotiga va o'sib-ulg'ayishiga sezilarli darajada ta'sir qiladigan vositadir. Mehr va muruvvat faqat kishining o'z farzandlari uchungina emas, barcha bolalarga berishi kerak bo'lgan tuyg'usidir. Zero, har bir bola sevilib, erkalanishga loyiqidir. Bolaga asl tarbiyani beruvchi inson onadir. Tarbiya ishi, asosan, ona tomonidan amalga oshiriladi. Onaning farzandiga bo'lgan munosabati uning insonlarga, hayotga va atrofidagi kishilarga nisbatan dunyoqarashini shakllantiradi. Bolaning fe'l-atvori ham onasiga qarab shakllanadi. Chunki bola ko'p vaqtini onasi bilan o'tkazadi.

Hayotda uchrab turadigan ona va bola o'rtasidagi munosabatlardan misol keltirsak: Bir kuni Gulasal ismli jazzi qizaloq uylari yonidagi turli-tuman gullar ochilgan bog'ga kiradi. Qizcha quvonib, ichida: «Oyim gullarni juda yaxshi ko'radilar: hozir bitta guldasta yasab olib borsam, balki rosa quvonarlar? Qizim meni eslab gul olib kelibdi deb, yuzimdan o'pib qo'yollar balki», – deb o'ylaydi. Shunday beg'ubor xayollar og'ushida gullar teradi. Mitti qo'lchalari bilan ularni to'plab, chiroyli guldasta yasaydi. Onasini xursand qilish uchun oshxonaga yuguradi. Javondan bitta guldon oladi va guldastani uning ichiga qo'yib, suv soladi. Quvonchdan sakrab oshxonadan chiqayotganida, qo'lidagi idish sirpanib yerga tushadi va chil-chil sinadi... Gullar atrofga sochilib ketadi. Onasi qo'shni xonadan singan guldonning ovozini eshitib, tashqariga yuguradi. Jazzi Gulasal qo'rqqanidan nima deyishini bilmas, onasi yerda sochilib yotgan idish parchalarini ko'rib asabiylashganidan aqldan ozayotgan edi. Qizaloqning niyati nima ekanligini ham so'ramasdan, uni kaltaklay ketdi. Bechora qizcha nima bo'lganini tushunolmay, jon holatida: «Jon oyijon, urmang!» – deb yolvoradi. Hali ham jahlidan tushmagan ona ham baqirar, ham qizchani urar: «Sen, yaramas, sen hali eng yaxshi ko'rgan idishimni sindiradigan bo'ldingmi!.. Aqling kиргунча kaltaklayman seni....» Onasidan maqtov va o'pichlar kutib, bir dunyo kaltak zarbidan ruhan ezilgan jazzi Gulasal ich-ichidan onasidan nafratlanib ketdi. Shu tariqa qizchaning onasiga gul sovg'a qilganini hech kim ko'rmadi. Shu o'rinda bitta guldon sinishi sabab ona bolaga tarbiya beryapman deb o'ylab, shafqatsizlik qilib, kaltak ostida tarbiyalashga harakat qiladi. Kaltak ostida tarbiyalangan bolalarning ichki ruhiy olamida zo'riqish paydo bo'lib, otaonasiga hurmati, oilaga bo'lgan muhabbbati, chidami barham topadi va xohlagan g'ilofga kirishga majbur bo'ladi.

Bunday bolalarda bolalikdan asar ham qolmagan bo'ladi, u loqayd, tamoman befarq va bezbet shaxsga aylanadi. Ota-onasidan farzand eng oliy ne'matdir. Ular farzandlari uchun faqat yaxshilikni ko'zlab yashaydilar. Bolalar buni sezadilar va yaxshi tushunadilar va o'zlar uchun yaratiladigan imtiyozlar, imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Bunday holatda bola erkatoylikka

moyil bo'lib qoladi va uning qilgan har bir xatti-harakatida erkatoylik alomatlari yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Ota onalar ba'zi-ba'zida yoqimli, ilhombaxsh so'zlar aytishlari mumkin. Lekin qilayotgan ishlarini har doim, muntazam ravishda o'zlar bajarmasalar, qilgan harakatlari gapirgan gaplariga munosib bo'lmasa, so'zlagan yoqimli so'zlar hech qachon ijobjiy natija bermaydi. Qarshisidagi insonga, ya'ni farzandiga hech qanday ijobjiy ta'siri bo'lmaydi. Bola tarbiyasida otaning qat'iyati, so'zidan qaytmasligi muhim ahamiyatga ega. U o'zining bu tabiatini farzandiga doimo sezdirib turishi zarur. Ona ham, o'z navbatida, otaning aynan shu xususiyatini bolaning yodiga solib turmog'i, shu tarzda farzandini yomonliklardan qaytarmog'i lozim. Ota-onaning o'z farzandini butun hayoti mobaynida ma'naviy oziqlantirib, unda sog'lom dunyoqarash shakllanishini ta'minlash uchun murakkab yo'llarni sinab ko'rishlari shart emas. Buning oson yo'llari ham bor. Ota-onasidan mehrini his qilib ulg'aygan bolaning shaxsiyatini, dunyoqarashi uning kelajakda o'ziga ishongan, mustaqil, umidli va omadli bo'lishini ta'minlashi hayotda o'z tasdig'ini topgan.

## **2.2. Oilada ruhiy holat va tarbiya.**

Ruhan sog'lom, ziyoli oilada bo'lган bir voqelik holatini tahlil qilsak: Bir odamning ikki farzandi bo'lib, ulardan biri besh, ikkinchisi yetti yoshda edi. Kunlardan bir kun u odam yetti yoshli o'g'liga benzin vositasida ishlaydigan maysa o'rvuchi mashina bilan yam-yashil maysalarni qanday tekis o'rish kerakligini o'rgatayotgan edi. Mashinadan qanday foydalanishni ko'rsatayotganida, ayoliga bir narsani aytish esiga tushadi va u uy ichkarisiga kirib ketadi. Bola esa shu vaqt mashinani yoqib yurguzadi va boshqarishni eplay olmay, maysazor o'rtasidan o'tgan gul pushtasiga ziyon yetkazadi. Gul pushtalari bir zumda payhon bo'ladi. Uydan qaytib chiqib, bu manzarani ko'rgan otaning fig'oni falakka chiqadi. Qancha mehnati singan, ko'z qorachig'iday asrab, parvarishlagan, qo'ni-qo'shnilar ham havas qiladigan gul pushtalari tamoman barbob bo'lgan edi... Endi bolaga baqirmoqchi bo'lganida, tashqariga chiqqan xotini: «Dadasi, faqat gul emas,

farzand ham katta qilayotganimizni unutmang!» – deydi. Ota shashtidan qaytadi. Demak, bola tarbiyasida otaning ruhiy vaziyati yumshashiga onaning bir og‘iz aytgan so‘zi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu ota uchun farzand tarbiyasi muhim ekanini eslatadi.

Ota-onalari farzandlari oq-qorani ajratguncha, ularga bir narsani sharhlab, tushuntirib bormog‘i lozim. Ma‘rifiy asarlar muallifi, taniqli yozuvchi Jazmit Tohir Berktin «Maktabgacha ta’lim-tarbiya» nomli kitobida o‘z boshidan kechirgan bir voqeani yozadi: «To‘rt yoshli qizim xuddi ochlik e’lon qilgandek, birdan ovqat yemay qo‘ydi. Hamma bilan baravar dasturxon atrofida o‘tirmas, bir luqma ham ovqat yemasdi. Qancha urinmaylik, buning sababini bila olmadik. Kech tushib, yotish vaqt bo‘lgandi. Qizimni bag‘rimga bosib, yotog‘iga olib borib yotqizdim va boshini silab: «Men seni juda yaxshi ko‘raman, lekin ovqat yemayotganingdan juda bezovtaman», – dedim. Qizim yig‘lab, bo‘ynimdan quchoqladi va «Dadajon iltimos, siz ham yemang!» – dedi. U o‘z og‘zi bilan sababini tushuntira boshladidi. Bilsam, turmush o‘rtog‘im hamma onalar kabi bola parvarishiga haddan ziyod e’tibor bergenligi bois, bola tarbiyasida xatoga yo‘l qo‘ygan ekan. Qizim so‘radi: – Oyijon , biz nima uchun ovqat yeymiz? – Katta bo‘lish uchun. – Katta bo‘lsak nima qilamiz? – Qariymiz. – Qarigandan keyin nima qilamiz? – Hamma keksalar kabi biz ham o‘lamiz. Qizim o‘scha suhbatdan so‘ng o‘zining bolalarcha fikrashi bilan o‘limning chorasini ovqat yemaslikda deb topibdi. Miyasida «Ovqat yemasam, katta bo‘lmayman. Katta bo‘lmasam, qarimayman. Qarimasam o‘lmayman» degan bolalarcha sodda mantiq paydo bo‘libdi.

Ota-onalari farzandlari oq-qorani ajratguncha, ularni qiziqtirgan har bir narsani sharhlab, yoshiga, ruhiy holatini inobatga olgan holda, tushuntirib bormoqlari lozim. Bolalarda yaxshi-yomonni farqlash hissi shakllana borgani sayin nazoratni kuchaytirmoq lozim. Buning birinchi belgisi shuki, unda hayoning ilk nishonalari zohir bo‘ladi, lekin tortinib turish hali hayo emas, balki aql nuri yorishib, ba‘zi ishlarining boshqasiga zid ekanligini ko‘ra bilish va qing‘ir ishlardan o‘zini tortishi jarayonida unda yetuklik xislatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Hayoli bolani e’tiborsiz tashlab qo‘yish yaramaydi. Balki unga hayo odobini o‘rgatish bilan yordam bermoq

lozim. Ko‘pincha bolalarda taomga ochko‘zlik bilan tashlanish tuyg‘usi yuqori bo‘ladi. Bunda tarbiya taom yeyish odobidan ta’lim berish bilan boshlanadi. Masalan, taomni o‘ng qo‘l bilan yeyish, kattalardan oldin tovoqqa qo‘l cho‘zmaslik va taomni faqat o‘zining oldidan olish, yeyayotgan kishining og‘ziga qarayvermaslik, shoshmasdan, yaxshilab chaynab yeyish, taomni ketma-ket og‘izga tiqavermaslik, taom yuqini kiyimiga artmaslik, ba’zan ziravor yoki shirinliklarsiz quruq nonning o‘zini yeyishga odatlanish. Shuningdek, ko‘p taom yeyishning yomonligi, bu hayvonlarga xos xususiyat ekanligi, odobli bola taomni kam yeyishi, boriga qanoat qilishi, taom tanlamaslik haqida gapirlisa, bu ham tarbiyadir. Hayoli bolada chiroyli xulq, maqtovga arzigelik bir fe’l sodir bo‘lsa, uni hurmat bilan sharaflamoq, ko‘nglini quvontiradigan narsa bilan taqdirlamoq, ko‘pchilik orasida bu fe’lini izhor etmoq zarur.

Ba‘zi holatlarda bir marta bu fe’liga xilof ish qilib qo‘ysa, uni ko‘rmaganga olish foydaliroq. Bolani tushunish va ehtiyojlarini qondirishning eng yaxshi yo‘li oila davrasidagi suhbatlardir. Kechqurungi ovqatlanish payti ham bola tarbiyasi uchun eng munosib paytdir. Chunki bunda hamma dasturxon atrofiga yig‘ilgan bo‘ladi. Shunda oila davrasida, birgalikda ovqatlanish yanada zavqli tus oladi va oila istaklari shu usulda qisman bo‘lsa-da, amalga oshgan bo‘ladi. Ota e’tiboridan chetda qolmagan bola hamma narsani tez o‘rganadi, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib, sog‘lom shaxs egasi bo‘ladi. Oilada o‘z o‘rnii, o‘z qadr-qimmatiga ega bo‘lgan, gaplari tinglanadigan, savollariga tushunarli tarzda javob ola oladigan, fikrlari hurmat qilinadigan, shaxsiy buyumlari va o‘ziga tegishli xonasi bo‘lgan bolaning shaxsiyati yaxshi shakllanadi va uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi yanada ortadi. Ko‘chaga chiqishi taqiqlangan, o‘ta qattiq nazorat ostiga olinib, erkinligi to‘rt devor bilan chegaralab qo‘yilgan bolaning ulg‘ayib, jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni nihoyatda qiyin kechadi. Chunki bunday bola tashqarida o‘zini qanday tutish kerakligini bilmaydi, qolaversa, haddan ziyod erkatalilgan yoki ortiqcha bosim ostida kamsitilganligini his qiluvchi bolalar kam ijtimoiylashuv, do‘st orttirish va atrofdagi kishilar bilan til topishish kabi jarayonlarda muammolarga duch kelishlari tabiiy. Bolaning ruhiy

holatini tushunmasdan va uni to‘g‘ri tarbiya qilish usullarini, u bilan qanday aloqa o‘rnatish kerakligini bilmaslik ota-bola munosabatlariiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda bolaning shaxsiyati, aqlu zakovati va jismoniy rivojlanishi jarayonida muammolar keltirib chiqaradi. Ota-oni tarbiyasi bolaning ruhiy holatiga ta‘sir qiladi.

U hayotdagi ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri olib borish bilan bog‘liqdir. Bolani faqat ruhan sog‘lom bo‘lgan oila muhitida har tomonlama to‘g‘ri tarbiyalab, uning dunyoqarashini rivojlantirish, uni mehrli, shafqatli va e’tiborli qilib shakllantirish mumkin. Jamiyatda farzandlarini namunali insonlar qilib ulg‘aytirishga ahamiyat bergen xalqlar ilm-fan va madaniyatning eng yuqori cho‘qqisini zabit etganligi bu haqiqatdir. Insonlarning tabiiy tug‘ma a’zolaridagi kamchiliklari, ba’zan esa aqliy nuqsonlari tashqaridan qaraganda sezib bo‘lmas darajada bo‘ladi. Ammo har bir insonning u yoki bu nomukammaligi, jismoniy yoki aqliy kamchiligi tarbiyachi nazaridan chetda qolmasligi lozim va ularning tarbiyalari ham albatta, mana shu nuqsonlarini inobatga olgan holda tashkil qilinishi shart. To‘g‘ri, yoshligida bolaning jismoniy kamchiliklari ota-oni tomonidan darhol inobatga olinadi. Shunda ham agar ota-onalar ma’lum jihatdan ma’lumotli, tarbiyaga aloqador mutaxassislar bo‘lmasa-da, jismoniy yoki ruhiy maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning tarbiyasini tashkil qilishda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasligi lozim. O‘zida mavjud bo‘lgan nuqsonlarga maxsus tarbiyaga muhtoj bola deyarli ko‘nikib ketadi. Bola asosiy tarbiyani o‘z oilasida olar ekan, uning jismoniy kamchiliklari tug‘ilgan kunidan e’tiboran uning ongiga singdiriladi. Bu albatta, tabiiy hol. Ammo shunday jismoniy kamchiliklar bo‘ladiki, bola uni qabul qilolmaydi. Boladagi jismoniy va ruhiy, tarbiyaga bevosita aloqador kamchiliklarni shartli ravishda uchgaga bo‘lish mumkin. Birinchisi – inson a’zolaridagi kamchiliklar, biror oyoq yoki qo‘lning qiyshiqligi, burun, qulqoq va boshqa biror a’zoning nuqsonlari, umuman, tashqi qiyofadagi kamchiliklar. Aytaylik, qiz bolaning yuzidagi katta qora dog‘. Bunday kamchiliklarga maxsus tarbiyaga muhtoj bola deyarli ko‘nikib ketadi.

Ikkinci guruhdagi maxsus tarbiyaga muhtojliklarga bolada uchraydigan jismoniy va bir qator ruhga bog‘liq nuqsonlarni

kirlitsak, ularning shakliy ko‘rinishini belgilagan bo‘lamiz. Bular soqovlik, duduqlik, daltonizm – rang farqlamaslik, qisman qulqoq og‘irligi va shunga o‘xhash maxsus tarbiyaga muhtojliklardir. Bola baribir bunday jismoniy kamchiliklari bilan ham jamiyatda o‘z o‘rnini topaveradi. Yon-atrofadagilar bu bola biron narsani gapirguncha, uning duduqligini sezmaydi. Ammo duduqlik ayon bo‘lgandan boshlab bola notanish muloqot muhitida o‘zini birinchi bor o‘ta hayajonda sezadi. Ayni shu notanish muhit tufayli u hayajonlanadi va duduqligi ancha oshadi. Yon atrofdagilar boladagi bu nuqsonni qanchalik tabiiy qabul qilsa, maxsus tarbiyaga muhtoj bola atrof-muhitga shunchalik silliq va yengil kirishadi. Maxsus tarbiyaga muhtojliklarning eng og‘ir, jiddiy, ijtimoiy noqulayliklar tug‘diradigan guruhi uchinchi guruh bo‘lib, unda uchray digan kamchiliklar ruhiy, ong, aql zaifliklari bilan bog‘liq. Ayni shular to‘g‘risida gap ketganda, ona tabiatning donoligiga qoyil qolmasdan ilojo yo‘q. Ya’ni bundaylar o‘zlarining boshqalardan «jiddiy farq» qilishlarini ko‘p hollarda bilishmaydi. Ammo yon-atrofdagilarning ayni ularga bo‘lgan muomalasidan ko‘p hollarda ushbu jamiyatning ma’naviylik, hech bo‘lmaganda tarbiyalilik darajasini bilsa bo‘ladi. Tabiatan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga biz sog‘lomlarning muomala va muloqoti qanday bo‘lishi, ularga nisbatan qo‘llaniladigan tarbiya usullarining asosini aniqlashda yordam berishimiz zarur. Asosiy hollarda yonimizdagи maxsus tarbiyaga muhtoj bolani maxsus tarbiyaga muhtojligi uchun kamsitmaslik, ularda o‘z jismoniy, ruhiy va aqliy kamchiliklariga ortiq e’tibor bermaslik, o‘z maxsus tarbiyaga muhtojligidan kuyinmaslik, ruhan ezilmaslik shakllanib boradi. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni hayotga tayyorlash jarayonida ularning maxsus tarbiyaga muhtojlik xususiyatlarini inobatga olmaslik mumkin emasligi hammamizga ma’lum. Shunday ekan, integrasjion ta’limtarbiya, asosan, birinchi va ikkinchi maxsus tarbiyaga muhtojlik belgilari bor bolalar orasida yaxshi natija berishini unutmaslik kerak. Maxsus tarbiyaga muhtojlik bola ruhiga qanchalik singan yoki maxsus tarbiyaga muhtoj bola o‘z holatiga qanchalik ko‘nikkan bo‘lmasin, bolaning alohida o‘tish davrlari bo‘ladiki, u o‘z maxsus tarbiyaga muhtojligidan ayni shu davrlarda chuqur ruhiy iztirob chekadi.

Maxsus tarbiyaga muhtojlarning bunday ruhiy qiynalish davri 3-4 yoshlarda birinchi bor hayajonini his qilish bilan cheklanadi. Bola bu davrda o‘zining boshqalardan «mano shu» tomoni bilan farq qilishini anglab yetadi-yu, yoshlik, tajribasizlik qilib qattiq azyat chekmaydi. Ikkinci bir ruhiy azob ancha chuqurlashib, o‘spirinlikka o‘tish payti namoyon bo‘ladi. Bu davrda maxsus tarbiyaga muhtoj bola o‘z maxsus tarbiyaga muhtojligini qisman bo‘lsa ham yengilroq tushunadi, ammo hali oldindagi hayotni butun rangorangligida tasavvur qilolmaydi. Maxsus tarbiyaga muhtojlikni eng og‘ir his qiladigan davr bola uchun balog‘at yoshiga o‘tish paytiga to‘g‘ri keladi. Ruhshunoslarning tahlillariga qaraganda, hatto sog‘lom yoshlar bu paytda, odatda, o‘z jismlarida turli xildagi kamchiliklarni, hatto yo‘q kamchiliklarni «ixtiro» qilishgacha— borib yetishadi. Ayni shu holda bola jismida maxsus tarbiyaga muhtojlik bor ekan, bu holat bolani ancha katta-kichik kechinmalarga olib keladi. Shunday ekan, maxsus tarbiyaga muhtoj yoshlarning atrofidagi tarbiyaviy muhit hamma vaqt ham yaxshi, mo‘tadil bo‘lishi bilan bir paytda, ayniqsa, o‘tish davrida alohida e’tiborda bo‘lib, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar tarbiyasida alohida e’tibor beriladigan yana bir tomon shundaki, bu ona tabiatning saxiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan hol, ya’ni bunday bolalarda biron kamchilik ikkinchi bir fazilatning, xususiyatning kuchliroq namoyon bo‘lishidir. Ko‘zi zaiflarda eshitishning kuchli bo‘lishi, biron-bir jismoniy kamchiligi bor shaxslarda tirishqoqlikning kuchli bo‘lishi va boshqalar. Demak, ayni shu holatda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni tarbiya qilishda ular ko‘zdan qochirilmasa, ulardagи jismoniy va ruhiy kamchilik o‘z o‘rnida boshqa tomon bilan to‘ldiriladi. Ayni shu hol ularning tarbiyasida kengroq qo‘llanilsa, tarbiyada yaxshi natijalarga erishiladi. Oddiy bir misol keltiraylik. Medisina sohasida katta yutuqlarga erishgan, besh-olti tilni biladigan professor nozik operasiyalarni juda yuqori darajada bajarar, amaliy mashg‘ulotlarni yaxshi o‘tkazar edi. Ammo tilida nuqsoni bor bo‘lib, hayajonlanganida ancha duduqlangan uchun ma’ruzalarni unchalik yuqori saviyada o‘ta olmasdi. Bu misol bilan aytmoqchimizki, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning qaysi

mehnatga qobiliyatları kuchli bo‘lsa, o‘sha faoliyat bilan kengroq shug‘ullanishiga sharoit yaratish ularning ta’lim -tarbiyasida asosiy o‘rin tutmog‘i kerak. Uchinchi guruhdagi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning tarbiya jarayoni ancha qiyin kechadi. Vaholanki, ularning xatti-harakatiga adekvat, mutanosib tarbiyaviy tadbir topib qo‘llash mutaxassis bo‘lmagan tarbiyachilarga tarbiya jarayonini jiddiy mashaqqatga aylantirib qo‘yishi mumkin. Masalan, aqliy xususiyatida jizg‘anaklik, chayirlilik, xarxashaga moyillik, bir so‘z bilan aytganda, asabiy nuqsoni bor maxsus tarbiyaga muhtoja biror axloq yoki odob normalarini singdirish u yoqda tursin, unga ushbu normalarni eslatish, aytishning o‘zi jiddiy janjalga, xarxashaga olib kelishi mumkin. Odatda, bunday xususiyatlari bolalar o‘z quvvatidagi xavfsizlik nuqsonini bilmagan holda odamlarning nazarida, guruhning diqqat markazida bo‘lishni yaxshi ko‘radi. Demak, ularning xatti-harakatida chapanilik, maqtanchoqlik, voqeа va narsalarni silliqtirish, bo‘rttirishga moyillik kuchli bo‘ladi. Ayni shu harakatlari bilan ular o‘z shaxslarini birinchi o‘ringa ko‘tarib ko‘rsatishga doim urinib yurishadi.

Aqliy jihatdan boshqalardan ustun bo‘lmasligiga qaramasdan, tengdoshlari ustidan hukmronlik qilish, ularga buyruq berishni yoqtiradi. Natijada ular orasida ko‘pgina janjallar, noroziliklar xulq, axloq va xarakterlarining nomutanosibligidan kelib chiqadi. Ayni shu holatlarni inobatga olgan holda bunday maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar tarbiyasi sog‘lom bolalarga nisbatan integrasion yo‘nalishda emas, differensiallashgan holda, ya’ni uchinchi guruh maxsus tarbiyaga muhtojlar va sog‘lom bolalar tarbiyasi jiddiy farq qilmog‘i kerak. Demak, bu joyda biz ko‘rsatib o‘tgan maxsus tarbiyaga muhtojlikning o‘zini tarbiyada uch guruhga ajratish va 1-2 guruh maxsus tarbiyaga muhtojlarni iloji boricha sog‘lom bolalar bilan yaqinlashtirib, tarbiya jarayonini uyuştirish jamiyatni sog‘lomlashtiradi, degan xulosaga olib keladi. Bu o‘rinda hozirgi inklyuziv ta’lim va tarbiya jarayoni ayni shu yo‘nalishda borayotganini ko‘ramiz. Ma’lumki, bola ongiga aloqador maxsus tarbiyaga muhtojlik mayjudligi ta’lim borasida sog‘lom bolalar bilan bir xil qobiliyatga ega bo‘lishga yo‘l qo‘ymaydi. Demak, bunday hol sog‘lom bolalarning ta’limida maxsus tarbiyaga

muhtojlardan o‘zib ketishi va maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning butun sinfni orqaga tortishiga olib kelishi aniq. Shuning uchun ham a’zolaridagi nuqsoni bir-biroviga o‘xshash va yaqin bo‘lgan bolalarni alohida sinflar tashkil qilib o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda inklyuziv ta’limni samarali joriy etish va imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning qulay yo‘llarini aniqlash maqsadida tadqiqotning to‘rtinchisi bobida maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etishning samaradorligini oshirish orqali bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish imkoniyatlari, shart-sharoitlari o‘rganildi. Maxsus pedagogik-psixologik amaliyotida zaif eshituvchi, zaif ko‘rvuchi bolalarning 4-5sinfdan umumta’lim maktablariga o‘tkazish tajribalari kuzatildi va o‘zini oqladi. Bunda zaif eshituvchi va zaif ko‘rvuchi bolalar maxsus maktabda ta’limning dastlabki bosqichi, ya’ni savod egallash, muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirgandan so‘ng oilasining ixtiyoriga ko‘ra sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim olishga jalb etilgan.

### Nazorat uchun savollar

1. Oila – sharqona ta’lim-tarbiya o‘chog‘i ekanligini asoslang.
2. Oilada ruhiy holat va tarbiya tushunchalarining mazmunini izohlang.
3. Oila bilan olib boriladigan ijtrimoiy-pedagogik faoliyat haqida mulohaza yuriting.

## III BOB. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

### 3.1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim

Yurtimizda keng dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda ijtimoiy himoyaga muhtoj, maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qishini, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatda bo‘lishini hamda jamiyatga ijtmoiy moslashuvini yengillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Kattaqo‘rg‘on shahridagi maktabgacha ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar davomida sog‘lom bolalar bilan birga tayanch-harakat a’zolarida va nutqida nuqsoni mavjud, zaif eshituvchi va zaif ko‘rvuchi bolalar ham tarbiyalanayotganiga guvoh bo‘ldik. Ayni paytda fikrashi va o‘zini tutishi jihatidan bolalar orasida deyarli tafovut sezilmaydi. Ba’zida jismoniy nuqsoni bor bolalar ham turli mashg‘ulot va o‘yinlar jaryonida o‘zidagi kamchilikni unutib yuboradi.

Bu ularning ongida moslashuv hissi paydo bo‘layotganini ko‘rsatadi. L.S.Vigotskiy bola shaxsi ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalaning ahamiyati borasida: «Bola shaxsiy faolligi namoyon bo‘lishining asosiy yo‘li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi. Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishdir» deb ta’kidlaydi. Tadqiqot davomida imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlari bilan birga o‘ynab, mashg‘ulotlarda qatnashmoqda va o‘z-o‘ziga xizmat qilishni o‘rganmoqda. Eng asosiysi, defektolog, tarbiyachi, shifokor va psixologlarning doimiy nazorati, maxsus mashg‘ulotlar, tibbiy muolajalar yordamida ular sog‘lom bolalar kabi jamoaga qo‘silib, ijtimoiy moslashuvi tezlashmoqda. Inklyuziv ta’lim tarbiyalanuvchilari didaktik va harakatli, syujetli-rolli o‘yinlarda, ommaviy tadbirlerda, sport musobaqalarida topshiriqlarni sog‘lom tengdoshlaridek bajarishga intilayaptilar. Bu ham inklyuziv ta’limning

yuksak samarasidir. Muassasada bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish uchun ota-onalar, mahalla faollari, psixologlar va boshqa mutaxassislar ishtirotkida ochiq eshiklar kuni, davra suhbatlari, treninglar o'tkazish muntazam yo'lga qo'yilgan. Inklyuziv ta'limning bog'chalardan boshlab yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyatga ega. Bu umumta'lim maktablarida tahsil olishda aqliy va jismoniy nuqsoni bor bolalarda tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirish, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashmoqda. Sinfdoshlari bilan do'stona munosabatda voyaga yetayotgan bolalar darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishga erishmoqdalar. Maxsus mashqlar hamda qo'shimcha mashg'ulotlar samarasida xotirasi yoki eshitish qobiliyati zaif o'quvchilarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayni vaqtida, uyda ta'lim oluvchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni belgilangan muddatlarda umumiyy dars mashg'ulotlariga jalg qilish mo'ljallanmoqda. Inklyuziv ta'lim muhitida nuqsonli bolalarning zaif jihatlarini hisobga olgan holda, qobiliyatiga qarab mashg'uylotlar olib boriladi. Shunda bolaning jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirish kabi ijtimoiy moslashuvi ham tezlashadi. Undan yana fikrlash ko'nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning muktabga qadam qo'yayotganida nechog'li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallahga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqe-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

Eng muhimi, imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning teng a'zosi ekanliklarini his qilib yashaydilar. 6-7 yoshli bolaning muktab ta'limiga tayyorgarligini aniqlashda muktabgacha yoshdagagi bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning muktabga tayyorgarligi muktabgacha va muktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'priq vazifasini o'tashini, oila yoki bog'chadagi ta'lim-tarbiya

sharoitlaridan muktab ta'limiga ko'ngildagidek o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Muktabgacha yoshdagagi bolaning muktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida ancha jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun muktabgacha yoshdagagi bolani bog'chada yoki uydayoq muktab ta'limiga tayyorlash, uni juda qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra muktabga tayyorgarlik tushunchasi bolani muktabga tayyorlashning quyidagi yo'naliшlarini o'z ichiga oladi: jismoniy, ruhiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik kabi. Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-mator muvofigligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Rivojlanmaganlikning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko'rindi. Masalan, suyak tuzilishida, past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana, bo'y va og'irlilikdagi nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzilishlari, yurak-qon tomir tizimidagi fiziologik yetishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlarning pastligi shular jumlasiga kiradi.

Jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun yoshga mos bo'lishi lozim bo'lgan bo'y, vazn, bosh, ko'krak aylanasi me'yoriy ko'rsatkichlari hamda qo'l mushaklari va asosiy harakatlari rivojlanmaganligini aniqlash usullari berilgan. Kasalliklar va ularga moyillik bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlarga kelsak, ular yashash joyidagi bolalar poliklinikalarida tor mutaxassis shifokorlar guruhi tomonidan olib boriladi. Ruhiy tayyorgarligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simliklar jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchiliga munosabatida yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Eng muhimi, bola ongida qanday umumiyy axloqiy tamoyilning mustahkamlanganligi u tomonidan ijtimoiy axloq me'yorlari va umuminsoniy qadriyatlarning tan olinganligi «nima yomonu nima yaxshi»ligini anglaganidir. Ruhiy tayyorgarlikda eng muhim jihat «bolaning ichki pozisiyasi» shakllanganlidir yoki «motivasion

tayyorgarlik», ya’ni o‘quvchining kattalar va tengdoshlari bilan muomalada bo‘lishiga, topshiriqni bajarishiga, tengdoshiga yordam berishiga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra mакtabga borish istagini uyg‘otish lozim.

Bola shaxsining rivojlanishi ko‘pincha oiladagi tarbiyaga bog‘liqdir. Tortinchoq, qo‘rroq bolalar ko‘proq qat’iy nazoratda ushlab turiladigan, bola tashabbusi bo‘g‘iladigan oilalarda bo‘ladi va oxir-oqibatda u faqatgina kattalar yoki birovning ruxsati bilan harakat qiladigan bo‘lib qoladi. Bolani maqtaydigan, noo‘rin siylaydigan oilalarda ular ko‘pincha boshqarilmaydigan, haddan tashqari faol, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni bilmaydigan, aniq asoslar unda bo‘lmasa-da, buyruq berishga va yetakchi bo‘lishga intiladigan bo‘lishadi.

– Bola o‘z holiga qo‘yib qo‘yilgan, nazoratsiz, unga nisbatan befarqlik hukmron bo‘lgan oilada voyaga yetayotgan bo‘lsa, uning fe’l-atvorida hissiy ojizlik, g‘amginlik, ser-zardalik, jangarilik, qat’iyatsizlik kabi salbiy alomatlar paydo bo‘la boshlaydi.

– Aqliy tayyorgarlik obrazli va mantiqiy fikrlash, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqillikning, o‘z-o‘zini nazorat qilishga va boshqarishga imkoniyatning shakllanganligi hamda o‘quv faoliyatini kuzatish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirishni bilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

– Xotira aqliy rivojlanishning bir ko‘rsatkichi sifatida yaxshi eslab qolsa – «eshitish», qachonki bola eshitgan va ko‘rganlarining asosiy mazmunini aytib bersa – «mazmunini eslab qolish» kabi turlarga bo‘linadi. Ko‘rib, eshitib, eslab qolish xotirasini rivojlanirish uchun mashq qildirish befoyda, chunki u har kimga tabiatan berilgan. Mazmunni eslab qolish xotirasini yaxshilash uchun esa albatta, mashq qildirish kerak.

### **3.2. Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlash**

Inklyuziv ta’lim - bu umumta’lim (ommaviy) mакtablarda sog‘lom o‘quvchilar bilan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni birga uyg‘unlashgan tarzda o‘qitish jarayonidir. Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga

teng munosabatda bo‘lishni ta’minlovchi, hamda alohida ta’limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta’limdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki (2021-2022 o‘quv yiliда tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumta’lim mакtablaridagi) inklyuziv sinflardagi, ba’zi sog‘lom bolalar ota-onalari o‘z farzandlarini alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchi bilan birga ta’lim olishini istamay boshqa sinf yoki mакtabga olib ketdilar. Siz tushunishingiz kerakki, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi, balki bolalar orasida do‘stona muhitni yaratadi, kamsitmaslik, bag‘rikenglik va bir-biriga yordam berish xissini uyg‘otadi.

Inklyuziv yondashuvlar bu bolalarni o‘rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo‘llabquvvatlaydi, ularga yaxshi hayot uchun imkoniyatlar beradi. Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang‘ich imkoniyatlariga ega bo‘lgan barcha toifadagi bolalarning sifatlari ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Asosiy maqsadlar: - inklyuziv ta’lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo‘llabquvvatlash tizimini tashkil etish; - alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni moslashtirish, tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini ta’minalash; - yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini tarbiyalash. Inklyuziv ta’lim muhitiga qo‘shilishning dastlabki bosqichida o‘qituvchilar bilan treninglar o‘tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o‘z qo‘rquvlarini, umidlari va noto‘g‘ri tushunchalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o‘qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar haqida tushunarli ma’lumatlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xattiharakatlari tavsifi haqida tushuntirish.

Psixologik nuqtai nazardan, mакtab o‘qituvchilari alohida ta’lim ehtiyojlarini bo‘lgan bolalar bilan xotirjam va etarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu etarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi. Ijtimoiypsixologik yordamda psixologikpedagogik testlar olinadi. Ommaviy mакtabda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bu ijtimoiy moslashuv - turli xil kommunikativ o‘yinlar bilan darsdan tashqari dars davomida bolalarni ta’limga jalb

qilishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun tuzatish va rivojlantiruvchi sinflarda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi:

1. O‘zingiz va boshqa bolalar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash.

2. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga o‘xshamaydigan bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni aniqlash.

3. “Tolerantlik” tushunchasi bilan tanishish.

4. Jamiyatimiz ishtirokchilari orasida alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisabatan bag‘rikenglik va murosasizlik ko‘rinishlarini muhokama qilish. Ta’lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisabatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta’lim maktab o‘quvchilarining ota-onalari bilan ishslash. Bugungi o‘quvchilar bir necha yildan so‘ng jamiyatimizni tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o‘rganishlari muhim. O‘quvchilarlar so‘rovi natijalariga ko‘ra:

1. Jismoniy nuqsonlari, maxsus tarbiyaga muhtojligi bor odamlarga qanday munosabatdasiz? Javob: yaxshi -85%, javob berish qiyin - 15%;

2. Sinfda alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning borligi sizni bezovta qilmaydimi? Javob: yo‘q - 65%, ba’zan - 25%, ha - 10%); Inklyuzivlik sohasidagi ijtimoiy-psixologik ish faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: - inklyuziv ta’limning yangi dasturlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etish; - ota-onalar klubini tashkil etish; - ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini jalb qilish

1. Maktab - Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab oladi va alovida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning otaonalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolani o‘ziga o‘xshagan maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan bolalar emas sog‘lom bolalar bilan birlgilikda ta’lim olishiga zamin yaratadi. Inklyuziv ta’lim haqida tushunchaga ega bo‘lgan otaonalarni endilikda inklyuziv ta’limda o‘qiydigan

farzandi bo‘lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish; - ota-onalar uchun uyushma yoki o‘z-o‘ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari); - ta’lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish; - maktab komissiyalari yoki yig‘ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta’minalash; - ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg‘ulotlarni tashkil etishda yordam berish; - ota-onalarning o‘z huquqlarini himoya qilishlarini ta’minalash, qonunchilik va xizmatlar ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

2. Maktab direktori: Direktor qo‘llab-quvvatlash guruhining a’zosi. U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta’minalaydi. Direktor o‘quvchilarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi hodimlarni ta’minalaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi. Direktor ko‘pincha jamoaviy qarorlarning bajarilishini ta’minalaydigan shaxsdir.

- o‘quvchini maktabga qabul qilish;
- jamoaviy qarorlarni qonuniylashtirish;
- o‘quvchini maktab faoliyatiga qo‘sish;
- ota-onalarning kutib olish;

• ilg‘or tajribalarni qo‘llabquvvatlash. Shuningdek direktorning vazifasiga moslashtirilgan adaptiv dasturni baholash vazifasini bajaradi. Maktab direktori o‘quvchining individual moslashtirilgan adaptiv dasturini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish uchun asosiy mas’uliyatni o‘qituvchiga, odatda maxsus ta’lim o‘qituvchisiga yuklaydi. Xodimlar ota-onalar va kerak bo‘lganda o‘quvchilar va boshqa mutaxassislar yordamida dastur rejalarini ishlab chiqadilar.

3. **Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi:** Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur.

- ta’lim-tarbiya jarayonini davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalilanilgan holda olib boradi;

- alovida ehtiyojlar bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta’lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.

- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari)
- ta’lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o‘rnini ko‘rsatib berish;
- ta’limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo);
- inklyuziv ta’lim bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o‘rganib borish, va ularning ish faoliyatida qo‘llash;
- innovatsion bilim, malaka hamda ko‘nikmalar bilan quronanib yurishi (har qanday vaziyatda ham qiziquvchilarning savollariga javob beraoladigan bo‘lishi);
- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi;
- sinf jamoasi orasida do‘stona munosabat muhitini o‘rnatish va nazorat qilib birish;
- doimiy ravishda o‘z ustida ishslash va tajriba almashib borish;
- o‘quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim
  - ota-onalar bilan muloqot o‘rnatish jarayonida sof adabiy tilda (samimiyl) ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish;
  - ota-onalarni ta’lim jarayonida qanday qilib ishtirok etishlari mumkinligini tushuntirish ya’ni maktabga har qanday vaqt kelib ta’lim jarayoni kuzatib borishi, farzandini dars jarayonidagi ishtirokini kuzatishi mumkin; Inklyuziv boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har doim alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo‘lishadi. Ushbu muloqot uchun ba’zi tavsiyalar:
    - ota-onalarga bolaning milliy ta’lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o‘rgatish (asosan yakka mashg‘ulotlarda);
    - ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo‘llabquvvatlash guruhlariiga kirish huquqini berish (sinf va maktab yig‘ilishida qatnashishini ta’minalash va ularni jalb qilish);
    - ota-onalar bilan aloqa bog‘lash ya’ni: telefon yoki yozma aloqa bog‘lash, ularni qo‘llab-quvvatlash guruhi yig‘ilishlari to‘g‘risida xabardor qilish;
- qo‘llab-quvvatlash guruhi yig‘ilishlarida muhokama qilinadigan va ishtirok etadigan mavzular bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish;
  - yig‘ilish oldidan ota-onalarga tanishish uchun uyga maqsad va vazifalarning taxminiyl loyihasini yuborish;
  - maktab vakili ota-onalarni kutib oliishi, ularni konferensiya zaliga olib borishi va mavzu yuzasidan tanishtirishi kerak;
  - ota-onalarning jamoa yig‘ilishida qulay bo‘lishini ta’minalash (zerikarli va ota-onalar tushunmaydigan bo‘lmasligi kerak);
- 4. Maxsus o‘qituvchi: Maxsus o‘qituvchi butun ta’lim jarayonida korreksion rivojlaniruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o‘quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi.
  - o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta’minalaydi;
  - o‘qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;
    - milliy dastur asosidagi ta’limni samarali o‘zlashtirilishida muhim o‘rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;
    - o‘quvchilarning bilimini nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;
    - o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;
    - mакtabda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;
    - ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.
  - Tyutor (yordamchi pedagog xodim) - Inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutorlar (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega oliv ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyorilik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Tyutor: - ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan

muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi; - o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lif standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi; - ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lif oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi. Tyutorlar dastlab o'zi biriktirilgan sinfni kuzatadi. Har bir bola haqida barcha ma'lumotlarni to'liq o'rganadi. Dars davomida o'qituvchiga yordamlashadi, lekin o'zining faoliyatini iloji boricha o'quvchilarga sezdirmasligi kerak bo'ladi. Sinf o'qituvchisi yo'q bo'lgan hollarda, tyutor o'qituvchi o'rnini bosuvchi sifatida ham faoliyat olib borishi mumkin. Shunda tyutorga sinfdagi o'quvchilar uchun javobgarlik yuklatiladi. O'quvchi haqida asosiy ma'lumotlar ham yig'ma jiddlar tyutorda ham bo'lishi talab qilinadi.

Maktab psixologi - Maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o'quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishadi; - ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi; - inklyuziv sinf o'quvchilari bilan yalpi psixologik o'yinlar va mashg'ulotlar olib boradi; - sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do'stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o'z farzandi bilan olib borilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan maslahatlar odib boradi; - o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish. Maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarning sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi: - o'quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlaridan kelib chiqib ular bilan yakka va guruhli tarzda mashg'ulotlar olib borish; - o'quvchilar bilan bиргаликда sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish; - ota-onalarga o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasida maslahatlar berish; - tibbiyot xodimlari bilan bиргаликда har bir o'quvchining jismoniy yuklamasini tartibga solish.

Tibbiyot xodimi - Maktabdagagi inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlar bo'lgan o'quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot

xodimi o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi. Tibbiyot xodimi: - o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi; - korreksion-pedagogik ta'lif jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi; - o'quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan xamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi. Oila bilan ishslashning asosiy maqsadi - Barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek bolani va oilani himoya qilish, turli omillarni bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

### Nazorat uchun savollar

1. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida inklyuziv ta'lif haqida gapiring.
2. Inklyuziv ta'lif qanday funksiyalarni bajaradi.
3. Inklyuziv ta;lismi psixologik qo'llab-quvvatlashni asoslang.
4. Maktabgacha ta;linda inklyuziv ta'limning mazmun va mohiyatini tushuntiring.

## **IV BOB. INKLIZIV TA'LIMDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

### **4.1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy omillari**

**1. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari.** Harakatning asosiy turlarini rivojlanirish:

- sog'ligiga qarab yurish va yugurishning barcha turlarini to'g'ri bajarish, shart-sharoitga muvofiq ulardan foydalanish;
- jismoniy mashqlarni dastlabki holatlarga qaraganda aniq, ko'rsatilgan ritmik, maromda, musiqaga mos, og'zaki aytilganiday bajarish;
- gavdani to'g'ri tutish;
- sog'ligiga qarab sport o'yinlarda (suzish, voleybol, futbol, hokkey, stol tenisi, badminton) ishtirok ettirish.

Tana qismidagi mushakchalarni rivojlanirish:

- qo'l panjasni va barmoqlar harakatchanligini ta'minlash (barmoqlarni yengil siqish, yozish), barmoqlarini o'ynatish (barmoqlarda o'zin ko'rsatish, qo'l baroqlari soyasida tamosha ko'rsatish va h.k.);
- tashqi muhit o'zgarishlariga bardoshlilik kasallikkarga tegishli qarshilik ko'rsatish, ularning nisbatan yengil va qisqa muddatda asoratlarsiz o'tishi(chiniqishi);
- yaxshi ishtaha (ayrim ovqat turlariga salbiy munosabatlarisiz);

– o'zining jismoniy qiyofasi va sog'ligi haqida tasavvurni shakllantirish, sog'gom turmush tarziga erishish (madaniy – gigiyena malakasini rivojlanirish, har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarishga odatlantirish hamda boshqa malakalar ahamiyatini tushunish);

**2. Shaxsiy-psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari.** Tevarak-atrofnii tushunish, bilish:

- u qayerda yashashini (mamlakat, shahar, qishloq, uy manzili, diqqatga sazovor joylar va boshqalar) bilish;

– zamon va makon haqida tasavvurni shakllantirish va ularni tushuna bilish (bir yil necha oy, hafta necha kun, necha soat, chap-o'ng va hokazo);

– o'z oilasining tarixi to'g'risida (oilasi avval qayerda yashagan, buvasi va buvisi nima bilan shug'ullanishgan, ularning hayoti biznikidan nimasi bilan farq qiladi va hokazo).

Tuman, shaharlar, yirik tarixiy voqealar hamda davrlar (Amir Temur davri, Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati va boshqalar), o'z mamlakatining ramzları, bayramları, o'z xalqi urf-odatlari hamda an'analari va boshqalar haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish;

– jonli va jonsiz tabiat hodisalarining sabab va oqibatli bog'lanishlari, o'zaro mutanosibligini bilish (nega qor yog'adi, qor nima uchun qo'lida eriydi, qishda o'simliklar nega bargsiz bo'ladi);

-insonning tabiatga ta'siri haqida tasavvurni shakllantirish, bunday ta'sirning natijalari (tabiatga qiziqish va muhabbatni shakllantirish, tabiatning holati, unga inson hayotining manbai sifatida ehtiyyotkor munosabat va shu kabi oddiy ekologik tushunchalar). Bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanish darajasi:

– umuminsoniy axloq-odob qoidalarini o'zlashtirish (Nima yaxshi-yu, nima yomon tushunchalarini shakllantirish, mumkin va mumkin emas, xohlayman va burchliman tushunchalarni ajrata bilish, vaziyat taqozosiga muvofiq axloq-odob doirasidagi muomala va kayfiyatni tanlay bilish);

– o'z tashabbusi bilan, shuningdek, do'stlari tashabbusi bilan tanish va notanish bo'lgan katta yoshdagi kishilar, o'zidan kichik yoshdagilar bilan erkin muomala qila olish;

– fe'l-atvorning ijobiy xususiyatlarini qaror toptirish (keng fe'lllik, e'tibor, g'amxo'rlik, o'zaro yordam, mehribonlik, inson-parvarlik, mehnatsevarlik, narsalarga, inson mehnati mahsullariga ehtiyyotkor munosabat, estetik ong asoslarini shakllantirish, go'zallikka, tabiat ajoyibotlariga, adabiy, badiiy, musiqiy asarlarga, amaliy san'at namunalariga va boshqalarga qiziqishni rivojlanirish);

– mustaqillikni rivojlanirish (o'z shaxsiy faoliyatini tashkil etish uchun turli xil vositalarni: o'zin, tomosha ko'rsatish,

tasvirlash, qurish-yasash, o‘yin faoliyatining turlari jarayonida yuzaga keladigan maummolarni mustaqil hal eta bilish);

– o‘zini-o‘zi anglashni jinsidan kelib chiqqan holda (o‘g‘il bola, qiz bola), shakllantirish, o‘z imkoniyatilari, qobiliyatini, xatti-harakatini o‘zi baholay bilish, katta yoshdagilar, tengdoshlari o‘zidan yosh jihatdan kichiklar davrasida o‘z o‘rnini anglay bilish, boshqa odamni tushunish, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, istaklarini hurmat qilish, uning oldidagi muammolarini ko‘ra bilish o‘z xatti-harakatlarini boshqa odam o‘rnida turib baholay olish. Bolaning o‘z-o‘zini anglashidagi muhim jihat uning o‘z qadr-qimmatini his etish, o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantirish hisoblanadi. Shu bilan birga maktabgacha yoshdagি bola uchun o‘z shaxsiga ortiqcha baho berish tabiiy va qonuniy holdir, bu uning uchun o‘ziga xos shaxsiy himoya, o‘z kechinmalariga qulqutish, o‘zining hayajonli holatlarini «men xursandman», «men xafa bo‘ldim», «menga yaxshi», «men roziman» tushunish, boshqa birovga nisbatan: «yashavor», «zo‘r» kabi so‘zlarni ishlatish hisoblanadi. Fikrlashni rivojlantirish(obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt):

– atrofdagilar bilan muomala qila bilish, o‘ziga qarata aytilgan gapni tushunish, so‘zlashishga kirishish, aniq qilib gapirish, savollarga javob qaytarish, boshqalarga savol berish;

– alohida o‘yinlarni tashkil qilish, o‘yin uchun kerakli materiallar va zarur narsalarni tanlab olish; – bolalarda «Men o‘zim qilaman» degan muayyan qat’iyatlilik shakllantirish (ayrim mehnat malakasi, turmush va tabiatdagi tartibning buzilishini payqash, o‘yinchoqlarni tuzatish, bog‘lab mahkamlash, idishlarni yuvish, uyda xo‘jalik ishlariga qarashish, dasturxonni tuzash, oshxona jihozlaridan foydalana bilish, o‘z ust-boshini tuzatish va boshqalar);

– boshlagan ishini oxiriga yetkazishga odatlantirish (ya’ni mehnatning samarasi va foydasini anglab yetish);

– tasviriy faoliyatini rivojlantirish;

– jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish;

– musiqaga mos harakatda o‘ziga nisbatan ishonchni his etish. Xotirani rivojlantirish:

– mexanik xotirani (eshitish) rivojlantirish, eshitishga qaratilgan vazifani tinglash va yodda saqlashni uddalash, ko‘rganlarini so‘z orqali yoki amalda ifodalash, ko‘rsatish;

– ko‘rish xotirasini rivojlantirish, ko‘rganini yodda saqlash va uni so‘z orqali yoki amalda ifodalash, ko‘rsatish;

– fikrlash xotirasini (mantiqiy) rivojlantirish, ko‘rganini yoki eshitganini so‘zma-so‘z emas, balki uning asosiy mazmunini ifodalay berishni uddalash. Tasavvurni (abstrakt fikrlash) rivojlantirish:

– fikrlab, aniq obrazlarga yoki narsalarga tayanmay, oddiy vaziyatlarni, harakatlar muntazamligini yoki turli xil faoliyatlarining pirovard natijalarini o‘zida tasavvur eta bilish, faoliyat, harakat oqibatini oldindan tasavvur etishni uddalash.

## 4.2. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish orqali maktabga tayyorlash

Ijodkorlikni rivojlantirish: – o‘zining individual, takrorlanmas obrazlar yaratish, faoliyatning barcha turlariga o‘zining mazmunini boyitishni bilish, hikoyalari, ertaklar, topishmoqlar va hokazolarni o‘ylab topish. Bolaning maktabda ta’lim olishi uning o‘z xalqi tilini bilishiga, nutqining rivojlanganiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Chunki butun o‘quv faoliyati shularga, ya’ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolani kattalarning yordamisiz mustaqil fikrashi, til rivojlanganligi yutuqlaridan erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o‘z tasavvurini izohlay olishi, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta’lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya’ni uning oson va erkin takrorlay olishi, naqsh chizish, og‘zaki bayonni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarliklar bolani savodxonlikka o‘rgatish va uning 1-sinf o‘quv materiallarni yetarli darajada shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, bolaga o‘qishni, uning ustiga tez o‘qish va yozishni o‘rgatish unchalik muhim emas. Asosiyasi bolaning lug‘at boyligini oshirish, undan ongli va faol foydalana olishini, tovushni tiniq eshitishini, aniq talaffuz qilishini,

ularni so‘zlardan ajrata bilishini ta’min etish va «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturiga kiritilgan savodxonlik bo‘yicha oddiy bilimlarni, matematik tasavvurlarini egallashiga erishishdir. Agar bolada qo‘l mushakchalar yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, u mактабда 1-sinf ta’limi jarayonida 2-3 oy davomida o‘qish va yozish texnikasini qiyinchiliksiz egallab oladi. Maxsus tayyor-garlikning asosiy ko‘rsatkichlari, bu–faoliyatning tushunib yetilishi va erkinligi, ijodiy tasavvurning rivojlanganligi hisoblanadi.

Bu sifatlar bolada maktabgacha yosh davrining so‘ngida savodxonlik, matematik, o‘ziga xos faoliyatining, ya’ni o‘yin, konstruksiyalash (qurish-yasash), chizish ko‘nikma-malakalarini egallah asosida paydo bo‘ladi. Ijodiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan bola yangi o‘quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o‘zar munosabatlarni o‘rnatishga tayyor bo‘ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo‘lib, nafaqat kattalar tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni bajarishga, balki o‘zi va boshqalar oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Shuni unutmaslik kerakki, maktabga tayyor-garlik bolaning hissiy boy hayoti faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bu jarayonning qayerda, ya’ni uyda yo bog‘chada kechishidan qat’i nazar, bolaning rivojiga asos bo‘ladigan ushbu noyob davrni uning maktabgacha bolalik pallasidagi qiziqish va ehtiyojlarini qondiradigan yorqin, unutilmas voqeя va ishlar bilan boyitish kerak.

Maktablarning 1-sinf o‘qituvchilarini maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda shuni unutmaslik lozimki, 6 hatto 7 yoshli bola 1-sinfga kirishda uning oiladami, bog‘chadami maktabgacha ta’limni to‘liq olganligidan qat’i nazar, o‘quv faoliyatining ma’lum bir ko‘nikmalariga ega bo‘lsa-da, baribir ma’lum vaqt bola maktabgacha yoshdagi davrning o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab turadi. U hali o‘quv faoliyati uchun kerakli bo‘lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu xislatlarni o‘quv jarayoni davomida egallahshi davom ettiradi.

Bolaning maktab hayotiga kirishishi bilan uning sistematik maktab ta’limiga tayyor-garlik ko‘rishi davom etadi. Albatta, bu jarayon bola vakolatining oshib borishini hisobga olgan holda, yuqorida sanab o‘tilgan – jismoni, shaxsiy, aqliy va maxsus

tayyor-garlik yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilishi kerak. Masalan, bolaning, faol harakatlanuvchan ekanligini hisobga olsak, uning bu ehtiyojini mактабда jismoni tarbiya darsida, katta tanaffusda, shuningdek, sinfdan tashqari ishlar jarayonida qondirish zarur. Buning uchun boshlang‘ich sinf bolalariga yoshiga xos fikrlashini, tasavvurini, izlanishini faollashtiradigan va o‘quv faoliyatining boshqa muhim ko‘nikmalarini hosil etadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish zarur. Inklyuziv ta’lim tashkil etilgan maktabgacha ta’lim muassasalarda, asosan ta’limning birinchi yilda maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyat turi ekanligini hisobga olgan holda o‘yin usullarini kengroq qo‘llash zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o‘qitish bosqichida bog‘chada ham, maktabda ham ularga o‘qishda birdan qat’iy belgilangan talablarni qo‘yish mumkin emas, faqat maktab-dars tizimidagi ta’limni qo‘llash kerak. Namuna uchun bolalar bog‘chasida va maktabda ta’lim shakli mutanosibligi taqsimotini keltiramiz.

Bolalar bog‘chalarining katta va tayyorlov guruhida –80 foiz o‘yin – 20 foiz mashg‘ulot;

Birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) – 60 foiz o‘yin – 40 foiz dars;

Birinchi sinflarda (2-yarim yillikda) – 30 foiz o‘yin, 70 foiz dars;

Katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari va 1-sinf o‘quvchilarining asosiy vazifasi –ta’limning birinchi bosqichida bola hayoti va faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos maktabgacha shakl va metodlarini ta’min etish. O‘yin faoliyati bolalar uchun ma’lum muddat yetakchi bo‘lib qolishi va bundan birdan voz kechmaslik, balki u sekin-asta tabiiy holda o‘z o‘rnini boshqa, ya’ni o‘quv faoliyatiga bo‘shabab berishini nazarda tutish kerak. Oila sharoitida, bolalar bog‘chalarida maxsus tashkil etilgan guruhlarda, «Markaz»larda bolalarni ta’limga tayyorlash ishida sharoitninig, imkoniyat va aniq natijalarning turlicha ekanligi, ushbu ish bilan shug‘ullanuvchi barcha muassasalar uchun bolalarning maktab ta’limiga tayyor-garligi darajasini baholashning yagona mezonlarini aniqlashtirib olish hamda ularga asoslanib, 6-7 yoshli bolalarni maktabning 1-sinflariga qabul qilishni yo‘lga qo‘yish zaruriyatini

tug‘dirdi va ushbu metodik qo‘llanmaning yaratilishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot davomida bolalarning muktab ta’limiga tayyorligi darajasini aniqlash metodlar, xalqaro miqyosda sinovdan o‘tgan psixologlar Kern Irasek, Vengerning klassik testlaridan hamda O‘zbekiston, Rossiyaning muktabgacha ta’lim bo‘yicha olimlari va amaliyotchilari tomonidan tuzilgan testlardan tanlab olindi. Tashxis qo‘yish bo‘yicha o‘tkazilgan barcha metodlar muktabgacha yosh-dagi bolalar yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan hamda to‘liq holda muktabgacha ta’lim muassasalari turlari uchun majburiy bo‘lgan hududiy «Muktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va tarbiyasi» dasturiga kiritilgan muktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarga mos keladi.

Bolani 6 yoshdan albatta muktabga berishga intilish kerakmi, degan savolga javob quyidagicha: bolaning muktabga borish yoshi uning tayyorligi hisobga olingan holda, uyg‘unlashtirilgan tarzda aniqlanadi, berilayotgan testlardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarga qat’iy amal qilish bolaning muktabga tayyorgarlik darajasi xolis baho berishni ta’minkaydi. Bolaning muktab ta’limini boshlashlariga tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablar tizimi faqatgina aniq bilimlar, uddaburonliklar va malakalar ro‘yxatidan iborat emas, balki u o‘z ichiga bolaning har tomonlama jismoniy, ruhiy rivojlanganligi, maxsus o‘quv va o‘quv faoliyati ko‘nikmalar shakllanganligini o‘z ichiga oladi.

Mazkur metodikalarning kiritilishi tarbiyaviy-ta’lim jarayonining qat’iy qolipga bo‘ysundirishni anglatmaydi. Aksincha, ular bolaning qayerda muktabga tayyorlov bosqichidan o‘tganligidan qat’i nazar hamma bolalar uchun teng bo‘lgan rivojlanish darajasini ta’min etadigan, asosiga quyidagicha yagona talablar qo‘yilishi lozim bo‘lgan ta’lim modellari, texnologiyalaridan to‘g‘ri va ijodkorlik bilan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Undan tashqari, bu talablar aniq bilimlar va malakalar bilan qat’iy chegaralanmagani bois bolalarning rivojlanish jarayonining bir maromda emasligi va mustaqil amalga oshirilishini hisobga olish imkoniyatini beradi. Muktabgacha ta’lim darajasi xususiyatlari

muktabgacha yosh davri davomida tashkil topib, bunda doimiy o‘zgarishlar bo‘lib turadi hamda har bir yosh bosqichida o‘ziga xos mazmunga ega bo‘ladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Muktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy omillarini tavsiflang.
2. Bolalarda ijodkorlikni rivojlanirish orqali muktabga tayyorlashning mohiyati nimada .
3. Jismoniy va shaxsiy-psixologik rivojlanish ko‘rsatkichlari ha-qida gapiring.

## **V BOB. PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI VA OLIY O'QUV YURLARIDA INKLYUZIV TA'LIM**

### **5.1. Inklyuziv ta'linda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasi**

Mamlakatimizda barcha sohada bo'lgani kabi yoshlar va ularning ta'lism-tarbiyasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, eng avvalo, ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosni, bunyodkorlik g'oyalarini va ezgu ta'limgatlarni yoshlar ongiga singdirish va shu bilan birga ularni imon-e'tiqodli, vatanga sadoqat, oljanoblik ruhida tarbiyalashda o'z aksini topmoqda. Farzandlarimizning ajdodlarimiz kabi dunyo tamadduniga xizmat qila oladigan bo'lib kamol topishini ta'minlash kunimizning dolzarb vazifasidir.

Umumiy o'rta ta'lism maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lism maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, xususan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta'lism muassasalari o'quvchilarining kasb-hunarni ongli ravishda va to'g'ri tanlashiga ko'maklashish masalasi ta'lism sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Uzluksiz ta'lism tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi

kasbini o'zi belgilashga tayyorlash umumta'lism maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lism-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir. Maktabgacha, umumta'lism maktablari va maktabdan tashqari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, jamoa tashkilotlari hamda ota-onalarning o'zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi. Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi – bu umumta'lism maktablarining o'quvchi va bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta'limgning yo'nalishini va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlash. Demak, maktabdagagi har bir xodim kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirishini bilishi lozim. Chunki, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda nafaqat maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchisi yoki amaliyotchi psixolog, balki butun maktab jamoasi mas'uldir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan alohida ta'kidlaganidek «Ish bilan band bo'lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni faoliyatning yangi ilg'or tarmoqlari va sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir».

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari rahnamoligida qisqa muddat ichida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasidagi o'zgarishlar, yoshlarni kasbiy ta'limga jalb etish va ularga kasbiy ta'lism berish kabi vazifalarga samarali erishilib kelinmoqda. Jumladan, bir yarim mingdan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning barpo etilishi, ularda respublikamiz uchun zarur bo'lgan barcha mutaxassislik va kasblar bo'yicha ta'limgning olib borilishi diqqatga sazovordir. Avvalo, kasb tushunchasiga ta'rif berib o'tsak, kasb – bu inson o'zi tanlagen kasbni ma'lum darajada bilimga, tayyorgarlikka ega bo'lishi va hayotining xotirjamligi moddiy ehtiyojiga foyda keltirishi hamda o'z ixtiyori bilan tanlagen bo'lishi kerak.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyor-lashdan iborat bo‘lib, bu jarayon bolaning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashishdan iborat. Mehnat faoliyati ko‘p jihatdan shaxsning kasb-hunar mahorati bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning kamoliga yetish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘zining mehnatga qiziqishini to‘la namoyon etish uchun yosh yigit, qizlar ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida ma’lum o‘rin tutish, men kimman ijtimoiy taraqqiyotga qanday hissa qo‘sishim mumkin, degan savollarga javob topishi lozim. Oilada, maxsus mакtab-internat va umumta’lim maktablarida o‘qiydigan imkoniyati cheklangan, yordamga muhtoj o‘quvchilarni kasb-hunarni tanlashida turli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar mayjud.

Ta’kidlash joizki, yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni amalgaga oshirishda ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni amalgaga oshirish lozim.

1. Psixodiagnostik ishlar – har bir o‘quvchida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan hissiy zo‘riqish holatlari xos asosiy ko‘rinishlarni aniqlash.

2. Psixoprofilaktik ishlar – o‘quv faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonida o‘quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta’sir etish mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan ko‘ra bilish va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o‘tkazish.

3. Psixokorreksion ishlar – fanlarni o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarning o‘zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va shu asnoda ular bilan alohida mustaqil ishlar olib borish, ulardagи imkoniyatlarni keng miqyosda o‘rganish hamda rivojlantirish orqali o‘quvchi shaxsidagi faollikni oshirish yo‘llarini izlash.

4. Psixologik maslahat ishlari har bir o‘quvchining o‘zigagina xos iqtidori, qiziqishlari, maqsadlari, o‘qish imkoniyatlari haqida shu o‘quvchining o‘ziga, sinf rahbariga va otaonasiga o‘z vaqtida tegishli ma’lumotlar bera olishi kerak.

5. Umumiy faoliyat tadbirlari – psixologik xizmat Nizomiga amal qilgan holda har bir o‘quvchi uchun Tashxis daftarini to‘ldirish. Maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning tarkibiy tuzilmasi bosqichlar tizimida amalgaga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy mas’uliyat kasb-hunarga yo‘naltiruvchi, amaliyotchi-psixolog zimmasiga tushadi, ular esa, o‘z navbatida, barcha ta’sir etuvchi omillar faoliyatini muvofiqlashtirib boradilar. Maktab rahbariyati, sinf rahbari, psixolog, defektolog, shifokor (hamshira), mehnat ta’limi o‘qituvchisi, o‘quvchilar yetakchisi, to‘garak rahbarlari va kutubxona mudirlari, oila a’zolari, mahalla vakillari doimiy hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Olib borilayotgan ishlar natijalari psixolog bilan birgalikda muntazam tahlil qilinib boriladi. O‘quvchining kasbiy o‘zligini anglashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ushbu bosqichlarda bolaga kelgusida qanday kasb-hunarni egallashi to‘g‘risidagi maslahatlar va ma’lumotlar tushuntirib beriladi.

O‘spirinlik davrida o‘quvchilar uchun eng muhim xususiyat ularda ma’naviy jihatdan kamolotga intilishning kuchayishidir. Chunki voqelikka, kishilarga munosabat chuqur ichki ma’naviy intilish orqali sodir bo‘ladi. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ta’lim muassasalariga kelgan kunlaridanoq boshlanadi. Masalan, kasblar haqidagi fikrlarni ular ongiga singdirib, ota-onalari, yaqin kishilari kim bo‘lib ishlashlari haqida qiziqarli suhbatlar o‘tkaziladi. Maxsus yordamga muhtoj bitiruvchi sinf o‘quvchilarining o‘zi qiziqqan fani, qanday kasblarga moyilliklari mavjudligini aniqlash maqsadida, foydalanishi qulayligi bilan xarakterlanib kelayotgan metodikalar «Qiziqishlar anketasi» va Ye.A.Klimov tomonidan taklif etilgan «Differensial diagnostik so‘rovnama» (DDS) o‘tkazildi. Tadqiqot davomida 9-sinfni bitiruvchi o‘quvchilarning o‘zi qiziqqan sohasi bo‘yicha amaliy ishlarga faol kirishishlari, ularning qiziqishlari moyillikkha aylanganligidan dalolat beradi.

Tadqiq etilgan inkluyuziv ta’limning samarasini o‘quvchilarning kimyo, ingliz tili, informatika, mehnat, matematika, ona tili fanlarini o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, o‘quvchilarning to‘qqizinchi sinfni bitirgandan so‘ng

qaysi kasb-hunar kollejlarida o‘qishni davom ettirishlari haqidagi ma’lumotlar aniqlandi. Tibbiyat, pedagogika, qurilish va milliy hunarmandchilik yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlarida o‘qish istagini bildirganlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Maxsus yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik tomonlarini ilmiy jihatdan asoslab berish orqali uning o‘quvchilar orasida fanlarga bo‘lgan qiziqishni, mehnatga layoqatni rivojlantirishda, kasb-hunar egallashga nisbatan mehr-muhabbatni oshirishda, insonparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim vositasi ekanligi asoslab berildi.

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash hamda O‘zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta’lim-tarbiya ishlarni oqilona yo‘lga qo‘yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Zero, taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb-hunarga ega bo‘lgan yuksak salohiyatli shaxslar hal etadi.

## **5.2. Oliy ta’lim muassalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish: muammo va yechimlar**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning xozirgi davrida butun dunyoda sog‘lom odamlar va sog‘ligida muammolari bo‘lgan shaxslar auditoriyada birlgilikda ta’lim olish uchun innovatsion ta’lim platformalari asosida o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etish va o‘zlashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Jahan ta’lim amaliyotida bu yo‘nalish inklyuziv ta’lim deb ataladi, O‘zbekiston Respublikasi o‘quv jarayoni amaliyotiga xam inklyuziya kirib keldi. Alovida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Bugun jamiyatimiz o‘z oldiga maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bu jarayonning barcha bo‘g‘inlarida ularning to‘laqonli ta’lim olish imkoniyatini amalda qo‘llash vazifasini qo‘ygan. Bizning fikrimizcha, bu vazifani amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo‘nalishi

aynan inklyuziv ta’limdir. Inklyuziv ta’lim - bu tirik organizm, tirik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchilar va otaonalar tomonidan o‘quv jarayoniga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Zero, har bir bola individual yondashuvni talab qiladi, har kim bilim olish va jamiyatda o‘z qobiliyatini e’tirof etish huquqiga ega”dir.

Respublikamizda ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mavjud holatini ko‘rib chiqish, shuningdek, inklyuziv ta’limni hayotga tatbiq etish maqsadida mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Bugungi kunda O‘zbekistonda 700 mingdan ortiq maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslar istiqomat qiladi, ularning 100 mingdan ortig‘i 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir (Respublika Oliy Majlisi Senati ma’lumotlari bo‘yicha). So‘nggi yillarda respublikamizda maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza sohasida davlat darajasida qator ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan: 1. 2020-yilda “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun [2] qabul qilindi, unda maxsus tarbiyaga muhtojlarning uy-joy olishda imtiyoz va engilliklar, ta’lim olishi, ularni ish bilan ta’minalash, shuningdek mavjud infratuzilma, axborot va davlat xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishlarini ta’minalash belgilangan. 2. 2021-yil 7-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-695-sonli “Maxsus tarbiyaga muhtojlarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qonunini (Nyu-York, 2006 yil 13 dekabr) [3] imzoladi, unda quyidagilar ko‘zda tutilgan: Maxsus tarbiyaga muhtojlarning huquqlari va maxsus tarbiyaga muhtojlar hayotining barcha jabhalarida boshqalar bilan teng huquqqa layoqatlari ekanligini tan olish. Ushbu holatni hisobga olgan holda, tegishli sharoitlarda va qonun hujjalariга muvofiq maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish mexanizmlaridan, shu jumladan maxsus tarbiyaga muhtojlarning muomala layoqatini cheklashdan foydalanish imkoniyatini ta’minalash bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish nazarda tutilgan. 3. 2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.

Mirziyoyevning 4860-sonli “Alovida ta’limga muhtoj bolalarni o‘qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qaror inklyuziv ta’lim tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini yaratishni nazarda tutadi. Jumladan inklyuziv ta’lim tizimi uchun kadrlar malakasini oshirish; shuningdek, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarни maxsus qurilmalar (ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjaralar va boshqalar), zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasb-hunar egalari uchun jihozlar va o‘quv qurollari bilan ta’minalash nazarda tutilgan; 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847-sonli farmoni qabul qilindi [5]. Ushbu xujjatning muhim bandlaridan biri aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, xususan, maxsus tarbiyaga muhtojlarni oliy ta’lim bilan qamrab olishni kengaytirish nazarda tutilgan. Aytishimiz mumkinki, keyingi yillarda respublikamizda maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlarini himoya qilish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, amalda qonunlar, shuningdek, qabul qilingan qonunosti hujjatlarini amalga oshirish har doim ham yetarli darajada samarali bo‘lavermaydi. Darhaqiqat, qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlari maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotining barcha jabhalariga jalb etishga xizmat qilishi kerak, bu esa yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan me’yorlarning hayotga tatbiq etilishi maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ishtirok etishi, tegishli infratuzilma xizmatlaridan foydalanishi, tibbiy xizmat ko‘rsatishi, ish bilan ta’minalishi va erkin foydalanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tadqiqot mavzusining dolzarbligini hisobga olgan xolda inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasining inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari, dialektik va statistik metodlar, adabiyotlar va davriy nashrlar tahlili, shuningdek, o‘rganishga shaxsiy-ijodiy yondashuv xizmat qildi. Oliy o‘quv yurtlarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish muammolari va yo‘nalishlari Uilyam Seyts<sup>25.26</sup>, Yusupov D.<sup>27</sup>, Baqoeva F. va D. Muratovlar D.<sup>28</sup>, Alekhin S.V.<sup>29</sup>, Akimova O.I.<sup>30</sup>, Shipitsyna L.M.<sup>31</sup>, Kraineva E.I.<sup>32</sup>, Pugachev A.S.<sup>33</sup>, Z.J.Adilovalar<sup>34</sup> o‘z ilmiy-tadqiqotlarida izlanishlar olib borishgan. Muallif ushbu ilmiy-yadqiqot ishini tadqiq etishda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida inklyuziv ta’limni rivojlantirishning bugungi holatini tahlil etish, mayjud muammolarni aniqlash, shuningdek, universitetda inklyuzivlikni joriy etishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan.

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim amaliyoti Sovet Ittifoqi davridan boshlangan. Sovet ittifoqi davrida maxsus tarbiyaga muhtojlar ixtisoslashtirilgan o‘quv yurtlarida tengdoshlaridan ajratilgan holda o‘qigan. Bugungi kunda ilm-fan ancha oldinga ketdi, G‘arb olimlarining ko‘plab ilmiy va amaliy sinovdan o‘tgan ilmiy tadqiqotlarida maxsus tarbiyaga muhtojlarni o‘qitishda eng katta samaraga ularning tengdoshlari bilan guruhda birgalikda o‘qishga erishilishi isbotlangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 15 foizi jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsonlarga ega va shunga mos ravishda maxsus tarbiyaga muhtojlar sifatida ro‘yxatga olingan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu ko‘rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda, bu asosan atrof-muhitning yomonlashishi va normal turmush tarzining buzilishi bilan bog‘liq va barcha maxsus tarbiyaga muhtojlarning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga to‘g‘ri kelayotganligi bu mamlakatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ogohlantiruvchi chaqiriqdir. Ushbu mamlakatlar hukumatlari bunday toifadagi shaxslarni jamiyatda to‘liq hayotga moslashtirish bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rishlari talab etiladi. 2022-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni 36 million kishiga yetdi, ularning 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Respublika statistik ma’lumotlariga ko‘ra,

Respublikada rasmiy ro‘yxatga olingan maxsus tarbiyaga muhtojlar mamlakat umumiy aholisining 2,1 foizini tashkil qiladi. Ammo bu ko‘rsatkich mamlakat aholisini ro‘yxatga olishning yo‘qligi sababli juda buzib ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan 1991 yildan beri aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilmagan; birinchi aholini ro‘yxatga olish 2023 yilga rejalashtirilgan biroq, Davlat statistika qo‘mitasi maxsus tarbiyaga muhtojlik bo‘yicha Washington guruhi tomonidan tavsiya etilgan aholini ro‘yxatga olishda maxsus tarbiyaga muhtojlik bo‘yicha savollarni o‘z ichiga olmaydi, chunki maxsus tarbiyaga muhtojlikni aniqlashda mablag‘ va tajriba etishmashmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida fan, ta’lim va ishlab chiqish integratsiyasi tamoyilini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaning maqsadi oliy ta’lim sohasida ilg‘or xorijiy tajriba asosida raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlashni davom ettirgan holda islohotlarni chuqurlashtirishdan iboratdir. Mazkur konsepsiyasida inklyuziv ta’lim asoslarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan:

- imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari turlarini ko‘paytirish va sifatini oshirish;
- ta’limda inklyuziv jarayonlarni keng rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;
- talabalar turar joylari va oliy o‘quv yurtlari binolarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun qo‘srimcha shart-sharoitlar yaratish;
- ta’lim muassasalarini ushbu toifadagi o‘quvchilarini zarur adabiyot va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minalash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlampagi o‘quvchilarini moddiy rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish.

2017-yil 1-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni [7] e’lon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarga universitetga kirishda bir qator imtiyozlar berildi. Xususan, 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab I va II guruh maxsus tarbiyaga muhtojlariga mamlakatimiz milliy oliy

o‘quv yurtlariga o‘qishga kirish uchun qo‘srimcha 2 foizli kvota ajratildi. Shu bilan birga, maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning oliy ta’lim tizimiga kirishi uchun kirish imtihonlarida to‘plangan minimal ball ham 56,7 ballga (eng yuqori mumkin bo‘lgan 189 ballning 30 foizi) tushirildi. Biroq, maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda mavjud imtiyozlarga qaramay, ushbu toifadagi shaxslarning oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish ulushi ancha past bo‘lib qolmoqda va bu, birinchi navbatda, mamlakatdagi aksariyat universitetlarning ushbu shaxslarni tayyorlashga tayyor emasligi bilan bog‘liq. Maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun qulay muhitning yo‘qligi oliy o‘quv yurtlari tomonidan bunday toifadagi shaxslarni ajratish va kamsitishni keltirib chiqaradi. Universitetlarda maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun qulay muhitning yo‘qligi, birinchi navbatda, quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

1 Binolar arxitekturasi va binolarga tutashgan inshootlar infratuzilmasi maxsus tarbiyaga muhtojligi bor shaxslarni o‘qitishga moslashmagan;

2 O‘zbekistondagi aksariyat oliy o‘quv yurtlarining o‘quv binolari to‘rt qavat va undan yuqoridir, ammo mintaqaviy kesimda o‘rganadigan bo‘lsak, ularning ko‘philigidagi liftlar yo‘q, borlarda esa lift ishlamaydi yoki ta’mirlashga muxtoj, bu o‘z navbatida tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan maxsus tarbiyaga muhtojlarni bino bo‘ylab harakatlanishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

3 Mamlakat oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari keskin oshishi munosabati bilan ko‘philik universitetlar o‘quv xonalari fondining yetishmasligiga duch kelmoqda, buning natijasida dars jadvalini har bir juftlik kesimida tartiblash va guruh talabalarning darslarini o‘tkazish uchun auditoriyani o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi, bu har bir juftlik darslarini turli qavatlarda joylashgan turli auditoriyalarda o‘qitishga sabab bo‘lmoqda. Bunday holda, baland zinapoyalar va panduslarning yo‘qligi maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasidagi talabalar uchun binoga kirish va harakatlanish uchun jiddiy to‘siqdir;

]) Respublikamizning ko‘pgina oliv o‘quv yurtlarida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan maxsus o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yetishmasligi yoki yo‘qligi;

) O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning o‘ta jiddiy muammosi - bu ta’lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar bilan ta’milnaganligidir;

) Respublikamizdagi ko‘plab oliv o‘quv yurtlarining umumiy foydalanish joylari (oshxona, kutubxona, hojatxona) maxsus tarbiyaga muhtojlar ehtiyojlariga moslashtirilmagan, maxsus jihozlar bilan jihozlanmagan, bu esa imkoniyati cheklangan talabalarning ushbu joylardan foydalanishini qiyinlashtiradi;

) Mamlakat oliv o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarining aksariyati maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni o‘qitish bo‘yicha maxsus malakaga ega emas; Bugungi kunda ko‘plab maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun universitet ta’limi nafaqat tegishli bilimlarni egallah, balki hayotiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni egallahdan iborat bo‘lishi kerak, o‘z navbatida oliv ta’lim muassalari buni taqdim etishga tayyor bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan, inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilishi va belgilangan vazifalarni to‘liq amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur deb hisoblaymiz. Aytish joizki, mazkur yo‘nalishda qator ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda, ularning asosiysi mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha hukumatning amaliy harakatlarida namoyon bo‘lmoqda. Xususan: Osiyo taraqqiyot bankining jalb qilingan mablag‘lari hisobidan mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish loyihasi amalga oshirilmoqda, “Mehribonlik” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari va Mehrimonlik uylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. ”. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish, maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning huquq va

erkinliklarini qo‘llab-quvvatlash muammosi 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”, nomli 4-ustuvor yonalish “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” nomli 66-maqсадада bevosita mamlakatimizda maxsus tarbiyaga muhtojlarning yashash huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish nazarda tutilgan. 2021-yil 3-dekabr Xalqaro maxsus tarbiyaga muhtojlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Ahолining eng ijtimoiy himoyaga muhtoj toifasi – maxsus tarbiyaga muhtojlar bilan olib borayotgan ishlarimizni tanqidiy baholagan holda, biz ular hech qachon o‘zini yolgiz his qilmasliklari, davlat va xo‘jalik hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etishda davom etamiz” – deb ta’kidlab o‘tdilar. Bu O‘zbekiston rahbariyatining maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni huquqiy himoyasiga, ularning erkinliklari, shuningdek, mamlakatimizda inklyuziv ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga katta e’tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, biz mamlakatimizda maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli turmush tarzini olib borishlariga, faol hayot kechirishlariga. jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishlari, shuningdek fuqarolik majburiyatlarini bajarishga ko‘maklashuvchi mamlakatimizda inklyuzivlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosatni zamonaviy voqelikdan kelib chiqgan xolda dolzarb va muxim deb xisoblaymiz. Xulosa va takliflar: O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi voqeliklarida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish imkoniyatlarini amalga oshirishni hisobga olgan holda respublikada inkluziv ta’lim tizimi o‘zining shakllanish bosqichida bo‘lib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

O‘zbekistonda maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning yashashi, ta’lim olishi uchun sharoit yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, bunday toifadagi shaxslarning yanada

rivojlanishi uchun shartsharoit yaratish bo‘yicha qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan: 2020–2025- yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Bundan tashqari, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, ularning hayot sifati va darajasini oshirishga qaratilgan 2022- 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida inklyuzivlikni shakllantirish va joriy etish borasida erishilgan yutuqlarga qaramay, inklyuziv ta’lim shakli uchun professor-o‘qituvchilar tarkibini tayyorlashning yetarli darajada emasligi, binolarning arxitektura-muhandislik infratuzilmasi maxsus tarbiyaga muhtojlar talablariga javob bermaydi, shuningdek, inklyuziv ta’limga moslashtirilgan maxsus o‘quv dasturlarining yo‘qligi kabi qator muammolar aniqlandi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’limning inklyuziv shaklini rivojlantirish va samarali tatbiq etish maqsadida, bizning fikrimizcha, quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

→ BMTning maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalari va tamoyillariga muvofiq ta’limning inklyuziv modelining huquqiy asoslarini takomillashtirish; umume’tirof etilgan xalqaro ta’riflar va vositalar asosida maxsus tarbiyaga muhtojlar bilan bog‘liq statistika va ma’lumotlarni yig‘ish tizimini uyg‘unlashtirish;

→ yangi bino va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishda ularni maxsus tarbiyaga muhtojlarning ehtiyojlari va talablariga moslashtirish;

→ ta’limning inklyuziv modelida bevosita ishtirok etuvchi pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

→ Respublika va alohida hududlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, maxsus tarbiyaga muhtojlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va ularni reabilitatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha

ijtimoiy xizmatlarning faol ishtirokida inklyuziv ta’limning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini shakllantirish, xalqaro standartlar va me’yorlarga muvofiq o‘qitish va ishga joylashtirish;

O‘ylaymizki, mazkur tavsiyalarning amalga oshirilishi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha isloh qilish konsepsiyasida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish hamda ta’lim muassasalariga inklyuziv ta’limni samarali integratsiyalash, moslashtirish va rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish masalasi bo‘yicha qanday ishlar olib borilmoqda.
2. Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirishning mazmun-mohiyatini izohlang.
3. Inklyuziv ta’lim rivojlanishining muammo va yechimlari haqida mulohaza yuriting.


## VI BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INNOVATSION INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH

### 6.1. Innovatsion inklyuziv ta'limni mohiyati

Bugungi “Inson qadri uchun” g‘oyasi ostida yashayotgan harbir fuqora o‘ziga bo‘lgan ishonch va erkinlikni his qilib yashashi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi desak adashmaymiz. Shunday ekan maktabgacha ta'lismu muassasasi tizimidagi bugungi kun tub o‘zgarishlarini yosh avlod misolida keltirsak xato bo‘lmaydi, chunki yurtimizdagи maktabgacha ta'lismu muassasalarida o‘sib kelayotgan yosh avlodlarimizning erkin ta'lismu olib sog‘lom ma’naviyatli bo‘lishida bir qancha ko‘zga ko‘rinadigan ishlar amalgalashirilib kelmoqda, bunga misol tariqasida inklyuziv ta'limni keltirishimiz mumkin. Ayniqsa bugungi kunda inklyuziv ta'limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Chunki har bir O‘zbekiston fuqorosi har qanday jismoniy holatidan qat’iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlарimizни keng qamrovli maktabgacha ta'lismu muassasalariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta'lismu olishlari davlat tomonidan kafolatlangan. Inklyuziv ta'lismu vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lismu taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivilik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lismu olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Ta'lismi joriy etish har

doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lismi joriy qilishda esa quyida keltirilgan tamoyillarga asoslaniladi:



6.1-rasm. Inklyuziv ta'lim tizimi tamoyillari

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umum ta'lismu muassasalarini tizimida o‘qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklorasityalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko‘plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo, bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko‘plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiyligi ta'lismu borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ta'lismu masalasi unga kiritilmaydi. Ammo, inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog‘liq bo‘lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto‘g‘ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni

inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umum ta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo, inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar maxsus tarbiyaga muhtoj farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. "Bog'lanish" - bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab hojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Albatta maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga ularga maxsus tarbiyaga muhtoj deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi]. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limda maxsus

tarbiyaga muhtoj boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rtamaxsus ta'limni olishlari blan yakunlanmasligi kerak. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliv ta'limi ham amalga oshirilishi taalab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalrni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaling maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlar har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi. Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari uchun ta'lim usullari: Ta'lim usullari - kattalar va bolalarning ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq faoliyati yo'llari.

O'qitish usullari - maqsadlarga erishish yo'llari, usullari majmui. Qabul qilish bo'yicha trening - usulning bir qismi, usulni amalga oshirishning alohida bosqichi. Maktabgacha pedagogikada o'qitish usullarining tasnifi qabul qilinadi, bu fikrlashning asosiy shakllariga (vizual-samarali va vizual-majoziy) asoslanadi. Vizual usullar va o'qitish texnikasi Usullari

1- Kuzatish - tevarak-atrofdagi olam hodisalariga diqqat bilan qarash, sodir bo'layotgan o'zgarishlarni payqash, ularning sabablarini aniqlash qobiliyati. Kuzatish turlari: qisqa muddatli va uzoq muddatli; takroriy va qiyosiy; xarakterni tan olish; obyektlarni o'zgartirish va o'zgartirish uchun; reproduktiv tabiat.

2-Ko'rgazmali qurollar (obyektlar, reproduksiyalar, diafilmlar, diafilmlar, videoroliklar, kompyuter dasturlari) namoyishi. Atrof-muhit bilan tanishish uchun ishlatiladigan ko'rgazmali qurollar: ketma-ket birlashtirilgan didaktik rasmlar; mashhur rassomlar suratlarining reproduksiyalari; kitob grafikasi; mavzu rasmlari; o'quv filmlaridan ta'lif jarayonida keng foydalanilsa yosh avlodning atrof muhit va undagi voqealarni hodisalardagi kechirmalar haqida tasavvur shakllanadi va idrok eta oladi. Shuni inobatga olish kerakki inklyuziv ta'lif jarayonida onlayn tarzda har bir pedagog xodim maxsus dasturlar orqali o'z-o'zini mustahkamlovchi innovatsion metodlardan imtihon topshirib turishlari kerak chunki imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash pedagoglardan katta ma'uliyat va sabrlilikni talab qiladi.

Dasturiy ta'minotlar asosan nimalarni o'z ichiga olishi kerak:  
Dasturning asosiy maqsadlari:

1. Bolalar psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi. ✓ Inson taraqqiyoti nazariyalari. ✓ Maktabgacha, boshlang'ich mifik, o'smirlilik, yoshlik bolalarining psixologik xususiyatlari.

2. Maslahat psixologiyasining asoslari. Psixologik maslahating maqsadi va vazifalari, turlari va yo'nalishlari, bosqichlari. Uning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar.

3. Bolalar va o'smirlarning klinik psixologiyasi. Bolalar klinik psixologiyasida norma va patologiya muammosi.

Dizontogenet g'oyasi: mexanizmlar, naqshlar, tipologiya. Miyaning shikastlanishi natijasida aqliy zaiflik. Xulq-atvor va affektiv, nevrotik, psixosomatik kasalliklar. Yuqoridagi maqsadli dasturlarni amalga oshirish yosh avlodning sog'lom tanda sog'lom ruhiyat bilan ilm olishlariga imkoniyat yaratadi. Shu maqsadda har bir pedagog inklyuziv ta'lif tizimiga to'laqonli tayyor bo'lishiga onlayn imtihonlar katta samara beradi. Alatta maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi.

Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'lifning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari inklyuziv ta'lifda maxsus tarbiyaga muhtoj boladagi mavjud nuqonlarni

bartaraf etish, korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi.

## **6.2. Maktabgacha ta'lifda inklyuziv ta'lif tizimini rivojlantirish**

Mamlakatimizda ta'lif tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lif-tarbiya jarayoniga samarali ta'lif va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'lifning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lifdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lif xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lif sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lif bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqildi. 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan:

2020 — 2022-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillash-tirish; inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish;

inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’milanishi;

inklyuziv ta’lim sohasiga zamонавиъи ахборот-кунуникатсиya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobjiy ijtimoiy muhit shakllantirish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish;

2023 — 2025-yillar davomida:

inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiyo‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish;

inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish;

inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiha qaratilgan choralar ko‘rish;

o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo‘yildi.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat‘i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy mактабда bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mактабда ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘рганиш uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa mактабга qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Mактабгача ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘sib sifatlari ta’lim olishini ta’milagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlanishdir.

**Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?**

- o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o‘qishga bo‘lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- O‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo‘qoladi.

#### **Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**

-O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

- Tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;
- Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish
- insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi
- Yoramga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Innovatsion inklyuziv ta’limning mohiyatini asoslang.
2. Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?.
3. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima berdi?
4. Inklyuziv ta’lim tizimi tamoyillarini tavsiflang.

### **VII BOB. INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY QILISH BO‘YICHA DASTLABKI TAJRIBA VA SINOV ISHLARI**

#### **7.1. Dastlabki tajriba inklyuziv maktablarini tashkil etilishi**

Respublika ta’lim markazi UNESCO tashkiloti bilan hamkorlikdagi loyiha rejasiga binoan inklyuziv ta’lim resurs markazi va integratsion ta’lim tizimi joriy qilingan muassasalarga uslubiy va metodik jihatdan yordam beradi, bu ta’lim tizimini takomillashtirish uchun xalqaro xorijiy davlatlar bilan hamkorlik oshadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish respublikamizning ayrim viloyatlarida, jumladan Farg‘ona, Andijon, Xorazm, Toshkent viloyatlarida tajriba-sinov jarayoni boshlangan bo‘lib, bu ishlarni amalga oshirishda nodavlat jamoalar, xorijiy tashkilotlar tashabbus kursatdi. Xalqaro UNESCO tashkiloti Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning tayanch punktlari tashkil etildi. Ular alohida yordamga muxtoj bolalar ta’limi bilan shugullanuvchi “Inklyuziv ta’lim”dasturini amalga oshiruvchi yagona punktlar hisoblanadi. Farg‘ona viloyati Quqon shaxridagi maxsus ehtiyoja ega bo‘lgan bolalarni ijtimoiy quvvatlash “Ziyo”markazi umumta’lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish UNESCO loyihasi asosida inklyuziv ta’lim resurs markazi bilan hamkorlikda 2004-yilda uz faoliyatini boshladi. Sinov-tajriba maydonlari uchun Farg‘ona viloyati Quqon va Marg‘ilon shahridagi 4, 5-sonli aqli zaif bolalar, 9-sonli zaif ko‘rvuchi bolalar maxsus maktab-internatlarida, 64-sonli falaj bolalar maktabgacha ta’lim muassasa majmuasi, 39-sonli nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabgacha ta’lim muassasasi, 1 va 9-sonli umumta’lim maktablari, Andijon viloyatidagi 5, 31-sonli umumta’lim maktablari tanlandi. Inklyuziv ta’lim borasida tajriba-sinov ishlari 2004 -yil iyun oyida boshlangan. Dastavval ma’lumotlar banki tashkil etildi. Bu ishga ota-onalar, o‘qituvchilar va mahalla qo‘mitasi a’zolari jalb etildi. Andijon viloyatidagi 31 -

sonli umumta'lim maktabining 4-sinf oquvchisi (zaif eshituvchi) 2001-2002 o'quv yillarda resurs pedagog tomonidan umumta'lim maktabining inklyuziv sinflarida o'qitila boshlagan. Resurs pedagogning aytishicha, sog'lom bolalar bilan o'sish ilk bosqichda qiyin bo'lgan. Differensial va individual yondashish yordamida asta-sekin qiyinchiliklar ortda qolib, bolada bilim, kunikma va malakalar hosil bula boshlagan. Tengdoshlari tomonidan kamsitilmay, ularning mehr-muruvvatiga sazovor bo'lgan. Shahar xalq ta'limi bo'limi psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyasi raisi M. Sattorovaning aytishicha, bolalarni maxsus mактабга joylashtirish tortishuvlarga sabab bo'lgan, ayniqsa, ota-onalar maxsus maktablarga bolalarini berishga qarshilik ko'rsatganlar. Xursand qilgan narsa maxsus ta'limning noan'anaviy shakllari va ta'lim turlarining kengayganligidir. Maxsus ta'lim umumta'lim maktablari bilan qo'shilib ketmovda. Imkoniyati cheklangan bolalarni Sen hyech kimdan kam emassan, tengdoshlaring bilan oqishga tenghuququslisan, deb ustirmoqdalar. Oripova Yorqinoy Sobirovna rahbarlik qilayotgan Andijon shahar 5-sonli umumta'lim maktabida **78** ta sinf **bo'lib**, **2619** nafar o'quvchi tahsil oladi. Shulardan boshlangich sinfda 5 ta o'quvchi inklyuziv ta'lim olgan. Marg'ilon shahar 9-sonli umumta'lim maktabida tahsil olayotgan maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachasida o'tiradigan harakat-tayanch a'zolari falajlangan bolaning ta'lim-tarbiya olish jarayonini kuzatdik. Inklyuziv ta'limga 4-sinfdan boshlab jalb etilgan. Dastavval usish jarayoni bola uchun juda siyin kechdi, soglom tengdoshlaridan maxsus tarbiyaga muhtojligi tufayli ajralib wldi. Ammo sunggi kuzatuvarlar shuni kursatdiki, urtoklari dustona munosabatda bulib tanaffus paytida aravachada etaklab yurishar, dars paytida esa sinf taxtasi yoniga etaklab olib chiqishar ekan. Bu kuzatishdan shu narsa ayon buladiki, maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish ularni barcha qatori tenghuquqli ijtimoiy jamiyat a'zosi bo'lishini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish loyihasi Xorazm viloyatida ham izchil tarzda amalga oshirib kelingan. Bu ishda Xorazm viloyatining bir qator hududlarida xalqaro UNICEF, «OPERATION MERCY» nodavlat tashkilotlari va RTM Maxsus ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda

tuzilgan ryejasiga asosan ish olib borilgan. Inklyuziv ta'limning loyihasi Xorazm viloyati Xiva shahrida 1999-yilda «OPERATION MERCY» xayriya tashkiloti Xalq ta'lim bo'limi va Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlik rejasiga binoan Xiva tumanida tayanch-harakat a'zolari falajlangan bolalar uchun 4 ta integrasiya sinfi tashkil etildi. Maktab binolarini ta'mirlash va resurs pedagog bilan va bolalarni maktabga muntazam qatnashlari uchun transport bilan ta'minlashni «OPERATION MERCY» tashkiloti amalgalashtirishda amalga oshirib keldi. Ushbu integrasiya sinflarida ta'lim olgan 1 va 2 sinf bolalari boshqa muddatda dars jarayonida fanlardan berilgan bilimlarni o'zlashtirishda va madaniy tadbirlarda ishtirok etadi. Mahalliy boshqarmalar xodimlari falaj maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ham xech kimdan kam emasligiga iqror bo'lib hayratda solishdi. Quyida misol tarikqasida biz xalqaro «OPERATION MERCY» xayriya tashkiloti bilan hamkorlikdagi loyihamiz asosida Xalq ta'limi vazirligining buyrug'iga binoan O'zbekistonda ilk bor 1999-2000- yillar mobaynida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Oqtosh hududidagi «Alokqachi», «Texnolog» oromgohlari tasarrufida imkoniyati cheklangan, maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom bolalar uchun ilk bor «Integrasiyon-sog'lomlashtirish oromgohi» tashkil etib, unda o'tkazilgan tadbirlar to'g'risida fikr yuritmoqchimiz. Oromgohni tashkil etishdan maqsad rivojlanishida turli xil nuqsonli 10 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda jismoniy, ma'naviy, madaniy sohada boshqarishini va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishga oid tadbirlarni amalgalashtirishdan iborat edi. Oromgohga respublikamizning 7 ta viloyatidan: Andijon, Farg'ona, Namangan, Kashkadaryo, Buxoro, Xorazm va Toshkentdan 17 nafar sog'lom va 16 nafar kurish, eshitish, tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar dam olishdi. Ularni birlashtirishda MTM xodimlari, chet ellik ko'ngillilar, 32 ta maxsus maktablarning tajribali uqituvchi va tarbiyachilari va «OPERATION MERCY» tashkiloti xodimlari ishtirok etishdi.

Bolalarni tanlash quyidagi tartibda amalga oshirildi: hududi yasil bo‘lgan umumta’lim va maxsus ta’lim uquvchilarini ota-onasining arizasi va tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi haqidagi hujjatlar va XTVning buyrug‘i asosida qabul qilindi. Bunday tartibdagi oromgohni tashkil etishdan asosiy maqsad bolalar orasida do‘stona munosabatni shakllantirish, ular orasidagi to‘siq devorni olib tashlash, ya’ni diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, doimiy yashash joylarida birlariga ko‘maklashishga yordamlashish va birgalikda teng huquqli sharoitda turli tadbirlarda ishtirok etishini ta’minalashdan iborat. Integratsion oromgohda bolalar bilan shug‘ullanuvchi 32 nafar pedagog test asosida tanlab olindi. Xorijiy mamlakatning 10 ta davlatidan: Olmoniya, Shvetsiya, Yamayka, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya, Shotlandiya, Hindiston va boshqa davlatlardan bittadan ko‘ngilli (volantyor)lar jalb etilib, bolalar bilan turli xil qiziqarli tadbirlarni o‘tkazishda o‘z hissalarini qo‘sib faol ishtirok etishdi. Yana 4 ta ko‘ngilli Toshkentda faolyyat ko‘rsatayotgan «MERCY PROJECT» xalqaro insonparvarlik tashkilotlari xodimlari bo‘lib, «OPERATION MERCY»ning 3 ta xodimi bilan o‘ziga xos xalqaro jamiyatni tashkil etishdi. Oromgohdagi bolalarni o‘z madaniyatlari meroslaridan bahramand qilishni maqsad qilishgan edi. Masalan, Yamayka va Gollandiyadan kelgan ko‘ngillilar bilan uchrashuv oromgohdagi bolalar uchun birinchi marta chet ellik fuqaro bilan bevosita muloqot qilish va madaniyatini o‘rganish bo‘ldi. Har bir ko‘ngilli zimmasida kichik guruhlarga gammurlik ko‘rsatish bo‘lib, buning natijasida ular orasida do‘stona munosabatlar o‘rnatildi. Chet ellik ko‘ngillilar mahalliy tilni tushunmaganliklari ularni muloqot qilishning boshqa yo‘llarini o‘ylab topishga majbur qildi.

Yamaykalik Venaye: «Odamlar nima deyayotganini tushunmaganimdan o‘zimni maxsus tarbiyaga muhtojdek sezdim», dedi. Tezda imo-ishora tilini o‘rganib oldim va mening bu «maxsus tarbiyaga muhtojligim» bolalar bilan ishlashimga halaqt bermasligiga va hatto bunga shung‘ib ketishimdan to‘xtata olmasligini bolalar tezda angaab oldilar. Hech bir mustasnosiz hamma chet ellik ko‘ngilli oromgoh hayotidan mamnun bo‘lib, maxsus tarbiyaga muhtojlar hayotidan ko‘p narsalar urganib

olishganini tan olishdi. Ular bolalarning layoqatlariga va hayotga intilishiga, uqituvchilarning bolalarga nisbatan gamxurligi, ochiq ko‘ngil va mehribonligiga qoyil qolishdi. «Bu eng ogir ish bulishiga karamasdan eng olivjanob va garoyib harakat bulib, shu erda o‘tkazilgan yozning 10 kuni esda qolarli hodisa bo‘ldi», deydi Angliyalik ko‘ngilli Keti. Bu kabi xayrli va sahovatli ishlar maktabdan tashqari tashkil etilgan tadbirlar, imkoniyati cheklangan (maxsus tarbiyaga muhtoj) bolalarni barcha katori teng huquq sharoitda turli xil tadbirlarda ishtirok etib jamiyatga tulaqonli moslashib, integratsiyalashib ketishiga yana bir bor ishonch hosil qilindi. Qolaversa, sog‘lom va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning bush vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish barcha mutasaddi tashkilotlarning burchidir. Qanchadan-qancha ota-onalar o‘z farzandini garchi maxsus tarbiyaga muhtoj bo‘lsa ham, nimalarga qodir ekanligini anglashib, hozirgi kunda o‘z farzandlarini umumta’lim, ya’ni inklyuziv maktab, maktabgacha ta’lim muassasalarga berish istaklarini bildirishmoqda. Bu tadbirni taeushli shuni kursatdiki, O‘zbekistonda bu kabi bolalar va yoshlarni nafakat umumta’lim muassasalarida o‘z tengdoshlari bilan ta’lim olishi va shuningdek, ularni maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishi kelajakda intefasiyani amalga oshirishning samarali yo‘lidir. Bu borada xorijlik ko‘ngillilar mahalliy pedagoglar bilan hamkorlikda seminar-treninglar o‘tkazib, tajriba almashishga tuyassar bo‘lishdi. Har kungi reja bo‘yicha tadbir nomlari belgilandi. Masalan «Bizning shior», «Shijoatli», «Jahonshumul», «Matonatli» va h.k. Bolalar bilan tusish, tikish, san’at, uyin, tasviriy san’at, rass, musisa va ashula tugaraklari tashkil etildi. Sport o‘yinlari, yosh ulkashunoslar musobaqalari kabi tadbirlarni o‘tkazish bolalar uchun juda qizisarli bo‘ldi.

## **7.2. Inklyuziv maktablarda olib boriluvchi mashg‘ulotlar**

**Buyuk tong uchrashuvlari.** Har kun «Buyuk tong uchrashuvi», o‘quvchilarning qo‘sish aytishi, masxarabozlarni tomosha qilish va hikoyalar tinglash uchun yig‘ilishi bilan boshlangan. Bu suhbatlarda asosiy e’tibor bolalarni ma’naviy sog‘lomlashtirish

mavqsadida tinchlik, mehibonlik, kamtarlik, ishonch, sabr-toqat va muhabbat mavzulariga qaratilgan bo‘lib, bolalarni shunday ne’matlar bilan yashashga qiziqtirish bo‘ldi. Bir nechta qo‘sinqni imo-ishora orqali o‘rgangan bolalarga mukofot sifatida masharabozlar har xil kulgili tomoshalar uyuştirib berishdi.

**Kasb-hunar mashgulotlari.** Tajribali mutaxassislar va chet elliklar qo‘l ostida bolalar san‘at, musiqa va drama mashg‘ulotlarida qatnashib har xil materiallardan foydalanishni o‘rganib, yangi hunarlarni o‘zlashtirib oldilar. Masalan, madrasalarni aniq rasmlarini chizib, toshlarga jimjimador bezaklarni tushirishni o‘rgandilar. Turli musiqiy asboblarni chalishni, afrikacha uqo‘sinqlarni kuylashni, xorazmcha raqs tushishni va shotlandcha o‘yinlarni o‘rgandilar. Kasb--unar mashg‘ulotlari davrida bolalar o‘qituvchi va chet elliklar rahbarligi tarkibida sog‘lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bola bo‘lgan kichik gurudlarga bo‘linishdi. Har bir bolani mashg‘ulotga jalb etishga asosiy e’tibor beriladi. Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar gitara tovushlarining tebranishini sezishi va ko‘zi ojiz bolalarni loydan har xil narsalar yasayotganini ko‘rish quvonchli edi.

**Integrasiya mashgulotlari** Oromgohdagi hayotning e’tiborga loyiq tomonlaridan biri bu erda tashkil etilgan integrasiya mashg‘ulotlaridir. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad usuvchi va o‘qituvchilarni maxsus tarbiyaga muhtojlikning og‘ir salbiy tomonlariga e’tiborini jalb qilishdan iborat edi. Buni tajribada kursatish, ya’ni sog‘lom bola ko‘zini bog‘lab berilgan topshirqni bajarishni o‘rganishi lozim edi. Yana bolalar maxsus tarbiyaga muhtojlarga bevosita yordam berishni hamda ularning og‘irini engil qilishni, ko‘zi ojizlarning maxsus hassasi va gapiRAYOTGAN odamlarning lablaridan o‘qish misollari orqali o‘rganishdi. Ular maxsus tarbiyaga muhtojlarga nisbatan bo‘lgan bag‘ritoshlik va noqulaylik sezishni to‘xtatib, ularga yaqin insonga, hatto dustlari va yordamchilariga aylandilar.

Amaliy mashg‘ulotlar quyidagilardan iborat buldi:

1. Jismonan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni tushunish.
2. Jismoniy maxsus tarbiyaga muhtojlikni o‘zida ko‘rish uchun bolalar qo‘l oyoslari bog‘langan holda har xil harakatlarni

bajardilar. Shundan suning ularda kundalik mashg‘ulotlarni, ya’ni yurishni, zinapoyalardan chqishni, stakanga suv qo‘yishni, ovqatlanishni, oyoq-qo‘llari bog‘liq; holda qanday qiyin ekanligini o‘zlarida sinab ko‘rishdi. Boshqa bolalar esa shunday maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga yordam berish ularga tayanch bo‘lishni o‘rganishdi. Eshitishda muammosi bor bolalarni tushunish. Mashg‘ulot boshida bolalardan ikki daqiqaga jum utirib atrofimizda qancha ko‘p tovush borligini tinglash so‘raldi. Shundan so‘ng bolalar ikki daqqa kulochlarini butunlay berkitib olib jumjilikni tinglashdi. Ularning ko‘pchiligi quloqlarini ochib qayta eshitishda boshlagandan so‘ng engil tortganliklarini tan olishdi. Birozdan keyin bolalar imo ishora va belgi orqali gapirayotgan odamlarning lablaridan nima deb turganini anglashni sinab ko‘rib, bu juda qiyin narsa ekanini tajriba oqali ko‘rishdi. Bu tajriba, oromgohdagi bolalarning ko‘pchilagini eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar bilan muloqot qilishga o‘rgatdi. Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalarni jamiyatdan ajralib qolganligi ularning eng katta muammosi, ammo oromgoh vaqtida eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar nafaqat boshka eshitishda muammosi bo‘lgan bolalar bilan o‘ynashdi, balki sog‘lom bolalar ularga o‘z intilishini kursatgandan keyin qo‘silib ketishdi. Oralarida do‘stlik rishtasi paydo bo‘lishi o‘z natijasini berdi. «Bizning maqsadimiz maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni barcha sog‘lom bolalar qatori birgalikda ta‘lim olishi, m’naviy komil inson bo‘lib o‘qishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga erishishdir. Har birimiz mahalliy o‘qituvchi, yana birimiz chet ellik ko‘ngillilar, murabbiylar eng avval bolalar-gao‘rgatadigan mehr-muruvvat, sabr-toqat, muhabbat, sadoqat kabi hislatlarning ma’nosini dastlab o‘zimiz yaxshi bilishimiz, so‘ngra bu ko‘nikmalarni bolalar ongiga singdirib borishimiz zarur.

Oromgohda imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlaridan kam emasligini va sog‘lom bolalar esa ular ham barcha qatori ekanligiga iqror bo‘lishdi, birgalashib to‘garak ishlarida qatnashi, o‘z qo‘llari bilan tayyorlagan turli xil buyumlarni chet ellik ko‘ngillilar orqali Sudan bolalariga junatishga tuyassar bo‘lishdi. MTM rahbarlari, oromgoh direktori, maxsus tarbiyaga muhtoj

bo‘limgan bolalar va milliy axborot vakillari (Toshkent televide niyasi) ishtirokida oromgoh hayotiga tantanali ravishda yakun yasaldi. Sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalarni birgalashib sportda, san’atda, maishiy xizmatda bajargan ishlari nafaqat ishtirokchilarni, balki jurnalistlar, matbuot-axborot vositalari vakillarini xayratda soldirdi. Tantanali yakunga kirish qismida bolalarning childirma chalishlari, o‘zbek va rus raqslari, yamaykacha qo‘shiqlar, she’riyat, masxarabozlar tomoshalari, shotlandcha raqs va boshqa kiziqarli chiqishlar o‘rin oldi. Tomoshabinlar eshitishda muammosi bor va ko‘zi ko‘rmay turib musiqa va raqs ohanglariga mutanosib o‘ynayotganlariga hayratlanib chapak chalardilar. Toshkent televideniyasi mamlakat bo‘ylab maxsus tarbiyaga muhtojlar muammolari, xususan ularning ijtimoiy hayotga tezroq moslashib ketishlari uchun qilinayotgan sa‘y-harakatlarni odamlar e’tiboriga etkazdilar. Bundan tashqari O‘zbekfilm mutaxassislari tomonidan tasvirga olingan 20 daqiqали videofilm xorijiy mutaxassislarga xhm taqdim etildi. Ushbu tadbir XTV tomonidan ijobjiy baholandi. Bolalar tomonidan berilgan intervylular asosida matbuotda «Birgalikda umumiy uy quramiz» (Мы построим общий дом), «Они есть как и все», «Если нет равнодушия» mavzularida «Ma’rifat», «Учител Узбекистана» va boshqa gazetalarda masolalar chop **etildi**. 2005-yilning may oyida 6-sonli maktabda yozgi integrasiya oromgohi, birinchi sinflar uchun yangi integrasiya-inklyuziv sinf tashkil etildi.

Xivadagi 6-sonli maktabda tashkil etilgan umumta’lim maktabining 4,5,6sinflari-integrasiya sinflari etib belgilandi. Ikki xafjalik seminar davomida ushbu maktabda ta’lim olayotgan jismonan maxsus tarbiyaga muhtoj 12 nafar bolalar hamda Xiva tumanidagi 121-sonli maxsus ko‘zi ojizlar maktabida ta’lim olayotgan 10 nafar ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar, 6-sonli maktabning 4 va 5- sinflarida ta’lim olayotgan sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘imoqdalar. Maktabda dustona munosabat muhitini yaratish massadida amaliy seminarlar uyuştirib kelindi. Amaliy seminarlar nafasat bolalarning, balki maktab xodimlarining ham maxsus tarbiyaga muhtojlarga munosabatlarini ijobjiy tomonga o‘zgartirdi. Bu masala amaliyotda sinalgan. Yuqorida qayd etilgan

tajribalar asosida shu xulosaga kelindiki, imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog‘lom bolalarni birgalikda integrasiya usulida madaniy xordiq chiqarishi va ular uchun ham sayyoqlik va o‘lkashunoslik yo‘nalishidagi integratsion sog‘lomlashtirish oromgohlari tashkil etish lozim. Loyiha rejasiga binoan har bir sinfda maxsus yordamga muhtoj bolaga ko‘mak beruvchi maxsus kurslardan o‘tgan resurs o‘qituvchi va instruktorlar biriktirilgan. Yil davomida «OPERATION MERCY» xalqaro tashkiloti 6,7 va 9-sonli maktablarning 3 ta integrasiya sinflari bilan ishslashni davom ettirdi. Respublika ta’lim markazi, xalsqro «OPERATION MERCY» tashkiloti bilan hamkorlikda, shuningdek UNESCO Xorazm viloyatidagi «Inklyuziv ta’lim» tayanch muassasalarida 5 ta integrasiya sinflari va 10 ta tayanch-harakat a’zolari shikastlangan bolalar uchun yakka tartibda «inklyuziv ta’lim» tashkil etildi. 2002-2005 yillarga kelib 10 ta umumta’lim maktablarida 50 nafardan ziyod bola inklyuziv sinflarda o‘qish uchun jalb qilindi. Ularga resurs pedagog biriktirildi. Xiva shahrida pedagoglar, ota-onalar, meditsina xodimlari ishtirokida seminar-treninglar tashkil etildi. Olib borilgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta’limiga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o‘zgardi, ota-onalarning bolalarga e’tibori ortdi, ta’lim olishlari uchun qiziq qoshladilar. Eng ahamiyatlisi bolalarning sog‘lom tennqurlari kabi ta’lim olishiga erishildi. Surxondaryo viloyati Termiz shahidagi «Imkon» markazida 80 dan ortiq rivojlanishida turli nuqsoni bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilgan. Xalqaro UNICEF tashkilotining «Inklyuziv ta’lim orsali bolaga do’stona munosabat o‘rnatish» loyihasi asosida A. Avloniy nomidagi XTDMOI maxsus ta’lim kafedrasi mudiri U. Fayziyeva boshchiligidagi RTM Maxsus ta’lim bulimi mutaxsislari bilan hamkorlikda Farg‘ona, Xorazm, Andijon viloyatlarida va Koraqalpog‘iston Respublikasida bo‘lib, imkoniyati cheklangan, ta’limdan chetda qolgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni aniqlash va ularni ta’limga jalb qilish maqsadida oilalar, tashxis markazlari, XTBlarda bo‘lib, bolalarni ta’lim tizimiga kiritish masalalari va ular uchun shart-sharoitlar yaratishga oid muammolar ustida to‘xtalib o‘tildi. Umumta’lim pedagoglari va ota-onalar uchun seminarlar o‘tkazildi. (2005-2006 yillar) «Inklyuziv ta’lim orqali bolaga do’stona

munosabat o‘rnatish» loyihasi asosida quyidagi natijalarga erishildi: 300 dan ortiq umumta’lim maktablari o‘qituvchilari o‘qitildi; • 80 dan ortiq ota-onalar inklyuziv ta’limning asoslari va maxsus tarbiyaga muhtojlik sabablari xususida ma’lumot va bilimga ega bo‘ldilar; 3 ta metodik tavsiya ishlab chiqilib, ulardan biri «Inklyuziv ta’lim asosida bolaga do‘stona munosabatni shakllantirish» masalalari xususida; • Seminarda ishtirok etgan 330 ta o‘qituvchi va joylardagi tashxis markazlari raxbarlari yordami bilan 558 ta ta’limdan chetda qolgan, ya’ni uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim tizimiga kiritildi. • Mazkur loyiha asosida hozirgi kunda xam ishlar davom ettirilib, ta’limdan chetda qolib ketgan bolalarni aniqlash, nuqson turi va darajasiga qo‘yilgan tashxis xulosasiga ko‘ra ta’limga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Inklyuziv ta’lim muammolarini hal qilish bo‘yicha joylardagi xalq ta’limi bo‘limlari, mutasaddi tashkilotlar, jamoa tashkilotlari va ota-onalar hamkorlikda, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalari tizimiga tulaqonli jalb qilish bir yillik ish emas. Bu ishni bosqichma bosqich amalga oshirishning konsepsiyasini ishlab chisish, uni sharoitga qarab yaqin, o‘rta va uzoq muddatlarga belgilash, aniq chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo etadi. Inklyuziv ta’lim loyihasi bo‘yicha joylardagi xalq ta’limi boshqarmalarida psixologo-tibbiy-pedagogik tashxis markazlari va ta’lim muassasalari tomonidan olib borilgan ishlarning monitoringini o‘tkazish bo‘yicha bir guruh mutaxassislar mart oyining birinchi yarmida Qorakalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyatlarida bulib. mavjud axvol urganildi va maxsus tarbiyaga muhtoj farzandlari mavjud bo‘lgan oilalarga tashrif buyurildi.

Xorazm viloyati Urganch shaxridagi Xonqa tumani beshinchı jamoa Qadir qishlog‘ida yashovchi oilada bo‘ldik. Bu yosh oilaning onasi erta turmushga chiqqan bo‘lib, to‘rtta farzandi bor. Bolalarining tug‘ilish oraligi bir yildan farq qiladi. Oilaning ikkinchi farzandi bo‘lmish tuqqiz yoshli Nilufar ismli qizalox ikki qo‘li yuq holda tug‘ilgan. Qizcha 9 yoshga qadar uyda tarbiyalanib, muktabga jalb qilinmagan. UNICEF loyihasi asosida mutaxassislarining va shu hududning tashxis markazi raxbari I. Iskandarov va 31son muktab rahbarlarining sa’y-harakatlari tufayli Nilufar hozirgi kunda birinchi sinfda uqimoqda. Muktabga qiziqib boradi. O‘qishni yaxshi

o‘zlashtirgan, tirsagidan o‘sib chiqqan ikkita barmoqlarga uxshash a’zo bilan chizgan a’lo darajadagi rasmlarini ko‘rib hayratda bo‘ldik. Nilufar biz bilan erkin muloqotda bo‘lib, savollarga tug‘ri javob berdi, bizga chizgan rasmlarini ko‘rsatib, o‘zi yozgan quyidagi she’rini aytib berdi: «*Ona borki, olam munavvar, Ona borki, hayot yuksalar, Ona borki, aylanar zamsh, Ona borki shodon bolalar. Onam borki, dilim quvonchda, Yashayapman orzular bilan...*» Ushbu dolatdan ma’lumki, dar danday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vadida aniqlab mutaxassislar murojaat qilinsa va muktabga tayyorgarlik ishi o‘z vaqtida olib borilsa, albatta ko‘zlangan maqdsadga erishish mumkin. Yuqorida keltirilgan Nilufar ismli qizalok misoli buning yorqin dalilidir. Maxsus ta’lim yo‘nalishidagi ilmiy madolalar, amaliy mashg‘ulotlar, dars ishlanmalari shubhasiz, inklyuziv ta’limning rivojlanishiga manba bo‘lib qoladi. UNESCO, UNICEF. ««MERCY PROJEKT», «OPERATION MERCY» xaldaro tashkilotlari yordamida, ularni joylardagi hokimliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida «Inklyuziv ta’lim» yunalishida keng jamoatchilik, pedagogik jamoa, ota-onalar o‘rtasida ma’lum tizimda targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib kelingan. Shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’limga jalb qilish va integrasiya usulida ta’lim olishi 2001-2002 yillarga kelib yanada faollahdi. «OPERATION MERCY», «MERCY PROJEKT» nodavlat xalqaro tashkilotlari va O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatuvchi bir qator milliy nodavlat jamoa tashkilotlarining amalga oshirilgan ishlari dam muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Navoiydagisi 26-sodniga nomidagi muktabgacha ta’lim muassasa-maktabda, hamda Toshkent shadridagi №544-MTMda inklyuziv ta’limni joriy qilish maqsadida ularning radbarligidagi N. S. Yusupova va 3. K. Omarova bilan bulib utgan suhbat va o‘rganilgan ish tajribani keltirmoddamiz. 26-boshlang‘ich inklyuziv bog‘cha-muktabning ta’lim-tarbiya jarayoni ikki yunalishda olib boriladi: Birinchisi matematikani chuqur o‘rganish ordali mantiqiy va ijodiy tafakkurni erta rivojlanirish; ikkinchisi imkoniyati cheklangan bolani jamiyatga ijtimoiy moslashtirish.

### **7.3. Jamiyatga bolani integratsiya qilishning bosqichlari**

*1-bosqich. Ijtimoiy moslashuv.* Bolaga yangi, unga notanish bo‘lgan insonlarga kunikishni, jamiyatda uzini tutish qonun-qoidalalarini bilishi, tevarak atrofdagi hodisa va vokealarni anglashi. elementar malakalar, ya’ni stulchada tugri utirish, tuvakdan foydalanish, shaxsiy gigiyena koidalarini bilishga urgatish.

*2-bosqich.* Ma’lumbirbolaninguningimkoniyatlaridarajasida uzuziga xizmat kursatishga urgatish. Bunday ta’lim bolaning individual xususiyatlari va bolaning kasallik darajasiga kura tarbiyachi, pedagog va boišča mutaxassislarining sabr-tosati, mehrmuxabbati bilan bir necha kun yoki hafta, oyni o‘z ichiga oluvchi maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Bu bosqich muassasaning asosiy masqadidir. Bu bossichda davolash kompleksiga jismoniy mashqlar, hovuzda suzish, uqalash va boshqa muolajalar kiradi.

*3-bosqich.* Imkoniyati cheklangan bolalarni soglom bolalar bilan ommaviy guruhlarda integrasiya şllish. Bolalarni sayr, mashgulotlar davomida va turli tadbirlar jarayonida kuzatish natijasida ushbu muassasada ishlar tug‘ri yo‘lga qo‘yilyilganligiga amin bo‘ldik. Sog‘lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalarga kiyinishlarida, oyoq; kiyimlarini kiyishda, yurishda chin dildan uz xohishlari bilan yordam berdilar. Sog‘lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar birgalikda kitobdagи rasmlarni tomosha qildilar, chizishni, sanashni o‘rgandilar, tabiiy materiallardan turli xil narsalarni yasashni o‘rgandilar. Bunday jarayonda sog‘lom bolalarda ham o‘zgalarga yaxshilik qilish, mehr-muxabbat, o‘zgalar saygusiga sherik bulish kabi hislatlar tarbiyalanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar esa o‘z nuqsonlarini unutadilar muloqotga kirishuvchanliklari, atrof-olamiga bo‘lgan qiziqishlari oshib boradi, o‘z-o‘iga ishonch hislari shakllanadi.

*4-bosqich.* Har bir bolaga yakka yondashish. Bu bosqich difek-gologlarning individual ishlarini o‘z ichiga oladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning individual xususiyatlari va imkoniyatlari darajasida sog‘lom bolalar bilan bo‘ladigan muloqoti mustahkamlanib boradi.

*5-bosqich.* Bu bosqichning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni ommaviy maktablarda o‘qishlariga shart-sharoit

yaratish va ularni maktabga tayyorlash. Shu maqsadni amalga oshirish uchun «Turnalar» nomidagi 26-maktabgacha ta’lim muassasasi 2007-yilning mart oyidagi, Navoiy viloyati hokimining qarori bilan boshlang‘ich inklyuziv maktab-bog‘chaga aylantirildi. Bog‘cha maktabda 12 ta guruh va bitta inklyuziv sinf tashkil qilingan. Ulardan ikkitasi erta rivojlantirish guruhari bo‘lib, ularda 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 40 nafardan ortiq bolalar tarbiyalanadi. 4ta guruh integrasiyalashtirilgan. Bunday guruhlarda sog‘om va BSF tashxisi kuyilgan 8-10 tadan bolalar tarbiyalanib keladilar. 3 yil oldin Ravshan ismli bola maktabgacha ta’lim muassasasiga qabul kiliindi. Onasi bolani aravachada, bolaning yurishiga hech qanday umidsiz olib keldi. Markaziy falajlanishni hozirgacha davosi topilmagan. Bunday tashxis bola va ota-onasi uchun xam hayotiga qo‘yilgan hukmdek tuyulardi. Hozirda Ravshan o‘zgalarning yordamisiz yurishi, xattoki koptok tepishi, harakatli o‘yinlar o‘ynashi, qo‘lida predmetlarni ushlashi mumkin. Bizning taxminimizcha boladagi jismoniy uzgarishlar nuqson belgilarining paydo bo‘lishiga, fikrlash va o‘z xatti-harakatlarini analiz-sintez qilish qobiliyatlarining ilk belgilari paydo bo‘lishiga olib keldi. Ravshan muassasamizga kelganidan boshlab u bilan davolovchi jismoniy tarbiya, uqalash, suv muolajalari, nutq apparatini rivojlantiruvchi yuzni uqalash muolajalari bilan defektolog mashg‘ulot olib bordi. Ravshan guruhda muntazam qatnashdi. Bu bola uchun oqsil va uglevodlarga boy bo‘lgan ovqatlanish ratsioni tuzildi va ushbu muolaja hamma jarayonni tezlashtirdi. Agar oshxonada tuxum yoki tvorog qolmagan bo‘lsa, tarbiyachilar zarur bo‘lgan mahsulotlarni uylaridan olib keldilar.

Ular mo‘jiza bo‘lishini kutardilar va bu mo‘jiza amalga osha boshladi. Shuni aytish kerakki, Ravshan maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlarining sharofati bilan oyoqqa turgan va o‘zgalar yordamisiz yurib jismoniy rivojlanishidagi o‘zgarishlar tufayli nutqi rivojlangan bolalarning yettingchisi edi. 2005 yil «Oltin balikqcha» guruhiga ensefalopatiya va makrosefaliya tashxisi bilan Nazokat ismli qizchani olib kelishdi. Shifkorlar qizchaning yurishi va gapirishiga umid yuq deb ota-onaning umidini so‘ndirgan, shifkorlar qizchaga jismoniy zo‘riqishlarni man etgan edilar. Shunga qaramay ota-onasining xohishi bilan qizcha uchun to‘laqonli jismoniy mashqlar,

rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashg‘ulotlarning rejasi tuzildi. Montossori va Nikitinlarning ishlari asosida qizchaning rivojlanishi uchun maxsus dastur tuzildi. Bir yildan so‘ng 4 yoshli Nazokat o‘zining birinchi qadamlarini qo‘ya boshladi. Bog‘langan nutqi rivojlandi. Hozir qizcha 6 yoshda, uning qobiliyatini hisobga olgan holda turli yoshdagi bolalar guruhiга o‘tkazildi. Bu guruhda kattalar kichiklarga yordam beradilar, kichiklar esa kattalardan bilmaganlarini o‘rganadilar. Tashqi ko‘rinishidan o‘zgacha bo‘lgan qizcha rivojlanishi jihatdan o‘z tengdoshlaridan farq qilmaydi. Nazokat katta ishtiyoq bilan o‘zbek va rus tilidagi she’rlarni yodladi, turli xil mashqlarni bajardi va maktabga chisishga tayyor ekanligini quvonch bilan aytди. Suvonov Sardor nutqi umuman rivojlanmagan. U 5 yoshida birinchi so‘zlarni ayta boshlagan. Hozirgi kunda Sardor rasmlarning hamma shakllarini tasvirlab, ertaklar mazmunini so‘zlab bera oladi. Xakimov Bahodir tayanch-darakat a’zolari buzilgan, nutqning rivojlanmaganligi kuzatilgan. 2007 -yilda maktabgacha ta’lim muassasasi qoshidagi birinchi inklyuziv sinfga chiqqan. Muzaffarov Asliddin BSF ogir formasi, nutqining rivojlanmagan, lekin mantuqiy fikrashi tengdoshlaridan fars silmaydi, shuning uchun uning kompyuter savodxonligini oshirilishi rejaga kiritildi. Baxtiyorova Farangiz tayanch-harakatlarini kompleks korreksiya qilnish natijasida 4 yoshida yura boshladi. Xayrutdinova Farangiz (Daun sindromi) ushbu muassasaga kelganidan keyin bir oy mobaynida 4 yoshida yurib ketdi. Jahonov Javlon 8 yoshida BSF tashxisi bilan muassasaga qabul qilindi. Bola ikki oy ichida moslashuv bosqchini utashdan tashkari ishtiyoq bilan turli xil muolajalarni qabul qildi. Uning xotirasi yaxshi rivojlangan. Nutq nuqsonining OFtip darjasasi bo‘lsa ham she’rlarni yod olishga harakat qiladi. Musiqa va matematika fanlarini yaxshi kuradi. Hozirda 12va 13-sonli maktablarda inklyuziv sinflar ochilgan bulib, u yerda bizning tarbiyalanuvchilar ta’lim olmoqdalar. Inklyuziv sinflarda 25 ta sog‘lom va maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ta’lim oladilar. Inklyuziv ta’lim asosida hamma bolalarga bir xil munosabatda bo‘lish lekin ma’lum bir ta’limiy ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarga sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Inklyuziv ta’lim konsepsiysi «Ta’lim tugrisida»gi Qonunning «Ta’lim hammaning huquqidir» degan

shiorni amalga oshirishni ta’minkab bormoqda. Har bir bolaning jismoniy va akliy qobiliyatidan qat’iy nazar ta’lim olishini ta’minkab bermoqda. Bunday xulosaga biz o‘ziga xos ta’lim sharoitiga ehtiyoj sezayotgan bolalar bilan ishslash jarayonida amin bo‘ldik. 1998-yilden boshlab hozirgi kunga qadar muassasaning integrasion va inklyuziv guruhlarida 120 tadan ortiq bola ta’lim-tarbiya olmoqda. 544-maxsus maktabgacha ta’lim muassasasida 2010- yilgacha inklyuziv ta’lim bo‘yicha olib borilgan samarali ishlar: Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabgacha ta’lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamонавиј usul va vositalarini amaliyotga joriy etishga hozirgi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Umumiylar maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari orasidagi tusiqlarni bartaraf etib, inklyuziv ta’limni amaliyotga tatbiq etish va imkoniyati cheklangan bolalarga qulay shart-sharoitlar yaratish bugungi kun talablaridan biridir. Inklyuziv ta’lim bu ta’lim barcha uchun deganidir. 544-MTM da 2006-2010 o‘quv yillari davomida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish bilan bir qatorda, bunday ta’limning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va uslublari, ish tajribalari yanada chuqurroq o‘rganildi. MTMga ilk bora 2006-2007 o‘quv yillarida DSP (bolalar syerebral falaji) va Daun sindromli bolalar o‘rtasi va tayyorlov guruhlariga qabul qilindi: 4-gurux Abdulayeva Dildora (DSP) 8-guruh Askarov Xasantoy (DSP) 11 -guruh; Sa’dullayeva Sevara (Daun sindromi) Bunday bolalar bilan ishslash jarayonining dastlabki oylarida bir qator muammolarga duch keldik.

### Nazorat uchun savollar

1. Dastlabki inklyuziv maktablarning tashkil etishi haqida gapiring.
2. Inklyuziv maktablarda olib boriladigan mashg‘ulotlarga izoh bering.
3. Inklyuziv maktablarda amaliy mashg‘ulotlarning turlarini asoslang.
4. Jamiyatga bolani integratsiya qilishning bosqichlari haqida gapiring.

## **VIII BOB. INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH UCHUN ZARUR BO'LGAN TASHKILIY VA USLUBIY ISHLAR**

### **8.1. Inklyuziv ta'limga amaliyotga joriy qilish**

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'limga sharoitida o'qitish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan hoolda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarining yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'limga olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofikq rejalashtira olsa, bolalarning maxsus tarbiyaga muhtojligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina, dars jarayoning muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi, buni atoqli psixolog olim L. S. Vigotskiyning «Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqeonda ham taraqqiyot davom etadi» degan fikri bilan tasdiqlash mumkin. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari so'ndirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim. Inklyuziv ta'limga rivojlantirish uchun umumiy ta'limga tizimiga tarkibiy uzgartirishlar kiritish muhimdir. «Umumta'limga» va «Maxsus ta'limga» Urtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus

ta'limga umumiy ta'limga qaramasdan, uzining o'uvchilari, qsituvchilar boshkaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil toptan ikkita ta'limga tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarining talablariga javob beruvchi «Inklyuziv maktab»da bunday tizimiga edtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta'limga maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'gridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar atroflicha muhokama qilinishi va ta'limga tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Inklyuziv ta'limga quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'limga maktab sinflari (guguhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion-pedagogik yordam olish, korreksion sinf (gurul,)larda maxsus ta'limga olish shaklida. Inklyuziv ta'limga tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya faoliyatida «Respublika, viloyat, tuman tibbiy-psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida»gi Nizom asosida qabul qilinadi. Inklyuziv ta'limga muassasasida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limi belgilangan tartibda o'quv rejalar, korreksion dasturlar asosida maxsus metodlar va vositalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'limga joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'limga jarayonida umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda kuyidagi maxsus tamoyillarga ham amal qilinishi kerak: ta'limga korreksion yonaltirilganligi; nuqsonini anislash, ta'limga berishda kompleks (klinikgenetik, neyrofiziologik, psixologo-pedagogik) yondashish; nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jihatdan korreksiyalash; umumiy o'rta ma'lumot berish va kasbga yo'naltirish vositasida ijtimoiy hayotga tayyorlash va moslashtirish; differensial va alohida yondashish; ta'limga tizimida inklyuziv ta'limga tizimida inklyuziv ta'limga joriy qilishda muassasa xodimlarining ish vazifalarida ham ko'zga ko'rinarli darajada islohatlar amalga oshirilishi kerak.

## **8.2. Inklyuziv ta’limni tashkil etish shakllari va ta’lim uchun zaruriy shart-sharoitlar**

Inklyuziv ta’lim jamoaviy ish bo‘lib, javobgarlik butun maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Inklyuziv ta’limda metodik yordam turli xil shakllarda bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sinf o‘qituvchisiga maslahat va yordam berish zaruriy o‘quv qo‘llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta’minlash: ota-onalar, ko‘ngillilar yoki katta o‘quvchilar tomonidan zarur bo‘lgan yordamlarni ta’minlash; o‘quv reja, dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o‘zgarishga ko‘niktirish masalalarini shakllantirish; o‘qituvchilar ko‘nikma va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish; faol qullab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o‘z ichiga olgan ijobjiy mifik muhitini tashkil etish va ta’lim jarayonida do‘stona munosabatni shakllantirish; bolalarni aniqlash va baholashda ma’muriyatga yordam ko‘rsatish; ijtimoiy, psixologik va sogliqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu ta’lim tizimida bolalarning nuqsonlarini aniqash ularni muolaja-reabilitasiya qilish, korreksion-pedagogik omillarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli mutaxassislar (maxsus resurs pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va boshqalar) maktab pedagoglariga muntazam ravishda bevosita yordam berishlari kerak. O‘ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim xhollarda maxsus maktablar va maxsus reabilitasiya markazlari yoki maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta’lim oladilar. Ushbu maktablarda ta’lim ta’minoti albatga bolaning ehtiyojini e’tiborga olgan dolda amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Muntazam ta’lim jarayoni imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra yakka tartibda korreksion metodlar va moslashtirilgan o‘quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o‘qitishning turli shakllarini tashkil qilish hamda maxsus yordamchi apparatlar, (eshitish apparatlari, linza, lupa, maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachalari) turli xil texnik vositalar va maxsus kurgazmali surollarni sullash asosida amalga oshirishni nazarda

tutadi. O‘z navbatida maxsus ta’lim muassasalari pedagoglari joylarda umumta’lim o‘quvchilari, ota-onalar, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari uchun maslahat bo‘limlari va resurs markazlari bo‘lib faoliyat kursatishi kerak. Alovida yordamga muxtoj bolalarni umumta’lim muassasalarida o‘qitish, ya’ni inklyuziv ta’lim uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratish lozim: maxsus tarbiyaga muhtojlikni erta tashxis qilish; umumta’lim muassasalari binolarida alovida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan barcha shart-sharoitlar (inshootlar) ni yaratish; korreksion yordamni amalgalashtirishning markaziy tarmogini kupaytirish; umumta’lim muassasalari va maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish, ya’ni «birodarlashgan» muassasalar faoliyatini yuzaga keltirish; ayrim maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalari sharoitida o‘qitishni tashkil etish maqsadida umumta’lim pedagoglari malakasini oshirish, qayta tayyorlash kurslaridan o‘tkazish va ularni maxsus yordamchi vositalar, o‘quv-metodik adabiyotlar, uslubiy qo‘llanmalar bilan ta’minlash, shuningdek mifik muntazam dasturlar yordamida ta’limni tashkil etish; barcha bolalar uchun ta’lim sharoitini yaratish va ta’lim samaradorligini oshirish. O‘z navbatida maxsus ta’lim muassasalari pedagoglari joylarda umumta’lim o‘quvchilari, ota-onalar, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlari uchun maslahat bo‘limlari va markazlar bo‘lib faoliyat ko‘rsatishi nazarda tutiladi.

**Imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan tengligini tushuntirish yo‘llari** • Pedagoglar o‘z sinflari guruuhlarida maxsus tarbiyaga muhtoj insonlari teng xususlarini maxsus tarbiyaga muhtoj katta odamning yoki bolani taklif etib va u bolalar bilan maxsus tarbiyaga muhtojlikning ijtimoiy holatlari haqida suhbatlashish natijasida tushuntirib berishlari mumkin. Sinfda maxsus tarbiyaga muhtojlik imkoniyatlarning chegaralanganligi tushuntirib hamda kimlar maxsus tarbiyaga muhtoj hisoblanishini aytib to‘g‘ri tushuncha bera olish lozim. Kasal bo‘lgan yoki qisqa muddatga biror joyini jarohatlagan inson bilan maxsus tarbiyaga muhtoj inson orasidagi farqni tushuntirib bering. Ko‘pgina bolalar kasallik yoki jarohatlanishi tajribasiga egalar. Ular bilan shu haqida va ularning tanalarida yuz bergan o‘zgarishlar

haqida suhbatlashing. Ulardan bunday vaqtida o‘zlarini qanday his qilganliklarini so‘rang. Ularga maxsus tarbiyaga muhtojlik bu batamom tuzalib ketmaslik yoki sog‘ayish uchun yillar kerak bo‘ladigan holatda tana bilan yuz beradigan hodisa ekanligini tushuntiring. Maxsus tarbiyaga muhtojlikning ko‘rish, eshitish, ruhiy va boshqa jarayonlarning zaifligi, kamligi kabi oddiy tushuncha ekanligini o‘quvchilar ongiga singdiring. Maxsus tarbiyaga muhtoj insondan o‘zz hayoti haqida gapirib berishni iltimos qiling, bu bolalarda katta taassurot qoldiradi. O‘z hayotlarida kechirgan qiyinchiliklar, muammolar, boiqalarning munosabatlari, nima sababdan kamitishlarga uchraganligi va xokazolar. Bu o‘quvchilarga o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga yordam beradi. Sinflar guruh, kishilar ustidan, uning ko‘rinish, gaplashishi, qanday rivojlanganliklari (o‘qishda kiynaluvchi bolalar) yoki o‘zini qanday tutishiga qarab barcha masalalarni muhokama qilishlari lozim. Hattoki, juda kichik bolalar ham bunday hikoyalarga qiziqadilar, chunki ularda xaqqat hissi jo‘sish urgan bo‘ladi. Asablariga tekkanlarida maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar o‘zlarini qanday his qilganliklarni aytib bergenlarida, ularning himoyalarini quvvatlab turish kerak. Barcha maxsus tarbiyaga muhtojlar sinfda o‘zlarini erkin sezishlari va bemalol gaplashishlari kerak. Pedagog so‘zga chiqqan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning yoki sinfdagi istalgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning erishgan yutuqlarni yoki qobiliyatlarini qayd etib o‘tishi mumkin. Shuningdek duyidagilarga ham e’tibor darating. Fardlar mavzusini ko‘rib chiqish uchun rasm chizish, o‘yin, spektakl, musiqa, ashula, hikoyalardan foydalaning. Butun sinf, guruh bilan birga doskada yoki guruhchalar bilan flipchatlarda ishlayotib, ular maxsus tarbiyaga muhtojlik haqida eshitgan barcha so‘zlarini aytishni so‘rang. Ushbu so‘zlarni bir rangda oq qog‘ozga yoki doskaga yozing. Endi sinfdan yoki guruddan salbiy deb disoblangan so‘zlarni ajratishni surang. Bolalar bilan o‘zlarini mana shu so‘zlar bilan atashganda qanday his qilishlarini muhokama qiling. O‘zingizda mana shu so‘zlarning ayimlarini kelib chqishi yozilgan kartochkalar bo‘lsin. Maktabdagi atrof-muhit. Maktab atrofida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning erkin va muammosiz harakatlanishiga ham

pedagog eng birinchi galda e’tibor qaratishi talab etiladi. Shuning uchun ham siz aravachada o‘tradigan o‘quvchi bilan maktab atrofini aylanib chiding. Natijalarni muhokama qiling va yozma tarzda maktab rahbariyatiga taqdim eting. Tashki olam, sinf, guruh bilan sizning mahalliy do‘konigiz atrofini barcha hudud va alohida segmentlarini tasvirlang, xarita bilan sayr diling. Oldin ayrim turlari yoki xizmat qilish binolarini belgilash uchun belgilarini kelishib olinglar. Oziq-ovqat do‘konlarini, sartarosh xonalari, banklar, restoran, dorixonalar va boshda ko‘rishi va eshitishida nuqsonga ega, aravachada harakatlanuvchi va uqishda qiynaladigan insonlar uchun tusiq bo‘la oladigan narsalarni belgilab borishni taklif eting. Ulardan maxsus tarbiyaga muhtojlarga hurmat ko‘rsatish sodalarida foydalanish uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan istalgan moslama dahida sinfga qaytgach xarita chizmasiga natijalarni belgilang va munozara uyushtiring. Munozara natijasida guruhlar sinfda quyidagi topshiridlarni ayrimlarini asta-sekinlik bilan bajarishlari mumkin. A). Tashkilot rahbariga uning maxsus tarbiyaga muhtojlarga noqulaylik jihatlari aniqlanganini haqida yozib, tushuntirish ishlarni olib borish; B). Qulaylik barchaga kerakligini va nima uchunligini aks ettirgan plakat yarating yoki chizing; B). Xizmat ko‘rsatish sohalarida qulaylik mavjud bo‘limganida maxsus tarbiyaga muhtojlarda yuz beruvchi muammolarni aks ettiruvchi voqeа sahnalashtiring; G). Umumiy majlis uyushtiring va u yerda sinf o‘quvchilar butun mакtabda amalga oshirilgan ishlari haqida ma’lumot bersinlar. Inklyuziv ta’limga jalb etiladigan bolalar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar harakat muvozanati buzilgan:

- **O‘z-o‘ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o‘smirlar:**

- Nutqida nuqsoni bo‘lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar:
  - Zaif ko‘rvuchi bolalar va o‘smirlar;
  - Zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo‘lgan bolalar;
  - Ko‘zi ojiz (Brayl yozuvni va o‘qishni egallagan) bolalar va o‘smirlar;
  - Zaif ko‘rvuchi ko‘rish qobiliyati (04 darajagacha) bo‘lgan bolalar;

- Eshitishda muammosi bor (muloqot darajasida nutqi bulgan, o'sish va yozishni egallagan) bolalar va o'smirlar.

- Maxsus tarbiyaga muhtoj kishilar o'zlarining huquqlari va imkoniyatlari uchun faol kurashadilar.

### Birodarlashgan maktablar

Birodarlashgan umumta'lim maktablar jarayoniga imkoniyati cheklangan bolalarni integrasiya qilish va o'qitishni amalga oshirishda bolalarni nuqson turi va yoshiga ko'ra sinflarga biriktirish tavsiya etiladi. Masalan: eshitishda muammosi bo'lgan bolalar umumta'lim maktablariga ikki sinf past sinflarga qabul qilinadi, ya'ni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-internatining 3-sinf o'quvchisi umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilinadi, ko'zi ojiz bolalar maktab-internatining 2-sinf o'quvchisi umumta'lim maktabining 1-sinfiga aqli zaif o'quvchilar (yordamchi maktab o'quvchilari) 2-3 sinf bolalari 1-sinfga ruhiy rivojlanishi sustlashgan, tayanch-harakat a'zolari va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab va maktab-internatlarining ikkinchi sinf o'quvchilari umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilinadi. Birodarlashgan maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda o'ziga xosligi shundaki bunda maxsus maktab yoki maktab-internat o'quvchilari o'zları o'qib turgan joyda yashab turib, shu maktabga yaqin bo'lgan umumta'lim maktabiga 2-3 soatga o'z tengdoshlari bilan birgalikda ijtimoiy fanlardan saboq olish uchun boradilar. Shuningdek ular umumta'lim maktablarining sinfdan tashqari turli (bayramlarda, sport musobaqalarida, san'at, musiqa) tadbirlarida ishtiroy etadilar. Bunday tadbirlar bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, sog'lom tengdoshlari bilan erkin muloqotda bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus korreksion fanlar eshitish qobiliyatini rivojlantirish, talaffuzga o'rgatish, ko'zi ojiz bolalarni ko'rish qobiliyatini rivojlantirish, tevarak-atrofni tasavvur qilish, davolovchi gimnastika mashgulotlarini, yordamchi maktab o'quvchilari bilan mehnat ta'limi, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar logopedik mashg'ulotlardan, ijtimoiy maishiy yo'nalish kabi darslarda o'z maktablarida mutaxassislar tomonidan korreksion-pedagogik yordam oladilar. Umumta'lim jarayoniga integrasiya qilingan

o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishlari qiyin bo'lgan fanlardan, maxsus ta'lim dastur va darsliklaridan foydalanish mumkin. Birodarlashgan maktablarga bolalar savodini chiqqagan holda o'qish, yozishni ma'lum darajada so'zlashuv muloqotini egallab bo'lib borishlari kerak. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim bolalari bilan o'zaro muloqotda bo'lishi ulardagi ta'limiy bilim olish imkoniyatlarini rivojlantirishga turtki bo'ladi. Maxsus tarbiyaga muhtoj bola bilan sog'lom bola orasida dustona munosabat shakllanadi, kamsitishlar, tafovutlar bardam topib, sog'lom bolada maxsus tarbiyaga muhtoj bolaga nisbatan mehr-oqibat, xayrihohlik kabi tuyg'ular paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolada o'z sinfdoshlarining fanlar bo'yicha erishgan yutuqutariga havas qilish, o'qish natijasida o'zida ham shunday yutuqlarga intilish, erishish hissi paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitish jarayonida mutaxassislar yordamida maxsus yordamchi vositalarni qo'llagan holda kompleks yondashuv olib borilsa, yaxshi natijaga erishiladi. Inklyuziv ta'limni joriy qilish uchun zaruriy chora tadbirlar; Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini yaratish; Erta tashxisni yo'lga qo'yish, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan jamiyatda ijobiy munosabat uygotish; Inklyuziv ta'lim borasida targibot-tashvisot ishlarini kuchaytirish; Ota-onalar va ham jamiyatning ishtiroyini kuchaytirish; O'qitish uchun zarur vosita va asbob uskunalarning mavjudligi; Ta'lim muassasalarini alohida ehtiyojli bolalar imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda moslashitirish; Ta'lim berish uslublarining alodida ehtiyojli bolalarga moslashvchanligi; Kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlarni amalga oshirish. Inklyuziv ta'limni joriy qilish, xalqaro va milliy tajribrlarga asoslangan holda multimedya kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ'ibot qilish. Har bir inklyuziv ta'lim muassasalar tasarrufida inklyuziv ta'limni targ'ibot qilish, o'quv-metodik majmualar, dasturlar bilan ta'minlash va joylardagi mahalliy xalq ta'limi organlari bilan o'zaro aloqa tuzish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtiroyidagi jamoaviy kengash tuzish. Inklyuziv ta'lim resurs

markazining vazifalari bolalardagi nuqsonlarni erta tashxis qilish va erta korreksion-pedagogik yordamlarini amalga oshirish yo'llarini amalga oshirishga uslubiy-tashkiliy yordam berish; -imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari, inklyuziv ta'lim muassasalari pedagoglari, mutaxassislar, mahalla va jamoa tashkilotlariga alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash, mакtab ta'limiga tayyorlashda amaliy va uslubiy yordam kursatish; ta'limga jalb etilmagan bolalarni ta'limga jalo etishga ko'maklashish; inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv-metodik majmualar, individual rivojlantiruvchi dastur.

O'quv-metodik adabiyotlar, texnik vositalar bilan ta'minlashda amaliy yordam berish; joylardagi resurs markazlarga amaliy yordam ko'rsatish; inklyuziv ta'limni joriy qilishning ilmiy-uslubiy, tashkiliy masalalari bo'yicha seminar-trening va konferensiyalar tashkil etish; rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga kasb-hunar o'rgatish, kasb-hunar kollejlarga joylashtirish va ijtimoiy hayotga integratsiya qilish masalalarida yordam berish; inklyuziv ta'lim masalalari bo'yicha ma'muriy organlarga xatlar bilan murojaat qilib takliflar kiritish. Biz barchamiz maxsus tarbiyaga muhtojlikni tushunishdagi ikki, ya'ni tibbiy va ijtimoiy yondashuvdag'i tafovutlarni tushunib yetmasak, barcha bolalar, shu jumladan uta jiddiy nuqsonli bolalarni ham bitta, hamma uchun yagona, oddiy va xayrirox, ta'lim tizimiga jalb silish uchun kurash samarasiz bulib qolaveradi.

### **8.3. Jamiyatni inklyuziv ta'limga tayyorlash va ijobjiy munosabatni uygotish va amalga oshirish**

Jamiyatda insonlar orasida maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi osibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning qobiliyatları, huquqlari va ehtiyojlari muttazam ravishda qadrlanmasa bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquqi, ehtiyoj va intilishlarga ega degan, dalilni idrok etish

zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha ish olib borish bola, oila, jamiyat darajasida hamma uchun muhimdir. Ta'lim muassasasida kompleks tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatiladi, ular turli davlat ta'minotida bo'ladi. Defektolog-pedagoglar bolalarning maxsus exhiyojlarini to'liq qondiradilar, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar to'liq amalga oshiriladi, O'quvchilar va tarbiyanuvchilar maxsus o'quv-metodik qo'llanma va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sinflarda o'quvchilar soni 12-16 nafardan oshmaydi, individual yondashuvni tuliq amalga oshirish imkonini mavjud. Darsdan oldin va keyin tevarak-atrofda yo'naltirish, nutqiy muloqotni shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat kursatish kabi maxsus kunikmalarning shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud. O'kuvchilar tomonidan o'zlashtirish qiyin bo'lgan o'quv fanlaridan alohida darsliklardan foydalanish mumkin. Inklyuziv ta'lim qashshoqlik va ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi, kamsitishlarning oldini oladi, imkoniyati cheklangan bolalarning teng huquqlilagini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim maxsus exhiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat orasida bo'lishiga imkon beradi; inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi; inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi; imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitda yashash va mehnat qilishga moslashadilar; ularning ijtimoiy jamiyaga moslashishi samarali kechadi.

Yuqorida keltirib utilganlarni hayotga joriy etish uchun o'qituvchilar o'quvchilar bilan har kuni ularni qiziqtiruvchi va bezovta qiluvchi istalgan mavzuda gaplashish imkoniyatini topish kerak. Bu insonlarga munosabatni muhokama qilishning boshlanishi bo'lishi mumkin, masalan, agar bola o'z tajribasi haqida gapira olmasa ham qolgan sinf esa uni qo'llab-quvvatlasa, bu bola qarashlarini ifodalashga o'rganishi mumkin. Bunda bolalar o'zlarini xavfsiz sezadilar va o'z fikrlarini tinch holda bayon etadilar. Pedagog diskriminatsiya ildizlarini tarixiy va zamonaviy holda shunday tushuntirishi kerakki, bolalar insonlardagi istalgan fikrlarini tushunish va qabul qilish mumkinligini anglab, insonlar, ayniqsa imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslash osondir. Chunki

ular jo'shqin muloqot hislarini qo'llashi va tun bo'yи muloqot qilishi mumkin. Bunday muammolarni ayrim bolalar bilan tanaffuzda muhokama qilishdan ko'ra ochiq muhokamaga olib chiqish va jamoat bilan ko'rib chiqish ko'proq natija beradi. Lekin ayrim holatlarda yakka holdagi muhokama eng yaxshi variant bo'lishi mumkin. Barcha sinf va guruhlarda kimmadir xafa qilishgan bo'lsa, ozgina bo'lsa ham pedagog darsini to'xtatishi va buni muhokama qilishi lozim. Muhokamaning maqsadi ijobiy munosabatni rivojlan-tirishdir. Darslarda o'quvchilar guruhini shunday joylashtirish kerakki, bolalarda alohida holda moslamalardan bir oz foydalanib ishslash imkoniyati ega bo'lsin. Pedagog ma'lum o'quv rejalarida majburiy bo'lgan topshirqlarga moslashuvchan munosabatda bo'lishi kerak. Sinflar guruhlarga, juftliklarga bo'linishi va individual topshiriqlarni bajarishlari kerak. Guruhalr maxsus tarbiyaga muhtoj va sog'lom o'quvchilardan iborat bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi har bir bolaning bajargan ishini baholashi va sinf yutuqlarini rivojlanishiga chaqirishi lozim. Yuqoridagilardan tashqari alohida e'tiborni bolalar oyoqlarini uzoq muddatga chalkashtirib o'tirmasliklariga qaratish lozim. Chunki bu noqulay, ularning jismoniy rivojlanishlariga yomon ta'sir etadi va layoqatni pasayishiga olib keladi. Ayrim bolalarga oyoqlarini chalkashtirib o'tirish umuman mumkin emas. Masalan, bolalar artriti bilan kasallangan bolalarga shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning qulay o'tirishlari uchun turli yordamchi vositalardan, stullar va boshqalardan foydalanish kerak.

### Nazorat uchun savollar

1. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan tengligini tushuntirish yo'llarini asoslang.
2. Inklyuziv ta'limni tashkil etish shakllari va ta'lim uchun zarur shart-sharoitlar haqida gapiring.
3. Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilishning mohiyati nimada .
4. Birodarlashgan maktablarda ta'lim tizimi qay darajada rivojlanganlini izohlang.

## IX BOB. INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI

### 9.1. Inklyuziv maktablarda inklyuziv o'qutuvchilar muammozi

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishslashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikasiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiyl o'rta ta'lim muassasa ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;
- bolalarning faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;
- diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarini tarbiyalaydi;
- o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doyir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'ren egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boishqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mash'gulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida ish olib borishi kerak.

Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi. Inklyuziv ta'lim joriy silingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarini bartaraf etish va

korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologik-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'limga muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limga muassasasida ta'limga tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin.

Inklyuziv ta'limga muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi. zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'limga jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yорини belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

### **Inklyuziv ta'limga resurs pedagog va uning vazifalari**

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'limga sharoitida o'qitish mакtablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'limga amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Xamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'limga sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiyalar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rтasida mustahkam aloqani o'rnatish, maxsus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilarini va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek, maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'limga dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hatto maxsus tarbiyaga

muhtoj bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turadi. Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad:

umumta'limga muassasalarida ta'limga olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam kursatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish.

o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslash, individual rejallardan kelib chiqgan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish,

o'qitish va baholash, sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish, sinf o'quvchilarini individual o'quv rejalarini bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish.

muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlarini muhokama qilish va baqolash.

maktab jamoasining boshqaruв xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash;

zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlar huzuriga).

o'quvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarini qayd etib borish.

standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqgan holda individual o'quv rejalarini yangilash va baholash.

mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqgan holda ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o‘qituvchilarning maxsus ta’lim olishga bo‘lgan talablarga javob beradigan yordamlarni ko‘rsatish;
- Sinf o‘qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;
- O‘qituvchilar muhtoj bo‘lgan xizmatlarni amalgaga oshirish;
- Bolaning o‘qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma’lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;
- Yangi kelgan o‘qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va qondirish;
- Maxsus ta’limga muhtoj bo‘lgan oddiy sinflarga o‘qituvchilarning moslashishiga yordam berish;
- Zarurat tug‘ilganda sinfdan tashqarida individual va guruhga asoslangan ko‘rsatmalarni berish;
- Individual dasturlarni muvaffahiyatlari bo‘lishini boshqarish;
- Maxsus ta’limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi mактаб boshqaruvi;
- Maxsus yordamchi vositalar va qo‘llanmalarga bo‘lgan talabni o‘рганиш va ulardan foydalanishni boshqarish;
- Inklyuziv ta’limni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash kabi masalalardan iborat buladi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o‘qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko‘p vaqtini yo‘lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir. Resurs o‘qituvchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning darslardagi qiyinchiliklarni va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Vaqt-vaqt bilan u joylarda olib borilayotgan o‘qituvchilar treningida maxsus tarbiyaga muhtojlik muammosi bo‘yicha maslahat va ko‘rsatmalar berib boradi. (Masalan, maxsus tarbiyaga muhtoj bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o‘рганиш bo‘yicha metodik tavsiyalar berish kabi.) Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimida o‘qitish, tarbiyalash jarayonida pedagog va ota-onalarga maslahat beruvchi resurs markazlarining roli muhim ahamiyatga ega.

## **9.2. Ijtimoiy pedagog — ijtimoiy xodim vazifalari**

- Bolaning rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan muhitni tashkil qilish;
- Bola huquqini himoyalash qoidalariga rioya qilish;
- Bolaning xayotiy ko‘nikmasi, qobiliyatini, ta’lim olishi, sog‘ligini tiklash, oiladagi sharoitlarini rivojlantirishga bo‘lgan barcha ehtiyojlarini qondirish.
- Bolani ijtimoiy himoyalash jarayonida ijtimoiy pedagog (ijtimoiy xodim) bilan ishlash mumkin.
  - Har bir bola davlat himoyasida bo‘lib, mamlakatimizda ijtimoiy qo‘llash tizimiga barcha bolalar qamrab olingan.
  - Bolalarni ijtimoiy qo‘llash sferasiga tizimiga qiyin kechinmalarga tushgan (bolalar, boquvchisini yuqotgan, ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar);
  - Institusional muassasalarning bolalari (qarovsiz va tarbiyasi ogir bolalar va boshqalar);
- Ijtimoiy ishni massadi: bolani barcha ehtiyojlarini qonshdirishga va uni oilasiga yordam berishdan iborat. Bolani ijtimoiy himoyasining asosiy tamoyillari:
  - Ijtimoiy yordam ko‘rsatish ishining markazida bolani qiziqishi turadi;
  - O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolati” qonuniga bola huquqlari konvensiyasiga qayd etilgan bolalarni barcha huquqlari kiritilgan;
  - Bolani qabul qilish e’tirof etish hurmat qilish;
  - Shaxsni jinsiy, diniy, madaniy, irsiy, millatidan qat’iy nazar har qanday kamsitishlarga qarshi chiqish;
  - Ijtimoiy pedagog (ijtimoiy xodim) oldida bolani ijtimoiy himoyasi bo‘yicha qanday vazifalar turibdi?
  - Ijtimoiy pedagog va ijtimoiy xodim bolani uy sharoitida yashash huquqini ta’minlaydi;
  - Ijtimoiy pedagog bolalarni maxsus institusional muassasalarga tushib qolishini oldini oladi.

- Ijtimoiy pedagog bolaga nisbatan noto‘g‘ri , nojo‘ya, qat’iy muomila va xarakat qilishga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlaydi va himoya qiladi;

- Ijtimoiy pedagog imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga, umumta‘lim jarayoniga integrasiyalashuviga yordam beradi;

- Ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy xodim bolani qulay bo‘lgan sharoitida o‘sishi uchun psixologik, ijtimoiy, moddiy yordamlarni qiyinchilikdan chiqib ketishi uchun yordam beradi;

- Bolaga va uning oilasini qo‘llash uchun ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy xodim qanday metod va yondashuvlarni amalgaloshiriladi;

- Ijtimoiy pedagog o‘zini ish faoliyatiga tayangan holda nafaqat bolani va uning oilasi bilan tizimli ish olib boradi.

- Mavjud bo‘lgan faktlarni tahlil qilib zamonaviy asboblardan foydalananib oila va bolalar holatini baholaydi;

- Oila va uni atrofidagilarga kuchli tomoniga tayangan holda yordam beradi.

- Bunday jamiyat va oila uni atrofidagilarga ijobiy (pozitiv) o‘zgarishlar kiritadi.

Qaysi muassasalar uchun ijtimoiy xodim yoki pedagog kerak?

- Ta’lim tizimida mehribonlik uylari, umumta‘lim muassasalari, maxsus mакtab va maktabgacha ta’lim muassasalari va boshqalar;

- Sog‘liqni saqlash tizimida: ilk yoshdagi bolalar uyi, oilaviy poliklinika, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya, reabilitasiya markazlari va boshqalar;

- Mezhnat va aholini ijtimoiy himoyalash tizimida (muruvvat uylari, ijtimoiy ta‘minot bo‘limlarida):

- Voyaga yetmaganlar mahallalari komissiyasi, viloyati, tuman hokimiyatlari;

- Bolalar va ularni oilalarini qo‘llab-quvvatlashni amalgaloshiruvchi oila tartibidagi voyaga yetmaganlarni joylash.

- Jamoa tashkilotlari va ularni birlashtiruvchi tashkilotlari.

## Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta’limda resurs pedagog va uning vazifalari nimalardan iborat.

2. Ijtimoiy pedagog -ijtimoiy xodim vazifalarini izohlang.

3. Inklyuziv maktablarda inklyuziv o‘qituvchilarning muammolari haqida gapiring.

## **X BOB. MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR UMUMTA'LIM SHAROITIDA O'QITISHDA O'QUV TARBIYA JARAYONINI MOSLASHTIRISH METODLARI**

### **10.1. Umumta'lim sharoitida o'qitishda o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish**

Inklyuziv ta'lim metodik yordam turi, turli xil shakllarda bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sinf o'qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota-onalar, ko'ngillilar yoki katta o'ituvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;
- o'quv reja dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o'zgarishlar bilan tanishtirish;
- o'qituvchilar bilim va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;

-faol qo'llab-quvvatlovchi rahbar ijobiy mifik muhitini tashkil etish va ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirishi;

-ma'muriyatga bolalarning aniqlash va baholashda yordam kursatish;

-ijtimoiy psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiq lashtirish kabi ishlarni amalgalashirishdan iborat. Inklyuziv ta'limda alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berish bolaning nuqson turiga ko'ra sinfni va dars jarayonini moslashtirishni talab etadi. Inklyuziv sinf o'qituvchilariga sinfda dars jarayonini samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar har bir nuqson turi bo'yicha alohida tuzilgan.

#### **Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi**

- Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona munosabat shakllanadi.

• Inklyuziv ta'limni amalgalashirish umumta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi maxsus korreksion ishlarni amalgalashirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jihozlangan korreksion xona, maxsus texnik vositalar).

• Inklyuziv ta'limni amalgalashirish umumta'lim maktablarida tayyorlov guruhi va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 dasiqadan darslar olib boriladi. • Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

• Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

• Korreksion ta'lim o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra tabaqaqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

• Inklyuziv ta'lim amalgalashirish umumta'lim maktabiga o'quvchilar ota-onalarning arizasi hamda «psixologo-pedagogik komissiya»lar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lim muassasalarining rahbarlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi. Inklyuziv ta'lim amalgalashirish umumta'lim maktabdagagi sinflarda integrasiya qilingan o'quvchilar soni 3-4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilarning umumiyligi soni 25 nafargacha deb belgilanadi.

**Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish** o'qituvchi ko'rishida nuxsoni bo'lgan boladan (agarda u zaif ko'ruchchi bo'lsa) sinf taxtasini ko'rinishi uchun eng qulay joygiga qo'yib uni usha joyga o'tkazishi lozim;

• Agar ko'rishida nuxsoni bo'lgan bolaning ko'zlarini yorug'likka sezgir bo'lsa, uni deraza yoniga o'tkazmaslik kerak. Shuning uchun ham bolaning ko'zlarini yorug'likdan saqlash uchun karton to'siqni ishlatish mumkin;

• Sinfdagagi eng axloqiy va oljanob o'quvchilarni aniqlab, ko'rishida nuxsoni bo'lgan bolaga «yo'l boshlovchi». O'quvchi qilib tayinlansa yuqori natijaga erishish mumkin;

- O'qituvchi sinf taxtachasiga yozilgan ma'lumotlarni baland ovozda o'qishi talab etiladi;
- Ko'rishida nuxsoni bo'lgan bola ma'lumotlarni eshitish va taktil sezgilarasi asosida egallaydilar. Shuning uchun ham ularga buyumlarni ushlab ko'rish imkoniyatini berish kerak;
- O'qituvchi sinfiy munozaralarda kim gapirayotganligini ko'rishida nuxsoni bo'lgan bola bilishi uchun har bir o'quvchining ismini aytib turishi kerak.

#### **Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars njarayonini moslashtirish**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'qituvchi va doskaga yaqinroq (3 metr dan oshmasligi), sinfdagilarning barchasini ko'ra oladigan joyga o'tkazish;

2. O'qituvchi dars jarayonida fasat sinfga o'quvchilarga qarab dars o'tishi, eshitishmaydigan o'quvchilarni o'ziga qaratib dars boshlashi; o'qituvchi mavzuni tushintirayotgan paytda kitob yoki boshqa buyumlar bilan yuzini berkitmasligi, doskadagi ma'lumotlar haqida tushuncha berayotganda esa orqa tomoni bilan turib qolmasligi shart. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligi o'quv materiali, tushuntirish, murojaat va h.k.larni labdan o'qish asosida qabul qila oladilar;

3. Inklyuziv sinf xonasi yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qituvchi va o'quvchilarning yuzini, qo'llarini yoki labini yaxshi ko'ra olishi kerak;

4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani boshqa bolalarning labini ko'ra olishi uchun partalarni shunga muvofiq tarzda joylashtirish lozim;

5. Sinfda shovqin ko'tarmasligi talab etiladi. Inklyuziv sinf xonasi matabning tayanch va sokin tarafida bo'lishi lozim;

6. O'qituvchi aniq talaffuz va baland ovozda, lekin baqirmsandan gapirishi tavsiya etiladi.

Tayanch-harakat a'zolarida muammolari bo'lgan bolalar sinflarini va dars jarayonini moslashtirish yengil darajadagi syerebral falaj bolani umumta'lim sinflarida o'qitish uchun ko'p narsa talab etilmaydi. Ammo og'ir darajadagi syerebral falaj bolani umumta'lim tizimida o'qitish uchun sinfni moslashtirish bir oz

murakkabroq. Buning uchun sinfni moslashtirish quydagicha bo'lishi mumkin:

1. Syerebral falaj bola o'tirganda boshi va gavdasini to'g'ri tutishi uchun maxsus o'rindiqlar;
2. Bolaning bo'ynini kerakli darajada tuta olishi uchun maxsus o'rindiqlar;
3. O'qituvchi va tengdoshlari bolani tushuna olishlari uchun muloqot taxtalari (masalan, rayem yoki turli razmiy belgilardan tashkil topgan taxtalar);
4. Bola sinfda harakatlana olishi uchun sinf xonasining devorlari yoniga yordamchi vositalar qo'yish;
5. Sinf xonasi va partalarni syerebral falaj bolaning aravachasi uchun moslashtirish;
6. Agar bolaning nutqida og'ir nuqsonlar bo'lsa muloqotning boshqa shakllardan, masalan rasmlar yoki chizilgan ramziy kartochkalardan foydalanish mumkin. Ular sinf taxtasiga joylashtirilsa, bola o'z fikrini bu vositalar orqali ifoda etadi;
7. Bolani savollar berishga undang, lekin unga o'z nutqi bilan yoki boshqa vositalar orqali javob berishga fursat bering;
8. Kompleks yordam (tibbiyot xodimi logoped, massajist yordami) turini tashkil etish;

9. Tengdoshlaridan bola bilan o'zaro muloqot qilishlarini so'rang, chunki bolalar doimo bir-birlari bilan muloqot qilish yo'lini topadilar oyoqlarni boshqarishda qiynaladigan bolalar yozishda juda ko'p qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun ularning yozishlariga qo'shimcha vaqt ajratish lozim, yoki ularga ma'lumotning nusxasi berilishi yoki boshqa o'quvchi ularga yozib berishi mumkin.

Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida yagiliklarni va dars jarayonini moslashtirish.

1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar diqqatini taraqqiyotini hisobga olib partaga ortiqcha narsalar qo'ymaslik kerak;
2. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tez charchab qolishini hisobga olgan holda, ularga harakatda bo'lish imkonini

beruvchi topshiriqlar berib turish («daftarlarni yig‘», «doskani tozala» kabi);

3. Har bir darsda jismoniy dars o‘tkazishni unutmaslik lozim;
4. Sinfda yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchini aniqlab «sinf boshqaruvchisi» (imkoniyati cheklangan o‘quvchi) etib tayinlash (bu o‘quvchidan o‘qituvchi aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bola bilan ishlayotganda ko‘proq foydalanadi);
5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni sinfdagi eng a’lochi o‘quvchi bilan birga o‘tkazish;
6. Darsda asosiy ko‘rgazmalilikka tayanish;
7. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo‘lib berish;
8. Bolani rag‘batlantirishni unutmaslik;
9. Usullarning xilma-xilligidan doimiy ravishda foydalanish;
10. O‘yin metodlariga maksimal darajada tayanish;
11. Bola topshirqni bajarayotganda unga qo‘srimcha yoki amaliy ko‘rsatma ham berish;
12. Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaning ham hissasi qo‘shiladigan topshiriqlar berish;
13. Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolani nazorat ostiga olish.

**Sinf va guruhlarda inklyuziv ta’lim tushunchasini rivojlan-tirish.** Bolalar ongida irqchilik, maxsus tarbiyaga muhtojlik hamda imkoniyatlar kengligi xususida to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Noto‘g‘ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar haqorat va masharalanishga duchor bo‘lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulq-atvorni ayrim o‘qituvchilarining e’tiborsiz qoldirayotganligidir. Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun ham barcha maktablarda hamma bolalar uchun teng huquqli, sevimli, do’stona iliq munosabatdagi muhitni yaratish lozim. Maktabda irqchilikni, maxsus tarbiyaga muhtojlik ustidan kulishni qoralashni va ular o‘rtasidagi teng huquqlilik tushunchasini shakllantirish kerak. Biz quyida bolalar o‘rtasida teng huquqlilik tushunchalarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berildi:

- Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o‘z hayotlari va histuyg‘ularini muhokama qila oladigan o‘zarlo qo‘llab-quvvatlovchi va hamjixatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim;

- O‘quvchilar ongiga maxsus tarbiyaga muhtojlik-alohidalik emas, balki kamchilikni mayjudligi natijasida imkoniyatlar chegaralanganligi ekanini tushuntira bilish lozim. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalardan qo‘rqish, jirkanish hislarini yuqotishga erishish talab etiladi. Pedagoglar ayrim holatlarda stereotiplarni qo‘llashdan boshlanadi.

**Xohishlari** va tashabbuslarni qo‘llashdan keyin ham bolalar oldida sharhlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo‘yish, mashara qilish, salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo‘l qo‘ymasliklari talab etiladi. Zarur bo‘lgan holatlarda imkoniyati cheklangan bolalarda ayrim o‘quvchilar tomonidan berilayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muhokama qilish o‘rinli hisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun oxirigacha kurashish lozim. Har bir muhokama bolalarning yutuqlarni uning avvalgi yutuqlariga solishtirib, qayd etib, ta’kidlab borish muhimdir. O‘quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o‘tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va maxsus tarbiyaga muhtojlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao. O‘qituvchilar ishlarini va ularning yutuqlarini barcha sohalarida maktab va mакtabdan tashqari ishlarda namoyish qilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini ham qo‘llash juda samara beradi. Kitob plakatlar va dasturlarni qo‘llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta’limga mos kelishi kerak. Maktablar ochiq bo‘lishi o‘quvchilar ota-onalari va pedagoglari bilan muloqot qila olishi kerak.

**Inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning ba’zi bir xususiyatlari** Aravacha yuradigan yoki hassa va boshqa moslamalar orqali harakatlanuvchi bolalar uchun sinfdagi harakatlanish joylarini yetarli ekanligiga ishonch qilish uchun quyidagilarga e’tibor bering:

- Ko‘rish va eshitish qiyinchiliklariga ega bolalar gilam va partalar orasida butun sinf faoliyatida ishtirok eta oladigan tarzda o‘tirganlariga ishonch hosil qiling.

- Ta’lim olishda qiyinchilikka uchraydigan bolalar ta’lim olish imkoniyatlarini qo‘llay olishlariga ishonch hosil qiling.

- Turli xil tibbiy muammolarga ega bolalarning ayrimlari teztez ovqatlanishi, suyuqlik ichish imkoniyati cheklanganini yoki boshqalarga qaraganda ko‘proq hojatga borish ehtiyojiga ega bo‘ladilar. Bunday bolalar o‘zlarini noqulay his etmasliklari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga e’tibor qarating.

- Uzoq muddat tik tura olmaydigan bolalarni ham e’tibordan chetda qoldirmang.

- Agar bolaga diqqatni jamlash yoki ko‘rinmas yashirin kasallik (autizim yoki giperfaollik natijasida diqqatning yetishmasligi) natijasida tinch o‘tirishga qiyalsa, boshqa o‘quvchilar aytilgan vazifalar bilan mashg‘ul bo‘lsalar ham, diqqati tarqoq o‘quvchilarning bir nafas dam olishlariga imkon bering.

#### Nazorat uchun savollar

1. Umumta’lim sharoitida o‘qitishda o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish turlarini izohlang.

2. Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar inklyuziv ta’limida sinflar va dars jarayoniga moslashtirish uchun olib borilayotgan faoliyatlar haqida gapiring.

3. Inklyuziv ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishini asoslang.

4. Salomatligida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini taqq qoslang.

## XI BOB. INKL YUZIV TA’LIM OLDIDA TURGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

### 11.1. Inklyuziv ijtimoiy siyosat sohasidagi ayrim muammolar

Yuqorida qayd etilgan va amalga oshirilgan ma’lum darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo‘lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

- ota-onalar uchun maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni o‘qitish tizimi, inklyuziv ta’lim tizimi haqidagi o‘quv qo‘llanmalarining tanqisligi;

- maxsus ehtiyojli bolalarni uyda yakka tartibda o‘qitish uchun maxsus mutaxassislarining yetishmasligi, yordamchi-texnik vositalar bilan ta’minalash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasasida o‘qitish uchun huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqilmaganligi;

- sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi (35-40);

- umumta’lim muassasalarining binolari imkoniyati cheklangan bolalarning xususiyatlariga mos ravishda qurilmaganligi;

- umumta’lim muassasalarida bolalarni psixologo – tibbiy -pedagogik yordamni olish imkon yo‘qligi;

- umumta’lim muassasalarining pedagoglari maxsus metodikalarini bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondira olmasligi;

- umumta’lim muassasalarida tiflo, surdotexnik vositalar mavjud emasligi;

- umumta’lim pedagoglari, maktab rahbarlarini maxsus ta’lim bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tmaganligi va umumta’lim makkablarini qo‘sishma kadrlar (logoped, maxsus pedagog, psixolog, ijtimoiy pedagog) bilan ta’milanmaganligi integrasiyani amalga oshirish uchun salbiy munosabatni keltirib chiqarmovda;

- maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo‘qligi;

-maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;

-cheorra qishloqlardagi tashxislarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

-maxsus tarbiyaga muhtojlar aravachalari, qo'lтиq hassalar, eshituv apparatlari, ko'zoynaklar, travmatologik poyafzallarning yetishmasligi;

-davlat tomonidan kasb-hunarga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash, muammolari to'laqonli hal qilinmaganligi;

-maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning kamligi;

-tevarak-atrof muhitining maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga nisbatan salbiy munosabati;

-maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar bilan ishslash mahallalarda yaxshi qo'lga qo'yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;

-maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning ota-onalarida huquqiy bilimning yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;

-ta'lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi;

-inshoatlarning maxsus yordamga muxdoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;

-malaka oshirish tizimida umumta'lim pedagoglarini maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va h.k.

Chunonchi matabda va maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatmasdan, oilalar bilan muloqotda bo'lib turmasdan, maxsus o'quv adabiyotlari bilan ta'minlamasdan ular uchun alohida sharoit yaratmasdan turib integratsiya yoki inklyuziv ta'limni amalgalash oshirish ijobjiy natija bermaydi. Bunday yondashish jismoniy integratsiya turiga kiradi. Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi masalalar o'z yechimini topishi zarur:

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasining uyg'unlashuvni uchun ularni ilk yoshdan aniqlash, tashxis qo'yish, ta'lim olishi uchun tegishli tarbiya muassasalariga yo'llash, uzluksiz

maxsus ta'limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, umumta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan, uy sharoitida o'qitilayotgan bolalar ta'lim mazmunini ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqadan holda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota-onalar va pedagoglar uchun inklyuziv ta'lim yo'nalishida oq'uv - metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta'limga zamonaviy pedagogik, axborot-texnologiyalarni jalb qilish, internet tarmoqlari orqali masofada o'qishni tashkil etish jamiyatimiz va mutaxassislar oldida turgan muhim vazifadir. Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishning markazlashtirilgan bazasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish.

Psixik va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarni uzluksiz inklyuziv ta'lim sharoitida o'qishi va rivojlanishini ta'minlovchi me'yoriy uslubiy bazani mustahkamlash. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni ta'limga jalb qilinishi uchun jamiyatga uzluksiz inklyuziv ta'limini milliy modeli konsepsiyasini, nizomini takomillashtirish va tasdiqlash. Metodik majmualar (individual rivojlantiruvchi dastur, darslik, o'quv reja metodik qo'llanma va mashg'ulotlar ishlanmalari, tavsiyalar) yaratish; Yangi tahrirdagi DTSlarni maxsus ta'limga moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim olishlarini nuqson turiga ko'ra (ko'rish, eshitish, aqliy va nutqiy rivojlanishini) e'tiborga olgan holda individual-rivojlantiruvchi variativ o'quv reja, dasturlarini ishlab chiqish; Inklyuziv ta'limni amaliyotga tadbiq etishda moliyaviy ta'minot va xususiy manbalardan foydalanishni kengaytirish; Inklyuziv matab uchun kerakli moddiy-texnik bazani o'rganish bo'yicha takliflar kiritish. Zarur bo'lgan yordamchi texnik vositalar bilan ta'minlash masalalarini davlat byudjetlari, byudjetdan tashqari (xorijiy investisiyalar, grantlar) asosida amalga oshirish. Umumta'lim, maxsusta'lim pedagoglarini hamkorlikda faoliyat ko'rsatishini amalgalash oshirish va imkoniyati cheklangan hamda sog'lom tengdoshlari orasida do'stona munosabatni shakllantirish. Ommaviy axborot vositalari orqali alohida ehtiyojli

bolalar integrasiya va inklyuziv ta’limi haqida chiqishlar tashkil etish. Pedagogika oliv ta’lim muassasalarining psixologiya, mактабгача та’лим, бoshlangich та’лим, defektologiya yo‘nalishlarida та’лим oluvchi talabalar uchun inklyuziv ta’lim sohasi bo‘yicha maxsus kurs, seminar dasturlarini va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, seminarlar o‘tkazish va h.k.

## **11.2. Inklyuziv ta’limning muammolari**

- ✓ Ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi;
- ✓ Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga nisbattan salbiy munosabat;
- ✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi;
- ✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning mактабда ko‘rinmaslik muammosi;
- ✓ Moddiy mablag‘ muammolari;
- ✓ Ta’lim muassasalarini moslashtirish;
- ✓ Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi;
- ✓ Kambag‘allik;
- ✓ Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
- ✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
- ✓ Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar;
- ✓ Kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug‘iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta’lim tizimiga o‘tishga qanday zaruriyat bor? Darhaqiqat, bu ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta’lim tizimining nafl jihatni juda ko‘p ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta’lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarning oldini oladi;

➤ Inklyuziv ta’lim yanada inklyuzivlikka olib keladi. (Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet.)

Inklyuziv ta’limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug‘iga bog‘liq emas.
2. Har bir inson o‘yash va his qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qibiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muhtoj.
5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab-quvvatlashga muhtoj.
7. Hamma ta’lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama ko‘chaytiradi.

Inklyuziv ta’lim tizimi quyidagi ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi; mактабгача та’лим, umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, professional va oliv ta’lim. Bu ta’lim muassasalarining maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o‘rtasidagi to‘silikni bartaraf etib ochiq ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Umumta’lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integratsiyalashgan ta’lim tizimidan o‘zining mazmun – mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Maxsus ta’limga muhtoj bolalarga integratsiyalashgan ta’lim sharoitlarida yordam ko‘rsatishning g‘arbiy Yevropa tajribasi Yevropa davlatlarida integratsiyalashgan inklyuziv ta’lim muammolarini hal qilish, imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish, ko‘maklashish va maxsus ta’limni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa agentligi tomonidan 1999-yilda chop etilgan ma’ruzasi bilan tanishtiramiz. Ushbu hujjatda 17 ta Yevropa davlarida integratsiya ta’limini tashkil qilish holati borasida fikr yuritiladi. Integratsiyalashgan ta’lim sohasida o‘z xohishiga ko‘ra qaror qabul kilish tarafdarlari, xorijliklarning ijobiy tajribasiga ishora qiladilar. Ayni paytda ular ko‘pincha o‘zлari tomonidan taklif etilayotgan keskin va jadal choralar (masalalar) g‘arbcha yondashuvlarning o‘xshashi

tarzida qarash mumkin emasligiga e'tibor bermaydilar, chunki ushbu masalalar zarur qonunchilik, iqtisodiy, kadrlar bazalarisiz amalga oshiriladi. Integratsiyaning ilg'or modeli o'ziga xos o'quv joyining oddiy sinfi doiralaridagi yaratuvchanlik, fan o'qituvchisiga qo'shimcha ravishda ikkinchi pedagogni kiritish, infratuzilmaning o'quvchi imkoniyatlariga moslashish va yana ko'p narsalar, ya'ni maxsus mini maktab sinfida o'ziga xos tashkiliy ishlarni ko'zda tutadi. Yunesko vakili X.Olsennenning so'zlariga ko'ra, "O'n yetti yevropa mamlakatida o'tkazilgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni o'qitish bilan bog'liq muammolarning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, mabodo moliyalashtirish tegishli hajmda amalga oshirilmasa, integratsiya g'oyasi amalda tatbiq etilishi haqiqatdan uzoq" (1, 26-b). Maxsus ta'lumi totalitar ta'lum va ayni paytda Rossiya voqeligiga integratsiyalashmagan ta'lum bilan almashtirishga urinish, barcha bolalar huquqlari tengligiga erishish emas, balki imkoniyati cheklangan bolalarda ularning yo'qolishiga olib keladi. Maxsus ta'limning davlat tizimi (MTDT) rivojlanishining oldingi bosqichi yakunlanmaganligini nazarda tutgan holda, ommaviy va maxsus ta'lum tizimining haqiqiy, o'zaro ta'sirini ta'minlovchi ta'lum integratsiyasi modelining milliy variantini ishlab chiqish zarur. Imkoniyati cheklangan bolalarning katta qismining haqiqiy integratsiyasini ta'minlash fuqarolik jamiyatining iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashiga olib keladi. Ammo ayrim mamlakatlarda ham integratsiyalashgan ta'limning chorak asri mobaynida "maxsus ehtiyojli bolalarga" (Children with Special Needs) pedagogik yondashish va yordamlashishning yagona modeli shakllanmadи.

**Integratsion siyosatning asosiy xususiyatlari.** Ma'ruza mualiflari integratsiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashish qismida ta'lum siyosatining quyidagi asosiy komponentlarini ajratdilar:

1. Umumta'lum maktablari pedagoglari maxsus ta'limga muhtoj bolalar bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun mas'uldir.
2. Integratyalashgan o'quvchini umumta'lum maktabi (sinfi) yoki undan tashqarida zarur yordam asosan maxsus pedagog tomonidan ko'rsatilishi lozim.

3. Maxsus pedagog matabning shtatl xodimi yoki tashqi tashkilot (tashxislash markazining maxsus maktabi, tibbiy yoki ijtimoiy xizmat va h.k.larning) vakili bo'lishi mumkin.

4. Yordam integratsiyalashgan o'quvchilar bilan bir qatorda, ular bilan ishlaydigan pedagoglarga ham ko'rsatilishi darkor.

5. O'quv yurtidan tashqarida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lum xizmatlari o'quvchi, o'qituvchi, maktablar hamda ota-onalarga ko'maklashishning har xil turlarni ta'minlab, yordam ko'rsatishi mumkin

6. Ko'maklashishning asosiy shakllari axborot, o'quv materiallarini tanlash, individual o'quv rejalarini ishlab chiqish, maxsus mashg'ulotlar tashkil qilish va o'quvchiga bevosita yordam ko'rsatishga aloqador bo'lishi mumkin.

7. Yordamlashish turlari har xil va o'zgaruvchandir. Ularning tanlovi o'quvchi ehtiyojlariga bog'liq bo'lgan turli omillar, o'qituvchilar, mакtab sharoitlari va o'quv joyi va umuman matabning texnik jihozlanishining talablariga bog'liq.

8. Integratsiyalashgan o'quvchilarga yordam ko'rsatishni maktabdan tashqari ta'lum xizmatlari bilan birga boshqa xizmatlar, eng avvalo ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlari ham ta'minlaydi. Ular ham umumt'lim muassasiga integratsiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashish, ularning ota-onalariga maslahat ko'rsatish jarayoniga jalb qilinadilar. Aytib o'tilgan xizmatlarning vakillari maktab o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari lozim. Milliy ma'ruzalarga binoan ko'pchilik yevropa mamlakatlarida maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar bilan ishlashda mакtab o'qituvchilari asosiy rol o'ynaydi. Qo'shimcha ta'lum yordami professionallar, asosan maxsus pedagoglar ko'magida ta'minlanadi. Ularning ishini odatda mahalliy ta'lum boshqaruvi organlari tartibga soladi. Daniya va Shvetsiyada maxsus sinf (maktab) o'quvchilari bilan faqatgina maxsus pedagoglar shug'ullanadi. Italiyada bunday o'quvchilar bilan maxsus pedagoglar bilan bir qatorda oddiy pedagoglar ham ishlashi mumkin, ayni paytda ularning bari maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarning o'qishi uchun mas'ul sanaladilar. Boshqa variantlar ham mumkin. Masalan, Fransiyada Adliya vazirligi qo'l ostidagi xizmat mакtab o'quvchilariga yordam

ko'rsatadi. Integratsiyalashgan o'quvchilar mavjud Lyuksemburg maktablarida maktab o'quv dasturlarini bilmasa ham, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya sohalarida bilimga ega bo'lgan "assistantlar" ishlaydi. Irlandiyada ijtimoiy xizmatlar maxsus ta'limga muhtoj maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga xizmat ko'rsatishda bevosita qatnashadilar. Sog'lijni saqlash bo'yicha hududiy kengashlar tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni molialiash-tiradilar. Integratsiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashishni tashkil etish. Internet ma'lumotlari asosida bugungi kunga qadar jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilayotganligi ham aniqlandi. Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlар alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to'liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo'naltirilgan qo'shimcha ta'lim xizmatini ko'rsatish ma'suliyatidan ozod etilmaydi. AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan. Maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etishda jahon miqyosidagi bir qancha davlatlar tajribasi o'rganilib, tahlil qilindi.

#### Nazorat uchun savollar

1. Inklyuziv ta'limning muammolari haqida gapiring.
2. Integratsiyalashgan ta'limning asosiy xususiyatlarini asoslang.
3. Inklyuziv ijtimoiy siyosat sohasidagi ayrim muammolarni tavsiflang.

## XII BOB. INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI

### 12.1. Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishning O'zbekiston va xorijiy ta'lim tajribasi

Bola dunyoga kelar ekan, uning rivojlanishi, psixologik holatini shakllanishi tafakkuri, ongi, ruhiy holatlarini o'sishi, uni o'rab turgan olamni tashkil qilgan borliqqa moslashishiga olib keladi. Uning qanday o'sishi, ichki ruhiy holatining o'zgarishi, jismonan yaxshi shakllanishi yoki tabiatan tug'ma a'zolarida kamchiliklari va nuqsonlari bilan tug'ilishiga bog'liq bo'ladi. Dastlab bolani ta'lim -tarbiysi, uning hayotga tarbiyalash, ota-onasi tomonidan faol amalga oshiriladi. Agar bolani biror tana a'zolarida nuqsoni bilan tug'ilsa yoki yashash davomida biron hodisa tufayli biror a'zosi ishlamay maxsus tarbiyaga muhtoj bo'lib qolsa, bunday yordamga muhtoj bolalarni maxsus ta'lim-tarbiya berish metodlari asosida amalga oshiriladi. Tana a'zolarida nuqsoni bor bolalarni oilada maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlarida, oliy ta'lim va undan keyingi ta'limda maxsus dasturlar, ta'lim-tarbiya shakllari, materiallari maxsus xizmatlar va faoliyat turlari asosida amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'limning maxsus metodika asosida tashkil qilinsa, uni samaradorligi yuqori darajada bo'ladi. Ushbu ta'lim turida so'rovnomalari o'tkaziladi, test savollari tuziladi, ularning natijalari tahlil qilinadi va tavsiyalar tayyorlanadi. Ta'lim-tarbiya berishning korreksiya usullaridan foydalilanadi, bolalarni ruhiy holat, kechinmalari tahlil qilinadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi. Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi

tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta’lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5 sentyabrdan qabul qilingan “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hujjat asosida Xalq ta’limi vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo‘lgan hamda davolanishga va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo‘yicha alohida vazifalar belgilandi. Mazkur belgilangan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida O‘zA muxbiriga Xalq ta’limi vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Suxrob Xoliqov quyidagilarni so‘zlab berdi. “Inklyuziv ta’lim bo‘yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1350 nafar pedagog xodim inklyuziv ta’lim xizmatlariga o‘qitildi. Ta’lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo‘yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining o‘quv rejalariga 3 ta o‘qitish modulli kiritildi. 2000 dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta’lim xizmatlari tashkil etildi. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi sa’y-harakatlar, korreksion va rehabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday o‘quvchilarining umumiy o‘rtta ta’lim maktablariga qaytishi ta’minaldi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim bilan 64 ming 700 nafarga yaqin o‘quvchilar qamrab olingan”. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni takomillashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdan “Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020- 2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlanatirish konsepsiysi qabul qilindi. Konsepsiyanı amalga oshirish bo‘yicha 2020-2021 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. E’tiborli jihat shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta’lim tizimi 51 foiz umumta’lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta’lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi.

Integratsiyaning ikki turini ajratib ko‘rsatish kerak: ta’lim va ijtimoiy. Ta’lim integratsiyasi - bu inklyuziya, ya’ni “inklyuziv ta’lim” bo‘lib, maxsus tarbiyaga muhtoj bolani bitta mакtabga kiritishni ta’minaldi. Ta’lim muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan. Ijtimoiy integratsiya bolaning jamiyatga qo‘silishi, ya’ni uning ijtimoiylashuvini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan barcha bolalarga istisnosiz, buzilishning tabiatini va tuzilishidan qat’i nazar, maxsus ta’lim ehtiyojlari, yoshi, shuningdek, ular o‘qiyotgan muassasa turi. Birinchi marta integratsiyalashgan o‘qitishning nazariy asoslari taniqli rus olimi L.S. Vygotskiy. Uning ta’kidlashicha, maktab-internatda o‘qiyotgan bola normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan, oiladan va umuman jamiyatdan ajralib turadi. L.S. Vigotskiyning ta’kidlashicha, maxsus maktabning devorlarini “buzish”, maxsus bolaning madaniy va tarixiy rivojlanishini ta’minalash va uning jamiyatga “o’sishi” uchun sharoit yaratish kerak. Har bir mamlakat maxsus inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun amal qiladigan o‘z siyosatiga ega bo‘lishi kerak. Bu siyosat milliy ta’lim tizimining asosiy xususiyatlarini va eng muhim bo‘lgan milliy maqsadlarni o‘zida aks ettirish zarur. Milliy siyosatga qo‘sishma ravishda maxsus inklyuziv ta’lim sohasida turli jamoa va maktab okruglari ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilgan hududiy siyosatlar mavjud bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, har bir maktab o‘zida milliy va hududiy siyosatlarini aks ettiruvchi maxsus inklyuziv ta’lim uchun ehtiyojlarini aniqlash, ta’limni individual rejalashtirish jaroyoni, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’limni individual rejalashtirish

jaroyoni, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda maktablarda yordamchi personal, ota-onalar ishtirokchi, muassasa va xizmatlar bilan bog’lanishini ta’minalash shuningdek, davom etuvchi monitoring va imkoniyati cheklangan uchun zaxiralar sharhi bilan ta’minalash, kasbi xusiyatlarini ichiga olgan o‘z siyosatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarga umumtalim maktablaridami, maxsus makablardami yoki maxsus sinflarda ta’lim berish borasida aniq qonunchilik bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar hech bir davlatda e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Ularning ta’lim-tarbiya olishlari uchun inkyuziv ta’limning joriy qilinishi esa katta imkoniyatlar eshikini olib berdi. Albatta, sog‘lom bolalar qatorida ta’lim olish, ular uchun ham o‘z qobiliyati va bilimini rivojlanadirish uchun turki bo‘lmay qolmaydi. Bu kabi imkoniyatlar har bir davlatda mavjud. Biz AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Shvetsariya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston misolida imkoniyati cheklangan bolalarga yaratib berilgan shartsharoitlar bilan tanishib chiqamiz. Bugungi kunga qadar jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilayotganligi barchamizga ma’lum. Bugungi kunda jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib boriladi. Xususan, Rossida inklyuziv ta’limining keng tarqagan modeli ommaviy maktablarida maxsus sinflardir. Ular quyidagi alohida yordamchi muhtoj bolalar uchun tashkil etilgan:

- Intellektida buzulishi bo‘lgan bolalar uchun;
- Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun korreksiya sinflari.

“Tavvakal” guruhi bolalar uchun (ta’lim olishida, xulq-atvorlarida qiyinchiliklarga ega, sog‘ligi zaif)-konfensatsiya qiluvchi ta’lim, pedagogik yordam, adaptatsiya va sog‘lamlashtirish sinflari. Moskvadagi ta’lim markazining ijtimoiy ta’lim bo‘limi 1992 yilda umumiyligi ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar integratsiyasi modelini tayyorlash g‘oyasini ilgari suradi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa,

ta’lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlanishi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim deb topilgan. Buyuk Britaniyada integratsiya jarayonida maxsus maktab o‘quvchilari uchun alohida ishlab chiqilgan. Maxsus maktab o‘quvchilarining ma’lum qismi ommaviy maktabda ta’lim oladilar. Integratsiyani amalga oshirish uchun o‘yin, jismoniy tarbiya, amaliy faoliyat turlari alohida tanlangan. Buyuk Britaniyada integratsion ta’limni tashkil etish uchun alohida maktablar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta’limni uchun alohida mablag‘ bilan ta’minlanadi. Buyuk Britaniya maxsus maktablarda ta’lim-tarbiya olayotgan o‘g‘ir nuqsoni bolalarni integratsiyalash dasturi ishlab chiqilgan edi. Qaysi maktabda integratsion ta’lim tizimi joriy etilgan bo‘lsa, o‘scha maktabga maxsus maktablarda o‘qilyotgan bolalarning bir qismi qamrab olindi. Integratsiya tizimini yanada puxtarloq joriy etish maqsadida o‘yinlar, jismoniy tarbiya, raqs va bir qancha amaliy mashg‘ulotlar kiritildi. Bu kabi mashg‘ulotlar imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar kabi ta’lim-tarbiya olishiga imkon yaratib beradi. Shvetsariya rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta’limning asosiy qismini ommaviy maktabda olishlarini ko‘zda tutuvchi dastur mavjud. O‘qituvchilar to‘rt kishidan ommaviy maktabning uchta o‘qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bitta o‘qituvchidan iborat guruh faoliyat ko‘rsatadi. Maktab ma’muriyati uch oyda bir marotaba ta’lim psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib, zarur tadbirlar va ota-onalar bilan uchrashuvlar borasida maslaxatlashib oladilar. Bunday yondashuv, o‘qituvchi mehnatini samaradorligini oshirish, integratsiya sinflarida ta’lim metodlarini qo‘llash sifatini muhim omildir. Shvetsariyada ham boshqa mamlakatlar kabi inklyuziv ta’limga e’tibor katta. Ular uchun yaratilgan sharoit sog‘lom bolalarga yaratilgan sharoitdan qolishmaydi. Qirg‘izistonda inklyuziv ta’limni rivojlanadirish tanlab olingan davlat maktablari va xususiy o‘quv muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislar guruhi ommaviy maktablarda ta’lim olish uchun imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab oladi. Ularning bazasida o‘qituvchilar, otaonalar, mahalliy hokimiyat vakillari uchun uchta semenar. Ta’lim Vazirligi va mahalliy ta’lim

depertament uchun respublika miqyosida konferensiya ham o'tkazilgan. Qozog'istonda 2003 yil „Maxus ehtiyojli bolalarni korreksion ijtimoiy va tibbiypedagogik qo'lab-quvvatlash haqidagi” Qonun qabul qilinadi. Bu qonun asosida mahsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish, korreksion pedagogik ish olib borish maqsadida reabilitatsion markazlar, psixologik-pedagogik korreksiya xonalari, mahsus maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida qoshida qisqa muddatli guruhi tashkil etildi. Inkyuziv ta'limga kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'limda „Maxsus pedagogika”, „Maxsus psixologiya”, „Maxsus metodikalar” kurslari kiritildi.[3] Bu kabi kurslar kadrlar malakasini oshirishga xizmat qiladi. Xitoyda integratsiyalash jarayoni barcha umummillat ma'lumotlarini yig'ish, tajriba almashish, muloqot va fikr almashish, kadrlarni tayyorlash, maktab o'quv jarayonlarini isloh kilish, maktab xodimlari bilan uchrashuv va savol javoblar o'tkazish hamda barcha axborotlarni yig'ib tahlil qilishdan boshlandi. Nuqsonli bolalar ta'limi Xitoy ta'lim tizimida birmuncha yangi edi. Har bir tumanda integratsion ta'lim borasida seminarlar uyushtirildi. 8 ta o'quv seminarida 1000 dan ortiq kishilar ishtirok etdilar. Bir qancha pedagogika institutlarida nuqsonli bolalar ta'limi nomli o'quv kurslari o'tila boshladi. (Ainscov M., va boshkalar 1996 yil). Xitoyning ta'lim bo'yicha milliy tadqiqot Instituti YUNESKOning maqsadli grant mablag'lari yordamida alohida ehtiyojli bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida WEB resurs markazini tashkil etish bo'yicha innovatsiya dasturini ishlab chiqdi. Bu resurs markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Alohida ehtiyojli bolalar va yoshlarni ta'lim tizimiga kiritishda ma'lumotlarni olish buyicha resurslarni aniqlash;
2. Maxsus ehtiyojli shaxslar bilan aloqa o'rnatish;
3. Ma'lumotlar bankida turli ta'limiy va rivojlantiruvchi materiallarni to'plash;
4. Internet tizimi orqali mutaxassislar maslahatini uyushtirish;
5. WEB resurs markazi foydalanuvchilari orasida tajriba va bilimlar almashishni tashkil qilish;

6. Integratsiya muammolarini hal qilish vositalarini izlash. CHet davlatlar bilan bu boradagi kamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish (YUnying CHen, ma'lumotlari 2000 yil). SHunday qilib Xitoyda Internet tizimidagi elektron resurs markaz orqali mutaxassislarining bilim va malakalaridan foydalangan holda butun mamlakat hududidagi alohida ehtiyojli bolalar va shaxslarning ta'lim olish talabini qondirish imkoniyati paydo bo'ldi. Mazkur dastur maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim jarayoniga kiritish bo'yicha boshqa choratadbirlarga qo'shimcha yordam sifatida qo'llaniladi. Ayrim hollarda esa ta'lim berish va rivojlantirish imkonini beruvchi yagona vosita bo'lib qoldi.[1] Hindiston qonunida majburiy boshlang'ich ta'limga jiddiy va katta vazifa deb qaraladi. Hindistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 2.000.000 ni tashkil etadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish 1947-yilda mamlakat mustaqillikga erishgandan so'ng qonuniy tasdiqlangan. 1986- yilda ishlab chiqilgan va 1992-yilda milliy ta'lim qonuniga ko'pgina mutaxassislar va turli shtatlarning vakillari ishtirokida hamda boshqa tegishli fuqarolarning hamkorlikdagi sayiharakati bilan qo'shimchalar kiritilgan. Mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning asosiy bandida rivojlanishida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarni barchalar qatori ta'lim olishi va ular o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf qilinishi qayd etilgan. Shuningdek qonunda mamlakatda yashovchi fuqarolarning ko'p tilligi va diniy-ijtimoiy, madaniy rivojlanishining xususiyati hamda mamlakatda yashovchi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar, qiz bolalar har-xil hududlarda yashovchi mayda millat bolalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligi aniqlanib ularga qo'shimcha ravishda e'tibor berilib, ta'lim olish huquqi ta'kidlangan. Hindistonda bolalarning ko'pchilik qismi maktablarda o'qitilishiga qaramasdan 35.000.000 6-14 yosh bo'lgan bolalar hanuz ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bunga sabab maktablarning yetishmasligi binolarning maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarga moslashtirilmaganligi, o'qituvchilarning davomotining pastligi va yetishmasligi, moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi, maktablardagi ta'lim jarayonining sustligi va hk. „Har - xil ta'biiy ofatlarga ko'ra boshpanasiz qolgan, boquvchisini yo'qotgan, yetim bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj

bolalar hanuz formal ta'limdan chetda qolmoqdalar. Keyingi vaqtida ta'lim olishning bir qator mavhum tizimi rivojlanan boshladi. Bunday tizimni shakllantrish yaxlit bitta vazirlik doirasida bo'lishi kerak" deb ,ta'kidlaydi :- Keralin Daier. Ushbu shakllangan ta'lim tizimining vazifasi o'yin orqali o'qitishga asoslangan yangi ishlab chiqilgan dastur yordamida, o'qituvchi o'quvchiga yondoshish yo'li bilan o'qitish talab etiladi. Bunday yondashuv doirasida o'qitish har xil bolani ehtiyojini qondirish uchun individuallashtirilgan bo'lishi ta'kidlangan. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy masalasi har bir uzoq masofadagi hududlarda yashovchi bolalarni ota-onalarning xohishiga ko'ra davlat maktablarida o'qitishi davlatning imkoniyati va o'qituvchilarning xohishi, imkoniyatlardan kelib chiqib amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan. Davlat maktablarida o'qitilishi davlatning imkoniyati va o'qituvchilarning xohishi, sharoitidan kelib chiqishi amalga oshirilishi mumkinligi etilgan. Davlat maktablariga qatnashuvchi guruhlari, ko'pchilik an'anaviy segregatsion - guruhlaridan maktablariga qatnaydilar, Bu esa ijtimoiy inklyuziyaning muhim, muammosidir. Bu mamlakatning davlat qonuni, formal va noformal ta'lim tizimini joriy qilishda Yunisef va Yunesko tashkilotining hissasi va bevosita hamkorligida tuzilgan nuqsonli bolalarning integratsion ta'lim loyihasi bo'yicha ish olib borila boshladi. Bu loyiha Hindiston hukumati siyosati va etnik holatini hisobga olgan holda tuzilgan (Ainskov M. va boshqalar, 1996 yil). Rossiya. V.A. Berezina, L.M. SHipsinalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra hozir Rossiyada maxsus ta'lim ikkita yo'nalihsada: differensial va integratsiya tarzida tashkil etilgan. Differensial ta'lim 8 yo'nalihsda tashkil etilgan. Oxirgi paytlarda Moskva, Sankt- Peterburg va boshqa Rossiyaning bir qator shaharlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalg etish borasida ilmiy izlanishlar va psixologik-pedagogik amaliy ishlar olib borila boshladi. Rossiyada integratsiya modeli asosida umumta'lim muassasalarida maxsus sinflar tashkil etilgan bo'lib, ular quyidagicha:

aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalar uchun guruhlar va sinflar;

ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun guruh va sinflar;

xulqi og'ir bolalar uchun guruh va sinflar.

M. Shipsinning bergen ma'lumotlariga ko'ra Rossiyada hozirgi kunda 38 % imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim muassasalarida ta'lim - tarbiya olmoqdalar. "Latviyada-deb yozadi-Eljosiene I., (1998 yil). integratsion ta'limga muammo sifatida qaralib, Liepayskiy oliy pedagogik maktab dasturiga kiritildi. Bu yerda asosiy muammo integratsion pedagogikada o'qituvchilar bilan maxsus pedagogika o'rtasida hamkorlik munosabatlarini yaratish edi. Inklyuziv ta'lim maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ehtiyojlarining xilma-xilligi xizmatlarning uzluksizligi, bиринчи navbatda bunday bolalar uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim muhiti bilan mos kelishi kerakligini anglatadi. Ushbu printsip barcha bolalar yashash joyidagi maktabning ijtimoiy va o'quv hayotiga qo'shilishi kerakligini bildiradi. Inklyuziv maktablar chet eldag'i odatiy maktablardan farqli ravishda ta'lim yutuqlariga erishishga qaratilgan. Inklyuziv maktabning maqsadi barcha o'quvchilarga (ularning aqliy va jismoniy holatlaridan qat'iy nazar) ijtimoiy hayotni yakunlash, jamoada, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatini berish, shu orqali bolalarga har tomonlama ta'sir va yordam ko'rsatish. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limga bo'lgan e'tibor katta. Maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni o'qitish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qilgandan so'ng shuni ta'kidlash mumkinki, bir qator mamlakatlarda bunday bolalarni birlashtirish muhimligi to'g'risida aniq kelishuv mavjud. Qaysidir mamlakatni olmaylik, barcha mamlakatda hech bir bola davlat e'tboridan chetda qolmaydi.

### Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishning o'zbekiston va xorijiy tajribasini solishtiring.
2. WEB resurs markaziningf vazifalarini sanang.
3. Inklyuziv ta'limning afzalliklari nimalardan iborat ekanligini aytинг .
4. Inklyuziv ta'limning rivojlanganlik darajasini O'zbekiston va Xitoydag'i ko'rsatkichlarini qiyoslang.

## XULOSA

O‘zbekistonda maxsus ta’lim tizimi rivojlangan bo‘lib imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar ta’limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilib kelinmoqda va maxsus hamda inklyuziv ta’limni joriy qilish masalalari yuqorida qayd etilgan davlat qonunlari hamda xalqaro huquqlarida qayd etilgan. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar nuqson turiga ko‘ra maxsus mактаб, mактабгача ta’lim muassasalarida ta’lim olishi tashkil qilinib kelingan. Ushbu ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qitish uchun qulay sharoitlar yaratilgan va tibbiy, psixologik-pedagogik yordam mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Kam ta’milangan oilalar bolalari ta’lim olayotgan mehribonlik uylari, uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, moddiy bazasini yaxshilash, ularni ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlarni yaratish hamda o‘quv qurollari, maxsus yordamchi vositalar, dastur, darsliklar bilan ta’milanishi birmuncha faollashib, turli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bu ta’lim muassasalarida bolalarni alohida o‘qitishi uzoq yillardan beri davom ettirilib kelinmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom tengdoshlaridan ajratilib o‘qitishi natijasida ularning ishga joylashishi, boshqa mактабни bitiruvchi tengdoshlariga nisbatan ancha past foizni tashkil etadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar bilan birgalikda mакtablarda o‘qitish ularni jamiyatga faol integratsiyalashning alternativ bir turidir. Inklyuziv o‘qitish masalasi butunjahon hamjamiyatida tan olinishi va xayrixohlik bilan amalga oshirilishi ta’lim siyosatining eng asosiy yo‘nalishidir. Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan ta’lim olishida qiyinchiligi bo‘lgan, ya’ni maxsus ehtiyojli bolalar va o‘smirlarni maxsus muassasalarda ta’lim olishi bilan bir qatorda ularni qobiliyat va imkoniyat darajasini e’tiborga olgan holda umumta’lim muassasalarida integrasiya va inklyuziv usulda ta’lim-

tarbiya olishiga xam e’tibor berilmoqda. O‘zbekistan Respublikasining davlat qonunlari, me’yoriy hujjatlarida ushu masala qayd etilgan. Lekin savol tug‘iladi har bir sog‘lom yoki maxsus tarbiyaga muhtoj shaxs va xar bir O‘zbekistan fuqarolari imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qitilishiga tayyormi? Gender ijtimoiy-siyosiy markazi tomonidan har xil toifadagi aholi guruhlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan maqsad umumta’lim tizimida bolalarning birgalikda o‘qitilishiga jamiyatning munosabati va tayyorligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat edi.

O‘rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi fuqarolarning ko‘philigi, ya’ni 62 foizi maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni maxsus mакtablarda o‘qitilishi kerak, deb ta’kidlashgan. Bunday alohida o‘qitish tarafdarlarini ko‘philigi eshitishida va ko‘rishida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lganlar. Lekin tayanch-harakati a’zolari falajlangan maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarning har bir 4 tasidan biri umumta’lim mакtablarda o‘qish tarafdarları. Gender va siyosiy, ijtimoiy tadqiqot markaz ekspertlarining tadqiqoti xulosasiga ko‘ra an’anaviy shakllangan maxsus ta’lim muassasalarini pedagoglari bilan hisoblashish zarur deb ta’kidlaydi. Agarda ota-onalar maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarini umumta’lim mакtablarda o‘qitishni xohlashsa, albatta, ular bunday huquqlarga egadirlar. Bu borada xalqaro va mahalliy ekspertlar fikricha, imkoniyati cheklangan maxsus tarbiyaga muhtoj bolani umumta’lim mакtabida o‘qishi nafaqat ota-onalar uchun shuningdek davlatga ham foydali. Chunki maxsus ta’limga ajratilgan moliyaviy byudjet maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni umumta’lim mакtablarda o‘qitishiga qaraganda bir necha bor oshadi. Hatto umumta’limni maxsus tarbiyaga muhtojlarga qulay qilib qayta jihozlash yoki ta’mirlashga sarflaydigan mablag maxsus ta’limga ajratiladiganga nisbatan ancha kam. O‘tkazilgan so‘rovnomalardan ma’lum bo‘ldiki, mакtab, kollej va oliy ta’lim tizimining surilishi maxsus tarbiyaga muhtoj o‘quvchilarni qabul qilishga tayyor emas, chunki infratuzilmalar, yulakchalar, binolarga o‘rnatilgan qurilmalar, zinapoyalar, maxsus yordamchi texnik

vositalar (kompyuterlar), maxsus individual rivojlantiruvchi dasturlar, darsliklar yetishmaydi.

Mavjud bo‘lgan muammolar bilan bir qatorda uni yechimi ham asta-sekin hal qilinmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim strategiyasini rivojlantirish ko‘p muddatli vaqt ni talab qiladi. Bu ta’limni rivojlantirish uchun uni tatbiq qilishga bosqichma-bosqich kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak. Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati, mutaxassislarining fikri bo‘yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qayerga borib o‘qishiga va inklyuziv ta’lim dasturiga bog‘liq. Eng avvalo inklyuziv ta’lim davlat ishi bo‘lishi kerak, chunki ta’lim olishga imkoniyati bo‘lмаган alohida ehtiyojli shaxslar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayondan tushib qoladilar. Hukumat ularga tenglik imkoniyatini ta’minalashi kerak. Shuni aytish joizki inklyuziv ta’lim maxsus tarbiyaga muhtojlar uchun zarur. Qancha qancha inklyuziv ta’lim olgan maxsus tarbiyaga muhtojlar orasidan iqtidorli, yaxshi mutaxassislar yetishib chiqqan. Inklyuziv ta’limga o‘tish masalasi O‘zbekistonda ratifikasiya qilingan bolalar huquqlari va maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga asoslanadi. Ammo inklyuziv ta’limga o‘tishga, bunday yondashuv uchun nafaqat mos keladigan huquqiy bazani yaratish va shuningdek zarur bulgan sharoitlarni yaratishga kadrlarni tayyorlash maxsus tarbiyaga muhtojlarni kasbiy reabilitasiyasini ta’minalash, jamiyatni to‘g‘ri va ijobjiy fikrlashiga, davlat ta’lim standartlarini moslashtirish va tasdiqlatish zarur. Inklyuziv ta’lim islohotini amalga oshirish uchun normativ bazasini mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasalarida ta’lim olishini ta’minalash pedagoglarni malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, inshootlarni moslashtirish kabi bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga bog‘liq. Inklyuziv ta’limni O‘zbekistonda joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, hozirgi shart-sharoitni e’tiborga olgan holda maxsus ta’lim muassasalaridan voz kechmasdan, qisqartimasdan aksincha, bosqichma-bosqich o‘tish, umumta’lim muassasalarini bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Maxsus ta’lim muassasalarini inklyuziv ta’lim joriy qilingan

umumta’lim maktablariga resurs markaz vazifasini o‘tashi lozim. Maxsus maktablarning mutaxassis pedagoglari umumta’lim pedagoglariga maslahat beradi va individual rivojlantiruvchi dastur va o‘quv-metodik qo‘llanmalarni moslashtirib, ta’lim jarayonida qo‘llashga yordam beradi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan inklyuziv ta’lim to‘g‘risidagi zarur tushuncha va fikrlar integrasiya ta’limini amaliyotga tatbiq qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Olib borilgan surovnomalar tahlili imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablarida o‘qitish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Chunonchi umumta’lim muassasalarini sharoitini imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirib ta’lim va tarbiya berish natijasida bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar shakllanib boradi. Bunday bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy jamiyatga erta va tulaqonli moslashuvlari ta’minalandi. Inklyuziv ta’limni O‘zbekiston Respublikasida joriy qilishning yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta’lim muassasalarini mavjud bo‘lмаган joylarda ham imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim tizimiga to‘liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratiladi.

## GLOSSARY

**Adaptasiya** — organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi, sezgi organlariga, ta’sir manbalariga adaptasiya natijasida analizatorlar sezgirligining o‘zgarishi.

**Anomal bolalar** - jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolgan va maxsus ta’limga muxtoj bolalar.

**Analizatorlarning o‘zaro aloqalari** - sensor sohasi birligi namoyon bo‘lishining bir turi.

**Brayl sistemasi**- ko‘zi ojiz bolalar o‘qishi va yozishi uchun mo‘ljallangan relyef-nuqtali shriftdagি alifbo.

**Bilishga qiziqish** - faoliyat jarayonida voqelik predmetlari va hodisalariga faol munosabatdan kelib chiqadigan bilimga intilish.

**Diktat** - bir vaqtning o‘zida obyektlardan dasxatni ko‘chirishda ongda aks etuvchi boshqa ob‘yektlarning ajralib chiqishini ta’minlovchi ruhiy faoliyatning tashkiliy shakli.

**Daktil alifbosi** - eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun o‘qishda va yozishida qo‘llaniladigan yordamchi nutq turi.

**Defektologiya**- sohasi tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya bo‘linadi.

**Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlar mayjud bola** - maxsus tarbiyaga muhtojlikka chiqarishga yetmaydigan jismoniy, aqliy, sezish (his-tuyg‘u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari mayjud bola.

**Zaif ko‘rvuchilar uchun kitoblar** – ko‘rish imkoniyatini beruvchi misol va ramzlar yirik harflar bilan yozilgan kitoblar.

**Ijtimoiy adaptasiya** - individning yangi ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashuv jarayoni bu jarayon natijasi.

**Ijtimoiy maishiy yo‘naltirish mashg‘ulotlari** - hayot faoliyati uchun zarur ijtimoiy malakalarni rivojlaitirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar.

**Integrasiyalangan ta’lim** - ruhiy-jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan bolalar ehtiyojlariga ko‘ra ta’lim jarayonini amalga oshirish, umumta’lim muassasalariga jalg qilish.

**Inklyuziv ta’lim** — imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda uyg‘unlikda ta’lim olishi.

**Inklyuziv ta’lim modeli, texnologiyasi** - uzlusiz ta’lim shart-sharoitlarida imkoniyatlari cheklangan bolalarning me’yorida rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishining variant va shakllari.

**Ijtimoiy reabilitasiya** - tibbiy tadbirlar majmuasi, ta’lim, tarbiya, kasb tanlash, ishga joylashtirish va boshqalar,

**Imkoniyatlari cheklangan bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi**- jamiyatda qabul qilingan qoida va me’yorlarga nisbatan mushkul hayotiy shart-sharoitdagи bolaning faol moslashuvi hamda hayot faoliyatida mavjud muammolarni bartaraf etish jarayoni.

**Kuzi ojizlar uchun kitoblar** - Brayl tizimi bo‘yicha sezgi orqali qabul qilish uchun bo‘rtirma-nuqta harflar bilan yozilgan kitob.

**Korreksiya** - bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini pedagogik usullar va tadbirlarning maxsus tizimi yordamida to‘liq yoki qisman tuzatish.

**Korreksion mashg‘ulotlar** - ruhiy-jismoniy rivojlanishdagи kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etishga oid mashgulotlar.

**Ko‘nikmalar** – o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajriba asosida hatti-harakatlarning tez, aniq, ongli bajarilishiga tayyorgarlik.

**Labdan o‘qish** - gapirovayotgan shaxsning nutqini ko‘z orqali qabul qilish. Bolalarni eshitish qobiliyati funksiyasini ko‘rish qobiliyati bilan qoplashni amalga oshirishga o‘rgatuvchi o‘quv-korreksion fan.

**Maxsus metodika** - rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini nazarda tutuvchi ta’lim metodikasi.

**Maxsus pedagogika** - nuqsonli bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish to‘g‘risidagi fan.

**Maxsus ta’lim** - ta’lim jarayonida nuqsonli bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish va to‘ldirish. Maxsus mакtab o‘quvchilarida ommaviy mакtablarda ta’lim

oluvchilardagi kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda maxsus bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Maxsus ta'lim ehtiyojlari** - maxsus tashkil qilingan sharoitlarda bolaning ruhiy-jismoniy holati bilan bog'liq maxsus dasturlar bo'yicha o'qitish zaruriyati.

**Meynsriling** - maxsus tarbiyaga muhtoj bolalarni o'z tengdoshlari bilan turli xil, darsdan tashqari tadbirlarda o'zaro muloqoti.

**Murakkab nuqsonlar** - bir kishida mavjuq ikki yoki bir necha jismoniy yoki ruhiy kamchiliklar.

**Maxsus tarbiyaga muhtojlik** - organizmning kasallik yoki jarohat natijasida ma'lum bir kasbda to'lik yoki qisman barqaror funksional buzilishlarga, saviyaning pasayishiga olib keluvchi holati.

**Maxsus tarbiyaga muhtoj bola** - jismoniy, aqliy, sezgi (histuyg'u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari tufayli hayot faoliyati cheklangan, ijtimoiy yordam, muxofazaga muxtoj va qonun tomonidan belgilangan tartibda maxsus tarbiyaga muhtoj deb e'tirof etilgan bola.

**Maxsus tarbiyaga muhtoj va imkoniyatlari cheklangan bolalarning ijtimoiy reabilitasi!** - bolalar tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va funksiyalarni tiklash, hayotini ta'minlash muhitini yaratish, ularga g'amxo'rlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi.

**Rivojlanishdagi nuqson** - me'yoriy rivojlanishning buzilishini keltirib chiqaradigan jismoniy va ruhiy kamchilik.

**Reabilitasiya** - organizmning buzilgan funksiyalari hamda kasallar va maxsus tarbiyaga muhtojlarning ijtimoiy funksiyalari va mehnatga layoqatligini tiklash yoki o'rnini qoplashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy tadbirlar majmuasi.

**Sensor tarbiya** — sezgi, ko'rish, eshitish, his qilish va boshqa organlarning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik usullar jamlanmasi.

**Taktil reseptor** - teri yuzasiga, ba'zi shilliq pardalarga teginish va bosim o'tkazish reseptori.

**Tiflopedagog** — ko'r va yomon ko'ruvchi bolalar va o'smirlarning bilish faoliyati va buzilgan (kam rivojlangan) funksiyalaridan kelib chiqgan xolda ularning ta'lim, tarbiya, politexnik va mehnat tayyorgarligini amalgalashuvchi maxsus oliy ma'lumotli pedagog.

**Tiflopsixologiya** - maxsus psixologiyaning ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi, ta'lim va tarbiyada uni tuzatishning yo'llari va usullarini o'rganadigan bo'limi.

**Tolerantlik** — tevarak-atrofdagilarga nisbatan bag'ri keng, do'stona munosabat.

**Tushunish** - hodisalar yoki predmetlarni ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash yo'li bilan tushunib yetish jarayoni.

**Tibbiy-mehnat ekspertizasi** - kasal, jarohatlangan yoki tug'ma nuqsonli kishilarning mehnatga loyiqligini aniqlashning ijtimoiy davlat faoliyati amaliy tizimi.

**Tibbiy-pedagogik konsultatsiya** - nuqsonli bolalarni tegishli o'quv-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llash maqsadida ularni kompleks tibbiy-ruhiy-pedagogik ko'rikdan o'tkazadigan maxsus muassasa.

**O'zini intizomga bo'ysundirish** — o'z xulq-atvoridagi intizom, o'zini tuta bilish.

**Ximoya reflekslari** - organizmning tabiiy ravishda me'yoriy faoliyatini izdan chiqaruvchi ta'sir omillariga reaksiyalari.

**Eshitib-ko'rib qabul qilish** - eshitish qobiliyati ancha susaygan bolalarning nutqni lablar va eshitish yordamida qabul qilishi. Bu yerda tovushni kuchaytiruvchi asboblardan foydalanish dastavval shart.

**Etiologiya** - xastaliklar va patologik holatlar paydo bo'lishi sabablari va sharoitlari to'grisidagi fan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan). <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238

3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” 2020-yil 15-oktabr, O‘RQ-641-son. <https://lex.uz/ru/docs/5049549>

4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida” 2021-yil 7-iyun, O‘RQ 695-son. <https://lex.uz/ru/docs/5447430>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlar bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabr, PQ-4860-son. <https://lex.uz/ru/docs/5044745>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabr, PF-5270-son. <https://lex.uz/docs/3436196>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvar, PF-60- son. <https://lex.uz/docs/5841077>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlar bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020

11. Махмудходжаева Л.С., Архангельская Е.Г. «Перспективы совершенствования системы инклюзивного образования в республике Узбекистан» [https://inlibrary.uz/index.php/industry\\_4/article/view/3580](https://inlibrary.uz/index.php/industry_4/article/view/3580)

12. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013

13. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010

14. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т.В. Волосовец, А.М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

15. D.S.Qaxarov “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil

16. R.Sh. Shomaxmudova „ Maxsus va inklyuziv ta’lim xalqaro va milliy tajribalar”-o‘quv uslubiy qo‘lanma.Toshkent 2011.

17. “Alovida yordamga muhtoj bolalarни ma’naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-“Uzinkomsentr”-2002 yil.

18. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobymi nujdami v doshkohnix i shkolnyx uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTsO Resursno‘y sentr YuNESKO Tashkent 2002

19. “Dakarskiye ramki deystviy”- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovnyye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opyta) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

20. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limi. Tuzuvchi Grigoryants

21. «Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

22. Imkoniyati chyeklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish to‘g‘risida muvaqqat NIZOM. O‘RXTV T.,19 syentyabr, 2005.

23. “Maktablar hamma uchun”- “Bolalarni qutqaring jamg‘armasi” - 2002 yil.

24. “Maktablarni olqishlab-inklyuziv maktablardagi maxsus tarbiyaga muhtoj o‘quvchilar”-YuNESKO - 1999 yil.

25. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopyediya. T., 1995

26. Yuneskoning 2003 yil O‘zbekistonda 2 – 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta’lim» ga oid seminarii xujjatlari.

27. “Problemy v klyucheniya detey so spesalnymi obrazovatelnymi potrebnostyami v obsheobrazovatelnyuy prosese” Materialy respublikanskogo seminara Almaty.- Almaty «Raritet» 2002 yil.

28. Pulatova F., Oligfryenopyedagogika .G‘ofur G‘ulom, 2006
29. Roy Mark Konki ”Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish” Toshkent-YuNESKO-2004yil. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Raxmanova V.S Maxsus pyedagogika G‘ofur G‘ulom nashriyoti, Toshkent, 2004
30. R.Shomaxmudova, D.R.Tulaganova «Inklyuziya detey s osobymi otrebnostyami kak zalog uspeshnoy reabilitasi, adaptasi i sosializasi v obshchestve.» str. 207-210 statya. Xalqaro forum materiallari tuplami: —Sog‘lom turmush tarzi - barkamol avlod asosidir («Zdorovyy obraz jizni – osnova garmonichnogo razvitoj pokoleniya») 29-30 noyabrya – 2010g.
31. Ta’lim hamma uchun - Dakar Deklorasiysi-2002 yil.
32. Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
33. R. Shomaxmudova «Inklyuzivnoye obrazovaniye-Inklyuzivnomu obshchestvu » -maqola- —Uchitel Uzbekistana , 2001 yil.
34. R.Shomaxmudova, N.Gafarova. Ryadom s nami -maqola- - —Uchitel Uzbekistana , 4 iyun 2004 yil.
35. Ta’lim barchaga birdek -maqola-N.Xolmatova, —Ma’rifat , 2003 yil 15 oktyabr.
36. R. Shomaxmudova, A. Berdiyeva, —Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari uslubiy tavsiyanoma, OOO —ISHONCH MARKAZ SERVIS 2008y.
37. R. Sh. Shomaxmudova, T. V. Tolmaskaya, M. V. Saipova —KAK LEGKO UCHITSYA Obucheniye detey s ogranicennymi vozmojnostyami v inklyuzivnoy shkole, posobiye, OOO —ISHONCH MARKAZ SERVIS , 2008 y.
38. R. Shomaxmudova, D. Tulaganova, A. Berdiyeva, — Jismoniy rivojlanishida muammolari bulgan bolalar bilan inklyuziv ta’limi tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. Uslubiy qo‘llanma, —Razzoqov O. J. XT bosmaxonasi 2007 y.
39. L. R. Muminova, R. Shomaxmudova — Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion / rivojlantirish dasturining metodik asoslari uslubiy tavsiyanoma / —Razzoqov O. J. XT bosmaxonasi 2007y.
40. F.Muzaffarova, M.Pulatxujayeva «Surunkali kasal va alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarga inklyuziv ta’limda korreksion yordamni tashkil etish yo‘llari.» Toshkent-2008y. OOO «ISHONCH MARKAZ SERVIS» nashriyoti.

**MADATOV ILHOM YUSUP O‘G‘LI**

## **INKLYUZIV TA’LIM**

### **DARSLIK**

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi hamda  
barcha pedagogik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

Muharrir: O. Fozilova

Sahifalovchi-dizayner: K. Raxmatov

Tasdiqnama №212405. 25.01.2024 y.

«BEST-PUBLISH» nashriyoti

100000, Toshkent shahri, Oqtepa ko‘chasi, 49 uy.

+998 97 755 99 07; +998 94 673 99 07

email: best-publish2024@gmail.com

Bosishga ruxsat etildi: 09.24.2024 y.

Bosma tabog’i: 15,0. Adadi: 100 nusxa.

Narxi shartnoma asosida.

Qaydlar uchun